

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

**SAMARQAND VILOYATI XALQ TA’LIMI XODIMLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
HUDUDIIY MARKAZI**

IJTIMOIIY-IQTISODIIY FANLAR METODIKASI KAFEDRASI

**TARIX FANI O‘QITUVCHILARI MALAKA OSHIRISH KURSINING
TARIX FANINI O‘QITISH METODIKASI MODULI BO‘YICHA**

O‘QUV – USLUBIIY MAJMUA

Malaka toifa yo‘nalishi: Tarix fani o‘qituvchilari

Tinglovchilar kontingenti: Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, ta’lim DTS asosida olib borilayotgan imkoniyati cheklangan bolalar ixtisoslashtirilgan maktablari, maktab internatlari va imkoniyatlari cheklangan o‘quvchilarning uyida yakka tartibda ta’lim beruvchi tarix fani o‘qituvchilari

Ushbu o'quv-uslubiy majmua Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasining 2020-yil 26-fevraldagi 2-sonli yig'ilish qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar: G. Tagaev – Samarqand VXTXQTMOHM “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasida o'qituvchisi.

Taqrizchilar: B. Ergashev–SamDU, “Tarixshunoslik va manbashunoslik” kafedrasida mudiri, dotsent, t.f.d.

M. Nasrullaev–SamDU, “O'zbekiston tarixi” kafedrasida dotsenti, t.f.n.

Ushbu o'quv-uslubiy majmua Ilmiy-metodik kengash yig'ilishining 2020-yil 28-fevraldagi 2-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

I

ISHCHI DASTUR



KIRISH

Ushbu namunaviy o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta‘limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-sonli Qarori, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli farmonida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida fan o‘qituvchilari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini oshirishni nazarda tutadi.

Dastur mazmuni O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim-tarbiya sohasidagi davlat siyosati, ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning huquqiy-me‘yoriy hujjatlari, pedagogning kasbiy kompetentligi va mahorati, ta‘lim-tarbiya jarayoniga psixologik yondashuv, o‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash, amaliy xorijiy til, tarix fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar, tarix fanini o‘qitish metodikasi o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy usullarini o‘z ichiga oladi va ular bo‘yicha tegishli yangi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular xalq ta‘limi tizimi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan malaka talablari va o‘quv rejasi asosida shakllantirilgan bo‘lib, tarix fanini o‘qituvchilarini zamonaviy ta‘lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga ularning kasb mahorati va o‘quv-uslubiy faoliyatini sifatli tashkil etish kompetensiyalarini muntazam yuksaltirishni nazarda tutadi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari tarix fani o‘qituvchilarining malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo‘yiladigan

MALAKA TALABLARI

I. Umumiy talablar

Malaka oshirish sifati hamda tayyorgarligining zarur va etarli darajasi tinglovchilar bilimlari, ko'nikma va malakalarining rahbar va mutaxassis xodimlarga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiqligi bilan belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari fan o'qituvchilarini malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan malaka talablari tegishli yo'nalishlar bo'yicha o'quv rejalari va dasturlarini, shuningdek, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasalarining o'quv jarayonini, ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash tartibi hamda boshqa hujjatlarni ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

II. Umumiy o'rta ta'lim maktablari tarix fani o'qituvchilarining tayyorgarligi va kompetentligiga qo'yiladigan umumiy talablar

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti (umumiy qoidalar), shuningdek, o'qitilayotgan predmet bo'yicha o'quv dasturi talablarini bilishi;

- O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizom va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazmunini;

- xalq ta'limi tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning konseptual asoslarini, konsepsiyalarini va huquqiy-me'yoriy asoslarini;

- ta'lim sohasidagi davlat siyosati va uni amalga oshirish bo'yicha ta'lim muassasalarining vazifalarini;

- kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS, o'quv dasturlari, darslik, o'quv qo'llanmalar mazmunini;

- o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini baholashga qo'yiladigan talablarni;

- ta'lim jarayonida qo'llaniladigan pedagogik, va axborot texnologiyalarini;

- ta'lim sohasidagi innovatsion faoliyat asoslarini bilishi;

- ta'lim sohasidagi xorijiy tajribalarni o'rganishi va bilishi;

- darslarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish va o'quv-uslubiy materiallar yaratish;

- darslarda o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish va baholash metodlaridan foydalanish;

- sinf va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilish;

- darslarda buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosidan foydalanish;

- darslarda pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;

- tarix fanini oid olingan bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalariga;

- nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni pedagogik faoliyatda qo'llay olish;

- tarix fanini o'qitishga oid ta'lim metodlaridan foydalana olish;

- dars jarayoniga pedagogik va innovatsion texnologiyalarni qo'llash;

- zamonaviy talab va yondashuvlar asosida dars ishlanmalarini tayyorlash, dars kuzatish va uni tahlil qilish;

- o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma, malaka va kompetentligini nazorat qilish va baholash malakalariga;

- malaka oshirish kursida darslarni tashkil etishga oid nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llanilishini tahlil qilish hamda kasbiy faoliyatda foydalanish;

- tarix fanini tashkil etish tamoyillari va nazariy tushunchalardan amaliyotda foydalanish;

- pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va olib borish;
- umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi normativ-huquqiy va direktiv hujjatlarni ishlab chiqishi;
- o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va sifatini ta'minlash prinsiplariga amal qilishi;
- o'quv predmetlarining mazmuni va ularni o'qitishdagi izchillik asoslarini ishlab chiqish;
- o'quvchilarning umumiy va yosh psixologiyasini inobatga olishi;
- o'qitishning interaktiv metodlarini qo'llay olishi;
- o'quvchilarni milliy mustaqillik g'oyalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodologiyasi bo'yicha bilimga ega bo'lishi;
- o'quvchilar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish shakli va metodlarini qo'llay olishi;
- o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan muomalada etika va estetika normalariga amal qilishi;
- iqtidorli o'quvchilarni tanlash va turli ko'rik-tanlovlarga tayyorlash.

Kursning maqsadi va vazifalari

Tarix fani o'qituvchilari malaka oshirish kursining maqsadi –ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam yangilash, mustaqil amaliy faoliyatda qo'llash, malaka talablari asosida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- tinglovchilarga jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslarini muntazam o'rgatish;
- tarix fanini o'qitishda ilg'or ta'lim-tarbiya texnologiyalari va xorijiy tajribalarni o'rganish;
- tarix fani o'qituvchilarini texnik va kreativ fikrlash, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish;
- tarix fani o'qituvchilarining ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlanishlarini amalga oshirish;
- tarix fani o'qituvchilarini xorijiy tilni o'rganishga yo'naltirish;
- o'quv jarayonini fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish;
- malaka talablariga mos holda tarix fani o'qituvchilarining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini innovatsion yondashuvlar asosida uzluksiz rivojlantirish.

3.2 Tarix fanni o'qitish metodikasi moduli bo'yicha:

fani o'qituvchilari:

1. Mazkur kursni muvaffaqiyatli tugatgan tinglovchi quyidagilarni bilishi zarur:

- o'quv uslubiy majmualarni ishlab chiqishga quyiladigan talablarni;
- Tarix ta'lim mazmunining tarkibiy qismlarini;
- Tarix fanini o'qitishning zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qullash;
- fanni o'qitish shakllari (dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, ekskursiyalar)ni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish;
- o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini baholash va nazorat turlarini;

- dars ishlanmalarini ishlab chiqishga qo'yilgan zamonaviy talablarni;
- fanni o'qitishda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash metodlarini bilishi;

2. Quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:

-fan mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarining uzviyligi va izchilligini ta'minlash;

- fanni o'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llay olish;
- o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini baholash uchun o'quv topshiriqlarini tuzish;
- fan yuzasidan turli tipdagi testlarni echish;
- zamonaviy talablar asosida dars ishlanmasini ishlab chiqish;
- o'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalarini baholash va nazorat topshiriqlarini tuzish;

- darslarni kuzatish, tahlil qilish va baholash;

3. Quyidagi malakalarni egallagan bo'lishi shart:

- ochiq darslarni o'tkazish va ularni tahlil qilish;
- darslarda buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosidan foydalanish;
- tarix darslariga quyiladigan zamonaviy talablar asosida darslarni tashkil etish

4. Quyidagi kompetensiyalarni egallagan bo'lishi shart:

- O'z-o'zini rivojlantirish, o'z ustida ishlash kompetentligi ko'rsatkichlari:
- ilg'or pedagogik texnologiyalardan kasbiy faoliyatda foydalanish;
- zamonaviy talablar darajasida darslarni tashkil qilish va o'tkazish.

Mas'uliyat va moslashuvchanlik kompetensiyasi

- turli xil yangi vazifalar va mas'uliyatlarni qabul qila olish;
- o'ziga, jamoada va hamjamiyat miqyosida mas'uliyatli bo'lish;
- o'ziga va ta'lim muassasa xodimlariga nisbatan yuqori marra va standartlarni belgilash va ularga erishish;
- o'quvchilarning muvaffaqiyatli o'zlashtirishini nazorat qilish mas'uliyatini o'z zimmasiga olish.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

3.2. Tarix fanini o'qitish metodikasi

№	Modul mavzulari	Hammasi	Jami o'quv yuklamasi	Jumladan			Mustaqil ta'lim
				Nazariy	Amaliy	Ko'chma mashg'ulot	
1	Tarix o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlarida tarix fanini o'qitishning konseptual masalalari.	4	4	2	2		
2	Tarix fanini o'qitishning tashkiliy shakllari va unga qo'yiladigan zamonaviy talablar.	4	4		4		

3	Tarix darsliklari, yangi adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, tavsiyalar tahlili va ularga qo'yiladigan talablar.	4	4		4		
4	Tarix o'qitishning metodlari va ularning klassifikatsiyasi.	8	6	2	4		2
5	Tarix darslarida tarixiy manbalardan, xaritalar va illyustratsiyalardan foydalanish.	4	4		4		
7	Jahon madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan O'rta Osiyo mutafakkirlarining ma'naviy-ma'rifiy me'rosidan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish.	2	2		2		
8	Tarix ta'limida pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish	8	6	2	4		2
9	O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi masalalari	2	2		2		
10	Tarix fanidan iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash va ularni turli ko'rik-tanlovlarga tayyorlash	2	2		2		
11	Tarix fanidan sinf va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish va ularning turlari.	4	4		4		
12	O'quvchilarda tarix fanidan kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari	2	2		2		
13	Dunyo dinlari tarixini o'qitishning xuquqiy-me'yoriy va uslubiy yo'llari.	4	4		4		
14	Dinning tarixiy shakllari va mohiyati. Milliy va jahon dinlari tarixi mavzularini o'qitish yo'llari.	2	2		2		
15	Tarix darslarini kuzatish va ularni tahlil qilish mezonlari	4	4			4	
16	Ekskursiya darslarining turlari. Tarixni o'qitishda muzey (tarixiy obida, korxonalar va h.q.)larning ahamiyati va ularga ekskursiya tashkil etishning uslubiy bosqichlari	2	2			2	
	Jami	56	52	6	40	6	4

NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Tarix o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlarida tarix fanini o'qitishning konseptual masalalari. (2 soat ma'ruza, 2 soat amaliy mashg'ulot)

Tarix o'qitish metodikasining predmeti va uning vazifalari. Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi aloqalar. Tarix o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

«Tarix o'qitish metodikasi» fanining tarixi va rivojlanish bosqichlari. Tarix darsining turlari va ularni rejalashtirish haqida, tarix darslari sifat va samaradorligini oshirish haqida ma'lumotlar. Tarix o'qitish metodikasi fanini o'rganish sohasidagi mamlakatimizdagi ijtimoiy-iktisodiy islohotlar natijalari. Tarix o'qitishning mazmuni va vazifasi to'g'risida tinglovchilarga tushunchalar xosil kilishdan iboratdir.

2-mavzu: Tarix fanini o'qitishning tashkiliy shakllari va unga qo'yiladigan zamonaviy talablar. (4 soat amaliy mashg'ulot)

Dars - o'quv va tarbiyaviy ishning asosiy tashkiliy shakli. Dars turlari. An'anaviy va noan'anaviy darslar. Tarix darslari mavzularining uzviyligi va didaktik jihozlanishi. Dars rejasi va uning tarkibiy qismlari. Ta'lim va tarbiya jarayonining shakllari. Zamonaviy tarix darsi, unga qo'yiladigan talablar.

Darsning har bir bosqichi mazmunidagi asosiy o'rinli joylarni ajratib olish. Darsning har bir qismi uchun o'qitish metodlarini, vositalarini, texnologiyalarini tanlash. Darsni har bir qismi uchun o'qitishning etakchi; umumsinfiy, kichik guruh va individual shaklini tanlab olish.

3-mavzu: Tarix darsliklari, yangi adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, tavsiyalar tahlili va ularga qo'yiladigan talablar. (4 soat amaliy mashg'ulot)

Tarix darsliklari va ularga qo'yiladigan zamonaviy talablar. Tarix fanidan yaratilgan darsliklar, ularning tuzilishi, mazmuni va tahlili. Tarix darsligi bilim manbai va ta'lim vositasi sifatida. Tarix darsligining asosiy tarkibiy qismlari: mavzuga oid matn (asosiy, qo'shimcha, izohlovchi), qo'shimcha komponentlar (illyustrativ, metodik, asosiy shartli belgilar) hisoblanadi. O'quvchilarning darslik matni va illyustratsiyalar bilan ishlash usullari.

Tarix darsligining vazifalari: ta'lim vositasi asosi muvofiqlashtirish, axborot manbai, fan bo'yicha bilimlar tizimi, o'quvchilar bilim va malakalarini integratsiyalash, majburiy o'quv materialini yig'indilari, nazorat vazifasi, tarixni mustaqil o'rganish vositasi, o'z-o'ziga ta'lim vazifasi, shaxs shakllanishiga ta'sir vositasi, tarbiyalovchilik vazifasi.

4-mavzu: Tarix o'qitishning metodlari va ularning klassifikatsiyasi. (2 soat ma'ruza, 4 soat amaliy mashg'ulot)

Ta'lim metodlari va usullari. Tarix darslarida qo'llaniladigan metodlarining uyg'unligi. Tarix o'qitish metodlari klassifikatsiyasi: og'zaki bayon, hikoya, monolog, dialog, suhbat, syujetli hikoya, analitik syujet, tarixiy manbalar bilan ishlash, tarixiy adabiyotlar, tarixiy hujjatlar. Ko'rgazmali metodlar: shartli-grafik illyustratsiyativ ko'rgazmalilik, surat tahlili, rasm ishlash, tarixiy xaritalar bilan ishlash, kontur xarita to'ldirish. Amaliy metod.

5-mavzu: Tarix darslarida tarixiy manbalardan, xaritalar va illyustratsiyalardan foydalanish. (4 soat amaliy mashg'ulot)

Adabiyotlar tasnifi. Dars jarayonida tarixiy manbalardan foydalanish. Tarix darslarida badiiy va boshqa adabiyotlardan foydalanish talablari.

O'quv tarbiya jarayonida tarixiy manbalar, xujjatlar va qo'shimcha adabiyotlar bilish ishlashning ahamiyati. Tarixiy manbalar turlari va ulardan tarix darslarida foydalanish bo'yicha tavsiyalar. O'quvchilarni tarixiy manbalar va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini xosil qilish yo'llari. Tarix o'qitishda etnografik va arxeologik manbalarning roli.

6-mavzu: Jahon madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan O'rta Osiyo mutafakkirlarining ma'naviy-ma'rifiy me'rosidan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish. (2 soat amaliy mashg'ulot).

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining jaxon madaniyatidagi o'rni. Avesto, Qobusnoma asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Zamaxshariy, Beruniy, Forobiy, Farg'oniyning ilmiy merosi xaqida. Markaziy Osiyoda uyg'onish davri (XIV -XVI asrlar) madaniy merosi.

Barkamol avlodni tarbiyalashda Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ma'naviy merosidan foydalanish.

7-mavzu: Tarix ta'limida pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish. (2 soat ma'ruza, 4 soat amaliy mashg'ulot)

Tarix o'qitish metodikasi va pedagogik texnologiya tushunchasi. Tarix ta'limida hamkorlikda o'qish, keys-stadi, loyiha texnologiyalari.

Guruhlarni shakllantirish tamoyillari. Guruhlarda hamkorlikda o'qitish faoliyatini tashkil etish texnologiyasining mazmun mohiyati.

O'zbekiston va jahon tarixi darslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha didaktik materiallar tayyorlash.

Keys texnologiyasining mazmun mohiyati. Keyslarning turlari. Tarix faniga oid keyslarni ishlab chiqish.

Loyiha texnologiyasi haqida tushuncha. Loyihaviy ta'limdan foydalanishning ijtimoiy-pedagogik shartlari.

8-mavzu: O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi masalalari. (2 soat amaliy mashg'ulot)

O'zbek xalqining etnik tarixi va etnogenezi masalalari. O'rta Osiyoda yashagan qadimgi xalqlarning kelib chiqishi va tarqalishi. Etnogenezga doir moddiy va yozma manbalar masalalari. XI-XII asrlarda o'zbek xalqining shakllanishi va keyingi davrlardagi etnik komponentlarning kirib kelishi va tarqalishi.

9-mavzu: Tarix fanidan iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash va ularni turli ko'rik-tanlovlarga tayyorlash. (2 soat amaliy mashg'ulot)

Fan olimpiadalarini o'tkazilishini ahamiyati va me'yoriy asoslari. Olimpiadada berilgan topshiriqlarni baholash mezonlari. Iqtidorli o'quvchilarni aniklash, saralash, va ularni tarix predmetidan o'tkaziladigan olimpiada va tanlovlarga tayyorlash tajribasidan.

10-mavzu: Tarix fanidan sinf va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish va ularning turlari. (4 soat amaliy mashg'ulot)

Sinf va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlarning ahamiyati, ularning tarix ta'limi bilan uzviy bog'liqligi. Sinfdan tashqari ishlarning o'quvchilarni tarixga qiziqtirish, ularning ma'naviy rivojlanishi, bilish qobiliyatini rivojlantirishdagi roli. Tarix to'garaklari, uchrashuvlar, konferensiyalar tarixiy kechalar tashkil qilish. Tarixiy badiiy, tarixiy hujjatli filmlar namoyishi va tahlili. O'lkashunoslik muzeylari va tarixiy obidalar, zamonaviy arxitektura inshootlariga ekskursiyalar uyushtirish.

11-mavzu: O'quvchilarda tarix fanidan kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. (2 soat amaliy mashg'ulot)

Umumiy o'rta va o'rta ta'limi muassasalarida tarix fanini o'qitishning asosiy maqsadi. O'quvchilarda tarixiy ong va tarixiy tafakkurni shakllantirish, dunyo xalqlari hamda ko'p millatli xalqimizning tarixi va bugungi kuniga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini tarbiyalash, o'quvchilarga davlatchiligimiz tarixi jahon sivilizasiyasining ajralmas qismi ekanligini anglatish, o'quvchilarda tayanch va tarix faniga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir.

12-mavzu: Dunyo dinlari tarixini o'qitishning xuquqiy-me'yoriy va uslubiy yo'llari. (4 soat amaliy mashg'ulot)

Dunyo dinlari tarixini o'qitish masalarining dolzarbligi, huquqiy me'yoriy hujjatlari. O'zbekistonda vijdon erkinligining e'lon qilinishi va diniy bag'rikenglik (tolerantlik). O'zbekiston Prezidenti SH.Mirziyoyev tomonidan vijdon erkinligi va diniy ilmlarni rivojlantirishga doir konseptual g'oyalari.

Tarix va "Dunyo dinlari tarixi" fanlarida islom dini tarixini o'qitishning nazariy-metodologik asoslari. "Dunyo dinlari tarixi" fanida milliy va jahon dinlari tarixini hamda O'zbekistonda mavjud diniy konfessiyalar tarixini o'qitish va ushbu jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

O'quvchilar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etib borishda diniy idoralar bilan hamkorlikdagi ishlarni jonlantirish. Diniy ekstrimizm, diniy aqidaparastlik va turli zararli g'oyalarni oldini olish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar.

13-mavzu: Dinning tarixiy shakllari va mohiyati. Milliy va jahon dinlari tarixi mavzularini o'qitish yo'llari. (2 soat amaliy mashg'ulot)

Dinning vujudga kelishiga doir konsensiyalar. Milliy dinlarning shakllanishi o'ziga xos tomonlari. Jahon dinlarining vujudga kelishi va rivojlanish tarixi. Jahon dinlarining tarqalishi va klassifikatsiyalash tartibi. Buddizm, Xristian va Islom dinda insonparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalarining aks etishi. Jahon ilm-ma'rifat rivojlanishida dunyo dinlarining o'rni.

Dinning paydo bo'lishi haqidagi yondashuvlar. Dinni antropologik o'rganish. Dinni tadqiq etishda fenomenologik yondashuvlar. Ibtidoiy dinlarni zamonaviy qabilalar hayoti asosida o'rganish. Urug'-qabila dinlarini o'rganishda arxeologik manbalarning ahamiyati. Jahon dinlarining qadimiy va hozirgi kundagi jihatlari orasidagi farqlar.

12-mavzu: Tarix darslarini kuzatish va ularni tahlil qilish mezonlari. (4 soat ko'chma mashg'ulot).

Ko'chma mashg'ulot umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ochiq darslarni kuzatish va tahlil qilish, ilg'or pedagogik tajribalarga ega o'qituvchilar bilan hamkorlik ishlash maqsadida o'tkaziladi. Bu jarayonga umumiy o'rta ta'lim muassasasida ilg'or pedagogik tajribasiga ega tarix fan o'qituvchisi yoki tuman tarix fanni metodist o'qituvchisi jalb etiladi. Unda o'tkazilgan darsni tegishli mezonlar asosida tahlil qilish orqali o'qituvchilarning ilg'or pedagogik tajribalarini o'rganishadi va ko'nikmalar shakllanadi. Tinglovchilar darsni tahlildan so'ng ilg'or pedagogik tajribalar namunalari va amaliy metodik yordam ko'rsatish ham ko'zda tutiladi. Ko'chma mashg'ulotning ikkinchi qismida tarix fanidan ilg'or pedagogik tajribasini o'rganish va targ'ib qilish maqsadida seminar-trening tashkil etiladi.

13-mavzu: Ekskursiya darslarining turlari. Tarixni o'qitishda muzey (tarixiy obida, korxonalar va h.q.)larning ahamiyati va ularga ekskursiya tashkil etishning uslubiy bosqichlari. (2 soat ko'chma mashg'ulot).

Ekskursiya darslarining turlari. Ekskursiya darslarining tarix fanini o'rganishdagi ahamiyati. Muzey (tarixiy obida, korxonalar va h.q.)larga ekskursiyalar tashkil qilish uslubiy bosqichlari. Ekskursiya natijalarini sarhisob qilish.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur fan bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (amaliy metodlar bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (topshiriqlar echimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar echimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

BAHOLASH MEZONI

№	Baholash topshirig'i mazmuni	Maksimal ball	Ballar
1	Malaka ishi mavzusiga oid dars ishlanmasi loyihasini tayyorlash	4	2 ball
2	Ko'chma mashg'ulotda o'tkazilgan ochiq darsni kuzatish va tahlil qilish varag'i to'ldiriladi va malaka ishiga ilova qilinadi		2 ball

II

MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI



“DAVRA SUHBATI” METODI – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o’z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o’qitish metodidir.

«Davra suhbati» metodi qo’llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan «ko’z aloqasi»ni o’rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og’zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og’zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo’yicha o’z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so’raydi va aylana bo’ylab har bir ta’lim oluvchi o’z fikr-mulohazalarini og’zaki bayon etadilar. So’zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo’lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo’lingandan so’ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Quyida «Davra suhbati» metodining tuzilmasi keltirilgan Davra stolining tuzilmasizma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog’ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo’yicha o’z savolini beradi va «Javob varaqasi»ning biriga o’z javobini yozib, konvert ichiga solib qo’yadi. SHundan so’ng konvertni soat yo’nalishi bo’yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o’z javobini «Javoblar varaqasi»ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo’yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo’ylab harakatlanadi. YAkuniy qismda barcha konvertlar yig’ib olinib, tahlil qilinadi.

“Davra suhbati” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg’ulot mavzusi e’lon qilinadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni mashg’ulotni o’tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta’lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta’lim oluvchi bo’lsa, shunchadan «Javoblar varaqalari»ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo’yiladi.
Ta’lim oluvchi konvertga va «Javoblar varaqalari»ga o’z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta’lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo’yicha o’z savolini yozadi va «Javoblar varaqasi»ga o’z javobini yozib, konvert ichiga solib qo’yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta’lim oluvchi konvertni soat yo’nalishi bo’yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta’lim oluvchi konvert ustidagi savolga «Javoblar varaqalari»dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo’yadi hamda yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli bo’ylab aylanib, yana savol yozgan ta’lim oluvchining o’ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta’lim oluvchi konvertdagi «Javoblar varaqalari»ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yig’ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta’lim oluvchilar berilgan mavzu bo’yicha o’zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu bo’yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o’zlari bergan avollariga guruhdagi boshqa ta’lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchilarni ob’ektiv baholashi mumkin.

“BAHS-MUNOZARA” METODI - biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta’lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.


«Bahs-munozara» metodini o‘tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- «o‘ng qo‘l» qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;

- fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o‘zaro hurmat.

Quyida «Bahs-munozara» metodini o‘tkazish tuzilmasi berilgan.

Bahs-munozara” metodining tuzilmas



Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.

2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.

3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.


4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

5. Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul echimi tanlanadi.

“MUAMMOLI VAZIYAT” METODI - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

«Muammoli vaziyat» metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning echimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan

ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo‘llanilganda ta‘lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o‘rganadilar. Quyida «**Muammoli vaziyat**» metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta‘lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

2. Ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar.

Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni echishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni echish yo‘llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning echimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil echimlar jamlanadi. Guruh ta‘lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni echish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

Методни амалга ошириш тартиби:



Педагог-тренинг иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади;



тренингни мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гуруҳга умумий муаммони таҳлил қилиниш шарт бўлган қисмлари кўрсатилган тарқатма материаллар тарқатилади:



ҳар бир гуруҳ ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қилади:



навбатдаги босқичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, педагог-тренинг томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборот билан тўлдирилади мазкур яқинланади.

Namuna:

Tahlil turlarining qisqis tahlili					
Tizimli tahlil		Syujetli tahlil		Vaziyatli tahlil	
Afzalligi	Kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	Afzalligi	kamchiligi
Muammoni kelib chiqish sababli va kechish jarayonini aloqadorligi jihatidan o'rganish imkoniyati ga ega	Alohi da tayyorgarlikka ega bo'lishni, kuz vaqt ajratishni talab etadi	O'z vaqtida muosabat bildirish imkoniyati ni beradi	Munosabat boshqabir syujetga nisbatan qo'llanisho'ga yaroqsiz	Vaziyat ishtirokchilarining (ob'ekt va sub'ekt) vazifalarini belgilab olish imkonini beradi	Dinamik xususiyatni belgilab olish uchun qo'llab bo'lmaydi
<p>Xulosa: Tahlilning barcha turlari ham o'zining afzalligi va kamchiligi bilan bir biridan farqlanadi. Lekin, ular qatoridan pedagogik faoliyat doirasida qaror qabul qilish uchun tizimli tahlildan foydalanish joriy kamchiliklarni bartaraf etishga, mavjud resurslardan maqsadli foydalanishda afzalliklarga egaligi bilan ajralib turadi.</p>					

III

NAZARIY MA'LUMOTLAR

1-mavzu: Tarix o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari (2 soat ma'ruza)

Reja:

1. Tarix o'qitish usullari fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi aloqalar
2. Tarix o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Tayanch iboralar: metodika, tarix o'qitish metodikasining ilmiy tahlil usullari, tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari, kuzatish metodi, tajriba metodi

1. Tarix o'qitish usullari fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

Tarix o'qitish usullari ilmiy pedagogik fan bo'lib, u o'quvchilar ongi va qalbiga milliy istiqlol mafkurasini singdirish ularga o'tmish tariximiz umumbashariy kadriyatlarimiz avlod-ajdodlarimiz xakida puxta bilim berish, mustaqil Vatanga sadoqat ruhida tayyorlash, tarbiyalash va kamol toptirishni ko'zda tutadi.

Jamiyat va uning ijtimoiy taraqqiyoti tarix fani asosini tashkil etib, shu fanning ob'ektidir. Tarix fanining predmeti esa o'tmishda ro'y bergan voqea-xodisalar bo'lib, ular o'zining betakrorligi bilan alohida xususiyatga ega. Tarixiy voqea- xodisalarni ilmiy, xolis o'rganishning aniq yulini O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov 1998 yil 26 iyunda mamlakatimiz tarixchi olimlari, shoir va jurnalistlar bilan bo'lgan uchrashuvda ko'rsatib berdi.

«Tarix o'qitish metodikasi» kursining maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o'qitishning mazmuniga, uning g'oyaviy-mafkuraviy va nazariy jihatdan pishiq bulishiga bog'liq.

«Tarix o'qitish metodikasi» fanining maqsadini belgilashda, avvalo ta'lim va tarbiyaning uzviy birligini, o'qitish davomida o'quvchlarning g'oyaviy-mafkuraviy saviyasi mutassil o'sib borishini, ularda ko'nikma va malakalar xosil bo'lishini xamda ijodiy faoliyatiga tayyorlanishlarini nazarda tutish kerak. Ta'limdan kuzatiladigan maqsadlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ularni ilmiy asosda belgilanmog'i lozim.

Tarix o'qitish metodikasi o'zining mustaqil tekshirish predmetiga ega. Maktabda tarix fanining o'qitilishi va o'qitish jarayonining o'rganilishi tarix o'qitish metodikasining predmetini tashkil etadi. O'qitish jarayonining ob'ektiv suratda amal qiladigan o'z qonuniyatlari bor. Ularni bilib olish va ta'lim-tarbiya jarayonida bu qonuniyatlarga amal qilish, ulardan oqilona foydalanish maktabda tarix o'qitishning ilmiy asosda olib borishning muxim shartidir. Mustaqil jamiyatimizning xozirgi bosqichida tarix o'qitishni yanada takomillashtirib borish, o'qitish jarayonini, uning ob'ektiv ravishda amal qiluvchi qonuniyatlarini aniq va mukammal bilib olish, bu qonuniyatlardan mustaqil Vatanimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni yangiliklarni tez qabul qilishi undan, istiqlol yaratgan keng imkoniyatlarda foydalanib, faoliyatimizning hamma soxalarida yuksak natijalarga erishish zarur.

Tarix o'quv fanini o'qitishning maqsad va vazifalari

Umumiy o'rta va o'rta ta'limi muassasalarida tarix fanini o'qitishning asosiy maqsadi:

O'quvchilarda tarixiy ong va tarixiy tafakkurni shakllantirish, dunyo xalqlari hamda ko'p millatli xalqimizning tarixi va bugungi kuniga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini tarbiyalash;

o'quvchilarga davlatchiligimiz tarixi jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi ekanligini anglatish;

o'quvchilarda tayanch va tarix faniga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir.

Umumiy o'rta va o'rta ta'limi muassasalarida tarix fanini o'qitishning vazifalari:

O'quvchilarga davlatchiligimiz tarixi jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi ekanligini anglatish;

ajdodlarimizning ma'naviy merosi va jasoratlaridan ibrat olishga, ularga munosib voris bo'lishga o'rgatish;

o'quvchilarni tarixiy voqealarni idrok etishga yo'naltirish orqali ularning o'zligini anglash, shaxs sifatida kamol topishiga yordam beradigan tushunchalar, milliy, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat.

Metodika - pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanni o'qitish qonuniyatlarini tadqiq kiladi. Fanni o'qitish metodikasi – ta'lim tizimida ushbu o'quv fanining ahamiyati va o'rnini belgilaydi, uning vazifalari, o'qitish mazmuni va hajmini aniqlaydi, ushbu fan bo'yicha qo'llanilayotgan usul, shakl va vositalarini o'z ichiga oladi.

Tarix o'qitish metodikasi ilmiy pedagogik fan bo'lib, o'qitish jarayonining samaradorligi va sifatini oshirishga yo'naltirilib, u o'quvchilarga tarixdan puxta bilim berish, ularni milliy g'oya ruhida tarbiyalash va kamol toptirishda tarix kursining maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalari, mazmuni, metod va usullarini hamda tarix o'qitishning eng muhim vositalarini belgilab beradi. Tarix o'qitish metodikasining asosiy fan sifatida o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad, tarix o'qitishning ilmiy asoslari bilan qurollantirishdan iborat.

Tarix o'qitish metodikasi – tarix ta'lim tizimida ushbu o'quv fanining ahamiyati va o'rnini belgilaydi, uning vazifalari, o'qitish mazmuni va hajmini aniqlaydi, ushbu fan bo'yicha qo'llanilayotgan usul, shakl va vositalarini o'z ichiga oladi.

Tarix o'qitish metodikasi o'rganadigan muammolar G.Fuzailova tomonidan muvaffaqiyatli yoritilgan. Mavzuning mazmun va mohiyatini yorituvchi aksariyat mavzularga jadval, sxemalarni kiritgan

Tarix o'qitish metodikasi o'zining mustaqil tekshirish predmetiga ega. Ta'lim tizimida tarix fanining o'qitilishi va o'qitish jarayonining o'rganilishi tarix o'qitish metodikasining predmetini tashkil etadi. O'qitish jarayonining ob'ektiv suratda amal qiladigan o'z qonuniyatlari bor. Ularni bilib olish va ta'lim-tarbiya jarayonida bu qonuniyatlarga amal qilish, ulardan oqilona foydalanish ta'lim tizimida tarix o'qitishni ilmiy asosda olib borishning muhim shartidir.

Tarix o'qitish metodikasi tadqiq etadigan, o'quvchilarning puxta va mukammal bilim olishi va amalda suyanishi kerak bo'lgan tarix o'qitishning umumiy qonuniyatlari nimalardan iborat va ular ta'lim jarayonida qanday namoyon bo'lishini o'rganadi.

1.2. Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi aloqalar

Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari (maqsadi, mazmuni, o'qitishning metod va usullari, natijalari) o'rtasidagi qonuniyatli aloqalar quyidagicha namoyon bo'ladi: ta'lim tizimi maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o'qitishning mazmuniga, g'oyaviy-siyosiy va nazariy jihatdan pishiq bo'lishiga bog'liq bo'lganidek, o'quvchilarning tarix kursini o'zlashtirish darajasi ham o'z navbatida o'qitishning o'rganiladigan mavzuning maqsadi, ta'lim-tarbiya vazifalari, mazmuniga mos keladigan ta'lim shakllari, o'qitish metod va usullari hamda vositalaridan qay darajada maqsadga muvofiq foydalana bilishiga bog'liqdir.

SHuningdek, o'qitishni natijalari o'qituvchining o'qitishdan ko'zlagan maqsadi, uning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini aniq belgilay olishiga, kursning mazmuniga mos tarzda amalga oshirishga yordam bera oladigan metod va usullardan ilmiy asosda foydalana bilishiga bog'liqdir. Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari o'rtasidagi bu o'zaro dialektik bog'lanish natijasida ular bir-biriga uzluksiz ta'sir ko'rsatib boradi. Tarix o'qitishda ana shu qonuniyatlarga suyanmasdan, ularni e'tiborga olmasdan turib yaxshi natijaga erishib bo'lmaydi.

Tarix o'qitish deganda, tarixiy material vositasida o'quvchilarga bilim berish, ularni milliy g'oya ruhida tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish zarur bo'lgan jarayon, o'qituvchi va o'quvchilarning aqliy (ichki) hamda o'quv harakatlari (tashqi) jarayoni tushuniladi.

Tarix kursining mazmuni deganda, tarix dasturida belgilab berilgan tarixiy bilimlar ko'lami, o'quv materiali, uning mazmuni, o'quvchilarning tarixiy materiallarni o'zlashtirishi natijasida olgan bilimlaridan foydalana bilish sohasidagi o'quv usullari, ko'nikma va malakalari tizimi, shu jumladan, ularni ilmiy tadqiq qilish ishlarining shakllarini egallashni ko'zda tutadi.

Tarix o'qitishni tashkil qilish deganda, tarixni o'qitish va o'quvchilarni uni o'rganishni tashkil etish, ularning o'rganish faoliyatini o'qituvchi tomonidan boshqarilishiga yordam beradigan metod va metodik usullar, o'quvchilardagi mavjud bilimlari ishga solish, ularni ijodiy bilishga

yo'naltiradigan topshiriqlar tizimini hamda ta'limning turli xil ko'rinishlari (dars, seminar mashg'ulotlari va boshqalar) tushuniladi.

O'qitishning natijalari deganda, tarix o'qitishning maqsad va vazifalarini, mazmunini muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilishi - o'quvchilarning tarix fani asoslarini, tarixiy materialga mos samarali metod va usullarni bilishlari va bilimlardan foydalana olish malakalarini puxta o'zlashtirishlari, shu asosda o'quvchilarning tarixiy tafakkurini, tasavvuri va nutqini, maxsus va umumiy qobiliyatlarini o'stirish ko'zda tutiladi.

SHunday qilib, ta'lim tizimida tarix ta'limi jarayonining yuqoridagi umumiy qonuniyatlari quyidagi ob'ektiv va qat'iy takrorlanadigan aloqalarda namoyon bo'ladi: o'qitishning maqsadi uning mazmuni bilan belgilanadi; maqsad va mazmuniga mos keladigan o'qitish metodi va usullari tanlanadi; o'qitishning samarasi esa o'qitishda erishilgan ijobiy natijalar bilan tekshiriladi, ya'ni tarixiy bilimlarning sifati, o'quvchilarning kamol topish darajasi bilan o'lchanadi.

Ta'limni muayyan pedagogik maqsadga yo'naltirmoq uchun o'qituvchi ta'lim tizimida tarix o'qitishning maqsadini, uning asosini tashkil qilgan ta'lim-tarbiya vazifalarini aniq belgilab olishi kerak. Biroq, tarix o'qitish oldida turgan umumiy maqsad bilan ta'lim-tarbiya vazifalarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi. SHu bilan birga, umumiy vazifalarni amalga oshirishda har bir sinfda o'qitiladigan tarix kursining o'rni, vazifalari, o'z navbatida mazkur kursni o'qitishning ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishda uning har bir bo'limi, bo'limdagi mavzular, xatto har bir darsda o'tiladigan mavzuning ham juz'iy vazifalari oldindan belgilab olinishi kerak. CHunki, har bir tarix darsining butun tarix kursining umumiy darslar tizimida tutgan o'rni bor, bu darsda tarix o'qitish oldiga qo'yilgan umumiy vazifaning qandaydir elementi yoki bo'lagi xal etiladi.

Tarix o'qitish maqsadlarini belgilashda, avvalo ta'lim va tarbiyaning uzviy birligini, o'qitish davomida o'quvchilarning g'oyaviy-siyosiy saviyasi muttasil o'sib borishini, ularda ko'nikma va malakalar hosil qilishni hamda ijodiy faoliyatga tayyorlanishlarini nazarda tutmoq kerak. Ta'limdan kuzatilgan maqsadlarning muvaffaqiyatli ravishda amalga oshmog'i uchun, ular ilmiy asosda belgilanligi lozim. Bu maqsadlar tarix ta'limining mazmuni va vazifalari bilan belgilanadi. SHuningdek, bunda ta'limning boshqa shart-sharoitlari: o'quvchilarning saviyasi, bilimi, ko'nikma va malakalari; dars uchun ajratilgan vaqt, darsni o'tish imkoniyatlari va boshqalar ham nazarda tutiladi. Ta'lim maqsadlarining ilmiy asosda belgilanishi ularning realligini ta'minlaydi. Ta'limdan ko'zlangan maqsadlarni o'qituvchi qanchalik chuqur anglab olgan bo'lsa, tarix o'qitish mazmunan shunchalik g'oyaviy va tarbiyaviy natija beradi. Binobarin, tarix DTS asosida o'quvchilarga o'rgatiladigan tarix ta'limidan ko'zda tutilgan maqsad, ta'lim-tarbiyaviy vazifalar oldindan aniq belgilanishi o'quvchilar bilimining rivojlanib, chuqurlashib borishiga, voqealarning mohiyatini puxta tushunib olishlariga yordam beradi, zarur ko'nikma va malakalarni yuzaga keltiradi, o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini o'stiradi.

Tarix o'qitishning samarali bo'lishida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish muhim rol o'ynaydi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilish faoliyatining faol bo'lishligi juda ko'p omillarga, avvalo, mashg'ulot mazmunining g'oyaviy va ilmiy-nazariy jihatdan yuqori saviyada bo'lishiga, o'qituvchining eng muhim jonli va ishonarli tarzda ochib bera olishiga va bu voqealarni chuqurroq o'rganib olishning muhimligini o'quvchilarning tushunib olishi hamda ularda o'rganishga ishtiyoq uyg'otishga bog'liqdir. Bu o'rinda o'qituvchining o'quvchilarni mashg'ulot mazmunini o'zlashtirib borishi ustidan qilgan nazorati, o'quvchilar o'rganishini boshqara bilishi, shuningdek, ularning yangi bilimlarini o'zlashtirish uchun o'zlaridagi mavjud bilim va malakalardan foydalana bilishi, ya'ni o'zlashtirilgan bilim va egallangan malakalarini aktuallashtirilishi ham muhim ahamiyatga egadir.

Tarix fani mazmunan juda boy va xilma-xildir. Tarix fanini o'qitishva o'quvchilarning o'rganish faoliyati orqali ularning ongiga, tarbiyasi va tafakkuriga ta'sir ko'rsatadi, ularning kamol topishiga yordam beradi. Demak, mashg'ulotning mazmuni ta'lim tizimida tarix o'qitishning sifati va

samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishning ham asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. SHuning uchun, o'qituvchi bilish faoliyatini faollashtirishga ijobiy ta'sir etuvchi va umuman o'qitishning samaradorligini ta'minlovchi metodik usul va vositalarni tanlashda ham o'rganilayotgan tarixiy materialning mazmunini nazarda tutmog'i lozim.

Tarix o'qitish metodikasi jarayonining tarkibiy qismlari o'rtasidagi qat'iy takrorlanadigan o'zaro aloqa va bog'lanishlarda namoyon bo'ladigan qonuniyatlarni ochib beradi va tarix o'qitish jarayonini takomillashtirishda ulardan foydalanish yo'l-yo'riqlarini ham ko'rsatib beradi. Demak, tarix o'qitish metodikasi o'qituvchilarni ta'lim tizimida tarix o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari bilan qurollantiradi. SHuningdek, metodika ularni tarix o'qitish jarayonini o'rganishning tekshirish metodlari bilan ham qurollantiradi.

Tarix o'qitish jarayoni ikki yo'l bilan o'rganiladi.

Birinchisi - **kuzatish metodidir**. Bu metoddan foydalanganda, turli xildagi o'quv-metodik adabiyotlar, o'quvchilarning yozma ishlari, ma'ruzalari, ularning javoblari, o'qitishga berilgan baho va xulosalar bilan tanishib chiqiladi, darslar kuzatiladi, o'quvchilarning bilimi va malakalari o'rganiladi. SHunday qilib, kuzatish metodidan foydalanganda, tadqiqotchi tarix o'qitishning mavjud tajribasi doirasidan chetga chiqmaydi, uni tabiiy ravishda kuzatadi va o'rganadi.

Ikkinchisi - **tajriba metodi**. O'qituvchi o'qitish jarayonini o'zi xohlaganicha uyushtiradi. Xullas, ijodiy ish qiladi va uning bu ishi ilmiy tajribaga o'xshab ketadi. Biroq, o'qituvchi qilgan ijodiy izlanishlarning ilmiy tajribadan farqi, avvalo shundaki o'qituvchi darsda amaliy vazifani hal qiladi, uning xulosalari esa o'z faoliyatining natijasi bo'ladi. Ilmiy tajribada ko'pchilik o'qituvchilarning ishi uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlar tadqiq etiladi, chiqarilgan xulosalar ilmiy asosda rasmiylashtiriladi. SHuning uchun ham, tarix o'qitish jarayonini tadqiq etishdagi kuzatish metodini eksperimental tadqiqotdan farq qila bilish kerak.

1.3. Tarix o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Tarix o'qituvchisi predmetlararo ichki bog'lanishda birinchi navbatta uzviylikni ta'minlashi lozim. Predmet mavzulari o'zaro uzviy bog'lanib, oddiydan murakkabga, osondan qiyinga qarab borish tamoyili asosida yangi mavzuni oldin o'tilgan mavzular bilan bog'lab olib borishdir. Bu tadbirlar fanlararo bog'lanishning ma'lum bo'lgan uch turi, ya'ni yangi mavzuni o'tishdan oldin, yangi mavzuni o'rganish jarayonida va yangi mavzuni o'tib bo'lgandan so'ng bog'lash usullaridan foydalanib amalga oshiriladi.

Tarix ta'limidagi tashqi bog'lanish esa uning boshqa turdosh va turdosh bo'lmagan sohalar va fanlar bilan bo'lgan o'zaro bog'lanishni bildiradi. Bu borada tarix fani adabiyot, ona tili, geografiya, vatan tuyg'usi, milliy istiqloq g'oyasi va manaviyat asoslari, davlat va huquq asoslari, informatika, fizika, matematika, kimyo, biologiya, iqtisodiy bilim asoslari fanlari bilan o'zaro bog'lanadi va mavjud bilimlar umumlashgan holda tasniflanadi.

Quyida tarix darslarida boshqa fanlarga oid tushuncha va ma'lumotlardan foydalanish bo'yicha tabaqalanishni tavsiya etamiz.

Ichki bog'lanish
(O'zbekiston va Jahon tarixi darslarida)

- Yangi mavzu bilan o'tilgan mavzuni uzviy bog'lash:
- Bir tarixiy davrda sodir bo'lgan voqealarni qiyosiy tahlil qilish:
- O'zbekiston tarixi va Jahon tarixi voqealarini rivojlanish darajasini, yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qilish.
- turli davrlarda yashagan shaxslar va davlatlarni madaniy merosini umumlashgan holda o'rganish va qiyoslash.

Tashqi bog'lanish
(O'zaro turdosh va turdosh bo'lmagan fanlarga oid mashg'ulotlarda)

- Boshqa fanlar bilan bog'lanish nuqtalarini aniqlash.
- Turdosh mavzuga oid ma'lumotlarni boshqa fanlar hisobidan boyitish.
- Darsliklar va o'quv daftarlaridan foydalanish.
- Hayotiy misollar orqali voqeilikni obrazli tasvirlash.
- AKT imkoniyatlarida kengroq foydalanish.

O'quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirishda va rivojlantirishda fanlararo integratsiyani amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- O'qituvchi sinfda (qaysi sinfda dars berishiga qarab) o'qitiladigan barcha fanlar darsliklaridagi materiallarni atroflicha o'rganib chiqishi, ulardagi bog'lanish ob'ektlarini aniqlab olishi:
- Fan darsliklaridagi mazkur materiallarni o'zaro bog'lanish nuqtalarini aniqlab olishi:
- Dars jarayonida fanlararo bog'lanish nuqtalarining echimiga olib keluvchi shart-sharoitlar yaratishga e'tibor qaratish:
- Fanlararo integratsiyani amalga oshirishning faol yo'l va usullarini va vositalarini oldindan tanlash, ishlab chiqish va dars jarayonida mohirona foydalanish:
- Fanlararo integratsiyani amalga oshirishda etarlicha adabiyotlarni to'plash va ulardan ko'rgazmali vosita sifatida dars jarayonida foydalanish:
- Turli fanlarni bir xil ob'ektlarni o'rganishga qaratilgan turdosh mavzularini aniqlab olish:
- Bir fan usullaridan boshqa bir fan ob'ektlarini o'rganishda qo'llay olish:
- Turli fanlarda ba'zi ob'ektlarni o'rganishda bir xil nazariyadan foydalanish nuqtalarini belgilash va uni amalga oshirish:
- Tarixiy voqeilikni aks ettirishda sahna ko'rinishi orqali jarayonni jonlantirish, shu o'rinda o'quvchida adabiy nutq madaniyatini shakllantirish:

Bu tadbirlarni to'liq amalga oshirishda faqat birgina tarix fani o'qituvchisini sa'y-harakatlari kamlik qiladi. Bunga barcha fan o'qituvchilari fan uslubiy birlashmalarida va maktab metodik kengashlarida muhokama qilinib, yagona ishchi dastur ishlab chiqilishi hamda o'zaro hamjihatlikda faoliyat yuritishi bu boradagi muvaffaqiyatni kalitidir.

Bu borada yana quyidagilarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Har bir o'qituvchi o'zining mutaxassislik fani bo'yicha integratsion dasturlarni ishlab chiqadi.
2. Metodik kengashda ko'rib chiqilgach, barcha fan dasturlari umumlashtirilib yagona ishchi dastur ishlab chiqiladi.
3. O'qituvchi o'zining taqvim-mavzu rejasiga fanlararo bog'lanish nomli ustunni kiritish orqali bog'lanadigan fan va mavzular kiritiladi va foydalanish usullari ko'rsatiladi.

YUqoridagi misollar asosida bir necha o'quv predmetlari yoki o'quv fanlariga oid mavzularni uyg'unlashtirgan integrativ dasturlar, asosida o'quv muhitini tashkil etish o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tarix darslarida integratsion aloqalardan kengroq va unumliroq foydalanish, voqelikni obrazli qilib tasvirlash o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladigan tarixiy bilimlarni uzviylikni ta'minlab, tarix ta'limining barcha maqsadlarini, davlat talablari va DTS ning to'laqonli sifatli va samarali bajarilishini ta'minlaydi.

Tarix darslarini o'zaro va boshqa fanlar bilan bog'lab o'tish imkoniyatlari.

1. *Tarix va geografiya*. Ushbu ikki predmetni bir birisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Negaki, tarixiy davlatning geografik joylashuvi, hududining tarixiy va hozirgi qiyosiy o'rnini aniqlash, iqtisodiy imkoniyatlari kabi ma'lumotlarni tarixiy mavzuni yoritishda geografiya predmeti materiallaridan foydalangan holda tasniflash bu borada kengroq va aniqroq tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

2. *Tarix va adabiyot*. Tarixiy voqeilikni badiiy usuldagi bayoni adabiyotning asosiy yo'nalishlaridan biridir. SHunday ekan, mavzuni yoritishda badiiy asarlardan parchalar keltirish orqali yoki tarixiy voqelikka asoslangan tarixiy romanlardan parchalarni sahna ko'rinishida aks ettirish orqali tasavvurni kengaytirish. Masalan, "Ahamoniylarga qarshi To'maris jasorati" tarixiy mavzusini o'rganishda, 7-sinf adabiyot darsligidagi "Mardlik afsonasi" balladasidan parchalar o'qib berish orqali mavzuni qiziqarli va sermazmun qilib o'rganish mumkin.

3. *Tarix va Vatan tuyg'usi*. Milliy g'oya, ona vatan, mustaqillik tushunchalarini nazariy asoslarini, milliy madaniyatimizni tarixiy ildizlarini o'rganishda muhim ilmiy uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

4. *Tarix va aniq fanlar*. Tarix fanini o'qitishda aniq fanlar, jumladan, matematika, fizika fanlari materiallaridan foydalanish ham o'rganilayotgan ob'ektni kengroq tasavvur qilishga yordam beradi. O'zbekiston va jahon tarininig turli davrlarida ro'y bergan ixtiro va kashfiyotlar, ilmiy texnikaviy yutuqlar tarixiga oid ma'lumotlarni o'rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Masalan, "Tarixda yil hisobi" mavzusini o'rganishda matematikaning eng oddiy arifmetik usullaridan foydalanishda, hijriy va milodiy yillarni hisoblashda, buyuk vatandoshimiz Al-Xorazmiyning tarixiy va madaniy merosini o'rganishda umumiy matematika kursi predmeti materiallaridan unumli foydalanish orqali mavzuni kengroq tasavvur qilish mumkin. YUnon allomalari, jumladan, Arximed va boshqa allomalarning kashfiyotlari, jahon tarixining turli davrlarida fan va texnikaning turli sohalarida erishilgan yutuqlarni jumladan, XVIII asr va XIX-XX asr boshlarida amalga oshirilgan texnikaviy yutuqlar tarixini o'rganishda fizika fani imkoniyatlari va materiallaridan unumli foydalanish mumkin.

5. *Tarix va informatika*. Bugun zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlarisiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Tarix fani predmetini o'rganishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ijobiy samara beradi. Mavzuga oid slaydlar tayyorlash, o'quv filmlari namoyishi, tarixiy matnni elektron variantini yaratish, bundan tashqari, dars jarayonida vediotopishmoq, rasmga ta'rif berish kabi qator tadbirlarni o'tkazish orqali bu ikki fan imkoniyatlarini uyg'unlashtirish mumkin. Bu jarayonda eng muhimi o'quvchi o'zi mustaqil ravishda tarixiy materialni elektron ko'rinishda turli holatda tayyorlash imkoniyatiga ega ekanligi muhim ahamiyatga ega.

6. *Tarix va ona tili*. Bu fanlarda o'zaro bog'liqlikni ta'minlash uchun tarixiy atamalarning etimologiyasiga a'lohida e'tibor qaratish hamda leksikologik tahlil orqali atamalar mazmunini tahlil qilish, morfologik nuqtayi nazardan yondashsa, o'quvchilar bilan evristik suhbat qilish jarayonida ularga o'zakdosh va ma'nodosh bo'lgan so'zlarni izlab topish kabi vazifalarni birgalikda bajarish orqali, fonetika bo'limi imkoniyatlaridan tarixiy atamalarda turli davrlarda sodir bo'lgan tovush tushushi, tovush o'zgarishi va tovush orttirilishi kabi fonetik o'zgarishlarni tahlil qilish mumkin. Ona tili fanining yana lingvistika bo'limi imkoniyatlaridan ham unumli foydalanish mumkin. Insoniyat tarixida yozuvning paydo bo'lishi va turlari, til oilalari bilan bog'liq mavzularni yoritishda bu fan

materiallaridan foydalanish keng tasavvur hosil qilish bilan birgalikda, nazariyani amaliyot bilan bogʻlab bilim, koʻnikma va malakalarni yanada oshiradi. Bu jarayonda turli oʻyinlar orqali mashgʻulotlarni tashkil qilish maqsadga muvofiq. Masalan, krossvord, tushurib qoldirilgan soʻzlarni topish, alfavit tartibida atamalarni joylashtirish, berilgan soʻzlar orasidan ortiqchasini topish, tarixiy diktant kabi oʻyinlar dars samaradorligini oshiradi.

7.Tarix va iqtisodiy bilim asoslari. Iqtisodiy bilimlarni tarixiy mavzular bilan mos ravishda uygʻunlashtirish, har bir tarixiy davlatning iqtisodiy hayoti, savdo va pul muomalasi, soliq siyosati kabi bilimlarni solishtirish, uni zamonaviy iqtisodiyot talablari bilan qiyoslash orqali tasavvurlarni kengaytirish mumkin. Masalan, V-sinf tarix darsligidagi “Qadimgi tangalar” mavzusini hamda aksariyat tarixiy mavzularga xos boʻlgan Tovar pul munosabatlari boʻlimlarida, hamda VII-sinf jahon tarixidagi, “Orta asr shaharlarining paydo boʻlishi va tovar xoʻjaligining rivojlanishi” kabi mavzularni oʻrganishda VIII-IX sinf iqtisodiy bilim asoslari faniga kiritilgan “Ayrishlash va pul”, “Bozor va bozor turlari”, “Bank tizimi” kabi mavzulardan qoʻshimcha maʼlumotlar sifatida foydalanish bilimlarni umumlashtirishga xizmat qiladi.

8.Tarix va huquq. Tarixiy davlatlarni oʻrganishda ularning tuzilish va boshqaruv shakllari, qonunchilik tizimi (Hammurappi qonunlari, 12 jadval qonuni, Drakont qonunlari, Avesto, xonliklar davridagi shariat qonunchiligi va qozilar faoliyatining huquqiy ahamiyatini) ni yoritishda Davlat va huquq asoslari fani imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. Milliy qonunchiligimizning huquqiy ildizlarini oʻrganishda ham katta ahamiyatga ega. Bu borada integratsiyani amalga oshirishda sud darslarini tashkil qilish orqali ham ilmiy uygʻunlikni taʼminlash mumkin. Masalan, ekologik muammolarga bagʻishlangan “Tabiatda inson omili” mavzusida sud darslarini tashkil qilish orqali bir necha fan imkoniyatlarini uygʻunlashtirgan holda umumiy bilimlar shakllanadi. Jumladan, Orol muammosiga bagʻishlangan sahnalashtirilgan sud darsida inson, Orol, Amudaryo, Sirdaryo obrazlari atrofida ekologiya, geografiya, biologiya, kimyo, tarix, iqtisodiy bilim asoslari hamda mavzuga bagʻishlangan sheʼrlar va badiiy ifodalardan foydalanib keng qamrovli integratsion mashgʻulotni tashkil qilish mumkin.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

MAKTABGACHA, UMUMIY O‘RTA, O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR VA MAKTABDAN TASHQARI DAVLAT TA‘LIM MUASSASALARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq taʼlimini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2018 yil 5 sentyabrdagi PF-5538-son [Farmoniga](#) muvofiq Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari davlat ta‘lim muassasalari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. Vazirlar Mahkamasining «Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari davlat ta‘lim muassasalari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida» 2016 yil 7 apreldagi 107-son [qarori](#) (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2016 y., 4-son, 25-modda) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari A.A. Abduxakimov, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig‘i U.N. Tashkenbaev, maktabgacha ta‘lim vaziri A.V. SHin, xalq ta‘limi vaziri SH.X. SHermatov hamda oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vaziri I.U. Madjidov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

ILOVA

Maktabgacha, umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari davlat taʼlim muassasalari pedagog kadrlarini attestatsiyadan oʻtkazish tartibi toʻgʻrisida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom maktabgacha, umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari davlat taʼlim muassasalari pedagog kadrlarini (keyingi oʻrinlarda pedagog kadrlar deb ataladi) attestatsiyadan oʻtkazish tartibini belgilaydi.

2. Pedagog kadrlarning malaka tavsiflariga muvofiqligi tegishlicha Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim vazirligi (keyingi oʻrinlarda Maktabgacha taʼlim vazirligi deb ataladi), Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi (keyingi oʻrinlarda Xalq taʼlimi vazirligi deb ataladi), Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi (keyingi oʻrinlarda Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi deb ataladi), Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi (keyingi oʻrinlarda Madaniyat vazirligi deb ataladi), Oʻzbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi (keyingi oʻrinlarda Jismoniy tarbiya va sport vazirligi deb ataladi), Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining Kasb-hunar taʼlimi markazi (keyingi oʻrinlarda Kasb-hunar taʼlimi markazi deb ataladi) hamda tizimida taʼlim muassasalari boʻlgan vazirliklar va idoralar tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan xodimlarning asosiy lavozimlari malaka tavsiflaridagi (keyingi oʻrinlarda malaka tavsiflari deb ataladi) talablar asosida oʻrganiladi.

3. Quyidagilar pedagog kadrlarni attestatsiyadan oʻtkazishning asosiy vazifalari hisoblanadi:
oʻquv fani boʻyicha malakasi, dars oʻtish mahorati, mehnati samaradorligi va ijtimoiy-siyosiy bilimlarini oshirgan pedagog kadrlarni ragʻbatlantirish;

ish haqi miqdorini oshirish imkoniyatlarini yaratish;

xorijiy tillarni oʻrganishni qoʻllab-quvvatlash;

kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmogʻidan foydalanish boʻyicha amaliy koʻnikmalarga ega boʻlishning majburiyligini taʼminlash.

4. Attestatsiyaning asosiy prinsiplari majburiylik, davriylik, oshkoralik, kengashib ish koʻrish hamda xolislik hisoblanadi.

5. Attestatsiya pedagog kadrlar uchun har besh yilda bir marta oʻtkaziladi.

Pedagog kadrlar ularning yozma arizasiga binoan navbatdan tashqari attestatsiyadan oʻtkazilishi mumkin.

Pedagog kadrlarning attestatsiyasini tashkil etish va oʻtkazish ushbu Nizomga [1-ilovaga](#) muvofiq sxema boʻyicha amalga oshiriladi.

6. Attestatsiyadan belgilangan muddatda malaka oshirish kursini tugatganlik toʻgʻrisidagi sertifikatga ega boʻlgan:

maktabgacha va maktabdan tashqari taʼlim muassasalarining oliy va oʻrta maxsus, kasb-hunar maʼlumotli;

umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim muassasalarining oliy maʼlumotli;

kasb-hunar taʼlimi muassasalarining oliy va oʻrta maxsus, kasb-hunar maʼlumotli pedagog kadrlari (ishlab chiqarish taʼlimi ustalari) oʻtkazilishi shart.

7. Maktabgacha, umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari taʼlim muassasalarining:

ilmiy darajaga (fan nomzodi, falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc)) darajasiga ega boʻlgan pedagog kadrlari attestatsiyaga jalb etilmaydi;

[pensiya yoshida boʻlgan pedagog kadrlar attestatsiyaga oʻz xohishiga koʻra jalb etiladi.](#)

Attestatsiyaga jalb etilmagan pedagog kadrlarning mavjud malaka toifalari va lavozimlari taʼlim muassasalarida ishlagan davrida saqlanib qoladi.

8. Ishga yangi qabul qilingan pedagog kadrlar bir yildan soʻng, oliy yoki oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarini bitirib birinchi bor ishga kirganlar kasbiy faoliyatiga uch yil toʻlgandan soʻng attestatsiyaga jalb etiladi.

9. Tuzilmasida umumtaʼlim boʻgʻinlari mavjud boʻlgan oʻrta maxsus va kasb-hunar taʼlimi muassasalarining umumiy oʻrta taʼlim bosqichida umumtaʼlim, chuqurlashtirilgan va kasbiy taʼlim

fanlaridan dars berayotgan pedagog kadrlari attestatsiyadan o'rtta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun belgilangan tartibda o'tkaziladi.

10. Mehnatga layoqatsizlik varaqasi rasmiylashtirilgan holda uzoq muddat (uch oydan ortiq) davolanayotgan, homiladorlik, tug'ish hamda bolani parvarish qilish ta'tilidagi pedagog kadrlar ish faoliyatiga qaytganlariga bir yil to'lgandan so'ng attestatsiyaga jalb etiladi.

11. Attestatsiya har yili mart-iyun oylarida o'tkaziladi.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (keyingi o'rinlarda Davlat inspeksiyasi deb ataladi) Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Kasb-hunar ta'limi markazi hamda tizimida ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar bilan birgalikda har yili 20 yanvarga qadar attestatsiyadan o'tish muddati kelgan pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish jadvalini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

13. Maktabgacha, umumiy o'rtta, o'rtta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari davlat ta'lim muassasalari (keyingi o'rinlarda ta'lim muassasalari deb ataladi) rahbarlari attestatsiya muddatini bir oy oldin e'lon qiladi va pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.

14. Attestatsiyaga doir tashkiliy masalalar ta'limni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlari va ta'lim muassasalari rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi.

15. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi attestatsiyaning mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, pedagog kadrlarning huquqlari ta'minlangan holda o'tishini nazorat qiladi.

16. Attestatsiya o'tkazishda ta'limni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va attestatsiyani nazorat qilish Davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Muvofiqlashtirish ishlari attestatsiya jadvallarini ishlab chiqish, tasdiqlash, shuningdek, attestatsiyaga oid faoliyatni tashkil etish bo'yicha qo'shma qarorlar loyihalarini tayyorlashda ishtirok etishdan, birinchi, oliy malaka toifali va etakchi, bosh o'qituvchi lavozimidagi hamda ushbu malaka toifalari va lavozimlariga talabgor pedagog kadrlar uchun test (yozma, ijodiy ish) sinovlarini o'tkazishdan hamda ularning natijalarini e'lon qilishdan, pedagog kadrlarning attestatsiyadan o'tganligi to'g'risida sertifikatlar topshirilishini ta'minlashdan iborat.

Attestatsiyani nazorat qilish uning natijalarini tahlil qilish, baholash hamda ushbu Nizom talablari buzilgan holda qabul qilingan qarorlarga oid ma'lumotnomalarni Vazirlar Mahkamasi Ijtimoiy rivojlantirish masalalari kotibiyatiga, tizimida ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralarga yuborish orqali amalga oshiriladi.

2-bob. Attestatsiyani tashkil etish va attestatsiya komissiyalarini tuzish

1-§. Umumiy qoidalar

17. Pedagog kadrlar asosiy ish joyi bo'yicha attestatsiyaga jalb etiladi. Ta'lim muassasalarida o'rindoshlik asosida dars beradigan va asosiy ish joyi bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanmaydigan pedagog kadrlar o'rindoshlik asosida faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasasida attestatsiyadan o'tadi.

18. Ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining malaka toifalari yoki lavozimlari ushbu ta'lim muassasalarining bir turidan boshqasiga ishga o'tganda saqlanadi.

Bunda maktabgacha, umumiy o'rtta va maktabdan tashqari ta'lim tizimlari pedagog kadrlarining ikkinchi malaka toifasi o'rtta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimlarining katta o'qituvchi lavozimiga, birinchi malaka toifasi — etakchi o'qituvchi lavozimiga, oliy malaka toifasi — bosh o'qituvchi lavozimiga tenglashtiriladi.

19. Pedagog kadrlar o'rtta maxsus, kasb-hunar, oliy ma'lumotli, ilmiy daraja olganligi yoki qayta tayyorlash kurslaridan o'tganligi haqidagi diplomda (keyingi o'rinlarda diplom deb ataladi) ko'rsatilgan tayyorlov, ta'lim yo'nalishlari, mutaxassislik yoki ixtisosliklariga mos keladigan fanlar bo'yicha attestatsiyadan o'tadi.

Pedagog kadrlarning diplomida bittadan ortiq tayyorlov yoki ta'lim yo'nalishi, mutaxassislik yoki ixtisoslik ko'rsatilgan bo'lsa, ular dars berayotgan har bir o'quv fani bo'yicha alohida attestatsiyadan o'tadi.

20. Ta'lim muassasalari rahbarlari attestatsiyadan o'tuvchilarning har biri uchun alohida hujjatlar yig'majildi tayyorlaydi.

Hujjatlar yig'majildida attestatsiyadan o'tuvchining pasporti, diplomi, attestatsiyadan o'tganligi to'g'risida olgan va amalda foydalanayotgan sertifikati (agar mavjud bo'lsa), malaka oshirganligi haqidagi sertifikati nusxalari, ma'lumotnoma-tarjimai hol, so'nggi bir yil davomida o'tgan darslarining tahlillari, ochiq darslar o'tganligi haqidagi ma'lumotlar, ta'lim oluvchilari reytingi va erishgan yutuqlari (agar mavjud bo'lsa) to'planadi.

21. Pedagog kadrlar attestatsiyasi ularning malaka tavsiflarida belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyat ko'rsatishini tasdiqlovchi maktabgacha ta'lim boshqarmalari, xalq ta'limi boshqarmalari, madaniyat boshqarmalari, jismoniy tarbiya va sport boshqarmalari, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari hamda oliy ta'lim muassasalari attestatsiya komissiyalari, tuman (shahar) va muassasalar attestatsiya komissiyalari, tizimida ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar attestatsiya komissiyalari (keyingi o'rinlarda attestatsiya komissiyalari deb ataladi) tomonidan amalga oshiriladi.

2-§. Maktabgacha davlat ta'lim muassasalari pedagog kadrlari uchun attestatsiyani tashkil etish va attestatsiya komissiyalarini tuzish

22. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligida, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalarida, Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasida (keyingi o'rinlarda maktabgacha ta'lim boshqarmalari deb ataladi) maktabgacha ta'lim muassasalaridagi oliy malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish uchun maktabgacha ta'lim boshqarmalari attestatsiya komissiyalari tuziladi.

Maktabgacha ta'lim boshqarmalari attestatsiya komissiyalari tarkibi Maktabgacha ta'lim vazirligi va Davlat inspeksiyasining qo'shma qarori bilan tasdiqlanadi.

Maktabgacha ta'lim boshqarmalari attestatsiya komissiyalari tarkibi maktabgacha ta'lim boshqarmalari boshlig'i (komissiya raisi), Davlat inspeksiyasi yoki uning hududiy bo'limi vakili (komissiya raisi o'rinbosari), O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi (keyingi o'rinlarda kasaba uyushmasi deb ataladi) vakili, ikki nafar attestatsiyadan o'tgan, oliy toifali pedagog kadrlardan (bir nafari komissiya kotibi) iborat bo'ladi.

23. Quyidagilar maktabgacha ta'lim boshqarmalari attestatsiya komissiyalarining vazifalari hisoblanadi:

oliy malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish;

tuman (shahar) va muassasalar attestatsiya komissiyalarining birinchi va ikkinchi malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlar attestatsiyasi yakunlari bo'yicha hisobotlarini tahlil qilish;

oliy, birinchi va ikkinchi malaka toifali pedagog kadrlarga sertifikatlar olish uchun Davlat inspeksiyasiga buyurtmanoma berish hamda attestatsiya o'tkazilgandan so'ng bir oy muddatda pedagog kadrlarni sertifikatlar bilan ta'minlash.

24. Tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlarida birinchi malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlar attestatsiyasini o'tkazish uchun tuman (shahar) attestatsiya komissiyalari tuziladi.

Tuman (shahar) attestatsiya komissiyalari tarkibi maktabgacha ta'lim boshqarmasi boshlig'ining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Tuman (shahar) attestatsiya komissiyalari tarkibi tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri (komissiya raisi), Davlat inspeksiyasi yoki uning hududiy bo'limi vakili (komissiya raisi o'rinbosari), kasaba uyushmasi vakili, ikki nafar attestatsiyadan o'tgan, oliy toifali pedagog kadrlardan (bir nafari komissiya kotibi) iborat bo'ladi.

25. Quyidagilar tuman (shahar) attestatsiya komissiyalarining vazifalari hisoblanadi:

birinchi malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish;

muassasalar attestatsiya komissiyalarining ikkinchi malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlar attestatsiyasi yakunlari bo'yicha hisobotlarini tahlil qilish;

birinchi va ikkinchi malaka toifali pedagog kadrlarga sertifikatlar olish uchun maktabgacha ta'lim boshqarmalari komissiyalariga buyurtmanoma berish.

26. Ta'lim muassasalarida ikkinchi malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlar attestatsiyasini o'tkazish uchun muassasalar attestatsiya komissiyalari tuziladi.

Muassasalar attestatsiya komissiyalari tarkibi tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlari mudirlarining buyruqlari bilan tasdiqlanadi.

Muassasalar attestatsiya komissiyalari tarkibi ta'lim muassasalari rahbari (komissiya raisi), tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi xodimi (komissiya raisining o'rinbosari), kasaba

uyushmasi va Kuzatuv kengashi vakillari, uch nafar attestatsiyadan o'tgan, birinchi yoki oliy toifali pedagog kadrlardan (bir nafari komissiya kotibi) iborat bo'ladi.

27. Quyidagilar muassasalar attestatsiya komissiyalarining vazifalari hisoblanadi:

ikkinchi malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish;

ikkinchi malaka toifali pedagog kadrlarga sertifikatlar olish uchun tuman (shahar) attestatsiya komissiyasiga buyurtmanoma berish.

3-§. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog kadrlari uchun attestatsiyani tashkil etish va attestatsiya komissiyalarini tuzish

28. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligida, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarida, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasida (keyingi o'rinlarda xalq ta'limi boshqarmalari deb ataladi) umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi (barcha tip va nomdagi maktablar va maktab-internatlardagi) umumta'lim fanlari bo'yicha oliy malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlar attestatsiyasini o'tkazish uchun xalq ta'limi boshqarmalari attestatsiya komissiyalari tuziladi.

Xalq ta'limi boshqarmalari attestatsiya komissiyalari tarkibi Xalq ta'limi vazirligi, tizimida umumiy o'rta ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar hamda Davlat inspeksiyasining qo'shma qarori bilan tasdiqlanadi.

Xalq ta'limi boshqarmalari attestatsiya komissiyalari tarkibi xalq ta'limi boshqarmalari boshlig'i (komissiya raisi), Davlat inspeksiyasi yoki uning hududiy bo'limi vakili (komissiya raisi o'rinbosari), xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi xodimi, kasaba uyushmasi vakili, uch nafar attestatsiyadan o'tgan, oliy toifali pedagog kadrlardan (bir nafari — komissiya kotibi) iborat bo'ladi.

29. Quyidagilar xalq ta'limi boshqarmalari attestatsiya komissiyalarining vazifalari hisoblanadi:

oliy malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish;

tuman (shahar) va muassasalar attestatsiya komissiyalarining birinchi va ikkinchi malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlar attestatsiyasi yakunlari bo'yicha hisobotlarini tahlil qilish;

oliy, birinchi va ikkinchi malaka toifali pedagog kadrlarga sertifikatlar olish uchun Davlat inspeksiyasiga buyurtmanoma berish hamda attestatsiya o'tkazilgandan so'ng bir oy muddatda pedagog kadrlarni sertifikatlar bilan ta'minlash.

30. Tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlarida birinchi malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlar attestatsiyasini o'tkazish uchun tuman (shahar) attestatsiya komissiyalari tuziladi.

Tuman (shahar) attestatsiya komissiyalari tarkibi xalq ta'limi boshqarmalari boshliqlarining buyruqlari bilan tasdiqlanadi.

Tuman (shahar) attestatsiya komissiyalari tarkibi xalq ta'limi bo'limi mudiri (komissiya raisi), Davlat inspeksiyasi yoki uning hududiy bo'limi vakili (komissiya raisi o'rinbosari), xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi xodimi, kasaba uyushmasi vakili, uch nafar attestatsiyadan o'tgan, oliy toifali pedagog kadrlardan (bir nafari — komissiya kotibi) iborat bo'ladi.

31. Quyidagilar tuman (shahar) attestatsiya komissiyalarining vazifalari hisoblanadi:

birinchi malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish;

muassasalar attestatsiya komissiyalarining ikkinchi malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlar attestatsiyasi yakunlari bo'yicha hisobotlarini tahlil qilish;

birinchi va ikkinchi malaka toifali pedagog kadrlarga sertifikatlar olish uchun xalq ta'limi boshqarmalari komissiyalariga buyurtmanoma berish.

32. Ta'lim muassasalarida ikkinchi malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlar attestatsiyasini o'tkazish uchun muassasalar attestatsiya komissiyalari tuziladi.

Muassasalar attestatsiya komissiyalari tarkibi tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari mudirlarining buyruqlari bilan tasdiqlanadi.

Muassasalar attestatsiya komissiyalari tarkibi ta'lim muassasalari rahbari (komissiya raisi), tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi xodimi (komissiya raisining o'rinbosari), kasaba uyushmasi va Kuzatuv kengashi vakillari, uch nafar attestatsiyadan o'tgan, birinchi yoki oliy toifali pedagog kadrlardan (bir nafari — komissiya kotibi) iborat bo'ladi.

33. Quyidagilar muassasalar attestatsiya komissiyalarining vazifalari hisoblanadi:

ikkinchi malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish;

ikkinchi malaka toifali pedagog kadrlarga sertifikatlar olish uchun tuman (shahar) attestatsiya komissiyasiga buyurtmanoma berish.

3-bob. Attestatsiyadan o'tkazish, sertifikatlar berish hamda ta'lim olganlik to'g'risidagi ma'lumotlarga qo'yilgan talablarni belgilash

59. Attestatsiya ikki bosqichda o'tkaziladi:

birinchi bosqichda — attestatsiyadan o'tuvchilarning o'quv fani bo'yicha malaka sinovi natijalari, dars o'tish mahorati va mehnati samaradorligi ekspert guruhi tomonidan o'rganiladi hamda tegishli tavsiyalar tayyorlanadi;

ikkinchi bosqichda — attestatsiya komissiyalari ekspert guruhi tomonidan o'rganilgan birinchi bosqich natijalarini tahlil qiladi, attestatsiya jarayonida to'plangan hujjatlar jamlanmasini (portfoliosini) o'rganadi va pedagog kadrlari malaka toifasida (lavozimida) qoldirish yoki boshqa toifa (lavozim) berish to'g'risida qaror qabul qiladi.

60. Attestatsiya quyidagi baholash mezonlari bo'yicha o'tkaziladi:

a) dars o'tish mahorati — dars tahlillari, ochiq darslar o'tganligi, ta'lim oluvchilarning reyting ko'rsatkichlari, ta'lim berish vositalari hamda shakllarini maqbul ravishda tanlashi, kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga hamda xorijiy tillar va ijtimoiy-siyosiy bilimlarga ega ekanligini aniqlash;

b) mehnati samaradorligi — ta'lim oluvchilarning tayyorlaganligi, ta'lim oluvchilar va attestatsiyadan o'tuvchilarning tuman, shahar, viloyat, respublika, xalqaro ko'rik-tanlovlar, fan olimpiadalari va turli musobaqalarda erishgan yutuqlari;

v) o'quv fani bo'yicha malaka sinovlari — diplomida ko'rsatilgan tayyorlov, ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisligi yoki ixtisosliklari bo'yicha davlat ta'lim standartlari yoki davlat talablari mazmuni asosida o'tkaziladigan test (qog'ozda, onlayn, oflayn) yozma yoki ijodiy ish natijalari.

61. Pedagog kadrlarning attestatsiya natijalarini baholash mezonlari Davlat inspeksiyasi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Kasb-hunar ta'limi markazi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

62. Birinchi va oliy malaka toifali, etakchi va bosh o'qituvchi lavozimidagi hamda ushbu malaka toifalari va lavozimlarga talabgor pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazganlik uchun eng kam oylik ish haqining 100 foizi miqdorida yig'im undiriladi.

Attestatsiyadan o'tkazganlik uchun yig'imning 50 foizi O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti daromadiga o'tkaziladi, qolgan 50 foizi Davlat inspeksiyasining byudjetdan tashqari Rivojlantirish jamg'armasiga yo'naltiriladi.

Ariza beruvchi berilgan arizadan voz kechgan taqdirda hamda pedagog kadriga nisbatan «Attestatsiyadan o'tmadi, tegishli malaka toifasi yoki lavozimi tushirilsin» qarori qabul qilinganda to'langan yig'im summasi qaytarilmaydi.

Pedagog kadrlar attestatsiyaning biror bosqichida uzrli sababga (mehnatga layoqatsizlik varaqasi, ta'limni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organi yoki ta'lim muassasalari rahbarlari ma'lumotnomasi) ko'ra kelmagan bo'lsa, ularning attestatsiyasi boshqa muddatga ko'chirilgan taqdirda yig'im summasi takroran undirilmaydi.

63. Birinchi va oliy malaka toifali, etakchi va bosh o'qituvchi lavozimidagi hamda ushbu malaka toifalari va lavozimlarga talabgor pedagog kadrlar uchun nazorat materiallari mazmunini shakllantirish, ko'paytirish va ushbu jarayonni o'tkazish Davlat inspeksiyasi tomonidan Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Kasb-hunar ta'limi markazi hamda tizimida ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

64. O'quv fani bo'yicha malaka sinoviga oid yozma va ijodiy ish hamda ikkinchi malaka toifasiga va katta o'qituvchi lavozimiga talabgor pedagog kadrlarning test sinovlarini o'tkazish tizimida ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda ta'lim turlari bo'yicha Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan amalga oshiriladi.

65. Attestatsiya komissiyalari pedagog kadrlarning dars o'tish mahorati va mehnati samaradorligi hamda o'quv fani bo'yicha malaka sinovi natijalarini tahlil qiladi va tegishli qaror qabul qiladi.

66. Attestatsiya komissiyasi a'zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etgan yig'ilish vakolatli hisoblanadi.

67. Attestatsiya komissiyalari quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

a) oliy malaka toifali yoki bosh o'qituvchi lavozimidagi pedagog kadr baholash mezonlarining har biridan:

75 foiz va undan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa — «Attestatsiyadan o'tdi, oliy malaka toifasi (bosh o'qituvchi lavozimi) saqlansin»;

75 foizdan past ko'rsatkichga ega bo'lsa — «Attestatsiyadan o'tmadi, birinchi malaka toifasi (etakchi o'qituvchi lavozimi)ga tushirilsin»;

b) birinchi malaka toifali yoki etakchi o'qituvchi lavozimidagi pedagog kadr baholash mezonlarining har biridan:

75 foiz va undan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa — «Attestatsiyadan o'tdi, oliy malaka toifasi (bosh o'qituvchi lavozimi) berilsin»;

74 foizdan 65 foizgacha ko'rsatkichga ega bo'lsa — «Attestatsiyadan o'tdi, birinchi malaka toifasi (etakchi o'qituvchi lavozimi) saqlansin»;

65 foizdan kam ko'rsatkichga ega bo'lsa — «Attestatsiyadan o'tmadi, ikkinchi malaka toifasi (katta o'qituvchi lavozimi)ga tushirilsin» (navbatdan tashqari attestatsiyaga jalb etilgan pedagog kadrlar bundan mustasno);

v) ikkinchi malaka toifali yoki katta o'qituvchi lavozimidagi pedagog kadr baholash mezonlarining har biridan:

65 foiz va undan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa — «Attestatsiyadan o'tdi, birinchi malaka toifasi (etakchi o'qituvchi lavozimi) berilsin»;

64 foizdan 60 foizgacha ko'rsatkichga ega bo'lsa — «Attestatsiyadan o'tdi, ikkinchi malaka toifasi (katta o'qituvchi lavozimi) saqlansin»;

60 foizdan kam ko'rsatkichga ega bo'lsa — «Attestatsiyadan o'tmadi, mutaxassis (oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi) lavozimiga tushirilsin» (navbatdan tashqari attestatsiyaga jalb etilgan pedagog kadrlar bundan mustasno);

g) mutaxassis, oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi lavozimidagi pedagog kadr baholash mezonlarining har biridan:

60 foiz va undan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa — «Attestatsiyadan o'tdi, ikkinchi malaka toifasi (katta o'qituvchi lavozimi) berilsin»;

59 foizdan 55 foizgacha ko'rsatkichga ega bo'lsa — «Attestatsiyadan o'tdi, mutaxassis (oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi) lavozimi saqlansin»;

55 foizdan kam ko'rsatkichga ega bo'lsa — «Attestatsiyadan o'tmadi, mutaxassis (oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi) lavozimiga muvofiq emas».

68. Attestatsiya komissiyalari mutaxassis, oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi lavozimidagi pedagog kadrlar bo'yicha «Attestatsiyadan o'tmadi, mutaxassis (oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi) lavozimiga muvofiq emas» qarorini qabul qilsa, ular navbatdan tashqari malaka oshirish kurslariga yuboriladi hamda keyingi yilda qayta attestatsiyaga jalb etiladi.

Attestatsiya komissiyalari qayta attestatsiyaga jalb etilgan pedagog kadrlar bo'yicha «Attestatsiyadan o'tmadi, mutaxassis (oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi) lavozimiga muvofiq emas» qarorini qabul qilsa, ish beruvchi tomonidan ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi mehnat haqidagi qonunlarda belgilangan tartibda bekor qilinadi.

69. Baholash mezonlari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich chiqarilmaydi hamda baholash mezonlarining birortasi bo'yicha belgilangan ko'rsatkichdan past baholansa «attestatsiyadan o'tmadi» degan qaror qabul qilinadi.

70. Pedagog kadrlar attestatsiyaning biror bosqichida uzrli sababga (mehnatga layoqatsizlik varaqasi, ta'limni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organi yoki ta'lim muassasalari rahbarlari ma'lumotnomasi) ko'ra kelmagan bo'lsa, ularning attestatsiyasi boshqa muddatga ko'chiriladi.

71. Pedagog kadr uzrsiz sababga ko'ra attestatsiyaning biror bosqichida ishtirok etmagan bo'lsa, attestatsiyadan o'tmagan hisoblanadi hamda unga nisbatan «Attestatsiyadan o'tmadi, tegishli malaka toifasi yoki lavozimi tushirilsin», mutaxassis, oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi lavozimi bo'yicha «Attestatsiyadan o'tmadi, mutaxassis (oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi) lavozimiga muvofiq emas» qarori qabul qilinadi.

72. Attestatsiya komissiyalari qarori ushbu Nizomga [2-ilovaga](#) muvofiq shaklda rasmiylashtiriladi hamda komissiya raisi, rais o'rinbosari va kotib tomonidan imzolanadi.

73. Attestatsiya komissiyalari qarori asosida ushbu Nizomga [3-ilovaga](#) muvofiq shakldagi attestatsiya varaqasi rasmiylashtiriladi hamda attestatsiya komissiyasi raisi, rais o'rinbosari, yig'ilishda ishtirok etgan a'zolar va kotib tomonidan imzolanadi.

Attestatsiya varaqasi ikki nusxada to'ldiriladi va bir nusxasi pedagog kadrlarning ish joyidagi shaxsiy hujjatlari yig'majildida, ikkinchi nusxasi attestatsiya komissiyasida saqlanadi.

74. Pedagog kadrlarning attestatsiyasiga oid hujjatlarining to'plangan yig'majildi navbatdagi attestatsiyagacha ta'lim muassasasida saqlanadi.

75. Attestatsiya komissiyalarining qaroriga ko'ra oliy, birinchi, ikkinchi malaka toifasiga yoki bosh, etakchi, katta o'qituvchi lavozimiga ega bo'lgan pedagog kadrlarga ushbu Nizomga [4-ilovaga](#) muvofiq shakldagi pedagog kadrning attestatsiyadan o'tganligi to'g'risidagi sertifikat (keyingi o'rinlarda sertifikat deb ataladi) attestatsiya o'tkazilgandan so'ng bir oy muddat ichida topshiriladi.

Sertifikatlarning xatosiz to'ldirilishi uchun attestatsiya komissiyasi raislari mas'ul hisoblanadi.

76. Sertifikat qat'iy hisobda turadigan hujjat hisoblanadi, unda hisob seriyasi, raqami va himoya darajasi bo'ladi. Sertifikat blankalari Davlat inspeksiyasi buyurtmasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi «Davlat belgisi» davlat-ishlab chiqarish birlashmasi bosmaxonasida tayyorlanadi.

77. Davlat inspeksiyasi boshlig'i, maktabgacha ta'lim boshqarmalari, xalq ta'limi boshqarmalari, madaniyat boshqarmalari, jismoniy tarbiya va sport boshqarmalari, kasb-hunar ta'limi boshqarmalari boshliqlari, oliy ta'lim muassasalari rektorlari, tuman (shahar) maktabgacha ta'lim, xalq ta'limi, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport bo'limlari va ta'lim muassasalari rahbarlari, tizimida ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralarning rahbarlari sertifikatlarning hisobi, saqlanishi hamda maqsadli ishlatilishi yuzasidan shaxsan javobgar hisoblanadi.

78. Attestatsiya komissiyalari sertifikatlarning pedagog kadrlarga tarqatilishini ro'yxatga olish uchun maxsus daftar (sahifalangan, tikilgan va muhrlangan) yuritadi va unda quyidagilarni qayd etadi:

tartib raqami;

pedagog kadrlarning familiyasi, ismi, otasining ismi;

sertifikatning tartib raqami, seriyasi;

sertifikat berilishiga asos bo'lgan komissiya qarorining sanasi va tartib raqami;

sertifikatni bergan komissiyaning nomi;

sertifikatning amal qilish muddati;

sertifikat nusxasi (dublikati)ning berilishi asosi va sanasi.

79. Pedagog kadrlarning bazaviy tarif stavkalari miqdori, ularning malaka toifasi yoki lavozimi sertifikat asosida belgilanadi.

80. Sertifikatning amal qilish muddati tugagan pedagog kadrlarga mutaxassis, oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi lavozimi bo'yicha haq to'lanadi.

81. Sertifikatning amal qilish muddati tugab, mutaxassis, oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi lavozimi bo'yicha haq to'lanayotgan pedagog kadrlar navbatdagi attestatsiyaga oxirgi sertifikatda ko'rsatilgan malaka toifasi yoki lavozimi bo'yicha jalb qilinadi.

82. Davlat inspeksiyasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Kasb-hunar ta'limi markazi bilan kelishgan holda sertifikatlarni hisobga olish, saqlash va topshirish tartibini belgilaydi.

83. Attestatsiyadan o'tganligi to'g'risida sertifikatga ega bo'lmagan ishga yangi qabul qilingan pedagog kadrlarga yoxud oliy yoki kasb-hunar ta'limi muassasalarini bitirib birinchi bor ishga kirgan pedagog kadrlarga quyidagi tartibda malaka toifasi (lavozimi) beriladi:

o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli pedagog kadrlarga — o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi lavozimi;

bakalavr darajasiga ega pedagog kadrlarga — mutaxassis yoki oliy ma'lumotli o'qituvchi lavozimi;

magistr darajasiga ega mutaxassislarga, shuningdek oliy ma'lumot darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilgunga qadar olingan oliy ma'lumotli pedagog kadrlarga — ikkinchi malaka toifasi yoki katta o'qituvchi lavozimi (ushbu malaka toifasi yoki lavozimiga ega bo'lgan pedagog kadrlar besh yildan keyin belgilangan tartibda navbatdagi attestatsiyaga jalb qilinadi);

ilmiy darajaga (fan nomzodi, falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga ega bo'lgan pedagog kadrlarga — oliy malaka toifasi yoki bosh o'qituvchi lavozimi (ushbu malaka toifasi yoki lavozimiga ega bo'lgan pedagog kadrlar keyingi attestatsiyalarga jalb qilinmaydi).

4-bob. Attestatsiya natijalari yuzasidan murojaat qilish

84. Attestatsiya komissiyalari qaroridan norozi bo'lgan pedagog kadrlar attestatsiya natijalari e'lon qilingan kundan boshlab o'n kun mobaynida apellyasiya komissiyasiga yozma ravishda ariza (shikoyat) berishlari mumkin.

85. Apellyasiya komissiyasi besh kishidan iborat tarkibda attestatsiya boshlangandan keyin uch kun ichida tegishliligiga ko'ra:

maktabgacha ta'lim vaziri, xalq ta'limi vaziri, madaniyat vaziri, jismoniy tarbiya va sport vazirining tegishli buyruqlari bilan ushbu vazirliklarda — oliy malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlarning arizalarini ko'rib chiqish uchun;

maktabgacha ta'lim vaziri, xalq ta'limi vaziri, madaniyat vaziri, jismoniy tarbiya va sport vazirining tegishli buyruqlari bilan maktabgacha ta'lim, xalq ta'limi, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport boshqarmalarida — birinchi malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlarning arizalarini ko'rib chiqish uchun;

maktabgacha ta'lim, xalq ta'limi, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport boshqarmalari boshliqlarining tegishli buyruqlari bilan maktabgacha ta'lim, xalq ta'limi, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport bo'limlarida — ikkinchi malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlarning arizalarini ko'rib chiqish uchun;

oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Kasb-hunar ta'limi markazi hamda tizimida ta'lim muassasasi bo'lgan vazirliklar va idoralar rahbarlarining tegishli buyruqlari bilan oliy ta'lim muassasalarida, kasb-hunar ta'limi boshqarmalarida hamda hududiy bo'linmalarda ikkinchi, birinchi va oliy malaka toifalari, katta, etakchi va bosh o'qituvchi lavozimlariga talabgor pedagog kadrlarning arizalarini ko'rib chiqish uchun tashkil etiladi.

86. Apellyasiya komissiyasining tarkibi va ish tartibi apellyasiya komissiyasini tashkil etish to'g'risidagi buyruqda belgilanadi.

87. Apellyasiya komissiyasi tarkibiga attestatsiya komissiyalari tarkibidan a'zo kiritilmaydi.

88. Apellyasiya komissiyasi muammoli holatlarga aniqlik kiritish maqsadida jamoatchilik asosida malakali mutaxassislarni jalb etishi mumkin.

89. Apellyasiya komissiyasi yig'ilishida komissiya a'zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etsa, uning qabul qilgan qarori qonuniy kuchga ega bo'ladi.

90. Ariza (shikoyat) ro'yxatga olingan kundan boshlab o'n besh kun muddatda ko'rib chiqiladi.

91. Murojaat etuvchi pedagog kadrlar apellyasiya komissiyasi tomonidan arizasi (shikoyati) ko'rib chiqilishi jarayonida ishtirok etishi mumkin.

92. Apellyasiya komissiyasi attestatsiya komissiyasi qarorini o'zgartirishsiz qoldirish yoki uni bekor qilib, qayta attestatsiya tashkil etish haqida qaror chiqaradi.

93. Apellyasiya komissiyasi qarori nusxasi murojaat etuvchi pedagog kadr va tegishli attestatsiya komissiyasiga apellyasiya komissiyasi qarori chiqqan kundan e'tiboran besh kun muddatda taqdim etiladi.

5-bob. YAKunlovchi qoidalar

94. Attestatsiya komissiyasi yoki apellyasiya komissiyasi qarori yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

95. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Nazorat savollari:

1. Tarix o'qitish metodikasining maqsadi va vazifalarini ayting.

2. Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlarini ayting.
3. Tarix o'qitish metodikasining qaysi boshqa fanlar bilan aloqador?
4. Tarix o'qitish metodikasining ilmiy tahlil usullarini ayting.

2-mavzu. Tarix o'qitishning tashkiliy shakllari. Dars, uning turlari va tuzilishi (2soat ma'ruza)

1. Dars - o'quv va tarbiyaviy ishning asosiy tashkiliy shakli
2. Dars turlari va tuzilishi (strukturasi)
3. Tarix darsi, unga qo'yiladigan talablar

Tayanch iboralar: *dars, an'anaviy dars, noan'anaviy dars, dars strukturasi, kombinatsion (aralash) dars, umumlashtiruvchi takrorlash dars, tarix fanining ta'lim-tarbiya vazifalari, ilmiylik, tarixiylik, metodologik, ko'rsatmalilik*

1. Dars - o'quv va tarbiyaviy ishning asosiy tashkiliy shakli

Tarix kursi oldiga qo'yilgan ta'lim – tarbiya vazifalarini amalga oshirishning eng muhim shartlaridan biri har bir sinfda o'qitiladigan tarix kursining tutgan o'rni, uning ta'lim-tarbiyaviy vazifalari, har bir bob va ulardagi mavzular, hatto har bir darsda o'tiladigan mavzuning ham ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari oldindan aniq belgilab olingandan keyin tarix o'qitishga kirishish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tarix ta'limida o'qitishning maqsad va vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish birinchi navbatda o'qituvchining har bir darsning ta'lim-tarbiya vazifalarini oldindan aniq va to'g'ri belgilab olinishiga bog'liq. Bu ham, o'z navbatida, o'qituvchining darsning ta'lim-tarbiya vazifalarini to'g'ri belgilash metodi va usullari haqidagi puxta nazariy bilim va malakalarining darajasiga bog'liqdir.

Dars – o'quv ishining asosiy tashkiliy shakli bo'lib, unda o'qituvchi aniq belgilangan dars doirasida o'quvchilarning doimiy tarkibi bilan qat'iy jadval bo'yicha shug'ullanadi, jamoaviy bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv dasturiga o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi.

Dars o'quv ishini tashkil qilishning asosiy shakli, ammo u ta'limning boshqa shakllarini: ma'ruza, amaliyot, laboratoriya mashg'ulotlari, konsultatsiyalar, uy vazifalari, qo'shimcha mashg'ulotlarni rivojlantirishni istisno etmaydi.

Ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllari fakultativ mashg'ulotlar sanaladi. Ular o'quvchilarning qiziqishlari asosida tashkil etiladi: to'garaklar, klublar, olimpiadalar, viktorinalar, ko'rgazmalar, ekspeditsiyalar va hokazolar.

Dars o'quvchilarning doimiy tarkibi, mashg'ulotlarning aniq belgilangan oldindan tuziladigan jadval va o'quv ishlari biror aniq mavzuda tashkil etilishi kabi o'ziga xosliklarga ega bo'lgan ta'limning jamoa shakli hisoblanadi.

O'qituvchining darsdagi ishi barcha o'quvchilarning darsning o'zidayoq o'rganilayotgan bilim asoslarini egallashlari, zarur ko'nikma va malakalarni hosil qilishlari uchun zamin yaratadi.

- **Bilim** – atrof muhit qonuniyatlari, qonunlari, hodisalari, dalillari shuningdek, faoliyat usullari haqidagi tushuncha va tasavvurlarning o‘zlashtirilishi, tizimga solinishi hamda xotirada mustahkamlanishi.

- **Ko‘nikma** – ta‘lim oluvchilarning mehnat jarayonidagi harakatini muayyan sharoitda maqsadga muvofiq bo‘lgan harakat usullaridan foydalanib, muvaffaqiyatli bajarish qobiliyati.

- **Malaka** – ta‘lim oluvchilarning mehnat jarayonidagi harakatini aniq, tez va maqsadga muvofiq tarzda avtomatik ravishda bajarish qobiliyati.

- **Kompetensiya** – ta‘lim oluvchilarning egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish layoqati.

2. Dars turlari va tuzilishi (strukturasi)

Dars - o‘quv va tarbiyaviy ishlarning asosiy tashkiliy shakli bo‘lib, ta‘lim va tarbiya jarayonining maxsus shakllari esa dars samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Darslarning qanday vazifalarni hal etishiga ko‘ra turlicha strukturaga ega bo‘lgan tiplarga bo‘linadi. Struktura – bu dars qismlarining nisbati va o‘zaro bog‘lanishi bo‘lib, ular o‘z vazifasi va o‘qituvchi bilan o‘quvchilar faoliyati xarakteri bilan farq qiladi.

Demak, etakchi didaktik vazifa va tuzilishiga ko‘ra darslar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1) yangi materialni o‘rganish darslari – bu darsda faqat yangi bilimlar beriladi;

2) kombinatsion darslar (aralash darslar) – bunda o‘qituvchi o‘tilgan mavzuni nazorat qilib baholashi bilan birgalikda yangi materialni tushuntiradi, mustahkamlaydi);

3) bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash darslari – bunda o‘qituvchi faqat uy vazifasini nazorat qilib baholaydi;

4) mashqlar va amaliy ishlar darslari;

5) umumlashtiruvchi takrorlash darslari;

6) laboratoriya darslari;

7) o‘quvchilar bilimini nazorat qilish, nazorat qilish va baholash darslari.

Yangi materialni bayon qilish darslari bosqichlari: o‘quvchilarni darslarga jalb etish, mavzu bayoni (yangi bilimlar berish), qisqa nazorat-mustahkamlash, uyga vazifa berish.

O‘rganilgan materialni mustahkamlash va amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilish darslari uning yanada chuqurroq anglash va o‘zlashtirish, amaliy ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llash maqsadidan kelib chiqib, hamma sinflarda alohida mavzuni yoki bo‘limlarni o‘rganilgandan keyin o‘tilgan materialni takrorlashga yo‘naltirilib o‘tkaziladi.

Takrorlash, tizimlashtirish va umumlashtirish darslari o‘quv dasturining katta bo‘limlarini takrorlash bilan bog‘liq va darhol mavzularni o‘rganilgandan keyin yoki o‘quv yili oxirida o‘tkaziladi.

Bulardan tashqari standart bo‘lmagan, innovatsion dars shakllari ham keng qo‘llaniladi: seminar-darslar, konferensiya-darslar, rolli o‘yinlar, integrallashgan darslar.

3. Tarix darsi, unga qo‘yiladigan talablar

Darsni rejalashtirish o‘rta makablarda o‘rganiladigan barcha predmetlarni shu bilan birga tarix o‘qitishni ham muvaffaqiyatli amalga oshirish garovidir. Rejaning qaysi tipi bo‘lmasin (hoh dars rejasi, hoh tematik, kalendar yoki yakuniy) u o‘quv materialini barcha psixologik va metodik qonuniyatlarni, prinsiplar asosida ma‘lum bir davrga bo‘lib o‘rganishni taqazo etadi va tegishli ko‘nikma va malakalarni o‘stirishni nazarda tutadi.

Rejalashtirishda quyidagilarga e‘tibor qaratmoq kerak:

a) boshlang‘ich bosqichida tarix darsini tashkil qilishni rejalashtirish;

b) sinfdagi o‘quvchilarning bilim darajalarini hisobga olgan holda darsni rejalashtirish;

c) darsni rejalashtirish o‘quv yili boshlanishidan oldin bajarilishi kerak;

d) o‘qituvchi darslikni va undagi tarixiy voqea va jarayonlarni yaxshi bilishi va taxlil qila olishi lozim;

e) o‘qitishning shart-sharoitlarini, psixologik qonuniyatlarini, tarixiy tafakkur, bilim va ko‘nikmalarini hosil qilish bosqichlaridan yaxshi xabardor bo‘lishi;

f) zamonaviy darslarga qo‘yilgan asosiy talablarni bilish.

Tematik rejalashtirish

Darsni 2 xil rejalashtirish farqlanadi:

1. Tematik rejalashtirish

2. Kundalik dars rejalashtirish.

Darsni rejalashtirishning asosiy maqsadi tarix o'qitishning maqsadi, vazifalari, til materialining hajmi, dars jarayoniga kiritish ketme-ketligi va shunga mos ravishda nutqiy ko'nikma malakalar hosil qilishdan iborat. Rejalashtirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar oldindan aniqlanadi va uni bartaraf qilish yo'llari va tegishli mashg'ulotlar tuziladi. Rejalashtirish bir necha bir-biriga bog'liq bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladi. SHunga ko'ra yillik reja, tematik reja va oddiy bir dars rejasini farqlash mumkin. Yillik reja darslik mualliflari tomonidan tuziladi. U o'z navbatida yarim yillik va chorak rejalariga bo'linadi. Unda o'rganiladigan mavzular aniqlashtiriladi. Har bir mavzuni o'rgatishga ajratilgan dars soatlari bilimlar ko'lami, o'tkaziladigan nazorat turlari vaqti hisobga olinadi. SHuni ta'kidlash kerakki, har qanday yillik reja yaxshi tayyorgarlik asosida tuzilmog'i lozim. Agar biron bir sababga ko'ra rejaga o'zgartirishlar kiritiladigan bo'lsa, ular yarim yillik va choraklik rejalarida o'z aksini topishi kerak. Tarix o'qituvchilari shahar yoki tuman metod birlashmalari tomonidan tavsiya etilgan rejalar asosida ish olib borishadi. Tematik reja metod birlashma tomonidan tuzilsada, u o'qituvchining tashabbuskorligini cheklab qo'ymasligi kerak. Tematik rejalashtirishning asosiy vazifasi bu ma'lum mavzuni o'rganish natijasida erishiladigan yakuniy maqsadni aniqlashdir. O'qituvchi darsga tayyorlana turib, tematik reja tuzadi. Buni quyidagi jadval turida ko'rsatish mumkin:

Dars	Dars mavzusi	Asosiy tushuncha	Asosiy adabiyotlar	Fanlararo bog'lanish	O'qitish usuli	Dars tipi
------	--------------	------------------	--------------------	----------------------	----------------	-----------

Darsga tayyorgarlik ko'ra turib, avvalo o'qituvchi uning maqsadini aniqlaydi. Bu tayyorgarlikning murakkab va ahamiyatli momenti. Unda tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar birlashtiriladi. O'qituvchi birinchi navbatda darsning maqsadi bo'yicha ish olib boradi. Darsga tayyorgarlik darsning rejasini tuzish bilan yakunlanadi. Dars rejasida dars mavzusi, maqsadi, dars tuzilish elementlarining mazmuni, o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlarning xarakteri, darsning tuzilishlariga ketadigan vaqt ko'rsatiladi.

Tematik reja asosida o'qituvchi har bir darsga aloxida kundalik reja tuzadi.

Kundalik reja quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1.ma'lum bir dars yakunida nimaga erishishni;
- 2.qo'yilgan vazifani amalga oshirish uchun qanday tarixiy materialini o'rganishni;
- 3.belgilangan maqsadga erishish yo'llarini aniqlashni.

Kundalik rejada dars mavzusi, maqsadlari, jihozlanishi va darsni tashkil qilish bosqichlari o'z ifodasini topadi.

Dars strukturasi quyidagilar kiradi:

- Darsning boshlanishi (tashkiliy davr, da'vomatni aniqlash, dars muhitini hosil qilish);
- Takrorlash uchun ijodiy mashg'ulot o'tkazish (savol-javob, atamalar, tarixiy shaxslar, sanalar bo'yicha)
- Uy vazifasini tekshirish;
- YAngi o'quv materialini dars jarayoniga kiritishning texnologik ketma-ketligi)
- Baholash;
- Uy vazifasini berish (har bir vazifa o'quvchilarga tushuntirib berilishi lozim)
- Darsning oxiri: yakunlash.

Bir soatlik dars reja matnini tayyorlash uslubi.

O'zbekiston xalqlari tarixi . VII – sinf.

Mavzu: IX - XII asrlarda O'rta Osiyo xalqlari madaniyati.

Reja :

1. Bu davr ilm-fanining rivojlanishidagi tarixiy shart-sharoitlar
2. O'rta Osiyolik buyuk allomalar

Darsning maqsadi: O'quvchilarga IX-XII asrlarda O'rta Osiyo xalqlari madaniyati rivojlanishining shart-sharoitlari, xalqning ma'naviy hayoti va fanda diniy dunyoqarash hukmronlik qilishi, O'rta Osiyodan etishib chiqqan buyuk allomalar va bu O'rta Osiyolik allomalarning qadimgi dunyo olimlari, faylasuflari, yozuvchilarining meroslarini boyitishi haqida tushuncha berish.

Darsning jihozi:

O'zbekiston xaritasi, doska, video-proektor, alomalarning rasmlari, O'zbekiston tarixi kitobi (80-bet).

Darsning metodi (uslubi):

Tushuntirish, savol-javob, suhbat, hikoya, izohli o'qish.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.

a) salomlashish;

b) davomatni aniqlash;

v) o'quvchilarni va sinf tozaligini ko'zdan kechirish.

2. O'tilgan materiallarni so'rash va o'quvchilar bilimini aniqlash.

a) takrorlovchi suhbat;

b) o'quvchilarni kengaytirilgan javob berishga undash;

3. YAngi mavzu bayoni :

a) Bu davr ilm-fanining rivojlanishidagi tarixiy shart-sharoitlar

b) O'rta Osiyolik buyuk allomalar

4. YAngi mavzu bo'yicha Nazorat savollar (mustahkamlash);

a) IX-XI asrlarda O'zbekiston xalqlari madaniyating yuksak darajada rivojlanishini shart-sharoitlarini sanang.

b) Bu davrda fan va adabiyot, madaniyat tarixiga hissa qo'shgan qanday etuk alloma va olimlar etishib chiqdi?

v) "Bayt ul-hikma" faoliyati to'g'risida

g) Muso al-Xorazmiy hayoti va faoliyati

d) Ahmad al-Farg'oniy haqida

5. Xulosalash (suhbat uslubi asosida olib boriladi).

a) IX-XII asrlarda Mavorounnaxr madaniy hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu o'zgarishlarda islom dini va arab tili hamda yozuvini ahamiyati. Bu davrda Buxoro, Samarqanda, Marv, Urganch, Farg'ona shaharlari madaniyat markaziga aylangan edi. Samoniylar davrida markazlashgan boshqaruvi, mustahkamlanishi, ko'chmanchilarning mamlakatni talon-taroj qilishlari va harbiy ahvolga solishlariga chek qo'yilishi xususida.

6. Baholash.

7. Uyga vazifa.

M. A. Danilov darsning muvaffaqiyati uchun quyidagilar muhimligini aytadi:

dars mazmuni va maqsadi o'quvchilarning yosh hususiyatlariga mos kelishi kerakligi;

darsning ta'limiy va tarbiyaviy tomonlarining birligi;

darsning barcha bosqichlarida o'quvchilarning faolligi;

darsning har bir daqiqasidan samarali foydalanish;

darsni tegishli jihozlash;

dars oxirida uning natijasi sezilarli bo'lishi.

Dars o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini sifatida yoshlarga fan asoslarini o'rgatishda muhim o'rin tutadi. Tarix darsiga qo'yiladigan didaktik talablar bu - ilmiylik, tarixiylik, metodologik, ko'rsatmalilik, o'quvchilarni bilish imkoniyati va yosh psixologik xususiyatlari, uzviylik va uzliksizlik, tarixni zamon va makon kontekstida bog'lash, ta'lim va tarbiya maqsadiga ega ekanligidir.

Har bir darsga tayyorlanishda DTS va o'quv dasturining uqtirish xatidagi ko'rsatmalar nazarda tutiladi. Darsni tayyorlash va o'tkazishda o'qituvchining o'z predmeti bo'yicha o'quv dasturining har bir mavzusiga tayyorlanishi, har bir darsga tayyorlanishini talab qiladi.

Har bir alohida darsga tayyorlanishda o'qituvchi quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- mavzuni aniqlaydi va dars vazifalarini konkretlashtiradi;

- o'quv materiali mazmunini ajratadi va uni didaktik jihatdan ishlab chiqadi (etakchi tushuncha, qonuniyat, fakt va amaliy ma'lumotlarni ajratadi);

- ilgari o'rganilgan bilan bog'lanishni, mazmunni joylashtirish mantiqini nazarda tutadi;

- o'quvchilarning o'quv- bilish faoliyatlari xarakterini aniqlaydi, ya'ni qanday ko'nikma va malakalar shakllanishini, reproduktiv va izlanish faoliyati, mustaqil ish va o'qituvchining roli o'rtasidagi nisbat qanday bo'lishini o'ylab quyadi.

- dars shakllarini ishlab chiqadi;

- o'qitish metodlari: masala, mashq, muammoli savollar, topshiriqlarni tanlaydi va aniqlaydi.

- o'qitishning vositalarini tanlaydi;

- dars jarayonini rejalashtiradi.

YAXshi tayyorlangan darsni yana uyushgan holda aniq va samarali o'tkaza bilish ham kerak. Bunda quyilagi qoidalarga amal qilish lozim:

1) darsni aniq va uyushgan holda boshlash, buning uchun esa darsga hamma narsa oldindan tayyorlangan bo'lishi kerak;

2) o'quvchilar e'tiborini dars mazmuniga qarata bilish va uni butun dars davomida o'quchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirib saqlay bilish.

3) darsda vaqtdan oqilona foydalanish;

4) o'z hatti – harakatini kuzatish. YUksak ma'naviyat, ahloqiylik va madaniyat, gapirish va talab qilish, rag'batlantirish, o'kuvchilarga murojaat qilish uslubi bularning barchasi o'qituvchi faoliyatining uslubini belgilaydi, hamda o'quvchilarning zo'r berib ishlashi yoki o'ta emotsional qo'g'oluvchanligini istisno qiladi.

5) darsda tadbirkorlikni namoyish qilish yuzaga kelgan sharoitni darsni o'tkazish sharoitlaridagi o'zgarishlarni hisobga olish zarur.

Ta'lim tizimida tarix kursi oldiga qo'yilgan ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishning eng muhim shartlaridan biri har bir darsning ta'lim-tarbiya vazifalarini, shuningdek, uning boshqa darslar sistemasida tutgan o'rnini aniq belgilash va shu vazifalarni amalga oshirishdan iboratdir. Lekin har qanday tarbiyaviy vazifani ham, bir yoki bir necha darsda yoki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'tkaziladigan ayrim tadbirlar vositasida batamom mukammal hal qilib bo'lmaydi.

Har bir tarix darsida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tarix o'qitish oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifalarning qandaydir bir elementi amalga oshiriladi. SHuning uchun ham o'qituvchi har bir tarix darsiga tayyorlanishda bu dars oldin o'tilgan darslarning davomi, bu darsda hal qilinishi kerak bo'lgan ta'lim-tarbiya vazifalari esa oldingi yoki kelgusi darslarda bajariladigan ta'lim va tarbiya vazifalarining ajralmas bir tarkibiy qismi ekanligini unutmasligi kerak.

Har bir darsning ta'lim-tarbiya vazifalari o'z-o'zidan emas, balki o'qituvchining ongli va rejali ishi asosidagina muvaffaqiyatli amalga oshiriluvchi mumkin. O'qituvchi darsga tayyorlanayotganda o'quv dasturining hajmi va mazmunini hisobga olib material tanlaydi, dastur va darslik asosida dars rejasini tuzadi, materialni joylashtiradi va uni bayon qilishda hujjat va boshqa ko'rsatmali qurollardan foydalanish metodlarini belgilaydi.

Ammo, bu ishlar o'qituvchi darsning asosiy g'oyasini, undan ko'zlanayotgan ta'lim-tarbiya vazifalarini, darsda nimaga erishish, o'quvchilarda qanday tasavvur va tushuncha xosil qilish kerakligini aniq va to'g'ri hal qilgan taqdirdagina o'qituvchi ko'zlangan maqsadga erishishi mumkin. Darsning bosh g'oyasi va uning tarbiyaviy vazifalari to'g'ri va aniq belgilanmay o'tkazilgan dars dasturida ko'rsatilgan faktlarni tasodifan, shunchaki sanab o'tishdan iborat bo'lib qoladi.

Material tanlash va uni izchillik bilan joylashtirish, darsda qo'llaniladigan butun didaktik usullar va metodik vositalarning hammasi darsning bosh g'oyasiga, uning ta'lim va tarbiya vazifalarini hal etish maqsadiga bo'ysundirilishi kerak.

Demak, tarix darslarining mohiyatini ta'lim jarayoni tashkil qiladi. Ta'lim jarayonining ob'ektiv qonuniyatlariga asoslanib, tarix darslarini turlarga bo'linishi masalasini to'g'ri hal qilish mumkin. Darsning har xil turlariga xarakteristika berishda o'quvchilarni tarixiy voqealarni idrok qilishga tayyorlash, materialni tahlil qilishga, asosiy tarixiy faktlar, tushunchalar va qonuniyatlarni anglab olishga, umumlashtirishga, olgan bilimlaridan zarur paytda foydalanishga o'rgatish kabi ta'lim jarayonlari e'tiborga olinadi. O'qituvchi o'quv materialini bayon qilish jarayonida uni tahlil qilib boradi va umumlashtiradi. Biroq, ba'zi murakkab mavzular va bo'limlar yuzasidan maxsus tahlil qilish darslari, tarix kursining g'oyaviy mazmuni, ta'lim qonuniyatlari bilan bog'lab maxsus umumlashtiruvchi - takrorlash darslari o'tkaziladi. Har bir darsda, o'quvchilarda xarita, har xil suratlar, bezaklar ustida ishlash, jadvallar, reja va konspekt tuzish ko'nikma va malakalari hosil qilish yuzasidan ish olib boriladi.

Undan tashqari, o'qitishning ilmiy asosda tashkil qilinishi o'qituvchining darsda har xil vazifalarni muvaffaqiyatli bajara bilishiga bog'liq. Tarixni o'qitishda tarixiy voqealarni bayon qilib berish va uni navbatdagi darsda so'rashdan iborat emas. O'qituvchi o'quvchilarni tarixiy voqealar ustida mustaqil fikrlashga, o'rganilgan tarixiy materiallardan tegishli xulosalar chiqarib olishga, uni umumlashtirishga, mavzular va umuman kursning asosiy masalalarini puxta o'zlashtirib olishga, turli matnlar, xaritalar bilan mustaqil ishlaybilishga, reja, konspekt, xronologik va sinxronistik jadvallar tuzishga, ma'ruza va referatlar tayyorlashga, diagrammalar mazmunini tushunishga o'rgatishi lozim.

Referat - bu o'quvchilar mustaqil ishlarining samarali shakllaridan biri bo'lib, unda yoritiladigan masalalar mazmunini oldindan rejalashtirish, referatni tayyorlash va muhokama qilishning barcha bosqichlarida o'qituvchining tashkiliy-uslubiy yordami va maslahati asosidagina samarali amalga oshishi mumkin. Bu erda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning referat ishlariga rahbarlik qilish qanchalik batafsil va malakali amalga oshirilganligi va referatlarga talablar mezoni qanchalik to'g'ri qo'yilganligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Topshiriq o'quvchilarning referat yozish ko'nikmalarini, ilmiy qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olgan holda berilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ko'rgazmali vositalar tayyorlash. O'quvchiga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar tayyorlash vazifasi topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, o'quvchiga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni o'quvchi tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha o'quvchiga yoki o'quvchilar guruhiga topshirish ham mumkin.

O'quvchiga mustaqil ish sifatida muayyai mavzu bo'yicha testlar, keyinchalik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish vazifasi topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan o'quvchiga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali jihatlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi.

Tarix darslarini tasniflash, uning xilma-xil turlaridan foydalanish o'qituvchining shaxsiy xohishiga emas, balki ta'lim tizimida tarix kursining maqsadi, ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish zaruriyatidan kelib chiqadigan tarix ta'limining asosiy qonuniyatlari bilan bog'liqdir. SHuning uchun o'qituvchi dars turlarini tanlashda o'rganiladigan mavzuning mazmuni, xarakterini hamda uni o'quvchilarning ongli va puxta o'zlashtirishini, ya'ni ta'lim jarayonining asosiy qonuniyatlarini asos qilib olishi lozim. Dars turini bu yo'sinda tanlash esa ta'lim tizimida tarix o'qitishning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish hamda o'qitish metodlari va usullari haqidagi masalani ijodiy hal qilishga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. Dars turlari va tuzilishi (strukturasi)ni ayting.
2. Tarix darsi, unga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
3. Tarix fanining ta'lim-tarbiya vazifalarini aniqlash omillarini aniqlang.

3-mavzu: Tarix darsliklari va ularga qo'yiladigan talablar

(2soat ma'ruza)

1. Tarix darsligi bilim manbai va ta'lim vositasi sifatida
2. Tarix darsligining asosiy tarkibiy qismlari
3. O'quvchilarning darslik matni va illyustratsiyalar bilan ishlash usullari

Tayanch tushunchalar: *darslik, ta'lim vositasi, bilim manbai, darslikning tarkibiy qismlari, asosiy matn, qo'shimcha matn, izohlovchi matn, darslik komponentlari, illyustratsiya, metodik qism, shartli belgilar, darslikning nazorat vazifasi*

1. Tarix darsligi bilim manbai va ta'lim vositasi sifatida

Tarix o'qitishda qo'llaniladigan matnlarga - darslik matni, tarixiy hujjatlar, asarlar, ilmiy-ommabop va badiiy, tarixiy adabiyotlar va boshqalar kiradi. Bosma matnlar o'quvchilar tarixiy bilimlarining asosiy manbai bo'lgani kabi o'qituvchining bilim manbaini, bayonining asosini tashkil etadi. Tabiiydirki, o'qituvchi shu manbalardan turli va unumli foydalangan taqdirdagina, uning bayoni zamon talablariga, umuman ta'lim tizimidagi tarix ta'limining talablariga javob berishi, o'qituvchi bayonining o'quvchilarga tushunarli, mazmundor, maroqli va ilmiy jihatdan ishonarli, obrazli va ta'sirli bo'lishi mumkin. SHuningdek matnlar ustida ishlash o'quvchilar bilimini kengaytiradi, tarixiy fakt va hodisalarning mohiyatini, ularning qonuniyatlarini chuqurroq tushunib olishlariga yordam beradi, tarixiy fikrlash hosil bo'ladi, ular tarixiy voqealarga baho berishga o'rganadilar. Ta'lim tizimida o'quvchilar turli matnlar ustida mustaqil ish ko'rish malakasini hosil qiladilar va tarixiy tadqiqot ishlarining dastlabki metodlari bilan amaliy ravishda tanishadilar. O'qituvchi o'zining bayonini boshqa matnlar asosida yanada aniqlashtiradi va boyitadi.

Darslik – muayyan o'quv predmeti mazmunini o'quv dasturida ko'rsatilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilib beradigan manba hisoblanadi. **Darslik** — yuqori malakali va tajribali olim va pedagoglar tomonidan tuzilib, namunaviy dasturdagi g'oyalardan hamda didaktika tamoyillaridan kelib chiqib yaratiladi. Darslik o'qituvchi pedagoglarga va o'quvchilarga asosiy o'quv quroli bo'lib hisoblanib, oddiy va hamma tushunarli adabiy tilda yoziladi. Darslik barchaga umumiy yoki ta'lim xususiyatlaridan kelib chiqib maxsus bo'lishi mumkin.

Metodik qo'llanmalar, asosan, tajribali pedagoglar tomonidan yozilib, faqat o'qituvchi va pedagoglarga qo'shimcha o'quv quroli bo'lib xizmat qiladi.

Didaktik materiallar, pedagog tomonidan har bir darsga alohida tayyorlangan bo'lib, u dars mazmunini to'la ifodalash va o'quvchi-talabalar dars mazmuniga yaxshi tushunib etishlari uchun xizmat qiladi. Bularga har turli ko'rgazmali qurollar, turli muammoli vaziyatlarni yaratuvchi moslamalar, o'yinlar va hokazolar kiradi. Didaktik materiallar ham didaktikaning tamoyillariga mos ravishda yaratiladi.

Dars jarayoni faqat pedagogik usul va uslublar orqali amalga oshirilib, darsning ajralmas qismi hisoblanadi. Pedagogsiz va talabasiz hamda o'quv dastur va rejasiz dars o'tib bo'lmagani kabi, metod va usullarsiz darsni amalga oshirib bo'lmaydi.

Darslik matni o'quvchilarning darsda va darsdan tashqari tarixni o'rganish, o'zlashtirish va uni esda saqlab qolishining, bilish faoliyatining, ijodiy izlanish ishlarini olib borishning muhim manbaidir. Matn va ulardagi savollar, topshiriqlar tarix kursining mazmunini ijodiy o'zlashtirishga va olingan bilimlarni hayotda qo'llashga o'rgatadi.

Darslik matni ustidagi ishlash o'quv materialini o'zlashtirish va uni esda saqlab qolish, o'quv tekstini tahlil qilish va undan tarixiy voqea, hodisalarning muhim belgilarini topish, faktik materiallarni va tarixiy faktlarning muhim belgilarini bir-biriga takqoslash, aniqlashtirish va umumlashtirish kabi turli xil maqsadlarda olib boriladi. SHuningdek, matn ustida ishlashda xronologiyani tayyor tarixiy tushunchalar ta'rifini o'zlashtirish va ularni mustaqil aniqlash, darslikda bayon qilingan voqea va hodisalarning rivojlanishini kuzatib borish, aniq tarixiy faktlar va statistik ma'lumotlar asosida ijtimoiy rivojlanish tendensiyalarini bilib olish, mahalliy, vaqtli, sabab-natijali va tarixiy aloqalarning qonuniyatlarini o'zlashtirish va aniqlashtirish, lug'at ishlarini mazmunli va suratli rejalar, jadvallar tuzish va boshqa shu kabi murakkab bo'lmagan yozuv va grafika ishlarini olib borish, matn ustida dasturlashgan ta'lim elementlarini amalga oshirish kabi vazifalar ham ko'zda tutiladi.

3. O'quvchilarning darslik matni va illyustratsiyalar bilan ishlash usullari

Darslik matni ustida ishlashning quyidagi usullari mavjud:

1. Tushuntirib va izohlab o'qish. V sinfda tarixdan hikoyalarni o'rganishda va VI sinfda jahon tarixini o'qitishda o'qituvchi butun mavzu yoki uning biror bo'limini goh bayon qiladi va goh darslik matnini o'qib, tushuntirib beradi. O'qituvchi matnni murakkab joylariga kelganda hikoyasini to'xtatib, matnni ovoz chiqarib ohista o'qib beradi, o'quvchilar esa matnga qarab kuzatib borishadi, tushunish oson joylarni o'quvchilarning o'zlariga ham o'qitish mumkin. Matnni o'qish jarayonidayoq uning mazmunini o'quvchilar tomonidan tushunish darajasi tekshirib boriladi. O'qituvchi savollar berib o'zining bayoni davomida darslik matniga tez-tez murojaat qilib, undagi yangi iboralar, terminlarni, qiyin jumlar mazmunini tushuntirib beradi. Bu bilan o'qituvchi o'quvchilarni darslik matnini e'tibor berib, tushunib o'qishga o'rgatadi, ularning darslik matnini puxta o'rganib olishning ahamiyatini anglab olishlariga yordam beradi, uyda darslik ustida mustaqil ishlashlarigatayyorlaydi. O'quvchilar tarixiy materialni tushunib, matnni o'qishda ma'lum darajada malaka hosil qilganlaridan keyin matnning eng muhim va qiyin joylarini izohlab o'qishga o'tiladi. Izohli o'qish ham o'qituvchining bayoni bilan birga olib boriladi.

2. O'qituvchining o'z bayonida o'quvchilar diqqatini darslik matnidagi tayanch atama va iboralarga jalb etadi. Ularning mazmunini tushuntirib beradi, o'quvchilarning mavjud bilimlariga suyanib bu tushunchalarning lug'aviy ma'nosi va mazmunini, asosiy jihatlarini, sabab-natijalarini, ular o'rtasidagi bog'liqliklarni hamda qonuniyatlarini o'zlashtirib olishlariga yordam ko'rsatadi. Bunda o'quvchilar bilim olishining har uchala manbai og'zaki bayon, matn ustida ishlash, ko'rsatmalilik va amaliy ish metodlari ishtirok etadi.

3. Darslik matni mazmunini o'zlashtirishda uning har bir paragrafini tahlil qilish va ular ustida o'quvchilarning mulohazalarini uyushtirish katta ahamiyatga egadir. Darsning barcha bosqichlarida darslik matniga murojaat qilib borish maqsadga muvofiq.

4. O'quvchilar bob, paragraf va undagi bo'limlarni bir-biridan ajrata bilishga o'rgatiladi. O'qituvchi yangi materialni bayon qilishdan oldin o'quvchilarga shu paragraf ichidagi kichik

sarlavhalarni o'qishni tavsiya qiladi va darsni bayon qilish rejasi bilan tanishtiradi, ularning mazmuni va ifodalanishidagi tafovutlarning sabablarini izohlab beradi. O'qituvchi o'zining bayoni davomida kichik sarlavhalar ichidagi mavzularga takror-takror aytishi mumkin.

5. Darslik teksti mazmunini bevosita o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan ishlar. Bu darslik matni ustida olib boriladigan ishning markaziy masalasidir. Bu ishlar matni tahlil qilish, umumlashtirish, tarixiy faktlarga baho berish, ular o'rtasidagi sabab va boshqa aloqalarni ochib ko'rsatish va ularni taqqoslashdan iboratdir. Bu ishlar quyidagi metodik usullar bilan:

a) har bir paragraf yoki mavzu mazmunining eng muhim masalalari yuzasidan nazorat so'roqlar tuzdirish yo'li bilan;

b) o'qituvchi bergan savollarga o'quvchilarning darslik matnidan javob topish yo'li bilan;

v) darslik matnidan o'qituvchining xulosasini tasdiqlovchi faktlarni toptirish yo'li bilan;

g) darslik matnida bayon etilgan voqealarning bir-biriga o'xshashligini, farqlarini aniqlash yo'li bilan;

d) tasdiqlab berishni talab qiladigan vazifalar bilan amalga oshiriladi.

6. Darslik matni ustida ishlashning muhim jihatlaridan biri — o'quvchilarni uyda ishlash uchun beriladigan vazifani bajarishga o'rgatishdir. O'quvchilar bu vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun topshirilgan vazifaning mazmunini va uni bajarish yo'lini yaxshi anglab olishlari shart. Binobarin, o'qituvchi uy vazifasini topshirishda, uning xarakterini belgilashda o'quvchilarning bilim va malakalarini e'tiborga olishi, beriladigan vazifa oldingidan ko'ra murakkab bo'lishi va shu bilan ularning bilimlari va malakalari oshib borishiga xizmat qilishi lozim. Reja tuzish, shunga muvofiq hikoya qilishga o'rgatish, matn yuzasidan berilgan savollarga javob topish, jadval, chizma, diagrammalar tuzdirish va boshqa xil grafik ishlarni bajarish uy vazifasini ijodiy va mustaqil bajarish namunalardir.

7. O'quvchilarni darslik matnidan zarur joyni tez topa bilishga o'rgatish ham ta'limning muhim jihatidir.

8. O'quvchilarning faol aqliy faoliyatining muhim metodlaridan biri, ularning o'qituvchi bayon qilgan yangi materialni o'zlashtirishda mavjud bilimlarni ishga sola bilishidir. Har bir darsda o'quvchilarni mavjud bilimlardan foydalana bilishga o'rgatish lozim. O'quvchilar olgan bilimlarini esdan chiqarib yubormasliklari uchun vaqti-vaqti bilan ularning e'tibori darslik matniga qaratiladi.

9. O'quvchilar darslik matnidagi ma'lumotlarni kichik guruhlariga bo'lib muhokama qilishadi.

10. Uy vazifasi uchun berilgan topshiriqlarni o'quvchilar qanday bajarganliklarini tekshirishda, og'zaki yoki test javoblaridagi xatolarni, aniqsizliklarni to'g'rilash uchun darslik matniga murojaat qilinadi.

SHunday qilib, darslik matni ustidagi ishlar turli xil metodik usullar yordamida, o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida — materialni o'zlashtirish, bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish darajasini tekshirish paytlarida olib boriladi va hokazo.

Darslik matni ustida olib boriladigan ishlar o'qituvchi bayonini mazmunan boyitadi, dolzarbligini oshiradi, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi va ularning darslik matnini osonroq va puxta o'zlashtirib olishlariga yordam beradi.

Tarixiy hujjat avvalo, o'qituvchining bayonini aniqlashtirish uchun xizmat kiladi, bayonning ishonchli va emotsional bo'lishini ta'minlaydi, o'tmishning yorqin obrazlarini, tarixiy voqealarning yaxlit manzarasini gavdalantirishga, o'rganilayotgan davr xususiyatlarini anglab olishga yordam beradi. Hujjat ustida ishlash o'quvchilarni faktlar va hodisalarni mustaqil ravishda aniqlashga, ularni puxta anglab olib, xulosalar chiqarishga o'rgatadi. SHu bilanbirga hujjat ma'lum vaziyatni aniqlashga, ahamiyatini bilib olishga, tarixni ob'ektiv nuqtai nazardan tushunishga yordam beradiki ularning bilish faoliyatini, fikrlashini faollashtiradi, o'quv ishlari faoliyatining yangi usullari bilan qurollantiradi, zarur bo'lgan malaka davrimizning ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi hujjatlarini o'qib, tushunib olish malakasini hosil qiladi.

Tarixiy hujjatlar bilan ishlashning yana bir muhim tomoni shundaki, bu ish o'quvchilarni tarixiy tadqiqot metodining elementlari bilan tanishtiradi hamda ularni tarixiy hujjatlarni tahlil qilishga, ularga tanqidiy qarashga o'rgatadi.

Ta'lim tizimida ta'limning yangi mazmuni amalga oshishi munosabati bilan tarix o'qitishda tarixiy hujjatlarning ahamiyati yanada oshdi. Yangi dastur asosida yozilgan darsliklar mazmunining asosiy qismini tarixiy hujjatlar tashkil etadi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham tarixiy hujjatlar bilan ishlash zaruriy bo'lib qoldi. Shuning uchun ham bu ish maktab ta'limi tajribasida ommaviy tus oldi.


Darsliklardagi tarixiy hujjatlar har bir sinfdagi o'quvchilarning yoshi, bilim saviyasi, o'sha sinfda o'rganiladigan tarix kursining xususiyatlariga qarab kiritilishi muhim. Shu sababdan darsliklardagi tarixiy hujjatlar o'zlarining xarakteri, ko'lami va mazmuni jihatidan bir-biridan farq qiladi.

VI sinf o'quvchilarining psixologik va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning tarixiy hujjatlar bilan birinchi marta tanishishlarini e'tiborga olib, darslikka asosan hikoya va tavsiflab berish xarakteridagi hujjatlar kiritilgan. Tarix darsligiga kiritilgan hujjatli manbalarni asosan uch guruhga bo'lish mumkin: 1) moddiy madaniyat buyumlari, 2) tasviriy san'at asarlari, 3) yozma manbalar.

1) *Moddiy madaniyat buyumlariga* — bizgacha saqlanib kelayotgan yoki ilmiy asosda qayta tiklangan burungi mehnat qurollari, qurol-yarog'lar, zeb-ziyat buyumlari, uy-ro'zg'or anjomlari, turar joylar, qo'rg'onlar, maqbaralar, qadimgi shahar xarobalari va boshqalar kiradi. O'quvchilar mehnat qurollari va boshqalarga qarab, odamlarning mashg'ulotlarini, hashamatli imoratlar va pastqam kulbalarga qarab sinfiy bo'linish mavjudligini, diniy marosimlarga va kishilarning dafn qilinishidagi rasm-rusumlarga doir topildiqlar asosida o'sha zamondagi diniy e'tiqodlarini bilib oladilar.

2) *Tasviriy san'at asarlariga* — moddiy voqelikni, odamlar va ularning bir-biriga munosabatini hamda ularning tevarak-atrofidagi narsalarni - har xil buyumlarni, geografik muhitni bevosita tasvirlab beruvchi asarlar, odamlarning afsonaviy qahramonlar va hokazolar haqidagi hayoliytasavvurlarini aks ettiruvchi asarlar kiradi.

3) *YOzma manbalar* — qonunlar, buyruqlar, ho'jalik ishlariga doir yozuvlar, shartnomalar, xizmat vazifasiga oid yozishmalar, siyosiy nutqlar, sud hukmlari, yilnomalar, xronikalar, memuarlar, shahar va mamlakatlar tasvirlab yozilgan asarlar, xatlar va yozuvlar kiradi. Qadimgi dunyo tarixida berilgan bu hujjatli materiallar o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.



2019-2020-o'quv yili uchun Ijtimoiy-gumanitar fanlar bloki o'quv dasturlari va darsliklariga qanday yangiliklar kiritilgan?

2019-2020-O'QUV YILI UCHUN ME'YORIY HUJJATLAR:

1

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI VA OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGINING 2010-YIL 1-IYULDAGI 6/2/4/1-SONLI QO'SHMA HAY'AT MAJLISI QARORI

2

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASININ 2017-YIL 6-APRELDAGI 187-SON QARORI

3

XALQ TA'LIMI VAZIRINING 2018-YIL 28-AVGUSTDAGI 216-SONLI BUYRUG'I


Активация Wind
Чтобы активировать
параметры компью

2019-2020-o'quv yili uchun takomillashtirilgan o'quv dasturlari va darsliklar

1-3-sinf:
Odobnoma

8-9-sinf:
O'zbekiston tarixi
va Jahon tarixi

8-sinf O'zbekiston
davlati va huquqi
asoslari, 9-sinf
Konstitutsiyaviy
huquq asoslari



Активация Wind
Чтобы активировать V
параметрам компью







Yangi dasturlarning afzalligi

- o'quv predmetlari va boshqa fan bloklari o'rtasida uzviylik ta'minlangan;
- fanlararo integratsiyasini amalga oshirish uchun takroriy mavzular o'quv dasturlaridan chiqarib tashlandi hamda takomillashtirildi.




Активация Wind
Чтобы активировать V
параметрам компью

2019-2020-o'quv yilida qayta nashr etilgan 8-9-sinf Tarix darsliklari



Активация Windows
Чтобы активировать V
параметрам компьюти






1. 5 ta bob, 32 ta mavzu, 2 ta nazorat ishi, 4 ta takrorlash;

2. 3 ta yangi mavzu kiritildi, darslik muqovasi yangilandi, 10 ta rasm qo'shildi;

3. Mavzuga oid Kino-foto-fono materiallar bilan ishlash va xarita bilan ishlashga doir topshiriqlar berildi;

4. 2 ta mavzu chiqarib tashlandi

Активация Windows
Чтобы активировать Windows, перейдите на страницу активации Windows.



1. 4 bo'lim, 8 bob, 41 ta mavzu, 2 ta nazorat ishi, 5 ta takrorlash;

2. 9-, 26-, 32-, 41-mavzularga qo'shimcha ma'lumotlar kiritildi;

3. Darslik muqovasi yangilandi, 4 ta rasm qo'shildi.

Активация Windows
Чтобы активировать Windows, перейдите на страницу активации Windows.

O'QITUVCHILARGA
TAVSIYALAR



Dars jarayonida Ijtimoiy fanlarning bugungi kundagi ahamiyatini o'quvchilarga tushuntirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, farmoyishi va qarorlaridan samarali foydalanish;

Активация Windows
Чтобы активировать Windows, перейдите на страницу активации Windows.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

UMUMTA'LIM MAKTABLARI UCHUN MUQOBIL DARSLIK LARNI YARATISH VA
ULARDAN FOYDALANISH TIZIMIGA BOSQICHMA-BOSQICH O'TISH MEXANIZMINI
JORIY ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

Umumta'lim maktablari uchun yaratilayotgan darsliklar va o'quv-metodik majmualarning sifatini oshirish, o'quvchilarni darsliklar bilan to'liq ta'minlash, sifatli darsliklarni tanlash imkoniyatlarini kengaytirish, raqobatbardosh, muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish tizimiga bosqichma-bosqich o'tish mexanizmini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Umumta'lim maktablari uchun muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish to'g'risidagi nizom [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi:

umumta'lim maktablari uchun yaratiladigan muqobil darsliklarni tayanch maktablarda 2020-2021 o'quv yilidan boshlab tajriba-sinovdan o'tkazsin;

tajriba-sinov natijalaridan olingan xulosalar asosida muqobil darsliklardan foydalanishni bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish choralarini ko'rsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari A.A. Abduhakimov va O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vaziri SH.X. SHermatov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,

2019 yil 5 aprel,

281-son

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 5 apreldagi 281-son [qaroriga](#)

ILOVA

Umumta'lim maktablari uchun muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish to'g'risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom xalq ta'limi tizimida umumta'lim maktablari uchun muqobil darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalarni yaratish, ularni topshirish va qabul qilish, ekspertizadan va tajriba-sinovdan o'tkazish, tasdiqlash va amaliyotga joriy etish tartibini belgilaydi.

Umumta'lim maktablari uchun muqobil darsliklarni yaratish va ularni ekspertizadan, tajriba-sinovdan o'tkazish, tasdiqlash va amaliyotga joriy etish [ilovaga](#) muvofiq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

muqobil darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar — O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan bitta o'quv fanidan o'quvchilarga tavsiya etilgan asosiy darsliklar bilan bir qatorda alohida yoki qo'shimcha ravishda foydalanish mumkin bo'lgan darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalar;

ijodiy jamoalar — O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalarni belgilangan talablar asosida chop etishga tayyor mahsulot (original maket) ko'rinishida taqdim etuvchilar, tuzuvchilar, davlat va nodavlat hamda xorijiy tashkilotlar, nashriyot va matbaa korxonalar, dizayn studiyalar va boshqa tashkilotlar;

original maket — chop etish uchun bosmaxonaga topshirishga to'liq tayyor bo'lgan, barcha matn va grafik axborotlar chop etishgacha bo'lgan tayyorgarlikdan o'tkazilib, tashqi ko'rinishi va tuzilishi jihatidan yakuniy bosqichga etkazilgan mahsulotning (nashrning) chop etilgan varianti (kitob) yoki elektron ko'rinishidagi asl nusxasi;

ekspertlar guruhi — O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzurida vazirlikning buyrug‘i bilan turli fan yo‘nalishlari bo‘yicha tashkil etiladigan original maketlarni baholovchi mutaxassislardan iborat guruh;

Muvofiqlashtiruvchi kengash — O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Umumiy o‘rta ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari hamda darsliklarni qayta ko‘rib chiqish va yangilarini yaratish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash;

tayanch maktablar — muqobil darsliklarni tajriba-sinovdan o‘tkazish uchun Xalq ta’limi vazirligi tomonidan belgilangan maktablar;

Ishchi organ — O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi Muvofiqlashtiruvchi kengashining ishchi organi.

2-bob. Muqobil darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni yaratish

3. Muqobil darsliklarni yaratishga qo‘yiladigan talablar O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda vazirlik deb ataladi) keyingi o‘quv yillarida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quvchilari hamda o‘qituvchilari foydalanishlari uchun tavsiya etiladigan darsliklar hamda o‘quv-metodik qo‘llanmalarning ro‘yxatini va yaratilishi lozim bo‘lgan muqobil darsliklar hamda o‘quv-metodik qo‘llanmalarga qo‘yiladigan talablarni ommaviy axborot vositalari va vazirlikning Internet jahon axborot tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida muqobil darsliklarni yaratishdan bir yil oldin e‘lon qiladi.

E‘londa tayyor original maketlarni topshirish va ularga qo‘yiladigan talablarning amal qilish muddatlari ko‘rsatiladi.

5. Mazkur e‘londa ko‘rsatilgan talablar bo‘yicha va muddatlarda muqobil darsliklar hamda o‘quv-metodik qo‘llanmalarning original maketlarini yaratish istagini bildirgan ijodiy jamoalar ishtirok etish taklifini Ishchi organga rasmiy xat bilan taqdim etadi va belgilangan muddatlarda original maketlarni tayyorlaydi.

3-bob. Muqobil darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni topshirish va qabul qilish

6. Yaratilgan (ishlab chiqilgan, tuzilgan) muqobil darsliklar hamda o‘quv-metodik qo‘llanmalar original maket holatida Ishchi organga ko‘rib chiqish uchun belgilangan tartib va muddatlarda rasman taqdim etiladi.

7. Ishchi organ taqdim etilgan original maketlarni qabul qiladi va rasmiylashtiradi.

4-bob. Original maketlarni ekspertizadan o‘tkazish

8. Ishchi organ qabul qilib olingan original maketlarni qabul qilingan kunning o‘zida vazirlik huzurida vazirning buyrug‘i bilan tashkil etiladigan ekspertlar guruhiga taqdim etadi.

9. Ekspertlar guruhi taqdim etilgan original maketlarning chop etilgan varianti hamda elektron nusxalarini vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan baholash mezonida ular qabul qilingan kundan boshlab ikki oy muddatda ekspertizadan o‘tkazadi hamda tegishli xulosalarni Ishchi organga taqdim etadi.

10. Ishchi organ o‘tkazilgan ekspertiza natijalariga asosan eng yuqori baholangan muqobil darsliklarning (majmualarning) original maketlarini tajriba-sinovdan o‘tkazishga rozilik olish maqsadida Muvofiqlashtiruvchi kengashga ekspertiza yakunlangandan so‘ng 1 hafta muddat ichida taqdim etadi.

5-bob. Muqobil darsliklarni tajriba-sinovdan o‘tkazish

11. Ishchi organ tomonidan muqobil darsliklarni respublikada tajriba-sinovdan o‘tkazish uchun tayanch umumta’lim maktablari ro‘yxati Muvofiqlashtiruvchi kengashga taqdim etiladi.

12. Muvofiqlashtiruvchi kengashning qarori asosida muqobil darsliklar tajriba-sinovdan o‘tkazish uchun tayanch umumta’lim maktablari tanlanadi va bir o‘quv yili davomida tajriba-sinovdan o‘tkaziladi.

13. Muqobil darsliklarni tayanch umumta'lim maktablarida tajriba-sinovdan o'tkazish bilan birga mazmunan, dizayn jihatdan takomillashtirish maqsadida ular vazirlikning Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytida onlayn tarzda keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yilib, taklif va fikr-mulohazalar olinadi.

6-bob. Umumta'lim maktablari uchun darsliklarni tasdiqlash va amaliyotga joriy etish

14. Tajriba-sinov hamda keng jamoatchilik muhokamasi natijalariga asosan bir oy muddatda har bir fan yo'nalishi bo'yicha taklif-mulohazalar Ishchi organ tomonidan umumlashiriladi hamda darsliklar va o'quv-metodik majmualarni tasdiqlash uchun Muvofiqlashtiruvchi kengashga taqdim etiladi.

15. Muqobil darsliklar va ularni yaratgan ijodiy jamoalarni aniqlash bo'yicha yakuniy qaror Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan qabul qilinadi va qaror tegishli bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Baholash mezonlariga ko'ra, har bir fan uchun (fanning o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda) qo'yilgan umumiy maksimal ballning 95 foizidan yuqori ball olgan muqobil darsliklar umumta'lim maktablari uchun ijara tizimi asosida yaratilgan darsliklar bilan bir qatorda ixtiyoriy ravishda foydalanishga tavsiya etiladi, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi hamda elektron tarzda vazirlikning Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

16. Umumta'lim maktablarini muqobil darsliklar bilan ta'minlash ixtiyoriy ravishda ot-onalar, maktab pedagogik jamoalari va homiylik xayriyalari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

7-bob. YAKUNLOVCHI QOIDA

17. Ushbu Nizom yuzasidan kelib chiqadigan nizoli masalalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Umumta'lim maktablari uchun raqobatbardosh, muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish to'g'risidagi nizomga

ILOVA

Umumta'lim maktablari uchun muqobil darsliklarni yaratish va ularni ekspertizadan, tajriba-sinovdan o'tkazish, tasdiqlash va amaliyotga joriy etish

SXEMASI

Bosqichlar	Sub'ektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Xalq ta'limi vazirligi	Keyingi o'quv yillarida umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilari hamda o'qituvchilar foydalanishlari uchun tavsiya etiladigan darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalarning ro'yxatini va yaratilishi lozim bo'lgan darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalarga qo'yiladigan talablarni ommaviy axborot vositalari va vazirlikning Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytida e'lon qilish.	Yaratishdan bir yil oldin
bosqich	Ijodiy jamoalar	1. Darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalarning original-maketlarini yaratishda ishtirok etish taklifini taqdim qilish; 2. Original maketlarni tayyorlash.	1. Ommaviy axborot vositalarida e'lon berilgan kundan boshlab, e'londa ko'rsatilgan muddatda; 2. E'lon berilgan kundan boshlab 1 yil davomida.
3-bosqich	1. Ijodiy jamoalar. 2. Respublika ta'lim markazi	1. Original maketlarni Respublika ta'lim markaziga taqdim etish; 2. Taqdim etilgan original maketlarni	E'londa belgilangan muddatlarda

			qabul qilish va rasmiylashtirish.	
4-bosqich	1. Respublika ta'lim markazi. 2. Ekspertlar guruhi.		1. Original maketlarni ekspertlar guruhiga taqdim etish. 2. Ekspertizadan o'tkazish va xulosalarni Respublika ta'lim markaziga topshirish.	1. Original maketlar qabul qilingan kunning o'zida; 2. Qabul qilingan kundan boshlab ikki oy muddatda.
5-bosqich	Respublika ta'lim markazi		Ekspertiza natijalarini Muvofiqlashtiruvchi kengashga taqdim etish.	Ekspertizadan keyin 1 hafta ichida
6-bosqich	Muvofiqlashtiruvchi Kengash		Muqobil darsliklarni tajriba-sinovdan o'tkazish uchun qaror qabul qilish	Ekspertizadan keyin 1 hafta ichida
7-bosqich	Xalq ta'limi vazirligi		Muqobil darsliklarni tajriba-sinovdan o'tkazish.	Bir o'quv yili davomida
8-bosqich	Respublika ta'lim markazi		Tajriba-sinov va jamoatchilik muhokamasi natijalarini umumlashtirish.	Tajriba-sinov va jamoatchilik muhokamasidan so'ng 1 oy muddatda
9-bosqich	Muvofiqlashtiruvchi Kengash Xalq ta'limi vazirligi		Muqobil darsliklarni aniqlash bo'yicha yakuniy qaror qabul qilish va foydalanishga tavsiya etish, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish hamda darsliklarni elektron tarzda vazirlikning Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytiga joylashtirish.	YAngi o'quv yili boshlangunga qadar

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.04.2019 y., 09/19/281/2892-son)

Nazorat savollari:

1. Tarix darsligining bilim manbai sifatidagi o'rnini izohlang.
2. Tarix darsligining asosiy komponentlarini izohlang.
3. Darslikdagi matn va matndan tashqari komponentlarni aniqlang.
4. Darslikning asosiy matniga qaysi komponentlar kiradi?
5. Darslikdagi metodik komponentlarni aniqlang.
6. O'quvchilarning darslik matni bilan ishlash usullariga misollar keltiring.

4-mavzu: Tarix o'qitishning metodlari va ularning klassifikatsiyasi. (2-soat ma'ruza)

Reja

1. Tarix o'qitish metodlari va usullari
2. Tarix o'qitish metodlari klassifikatsiyasi

Tayanch iboralar: o'qitish metodlari, usul, og'zaki bayon metodi, ko'rsatmali metod, amaliy metod, ma'ruza, suhbat, hikoya.

1. Tarix o'qitish metodlari va usullari

Metod - yunoncha "metodos" so'zdan olingan bo'lib, izlanish, bilish yo'li, nazariya, ta'limot, biror narsaga yo'l ma'nosini anglatadi. Aniq vazifani echishga bo'ysundirilgan, borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish yo'llarining yig'indisidir. SHuningdek, maqsadga erishishning aniq, qisqa va maqbul yo'li hisoblanadi. Metod-tarixiy tadqiqotlar jarayonida aniq maqsadga olib boruvchi usullar va jarayonlar yig'indisidan iborat. O'qitish metodi esa ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lum maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyat usullari yoki ta'limda maqsadga erishish, masalalarni hal qilish yo'llari, usullari tushuniladi. O'qitish metodi tarkibida usullar alohida ajralib turadi.

Usul – metodning tarkibiy qismi, metodni amalga oshirishda bir martagina qo'llaniladigan va alohida qadam hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, o'qitish metodlari har ikkala faoliyatning, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ahloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamda o'quvchilar tomonidan o'sha nazarda tutilgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida ko'llaniladigan usullarni o'z ichiga oladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda o'qitish metodlariga katta ahamiyat beriladi. Didaktika bilan shug'ullanuvchilar metodni o'quv jarayonining o'zagi, ko'zlangan maqsad va pirovard natijani bog'lovchi vosita deb izohlaydilar.

O'qitish metodi "o'qitishning maqsadi – mazmuni, metodi, shakli, usullari" tizimida muhim o'rin egallaydi. O'qitish metodi – murakkab, ko'p qirrali, ko'p sifatlarga ega bo'lgan ta'limdir. O'qitish metodida o'qitishning ob'ektiv qonuniyatlari, maqsadlari, mazmuni, tamoyillari, shakllari o'z aksini topadi. Metodlar boshqa didaktik kategoriyalarga dialektik bog'liq va biri boshqalarini taqozo qiladi, ya'ni o'qitishning maqsadi, mazmuni, shakli hosilasi sifatida metodlar didaktik kategoriyalarga aks ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim metodlari o'quv tarbiya jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, ularsiz ta'lim maqsadi, vazifalarini amalga oshirish, o'quv materiallarimazmunini o'zlashtirish mumkin emas. Ta'lim metodi vositasida o'qituvchi va o'quvchining faoliyati o'zaro muvofiqlashadi. Ta'lim metodi - o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lumot mazmuniga yo'naltirilgan faoliyatni tartibga solish yo'lidir.

Ayrim adabiyotlarda pedagoglar tomonidan —metod bilan —usul tushunchalarini chalkash ishlatish holatlari mavjud. O'qitish metodlarini muvaffaqiyatli amalga oshishi albatta usullarning mahorat bilan qo'llanilishiga bog'liq. Aksariyat pedagoglar —metod tushunchasini —usul deb tarjima qilib o'zlarini va tadqiqotchilarni ham chalg'itadilar. Bizningcha metod tushunchasini tarjima qilish kerak emas. Ta'limda metodlar tizimidan keng foydalanilgan taqdiridagina ta'lim-tarbiya ishlari sohasida natijarga erishish mumkin. G.Fuzailovning "Tarix o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmasida an'anaviy metodlar umumlashtirilib to'rtga ajratilib, ularning usullari ko'rsatilgan.

Ta'lim metodlari tizimi deb, eng muhim umumiy belgilari bilan o'zaro bog'langan, bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan metodlar guruhiga aytiladi. Bu metodlarning umumiy muhim belgilari - o'qitish va o'rganish usullari hamda o'qituvchi va o'quvchilarning tafakkur faoliyatidan iboratdir.

O'qitish metodlari usullari va o'quvchilar tafakkur faoliyatining turli shakllari o'rtasidagi o'zaro aloqa va ularning bir-biriga ko'rsatadigan ta'siri asosida bir tizimdagi metodlarning o'zaro bog'liqligi yuzaga keladi. Ta'lim tizimi tajribasida ko'rsatmali o'qitish deyarli hech qachon o'qituvchining bayonisiz qo'llanilmaydi, o'qituvchining bayoni ham doim ko'rsatmali vositalarga suyanadi. O'quvchilarning texnika vositalari, matnlar va boshqalar ustidagi amaliy faoliyati ta'limning ko'rsatmali va og'zaki usullari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

1. Tarix o'qitish metodlari klassifikatsiyasi

O'qitish metodlari va usullari orqali o'qituvchining o'qitishi va o'quvchilarning o'rganishi yoki bilish faoliyati tashkil etiladi.

O'qitish metodlari — o'qituvchining faol fikrlashi asosida o'quvchilarni o'qitishga, o'quvchilarning ilmiy bilimlarni o'zlashtirishi va amalda qo'llay bilishlariga, dunyoqarash va e'tiqod hosil qilishlariga, aqliy va jismoniy mehnat, ko'nikma va malakalarini egallashlariga, bilish va ijodiy qobiliyatlari o'sishiga yordam berishni ta'minlovchi usullaridan iboratdir.

Tarix o'qitish metodlari klassifikatsiyasi haqida pedagoglar turli fikrlarni bildirganlar. Bir-biri bilan bog'langan o'qitish metodlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1) og'zaki o'qitish metodi, (hikoya, monolog, dialog, suhbat, syujetli hikoya, tahlil qilib tushuntirish, tarixiy manbalar bilan ishlash; tarixiy adabiyotlar, tarixiy hujjatlarni izohlash) bu metod o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

2) ko'rsatmali ta'lim metodi (jadvallar, shartli-grafik illyustratsiyativ ko'rgazmalilik, surat tahlili, rasm, tarixiy xaritalar bilan ishlash);

3) ta'limning amaliy metodi (kontur xarita to'ldirish, mashq bajarish, o'quv topshiriqlarini yozma tayyorlash).

Og'zaki bayon metodi – o'qituvchining xotirasiga mo'ljallab tashkil etiladi, tuzilish jihatidan ularning tarkibi bir xil: o'qituvchi tushuntiradi, o'quvchilar tinglaydilar.

Hikoya. Bayon shaklidagi hikoyada o'qituvchi o'quv materiali mazmunini turlicha aytadi, uning asosiy va ikkinchi darajali xususiyatlarini izohlaydi.

Ma'ruza. Ma'ruza o'rta umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida, oliy o'quv yurtlarida foydalanadigan ta'lim usuli bo'lib, unda o'zaro ta'sir o'qituvchining bayoni va bolalarning tinglashi, ayrim omillar, asosiy g'oya va bog'lanishlarni yozib olish shaklida amal qiladi. Ma'ruza uchun vaqt o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, o'quv materiali hajmiga ko'ra belgilanadi.

Ma'ruza jarayonida o'quvchilarning faolligi, tashabbuskorligini oshirish maqsadida o'qituvchi o'z nutqini ko'rsatmali qurol, muammo va topshiriqlar bilan uyg'unlashtiradi. Ko'rinib turibdiki, boshqa metodlar, xususan ko'rsatmali va amaliy metodlar ham jalb etilmoqda. O'quv materialiga oid iboralarga izoh berish, ayrim o'rinlarda o'quvchilarning o'zlariga xulosa chiqarishni taklif etish o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatining samarasini oshiradi.

Suhbat. Suhbat o'qituvchi o'quvchining o'zaro ta'siri dialog shaklidagi ta'lim metodidir. Unda mavzu mazmuniga xos, atroflicha o'ylangan, bir-biriga bog'liq savollarni qo'yish va savollarga javob izlash hamda javob qaytarish yo'llari bilan o'qituvchi va o'quvchi faoliyati o'zaro muvofiqlashadi. Suhbat evristik ham bo'ladi. YA'ni, bunda o'quvchilarning tafakkuriga mo'ljallangan usul bo'lib, unda o'zaro ta'sir o'qituvchi savollari o'quvchilarning javoblari shaklida amalga oshiriladi. Evristik suhbat uzoq tarixga ega bo'lib, undan qadimgi Yunonistonda Suqrot mohirona foydalangan. U hozirgi ilmiy-didaktik tadqiqotlarda "izlanish suhbat" deb ham yuritiladi. Evristik suhbatning qator ijobiy tomonlari bo'lib, ijodiy yo'l bilan o'quv materialini o'rganish, o'zlashtirishning individual xarakter kasb etishi.

Ko'rsatmali metod. "Ming marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan yaxshi", - degan naqlga amal qilgan holda faqat og'zakibayon metodli darsdamateriallarni o'zlashtirish ko'rsatkichi 10%, bo'lgan sharoitda dars o'tish samarasiz bo'ladi. Mashg'ulotlarda o'quv materialni ko'rgazmali shaklda taqdim etish lozim. Ayniqsa tarix fanida an'anaviy didaktik materiallardan tashqari zamon bilan hamnafas bo'lgan holda namoyishli (kompyuter va axborot kommunikatsiya texnologiyalari) ko'rsatmalilik bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Ko'rsatmalilik didaktikada eng asosiy qoida bo'lib, uning yordamida ko'ruv o'quvi va va tafakkur o'zaro uyg'unlashadi. Ko'rsatmali metodlar eshitish va ko'rishni o'zaro uyg'unlashtirish vositasi hisoblanadi. SHu tufayli undan bilimlarni og'zaki bayon qilish metodlari bilan yonma-yon foydalanish tarix ta'limining samaradorligini oshiradi.

Ko'rsatmali metodning quyidagi turlari mavjud:

Illyustratsiya metodi – (matndan boshqa barcha komponentlar) xaritalar, rasmlar, chizmalar, jadvallar, sxemalar, diagrammalar, doskadagi yozuvlarga diqqatni tortish.

Namoyish (demonstratsiya) metodi – kinoapparat, AKT va boshqa videotasvirlardan foydalanib turli tasvirlarni namoyish qilish.

Tabiiy ko'rsatmali qurollar – narsalarning o'zi, predmetlar, mulyajlar, odamlar tomonidan tayyorlangan ish qurollari, maket, mulyaj va boshqalarni ko'rsatish.

Ko'rsatmalilik deganda, avvalo o'qitish va tarixiy bilimlarning o'rganishning ko'rsatmali usuli, o'qituvchi bayonining manbai va uni ko'rsatmali bo'lishi, uning o'quvchilardagi aniq, tayyor obrazlarga suyana bilishi, o'quv vositasi materialini bayon qilish vaqtida ko'rsatmali qurollardan foydalanish va ko'rsatmali qurollar vositasida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda ularning o'rganilayotgan tarixiy faktlarni, voqea va hodisalarni aynan o'zini yoki ularning tasvirlarini ko'rish yordamida o'rganishlari tushuniladi.

Tarixiy hujjatlar va badiiy adabiyotlardan foydalanish o'qituvchi bayonini obrazli qilib aniqlashtirsa, ko'rsatmali qurollar vositasida o'quvchilarda o'tmish to'g'risida yorqin va aniq tasavvur hosil bo'ladi, o'quvchilarning eshitish faoliyatiga ko'rish va sezish organlarining faoliyati ham qo'shiladi. SHu bilan ularning bilimi yanada chuqurlashadi, mustahkamlanadi.

Tarix o'qitishning ko'rsatmali bo'lishining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati ham katta. Avvalo ko'rsatmali qurol o'quvchilarning bilim olishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchining bayoni har qancha to'liq bo'lganda ham o'quvchilarning voqealar to'g'risidagi tasavvurlari to'la bo'lmaydi. SHuningdek, bezaklardan foydalanmay turib, o'rganilayotgandavrning manzarasini ham to'la, aniq va chuqur tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ko'rsatmali qurollar o'quvchilarning tarixiy tasavvurlariga aniqlik kiritish va bu tasavvurlarni aniqlashtirishga yordam beradi. Ko'rsatmali tasvirlar tarixiy fakt va hodisalarning tashqi ko'rinishinigina emas, balki ularning ichki mohiyatini ham ochib beradi. Ko'rsatmali qurollar o'quvchilarning murakkab tarixiy hodisalarni, tarixiy tushunchalarning ma'nosini osonroq tushunib olishlariga yordam beradi.

Ko'rsatmali qurollar o'quvchilarda tarixiy tushunchalarni shakllantirishga, ularning nazariy xulosalash va umumlashtirishga, yakunlarini, ijtimoiy rivojlanishning ob'ektiv qonuniyatlarini, o'zaro aloqalarni yaxshiroq tushunib olishlariga yordam beradi, shuningdek, o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashning muhim vositasi bo'lib ham xizmat qiladi.

SHu tariqa, ko'rsatmalilikning ahamiyati tarixiy faktlarni, hodisalarni ko'rish organlari ishtirokida mushohada etish va ular haqida aniq tasavvur hosil qilish bilan chegaralanmaydi, murakkab tarixiy hodisalarni, tushunchalarni tushunib olishni ham engillashtiradi, tarixni haqqoniy tushunishga yordam beradi.

SHunday qilib, ko'rsatmali metodi:

- 1) tarixiy bilimlarning asosiy manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi;
- 2) o'quv materialining ta'lim-tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi;
- 3) o'qituvchi bayonining aniq, obrazli va ta'sirchan bo'lishiga yordam beradi;
- 4) o'quvchilarning o'quv materialini o'rganishga qiziqishini oshiradi va ularning bilish faoliyatini faollashtiradi;
- 5) o'qituvchining bayonini va uning darsda qo'llangan boshqa o'quv usullarini o'quvchilarning tushunib olishini engillashtiradi;
- 6) o'quvchilarning fikrlash faoliyatini va ijodiy qobiliyatini o'stiradi;
- 7) o'quvchilar bilimining aniq, chuqur va mustahkam bo'lishiga yordam beradi.

Xarita va ularning turlari. Tarixiy xarita bilan ishlash geografik muhitga xarakteristika berishning asosiy metodini tashkil etadi. Tarixiy xaritalarda mavzu va voqea-hodisalar, jarayonlarning

mazmuni, davlatning chegaralari va boshqalar beriladi. Tarixiy kartalarning bir necha turlari bor: *tarixiy iqtisodiy, tarixiy etnografik, arxeologik, tarixiy-siyosiy, harbiy-tarixiy, tarixiy-madaniy*.

O'quv tarixiy xaritalari esa ta'limda foydalaniladi. Xaritalar hech qachon eskirmaydi. Eskirganlari ham o'z qadrini yo'qotmaydi, aksincha dolzarbligi yanada oshadi. Ammo o'sha davr tarixiga arxeologik izlanishlar yoki boshqa yozma manbalarning topilishi bilan yangi o'zgarishlar kiritilishi mumkin bo'lsada, baribir o'tgan davr tarixshunosligi haqida ham ma'lumot berish vazifasini o'taydi. Ularga qarab tanqidiy fikrni rivojlantirish ham mumkin.

6 - sinfda o'quvchilarga geografik muhit bilan odamlarning mashg'uloti o'rtasidagi aloqani ochib berish, xalqlarning tarixiy rivojlanishiga geografik muhitning ta'sirini ko'rsatish uchun katta imkoniyat bor.

Xarita yordamida biror mamlakatning tarixiy taraqqiyotida bosib o'tgan turli bosqichlardagi ahvolini aniq tasvirlab berish, o'quvchilarda birinchidan, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi haqida aniq tasavvur yaratishga, ikkinchidan, inson ajdodlari mehnatining bunyodkorlik kuchini puxta tushunib, anglab olishlariga yordam beradi. Binobarin, xarita bilan ishlash juda katta ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Darsda xaritadan foydalanib tarixiy voqea sodir bo'lgan joyni ko'rsatish, o'quvchilarda geografik muhitning roli haqida tasavvur yaratish uchungina emas, balki tarixiy voqealarning mohiyatini, ularning qonuniyatlarini, o'zaro aloqalari va sabab-natijalarni ochib berishda ham muhim rol o'ynaydi. Xaritadan tarixiy voqeani tushuntirib berishdagina emas, balki uni tahlil qilishda va umumlashtirishda ham foydalaniladi.

Xarita yordamida tarixiy voqealarning sabab-alloqalari ochib beriladi. Masalan, Amir Temur saltanatining yuksalishi sabablari ochib beriladi. Xarita darsning boshida o'rganilgan materialni tahlil qilish, umumlashtirish, tarixiy taraqqiyot rivojlanishining qonuniyatlarini ochib berishga yordam ko'rsatadi.

Tarixiy xarita o'quv materialini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi voqea bo'lib o'tgan joyini devorga osilgan xaritadan ko'rsatgan vaqtda o'quvchilarning o'sha joyni o'z xaritasi yoki atlasidan izlab topishi, o'qituvchi rahbarligida xaritaning tahlil qilinishi, o'quvchilarning o'z daftarlaridagi eskizlar va darslikdagi xaritalar ustida uyda mustaqil ishlashi, navbatdagi darsda berilgan savollarga xaritadan foydalanib javob berishi o'quv materialining puxta o'zlashtirilishi va uzoq vaqt esda saqlanishiga yordam beradi.

Tarix o'qitish tajribasida tarixiy xaritalarning uch turidan foydalaniladi:

1. **Umumiy xaritalar.** Ular bir mamlakat yoki bir guruh mamlakatlardagi tarixiy voqealarni, ularning mavqeini, tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichidagi ahvolni aks ettiradi.

2. **Obzor xaritalar.** O'rganiladigan voqealar rivojlanishining izchilligini uzoq davr mobaynida hududning o'zgarganligini aks ettiradi.

3. **Mavzuga doir xaritalar.** Ma'lum tarixiy voqealarga yoki tarixiy jarayonning ayrim tomonlariga bag'ishlanadi. Masalan, "Muqanna qo'zg'oloni".

Mavzuga doir xaritalarda ijtimoiy hayotga doir masalalar, chunonchi iqtisodiy masalaga, harakatlarga, mustaqillik uchun milliy ozodlik kurashlari yoki harbiy o'tmishga doir masalalar to'laroq yoritiladi. Darslik va atlasdagi xaritalarning ko'pchiligi tematik xaritalardir. O'qituvchi bosma yoki qo'lda tayyorlangan osma tematik xaritalardan ham foydalanadi.

Sxematik xaritalar yoki xarita-sxemalar ham tematik xaritalarning bir turidir.

Tarix darslarida o'quvchilarni mamlakatimizning tabiiy sharoiti va iqtisodiyotining rivojlanish tarixi bilan chuqurroq tanishtirish maqsadida tabiiy va iqtisodiy geografik xaritalardan ham foydalaniladi.

Birorta ham darsni xaritasiz tasavvur etish qiyin. Xarita tarix darsining eng zaruriy qo'llanmasi bo'lib hisoblanadi. Xarita avvalo o'rganiladigan mavzuga mos bo'lishi lozim. O'qituvchi voqealar

rivoji davomini bayoni jarayonida xaritadan ko'rsatib borishi, ayni vaqtda o'quvchilar o'qituvchi ko'rsatadigan joyni qo'llaridagi xarita yoki atlasdagi xaritadan izlab topishlari lozim.

Har bir yangi xarita o'rgana boshlanganda unga qisqacha obzor berish, uni o'rganilgan eski xarita bilan solishtirib, o'quvchilarni yangi xaritadagi o'zgarishlar bilan tanishtirish, ularning tarixiy taraqqiyotning izchilligi va har bir bosqichning o'ziga xos muhim xususiyatlarini anglab olishlariga yordam beradi. O'quvchilar ikki xaritani solishtirib mamlakat hududi toraygan yoki kengayganini, shaharlarning o'sganligi va boshqa o'zgarishlar yuz berganligini aniq tushunib oladilar.

O'qituvchi xarita yuzasidan savollar va topshiriqlar berish yo'li bilan o'quvchilarni 5-6-sinfdan boshlab xarita ustida ishlashga o'rgatib boradi. O'quvchilarni xaritani o'qib tushinishga, ulardan tarixiy bilimlar manbai sifatida foydalana bilishga o'rgatish kerak.

Tarix darslarida ta'limning texnika vositalaridan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi. Ta'limning texnika vositalari o'qitish va o'rganish sifatini ko'tarishga o'quvchilarning o'quv materialini qiziqib o'rganishiga va puxta o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Amaliy metod. Ta'limning amaliy metodida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri bolalar oldiga qo'yiladigan topshiriqlar hamda ularni qabul qilish shaklida amal qiladi:

Amaliy metodning quyidagi turlari mavjud:

1. **Laboratoriya** – tajribasida turli o'quv topshiriqlarni amalda bajarish. O'quvchilar turli mehnat quollaridan qaychi, chizgich, sirkul va boshqalardan foydalanib, chizish, qirqish, elimlash, o'lchash kabi ishlarni bajaradilar.

2. **Mashq** – o'rganilgan bilimlarni turli o'quv sharoitlariga tatbiq etish yo'lidir. Mashq vositasida turli malakalar – intellektual va aqliy malakalar tarkib toptiriladi.

Keyingi yillarda, ta'lim tizimi amaliyotida o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish, tarixiy tushunchalarni, jumladan ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlari haqidagi tushunchalarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlaydigan o'qitish va o'rganishning samarali usullari ishlab chiqildi.

Nazorat savollari:

1. Ta'lim metodlari va usullarini ayting. Ularning bir-biridan farqi qanday ?
2. Ta'lim metodlarini tanlash nimaga bog'liq ?
3. Tarix o'qitish metodlari klassifikatsiyasini ayting.
4. Ta'lim metodlarining bir-biriga bog'liqligini izohlang.

Reja

1. Tarixiy manbalar va ulardan dars jarayonida foydalanish
2. Tarix darslarida badiiy adabiyotlardan foydalanish

Tayanch iboralar: *adabiyotlar tasnifi, manba, moddiy yodgorliklar, ma'naviy yodgorliklar, etnografik manbalar, lingvistik manbalar, xalq og'zaki ijodi, yozma manbalar, mo'jaz rasm-miniatyuralar*

1. Tarixiy manbalar va ulardan dars jarayonida foydalanish

Tarixiy manba deganda uzoq o'tmishdan qolgan, tabiat va jamiyatning ma'lum bosqichdagi kechmishini o'zida aks ettirgan moddiy va ma'naviy yodgorliklarni tushunamiz.¹⁰ Moddiy yodgorliklarga - qadimiy obida, manzilgoh va mozor, shahar, qasr va qal'alar xarobalari, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqalar kiradi.

Ma'naviy yodgorliklar deganda – bitik, qo'lyozma kitob, hujjatlar va arxiv materiallari tushuniladi. Umuman tarixiy manba inson ijtimoiy faoliyati natijasida paydo bo'lgan va uning xususiyatlarini o'zida aks ettirgan moddiy va ma'naviy yodgorliklardan iborat.

Tarixiy manbalarni, ularning umumiy xarakteri, o'tmishni o'zida aks ettirishiga qarab quyidagi olti asosiy guruhga bo'lish mumkin:

1. Moddiy (ashyoviy) manbalar
2. Etnografik manbalar
3. Lingvistik manbalar
4. Xalq og'zaki ijodi
5. YOzma manbalar
6. Mo'jaz rasm-miniatyuralar

SHuningdek, manbashunoslik, tarix fanining bir qator yordamchi sohalari: xronologiya, numizmatika, paleografiya, diplomatika, geraldika, sfragistika, epigrafika, metrologiya fanlari ma'lumotlariga tayanadi.

O'qituvchining bayonining ilmiyligini, asosli va dalillarga boyitilishini va ishonchligini ta'minlash maqsadida tarixiy manbalardan olingan parcha, jumla, ifodalardan foydalanadi. Bunda albatta o'qituvchitarixiy asarlarning mavzuni o'qitishdagi asosiy o'rnini aniqlab olishi, asarning birinchi darajadagi asosiy manba ekanligini, ya'ni asarda tarixiy voqealar ob'ektiv va xolis yoritilgan bo'lishini aniqlashtirishi – bu yozma manbalardan foydalanishda asosiy shart ham hisoblanadi. CHunki shunday yozma manbalar ham borki ularga tarixchi tanqidiy yondashishi, boshqa manbalar bilan qiyosiy tadqiq va tahlil etgachgina dars jarayoniga jalb qilishi talab etiladi. Demak, tarixchi-pedagog manbashunoslikka oid adabiyotlarning tahlilini ham amalga oshiradigan mutaxassis bo'lishi ham talab etilar ekan. Buning uchun o'qituvchi manbashunoslikka oid qo'llanma va xrestomatiyalardan foydalanishi, ularda barcha mavzularga tegishli bo'lgan tarixiy yozma yodgorliklarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganmog'i lozim.

Bu ma'lumotlar T.Saidqulovning «O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixnavisligidan lavhalar»¹², akademik B. Ahmedovning «O'zbekiston tarixi manbalari»¹³, A. Madraimov va G.Fuzailova tuzgan «Tarixiy manbashunoslik»¹⁴, shuningdek izohlar bilan ta'minlangan tarjimasi amalga oshirilgan yozma manbalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tarix ta'limida tarix o'qitish tajribasida tarixiy manbalar bilan ishlashning quyidagi ikki usuli, ya'ni tarixiy hujjatlardan o'qituvchining bayonida foydalanish usuli bilan o'quvchilarning matn ustida ishlash usuli qo'llaniladi.

O'qituvchi tarixiy manba yoki xrestomatiyadan olingan hujjatning mazmuni va o'quvchilarning tayyorgarligiga qarab uni tahlil qilishi, o'quvchilarga hujjat yuzasidan savollar berishi yoki

umumlashtiruvchi suhbat yordamida tahlil qilishi mumkin. Tarixiy hujjatlar ustida ishlashda o'quvchilar ularni nima uchun xizmat qilishini, tanishilayotgan hujjatlar qachon va kimlar, qaysi tabaqa namoyandalari tomonidan yaratilganini, ulardan nimalarni bilib olish mumkinligini, qanday masalalarni bilib olishda hujjatlarga murojaat qilish kerakligini anglab, tushunib olishlari lozim.

Tarixiy manba va hujjatlar ustida ishlashning turli usullari bor.

1. O'qituvchi tarixiy hujjatni o'zi tahlil qilib berishi mumkin.
2. Tarixiy xujjatlarni o'qituvchining bevosita rahbarligida o'quvchilar darsda tahlil qilishi mumkin.
3. O'qituvchi o'quvchilarga ma'lum hujjatlarni uyda mustaqil tahlil qilib kelishni topshirishi mumkin.

Tushunish qiyin bo'lgan murakkab tarixiy hujjatlarni o'qituvchining o'zi o'qiydi, tahlil qilib izohlab beradi. O'quvchilar matnni kuzatib borishadi va o'qituvchining tushuntirishlarini diqqat bilan tinglaydilar. YUqorisinflarda hujjat izoh berib o'qiladi.

O'quvchilarga ularning bilim va malakalariga yarasha tushunarli hujjatlar tanlab berilgan va hujjatlar ustida mustaqil ishlashni ilgari ham mashq qilib ko'rgan bo'lsalar o'qituvchi vazifa qilib bergan hujjatlarni mustaqil o'qib, puxta tushunib olishlari mumkin. Lekin bunda ham o'qituvchi bu ishga rahbarlik qiladi, qiyin joylarini o'qituvchi rahbarligisiz, oson joylarini o'quvchilarning o'zlari mustaqil o'rganadilar. Xo'jalik, yuridik va shu kabi boshqa qiyinroq xarakterdagi hujjatlar o'qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi.

VIII sinfdan boshlab ba'zi darslar soatining bir qismi yoki butun dars hujjatlar ustida ishlashga bag'ishlanadi. O'quvchilarning darsda va uydagi mustaqil ishlariga talab ortib boradi. Tarixiy hujjatlar asosida qisqacha axborot va referatlar tayyorlash, hikoya qilishga tayyorlanish, insho yozish va h. q. O'quvchilarning hujjatlar ustidagi mustaqil ijodiy ishlari qatoriga kiradi. O'quvchilarni xujjatlarni o'rganishga qiziqtirish, bunga ularda ishtiyoq uyg'otish kerak. Buning uchun ularga xujjatlar ma'lum davrning moddiy yodgorligi va yangi bilimlarni egallashning muhim manbalaridan biri ekanligini alohida uqtirish lozim.

O'quvchilar qadimgi dunyo tarixining kirish qismida yozma manbalar haqida ma'lum tushuncha hosil qiladilar. Keyinchalik bu tushunchalar turli manbalarni yoki yodgorliklarni o'rganib borish, turli muzey va yozma manbalar bilan tanishish jarayonida konkretlashib, boyib, kengayib boradi. SHunday qilib, tarixiy hujjatlar o'qituvchi bayonini aniqlashtiradi, mazmunini chuqurlashtiradi, unga aniqlik kiritadi, ishonarli bo'lishini ta'minlaydi, o'quvchilarning bilish faoliyatini, fikrlashini faollashtiradi, bilimlari puxta va mustaxqam bo'lishiga yordam beradi, bilim olishning yangi usullari, ilmiy tadqiqot shakllari bilan tanishtiradi.

2. Tarix darslarida badiiy adabiyotlardan foydalanish

Vatan ishq, xalq farovonligi va komil inson masalasi adiblar ijodidagi bosh mavzu hisoblanadi. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllaridan biri - badiiy adabiyotdan foydalanish bo'lib, bunda o'quvchilar o'tmish haqida jonli tasavvur hosil qiladilar. Badiiy adabiyotning yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashdagi ahamiyati katta. Tarixiy-badiiy adabiyotlar tarixiy jarayonlarni o'zlashtirishda muhim omil hisoblanadi. Tarixiy-badiiy adabiyotlardan foydalanishda o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini inobatga olish muhimdir. Badiiy adabiyot obrazlaridan foydalanish o'qituvchi bayonining tarbiyaviy ahamiyatini oshirish bilan birga uning esda qolishini, darsning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi, hamdao'rganilayotgan tarixiy davr haqida to'liq tushuncha va tarixiy tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi. Ma'lum davrning ijtimoiy hodisalarini real aks ettiruvchi haqiqiy badiiy obraz, tipik obrazlar o'sha ijtimoiy hodisaning mohiyatini ifodalaydi.

O'qituvchi bayonida badiiy adabiyotdan olingan lavhalar bayonning ta'sirchan bo'lishini ham ta'minlaydi, o'rganilayotgan tarixiy voqealarga nisbatan o'quvchilarda xayrixoxlik, zavqlanish, afsuslanish kayfiyatlarini, nafrat yoki hayrat tuyg'ularini tug'diradi.

Tarix o'qitishda foydalaniladigan badiiy adabiyotlarni: 1-o'rganilayotgan davrning adabiy yodgorliklari va 2-tarixiy belletristik asarlaridan iborat ikki guruhga bo'lish mumkin.

Adabiy yodgorliklarga tarixiy hodisa va voqealarni o'z zamondoshlari yozib qoldirgan asarlar kiradi. Bu guruhga kirgan asarlar tarix fani uchun o'tmishning o'ziga xos manbai bo'lib xizmat qiladi. Badiiy adabiyot yodgorliklari yozib olingan og'zaki ijodiyot asarlarini: afsonalar, dostonlar, qo'shiqlar, masallar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bunday asarlarning juda ko'pida voqelik qayta-qayta ishlangan, xalq fantaziyasi bilan boyitilgan va bezatilgan bo'ladi. Voqelikni ob'ektiv suratda tasvir qilgan asarlar, yodgorliklar bizgacha etib kelmagan taqdirda uzoq o'tmishni, masalan qadimgi YUnoniston tarixini yoritib berishda ana shunday asarlardan ham tanqid g'alviridan o'tkazib foydalaniladi. Gomer davridagi jamiyat tarixi Gomer dostonlaridan va qisman yunon afsonalaridan olingan epizodlarni tahlil qilish asosida ta'riflab beriladi.

Badiiy yodgorliklarning asosiy ahamiyati shundan iboratki, ular o'z zamonidagi jamiyatning g'oyasini aks ettiradi va buni o'quvchilarning tushunib olishlariga, tarixiy hodisalar va arboblarning yorqin badiiy obrazlarini ravshan tasavvur qilishlariga yordam beradi. SHu bilan birga o'quvchilar badiiy adabiyotning jamiyat hayotidagi roli bilan ham aniq misollarda tanishadilar. Undagi ajoyib fazilatlar o'quvchilarga ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Qadimgi dunyo va o'rta asrlarda yaratilgan afsonalardan, qahramonlik dostonlari va boshqa adabiy asarlardan tarix darslarida foydalanganda, o'quvchilarni bu asarlarga tanqidiy ko'z bilan qarashga o'rgatib borish kerak. SHuningdek, ularga bu asarlar o'tmishdan qolgan badiiy yodgorliklar ekanligi, ulardan o'sha davrlarda bo'lib o'tgan voqealarga oid ba'zi ma'lumotlardan foydalanish va qay tariqa foydalanish mumkinligini, bu asarlarning qaysi joyi uydirma va qaysi joylarida real voqelik aks etganini tushuntirish lozim.

Belletristik asarlarga — tarixiy romanlar, tarixiy mavzularda yozilgan asarlar, o'rganiladigan davr haqidagi badiiy asar va hikoyalar kiradi. Bu asarlar tarixiy manbalar, memuarlar va hujjatlar, ilmiy tekshirish ishlari va monografiyalarni o'rganish asosida yozilgan bo'lib, ularda o'tmish voqealari badiiy tasvirlar va badiiy obrazlar orqali ifodalanadi. Belletristika tarix fani uchun hujjatli manba bo'la olmasada, o'quvchilarga o'tmishni aniq tushuntirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy romanlarni o'qish natijasida o'quvchilarda tarixga qiziqish uyg'onadi.

O'rganilayotgan davrga doir adabiy yodgorliklar tarix darslarida ko'pincha dars materialini xulosalash va umumlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Belletristika bayon qilinayotgan o'quv materialini aniqlashtirishga va bayonni maroqli qilishga yordam beradi.

O'qituvchi badiiy adabiyotni tanlashda materialning ta'lim-tarbiyaviy jihatdan qimmatini, shuningdek tarixiy hodisalarning naqadar haqqoniy real va ilmiy qilib yoritilganligini e'tiborga olishi talab etiladi.

O'qituvchi o'z bayonida badiiy adabiyotlardan foydalanish bilan birga o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari badiiy asarlarni o'qishlari ustidan doimiy nazorat olib boradi.

Badiiy adabiyotning qimmatini o'quvchi voqelikni adibning iste'dodi darajasida idrok etishga, uni ko'zi bilan ko'rishga, uning shaxsi orqali, ma'naviy dunyosi orqali tasavvur etishga, u olg'a surgan o'z amaliy faoliyatida ongli ravishda amal qilishga erishishi bilan belgilanadi. O'quvchi asarda tasvirlangan timsollar galereyasi va badiiy vositalarni faqat kuzatuvchisiga aylanmasligi, balki adib olg'a surgan ta'lim-tarbiyaviy g'oyani qanday natijaga erishganligi nuqtai nazaridan baholashga o'rgangan taqdirdagina uning mohiyatini to'liq, chuqur anglab etishi muqarrar.

Badiiy asarni to'g'ri tanlay bilish ham asar g'oyasini ta'lim-tarbiyaviy tomondan chuqur o'zlashtirishning muhim omillaridan biri bo'lib, uni tanlashda ma'lum mezonlarga asoslaniladi, ya'ni badiiy asarning yuksak g'oyaviy-badiiy qimmatini, adib ijodida asarning xarakterli o'rni (asosan yuqori sinflarda): asarning yaratilgan va o'rganilayotgan davr uchun ahamiyati (bu ham asosan yuqori sinflarda hisobga olinadi); badiiy asarning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi xususiyati; badiiy asarning o'quvchi yoshiga mosligi, munosibliigi; badiiy asarning o'quvchi yoshiga mosligi,

munosibligi; o'quvchida qiziqish uyg'otishi; o'quvchining ma'naviy qiziqishi; talabi, ehtiyojlariga javob bera olish darajasidan iboratdir.

O'qituvchi badiiy adabiyotni tanlashda materialning ta'lim-tarbiya jihatidan qimmati tarixiy hodisalarning naqadar haqqoniy real va ilmiy qilib yoritilganligini e'tiborga oladi.

O'qituvchi tarix darslarida foydalanish uchun badiiy adabiyotdan:

a) ta'lim tizimi dasturida ko'zda tutilgan tarixiy voqealarning tasviriga;

b) tarixiy arboblarning rolini ko'rsatishga;

v) muhim tarixiy voqealar bo'lib o'tgan joylarni va u erlarning aniq sharoitini tasvirlashga va sh. k. larga bag'ishlangan asarlarni tanlaydi.

SHu jihatdan badiiy adabiyotning yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashdagi ahamiyati katta bo'lib, u nafaqat ta'lim beradi balki tarbiyalaydi ham.

Badiiy adabiyotning qimmati o'quvchi voqelikni adibning iste'dodi darajasida idrok etishga, uni ko'zi bilan ko'rishga, uning shaxsi orqali, ma'naviy dunyosi orqali tasavvur etishga, u olg'a surgan o'z amaliy faoliyatida ongli ravishda amal qilishga erishishi bilan belgilanadi.

O'quvchi asarda tasvirlangan timsollar galereyasi va badiiy vositalarni faqat kuzatuvchisiga aylanmasligi, balki adib olg'a surgan ta'lim-tarbiyaviy g'oyani qanday natijaga erishganligi nuqtai nazaridan baholashga o'rgangan taqdiridagina uning mohiyatini to'liq, chuqur anglab etishi muqarrar.

Badiiy asarni to'g'ri tanlay bilish ham asar g'oyasini ta'lim-tarbiyaviy tomondan chuqur o'zlashtirishning muhim omillaridan biri bo'lib, uni tanlashda ma'lum mezonlarga asoslaniladi, ya'ni badiiy asarning yuksak g'oyaviy-badiiy qimmati, adib ijodida asarning xarakterli o'rni (asosan yuqori sinflarda): asarning yaratilgan va o'rganilayotgan davr uchun ahamiyati (bu ham asosan yuqori sinflarda hisobga olinadi); badiiy asarning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi xususiyati; badiiy asarning o'quvchi yoshiga mosligi, munosibligi; o'quvchida qiziqish uyg'otishi; o'quvchining ma'naviy qiziqishi; talabi, ehtiyojlariga javob bera olish darajasi inobatga olinadi.

Vatanimiz tarixidagi tarixiy voqealar xususida o'quvchiga badiiy adabiyotdan quyidagilarni beradi:

- o'tmishning madaniy merosi, bu merosning rang-barangligi, o'zbek xalqining takrorlanmas iste'dod egalari bo'lgan ajdodlari haqida aniq va qiziqarli ma'lumotlarni;

- o'quvchining o'zligini anglashi uchun boy ma'naviy bilim;

- o'zbek millati, sharq xalqlari tarixi, dini, madaniyati, urf-odatlarini, an'analari, udumlari haqida badiiy ifoda vositalari asosida ilmiy, haqqoniy, tarixiy ma'lumotlarni egallashga muvaffaq bo'ladi.

- o'zbek xalqi ruhiy holati, ahloq-odob mezonlaridan qahramonlik, jasurlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, mehmonnavozlik, imon-e'tiqod, sevgida sadoqat kabi qadriyatlar haqida atroflicha ma'lumot olishga muyassar bo'ladi. Masalan, turkiy xalqlarga xos qahramonlik, vatanparvarlik, jasurlikning namoyon bo'lishi aks etishi bilan birga, o'sha davrda o'zbekxalqimizning turmush tarzi, tarixiga xos voqealar tasviri ko'proq o'z ifodasini topadi.

Misol uchun keyingi yillarda Amir Temur va temuriylar tarixiga oid ko'plab badiiy adabiyotlar kitobxonlarga taqdim etildi. Bular B.Ahmedovning «Amir Temur», Muhammad Alining «Sarbadorlar», E.Beryozikovning «Amir Temur», «Ulug' saltanat» tetnologiyasi, G'ulom Karimning «Sohibqiron va alloma», YUnus O'g'uzning «Amir Temur» tarixiy romanlari shular jumlasidan. Bular tarixiy romanlar bo'lib, ularning qahramonlari haqiqiy tarixiy shaxslardir.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali badiiy obrazlarini mo'xtabar yodgorliklarimiz bo'lgan yozma manbalarga tayanib yaratgan. Tarixiy romanda XIV-XV asr Markaziy Osiyoning ijtimoiy hayotini ham jonli tasvirlangan. Muallif «Sarbadorlar» romanida Amir Temurning ona Vatani oldidagi xizmatiga yuqori baho berdi.

«Ulug' saltanat» romanida esa adibning tarix fani, yozma manbalar, temuriylar shajarasi, o'sha davrga xos tarixiy geografiya, xronologiya kabi boshqa yordamchi tarix sohalarini qunt bilan o'rganganining guvohi bo'lamiz. Fikrimizga dalil sifatida adibning mo'g'ullar shajarasidan O'rusxon, To'yxoja o'g'lon, To'xtamishxonlarning qarindoshlik munosabatlari, Ko'k O'rda, Oq O'rda, Oltin O'rda xonliklari tarixiga oid sanalar, Saroy Botu, Saroy Berka, Hojitarxon, (Astraxan)ning joylashgan geografik o'rinlari, Oltin Orda xonlari shajarasi, ular orasidagi siyosiy munosabatlar, Amir Temur otining ismi (Xono'g'lon) kabi juda qiziqarli bo'lgan tarixni jonlantirib bergan.

Tarixiy romanning badiiy qiymatiga kelsak, kitob ham shunday mahorat bilan yozilganki, tili shirali, o'quvchini o'ziga tortadi. Asarni o'qir ekansiz, moziyga safar qilasiz, Amir Temurning saroyidagi tarixiy kechinmalar guvohi bo'lib, saroy ahli bilan birga Sohobqironni janglardan kutib olib, janglarga kuzatasiz, yana malikalar bilan birga bog'da sayr qilib, xatto janjallarining guvohi ham bo'lasiz. Romanda adib Sohobqironning buyukligi bilan birga oddiy insonlarga xos fazilatlarini muvaffaqiyatli ravishda gavdalantirib bera oldi. YA'ni, oddiy insonlarga xos bo'lgan xususiyatlari hayajon, iztirob, yo'qotish alamlari kabilarni muallif ishonarli tarzda yoritgan. Romanda Amir Temurning favqulotda hayajonga tushishi, xavotirlanishi, shodligu quvonchi, do'stga, daldaga muhtoj bo'lishi, Ollohdan umid uzmasligi, sobitqadamligi, ruhan yuksakligi, sahovatpeshligi, adolatparvarligi va boshqa fazilatlarini samimiy, ishonarli tasvirlanganki, bari jamlanib Sohobqironning yorqin siymosini ko'z oldimizda namoyon etadi.

YAna bir asar, O'zbekistonlik yozuvchi Evgeniy Beryozikovning «AmirTemur» roman-badiasi bo'lib, unda Sohobqiron zukko va donishmand davlat arbobi sifatida samimiy g'ayritalqinlarsiz tasvirlangan. Asarda tarixiy voqealar, milliy urf-odatlar, udumlar, xalq marosimlari, turfa bayramlar, harbiy yurishlar mahorat bilan yoritilgan.

Albatta tarixiy – roman asar yozish juda mushkul. Muallif mavjud manbalar, tadqiqotlarni bilishi kerak bo'ladi. O'qituvchi tarixiy romanni manbalar asosida tahlil etishi maqsadga muvofiq. Keyingi yillarda ko'plab badiiy adabiyotlar ham yaratildiki, ularning ayrimlari talabga javob bermaydi. Ularda tarixiy voqealiklardagi nomutanosibliklar, g'oyaviy xatolar ham bor.

Jumladan, Marsel Brion (1895 yilda tug'ilgan.) – Fransiyaning Marsellik oz vaqt advokat bo'lib ishlagan, keyinroq jurnalistlik qilgan. 1942 yilda o'zining Amir Temurning tarixiga qiziqishi tufayli «Amir Temur» degan kitobini Temur tuzuklari, Ibn Xaldun, Ibn Arabshoh, Ioann Grinlo, Klavixo asarlaridagi tarixiy faktlarga tayanib, Amir Temur portretini yaratadi. YA'ni Sohobqiron haqidagi shaxsiga doir ma'lumotlarni keltiradi. Bu asar albatta alohida ilmiy qiymatga ega. U Amir Temurga odilona baho beradi va Temurdan oldin o'tgan birorta ham mo'g'ul yoki turk fotihi u kabi dono va madaniyatli bo'lmaganligi, o'tgan barcha fothlar jumladan Aleksandr Makedonskiy va boshqalardagi alohida – alohida mavjud bo'lgan xislatlar unda bir uyg'unlikda hosil qilganini ko'rgan kishining hayratga tushishini yozadi. YAna, «Temurbek olimlar, ulamolalar, shoirlar va san'atkorlarni o'z himoyasiga olar, ularga g'amxo'rlik qilardi. Uning ushbu harakati ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, unga ilm va san'at ahli posboni, yuksak darajada madaniyatli hukmdor, degan shuhrat keltirdi», - deb yozadi.

Ammo bizda 2011 yili nashr etilgan «Menkim, Sohobqiron – jahongir Temur» nomli kitob M.Brionga tegishli emas. Bu soxta asar bo'lib, asli Tehronda yozilgan muallifi anonim (noma'lum) bo'lgan «Manam Temuri Jahonkusho» asaridir¹⁵. Kitob inglizchadan fransuzchaga, undan forschaga, undan o'zbekchaga tarjima qilingan. Kitob Sohobqiron hayotidan chala xabardor kishi tomonidan yozilganga o'xshaydi¹⁶. CHunki xronologik jihatdan, mazmun va tarixiy voqealar, kishilar masalasida qator qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Asardagi xato yillar, noto'g'ri g'oya orqali nafaqat M.Brionning obro'siga putur etkazadi balki, uni o'qigan kitobxonni chalg'itishi aniq. Kitobda Amir Temur nomidan xronik tarzda bayon etilishi kitobxonni chalg'itadi. Kitobning soxta ekanligi haqida B.Ermatov va A.Alimbekovlarning «Marsel Brion yozmagan kitob yohud soxtalashtirilgan bir asar xususida» nomli maqolasi ham e'lon qilingan.

Proza yo'lida yozilgan asarlar hayotning keng va ob'ektiv manzarasini tasvirlashi, ma'naviy qadriyatlar mohiyatini atroflicha ochib berishi, poeziyada bunday tasvirga keng imkoniyat yo'qligi, dramatik asarlarda esa voqelik yozuvchi nutqi orqali emas, balki obrazlarning hatti-harakati, so'zlari orqali ifodalanishi bilan farq qiladi. Adabiy turlar o'rtasidagi bunday farqlanish ularning tarbiyaviy imkoniyatlari jihatidan ham farqlanishiga olib keladi. Mazkur janrlardagi asarlar o'quvchiga birinchidan, o'tmishning madaniy merosi, bu merosning rang-barangligi, o'zbek xalqining takrorlanmas iste'dod egalari bo'lgan ajdodlari haqida aniq va qiziqarli ma'lumot beradi. Ikkinchidan, o'quvchining o'zligini anglashi uchun boy ma'naviy oziq beradi. Uchinchidan, o'zbek millati, sharq xalqlari tarixi, dini, madaniyati, urf-odatlarini, an'analari, udumlari haqida badiiy ifoda vositalari asosida ilmiy, haqqoniy, tarixiy ma'lumotlarni egallashga muvaffaq bo'ladi. To'rtinchidan, sharq xalqlari, o'zbek xalqi ruhiy holati, ahloq-odob mezonlaridan qahramonlik, jasurlik, mehnatsevarlik insonparvarlik, mehmonnavozlik, imon-e'tiqod, sevgida sadoqat kabi qadriyatlar haqida atroflicha ma'lumot olishga muyassar bo'ladi.

Masalan, qahramonlik eposlarida turkiy xalqlarga xos qahramonlik, vatanparvarlik, jasurlik («SHiroq», «To'maris»), xalqparvarlik, sevgida sadoqat («Alpomish», «Tohir va Zuhra», «YUsuf va

Zulayho», «Farxod va SHirin»), jangnoma xarakteridagi dostonlarda o'tmish qahramonlar, tarixiy va hayotiy haqiqatning kuylanishi («SHohnoma», «Jangnomai Jamshid»), pandnoma xarakteridagi dostonlarda kishining kundalik hayotida amal qilishi lozim bo'lgan hulq-atvor mezonlari diniy va dunyoviy ahloq qonun-qoidalari («Qutadg'u bilig», «Saddi Iskandariy»), qissalarda («Badoe'-ul vaqoe'», «Qissai YUusuf va Zulayho», «Qissasul anbiyo», «Qissai Rabg'uziy» va h.k.) sharq xalqlarining turmush tarzi, tarixiga xos voqealar tasviri ko'proq o'z ifodasini topadi. SHuning uchun ham bu janrlarda yaratilgan adabiyot namunalari o'quvchiga ma'naviy madaniyatimizning tarixiy boy qirralari haqida sharq xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqining o'tmishi, qadriyatlari, axloq-odob mezonlari haqida atroflicha ma'lumot berish imkoniyatiga ega.

YUqori sinf o'quvchilarining badiiy adabiyot vositasida ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogika talablaridan biri, uning tarbiyaviy ta'sir kuchidan foydalanishda unga davr nuqtai nazaridanyondashishdir.

Mumtoz adabiyot namunalari mazmunidagi chuqur falsafiylik, farosatlilik o'quvchini uzoq o'tmishga sayohat qildiradi. Mualliflar o'z davrlarining turmush tarzlarini, hayotiy muammolarini, falsafiy ildizlarini badiiy ifodalashga, shu usuldan foydalangan holda xalqning moddiy va ma'naviy hayotini bir oz bo'lsa-da, tashvishli masalalardan, bezovta kechinmalardan yiroqlashtirishga muvaffaq bo'lganlar. Mumtoz adabiyot namunalari katta qismi poetik tarzda yaratilgan bo'lib, ular asosan g'azal, ruboiy, fard, tuyuq, to'rtlik, qissa, hikoyat, doston, qasida, muxammaslardan iborat. SHuning uchun o'quvchidan nozik did, qunt, teran fikr asosida ularni o'rganish talab etiladi. Ahli zamon o'rtasidagi insonpavrvorlik, shirinsuxanlik, qadr-qimmat, do'stlik va birodarlik, Vatan ishq, xalq farovonligi va komil inson masalasi mumtoz adiblar ijodidagi bosh mavzu hisoblanadi.

Badiiy yodgorliklarning asosiy ahamiyati shundan iboratki, ular o'z zamonidagi jamiyatning g'oyasini aks ettiradi va buni o'quvchilarning tushunib olishiga, tarixiy hodisa va davlat arboblarining badiiy obrazlarini ravshan tasavvur qilishlariga yordam beradi. SHuning uchun ham badiiy adabiyot o'quvchiga boy ma'naviy madaniyatimizning tarixiy boy qirralari haqida shu jumladan, o'zbek xalqining o'tmishi, qadriyatlari, axloq-odob mezonlari haqida atroflicha ma'lumot berish imkonini yaratadi.

O'quvchilarning badiiy adabiyot vositasida ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogika talablaridan biri, uning tarbiyaviy ta'sir kuchidan foydalanishda unga davr nuqtai nazaridan yondashishdir. Badiiy adabiyotlar mazmunidagi chuqur falsafiylik, farosatlilik o'quvchini uzoq o'tmishga sayohat qildiradi. Bunda yoshlardan nozik did, qunt, teran fikr asosida ularni o'rganish talab etiladi.

O'quvchilarning bilimlarni yanada rivojlantirish tarixiy manbalar va boshqa adabiyotlarga murojaat etilishini talab qilar ekan, bunda albatta Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida berilgan talablarni chuqur o'zlashtirishga qaratilgan bilimlarni berish nazarda tutiladi.

Manbalar turlari

Tarixiy manbalarni, ularning umumiy xarakteri, o'tmishni o'zida aks ettirishga qarab quyidagi olti asosiy guruhga bo'lish mumkin.

Moddiy (ashyoviy) manbalar

Ma'lumki, kishilik jamiyati tarixi qariyb 40 ming yillik davrni o'z ichiga oladi, lekin yozuv paydo bo'lganiga esa ko'p vaqt o'tganicha yo'q. Masalan, sivilizatsiyaning ilk o'choqlaridan biri bo'lmish Markaziy Osiyoda dastlabki yozuv arameycha xat negizida taxminan eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida paydo bo'lgan. Xat tarixchisi Erkin Oxunjonovning ma'lumotiga ko'ra, yurtimizda arab istilosiga qadar o'n sakkiz yozuv turi mavjud bo'lgan ekan. Lekin, afsuski, ko'hna tariximizni o'zida aks ettirgan yozma yodgorliklarning katta qismi bizning zamonamizgacha etib kelmagan. Ularning ko'pchiligi bosqinchilik urushlari vaqtida, qolaversa tabiiy ofatlar oqibatida yo'q bo'lib ketgan. Ilk tarixning ayrim lavhalari o'tmishdan qolgan va insonning ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan moddiy yodgorliklarda, aniqrog'i ularning bizgacha saqlangan qoldiqlari etib kelgan.

Xullas, moddiy (ashyoviy) manba deganda ibtidoiy odamlar istiqomat qilgan va dafn etilgan joylar, ularning mehnat va urush qurollari, bino va turli inshootlar (qal'a va qasrlar, hammomlar va

karvonsaroylar, hunarmandchilik ustaxonalari hamda suv inshootlari va boshqalar)ning qoldiqlari, uy-ro'zg'or buyumlari va zeb-ziyat taqinchoqlari tushuniladi. Moddiy yodgorliklarni qidirib topish va o'rganish ishlari bilan arxeologiya ilmi (yunon, arxeo -qadimiy, logos – ilm; o'tmish haqidagi ilm; kishilik jamiyatining uzoq o'tmishni o'rganuvchi ilm, qadimshunoslik) shug'ullanadi.

Etnografik manbalar

Xalqlarning kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan material va ma'lumotlar etnografik manba hisoblanadi. Masalan, xalq, qabila va urug' nomlari, inson qo'li va aql –zakovati bilan yaratilgan qurol va buyumlarning naqsh va bezaklari, kishilar ongida, shuningdek, og'zaki va yozma adabiyotda saqlanib qolgan o'tmish urf-odat va an'analari, kishilarning turmush tarzi etnografik manba hisoblanadi. Bularning barchasini etnografiya (yunon, etnos – xalq, γραφο – yozaman, xalq haqida ma'lumotlar; xalqshunoslik) ilmi tekshiradi va o'rganadi.

Lingvistik manbalar

Lingvistik manbalar deb tilimizdagi, aniqrog'i uning leksik-so'z boyligi tarkibidagi uzoq o'tmishdan qolgan, ijtimoiy – iqtisodiy, ma'muriy va yuridik atamalar, masalan, *xiroj* - o'rta asrlarda aholidan, asosan dehqonlardan olinadigan asosiy soliq; daromad solig'i; *ushr* – daromadning o'ndan bir qismini tashkil etgan soliq; *zakot* – chorva va mulkdan kambag'allar uchun yiliga bir marta olinadigan soliq; *cuyurg'ol* – shahzodalar va amirlarga toju taxt oldida ko'rsatgan katta xizmatlari uchun beriladigan er-suv; *tansuqot* – kamyob, e'tiborga molik buyum, mato; podshohlar, xonlar va nufuzli kishilarga qilinadigan tortiq; *cherik* - qo'shin; *qorovul* - qo'shinning oldi va yon tomonlarida boradigan maxsus harbiy bo'linma; *xalifa* –Muhammad payg'ambarning o'rinbosari, o'rta asrlarda arab musulmon feodal davlatining boshlig'i; *mirishkor* – to'g'risi – miri shikor, podshoh va xonlarning ov qushlari va ov hayvonlarini tasarruf etkvchi mansabdor; *mirob* – suv taqsimoti bilan shug'ullanuvchi mansabdor; *qozi* – shariat asosida ish yurituvchi sudya; *yorlig'* -o'rta asrlarda hukmdor tarafidan beriladigan rasmiy hujjat; *vaqfnoma* –masjid, madrasa, xnaqoh va mozorlarga in'om e'tilgan er - suv haqidagi tuzilgan maxsus hujjat va boshqa atamalar juda ko'p uchraydi. Bu va shunga o'xshash atamalar shubhasiz qimmatli tarixiy material bo'lib, ajdodlarimizning ijtimoiy – siyosiy hayotini o'rganishga yordam beradi. Ularning kelib chiqishi va etimologiyasini lingvistika (lotin, lingua – til) fani o'rganadi.

Xalq og'zaki adabiyoti

Og'zaki adabiyot madaniyatning eng qadimgi qismi bo'lib, uning ildizi ibtidoiy jamoa va ilk feodalizm tuzumiga borib taqaladi. Og'zaki adabiyotning ayrim namunalari qadimgi yunon tarixchilari, shuningdek, Tabariy, Mas'udiy, Beruniy, Firdavsiy, Ibn al-Asir kabi sharq olimlarining asarlari orqali bizgacha etib kelgan. Kayumars, Jamshid va Siyovush haqidagi afsonalar, Amort va Sparetra, To'maris va SHiroq haqidagi qissalar shular jumlasidandir.

Urug'chilik davri tarixini, ayniqsa, patriarxal – munosabatlarini o'rganishda “Alpomish”, “Go'ro'g'li” kabi dostonlar, shuningdek, xalq ertaklari, marosim qo'shiqlari, matal va topishmoqlarning roli ham benihoyat kattadir. Bu xalq durdonalari turli ijtimoiy tabaqaga mansub kishilarning turish – turmushi, ma'naviy qiyofasi, urf-odati, ayniqsa, uzoq o'tmishda hukm surgan ijtimoiy munosabatlar haqida qimmatli ma'lumot beradi. Tarixiy manbalarining bu turi bilan folklor (nem. Folk – xalq, lore – bilim; donishmandlik, xalq donoligi) fani shug'ullanadi.

YOzma manbalar

YOzma manbalar tarixiy manbalarining muhim va asosiy turidir. Insonning ijtimoiy faoliyati, aniqrog'i kishilarning o'zaro munosabatining natijasi o'laroq yaratilgan va o'sha zamonlarda sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni o'zida aks ettirgan manba sifatida o'rta asr (XI-XIX asrlar) tarixini o'rganishda muhim o'rin tutadi. YOzma manbalar o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

1.Oliy va mahalliy hukmdorlar mahkamasidan chiqqan rasmiy hujjatlar (yorliqlar, farmonlar, inoyatnomalar, moliyaviy-hisobot daftarlari, rasmiy yozishmalar).

Ijtimoiy-siyosiy, ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarga oid masalalarni o'rganishda rasmiy hujjatlar, moliyaviy - hisobot daftarlari va yozishmalarning ahamiyati benihoya kattadir. Rasmiy hujjatlar ijtimoiy-siyosiy hayotni ma'lum yuridik shaklda bevosita va ko'p hollalarda aynan qayd etishi bilan qimmatlidir. Lekin ularning orasida, ayniqsa, rasmiy yozishmalarda sohtalari ham uchrab turadi. SHuning uchun ham ulardan foydalanilganda diqqat-e'tibor va zo'r ehtiyotkorlik talab qilinadi. Hujjatlar ustida ish olib borganda, undan biron ijtimoiy-siyosiy voqea yoki faktni talqin etish uchun foydalanish jarayonida, bittasi bilan kifoyalanmasdan, o'xshash bir necha hujjat, manbalarni qo'shib o'rganmoq zarur, chunki bitta hujjatda faqat bir kelishuv yoki fakt ustida gap boradi. SHuning uchun faqat bir

hujjat bilan ma'lum ijtimoiy-siyosiy masala ustada qat'iy fikr yuritib, umumlashtirib qat'iy xulosaga kelib bo'lmaydi.

2. Tarixiy, geo-kosmografik hamda biografik asarlar.

Tarixiy, geo-kosmografik, hamda biografik asarlar to'g'risida shuni aytish kerakki, ular hukmron sinfning topshirig'i bilan yozilgan va shu tufayli ularning sahifalarida ko'proq podshohlar va xonlarning, amirlar va yirik ruhoniylarning hayoti va faoliyati yoritilgan, moddiy boylik yaratuvchi mehnatkash xalqning tarixi esa ko'p hollarda chetlab o'tilgan.

Xullas, bu asarlarda, ya'ni yozma manbalarda hukmron feodal sinfning dunyoqarashi o'z ifodasini topgan, o'sha sinfning maqsad va manfaatlari ifoda etilganligi bilan ajralib turadi.

Mo'jaz rasm-miniatyuralar

X-XIX asrlar davomida qo'lyozma kitoblarini ziynatlash uchun yaratilgan nafis mo'jaz rasmlar ham tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi. YUrtimiz tarixi va moddiy ashyolar, hanarmandchilik, kiyim-kechak, me'morlik obidalarini va umuman moddiy madaniyatimiz xususiyatlarini o'rganmoqchi bo'lsak, nafis mo'jaz tasviriy san'at namunalari- miniatyura rasmlar qimmatli manba rolini o'taydi. CHunki ularda tarixiy ashyolar tasviri aynan, ba'zan badiiy ijod xususiyatlariga moslashtirilgan holda aks ettiriladi.

Masalan, buyuk musavvir ustod Kamoliddin Behzodning "Samarqanddagi Bibixonim masjidining masjidga qurilishi" nomli mashhur rasmini eslatish kifoya. Bu rasmda XU asrdagi qurilish jarayoni, unda ishtirok etayotgan ustalar to'g'risida mukammal tasavvur beriladi. Bunday rasmlardan tarixni o'rganishda tasviriy vosita sifatida unumli foydalanish mumkin. Biz so'nggi yillarda chop etilgan manbalarda ulardan shunchaki befarq foydalanishlarini ko'rishimiz mumkin.

Umuman, bizgacha etib kelgan qadimgi devoriy rasmlar va qo'lyozma kitoblarga ishlangan hamda alohida muraqqa'lardagi rasmlar ahamiyati juda katta.

Ko'rib chiqqanimizdek, manbashunoslik fani tadqiqot manbalari juda ko'p va xilma-hil bo'lib, biz eng asosiylari to'g'risida ma'lumot berdik. SHu kunlarda texnika tarqqiyoti munosabati bilan yana tovushli manba, foto manba, kino-televidenie manbalari va internet materiallari ham paydo bo'lib, ular an'anaviy manbalarni inkor etmaydi, balki qo'shimcha vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa kompakt disklarni yaratilishi turli yangi pedagogik vositalarni qo'llash imkonini yaratadi.

1. YOzma manbalarni tavsif usuli va ularni ukuvchilarga tushuntirish.

Joy tarixni o'rganish va o'rgatish deganda, faqat yozma manbalarda mavjud ma'lumotlar to'g'risidagi bilim va tushunchalarni shunchaki mexanik tarzda talaba va bakalavrlariga etkazish emas, balki an'anaviy va zamonaviy pedagogik usullarning eng qulay va samarali vositalaridan foydalangan holda, ularda manbalar to'g'risida tushuncha, bilim va ulardan foydalanish malakasini hosil qilish bilan birga, tariximiz to'g'risida mustaqil fikr yuritishga o'rgatishni ham tushunamiz. Buning uchun esa, yurtimiz tarixini o'rganishda yozma manbalardan foydalanishning ilmiy va metodik asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga tavsiya etish tarix va pedagogika fanlarining eng muhim va dolzarb muammolaridan biridir. Bu masala juda keng qamrovli bo'lib, yozma manbalarning tadqiq etishni ilmiy metodik asoslarini chuqur o'rganib chiqishni taqozo etadi. YOzma manbalarni talabalarga tushuntirishning bir necha prinsipi mavjud. Birinchisi maxsus kataloglardagi manbaning tavsif prinsipidir. XIX asr oxirida paydo bo'lgan Evropa mamlakatlaridagi kataloglar ichida ingliz olimi CH.Ryoning ko'p tomlik arab, fors va turkiy tillardagi kataloglaridagi yozma manbani tavsiflash prinsipi uzining mukammalligi va puxta uylanganligi bilan alohida ajralib turadi. Kuyida til prinsipi asosidagi CH.Ryoning «Britaniya muzeyidagi turkiy kulyozmalar» (London, 1888, ingliz tilida) katalogidagi manba tavsifi prinsipini keltiramiz. Unda yozma manbaning muzeydagi tartib rakami birinchi bulib sarlavxa urnida berilib, sungra kulezmaning kodikologik xususiyatlari, varaklar soni, ulchami, saxifadagi satrlar soni, satr uzunligi, xati, ziynatlari alohida, ixcham tarzda berilgan. Sungra asar nomi asl nusxada, ya'ni arab alifbosida va uning tarjimasi ajratilib berilgan. Sungra muallif nomi va asarning boshlanishi va oxiridagi jumlar aslida, arab alifbosida keltirilgan. Ana undan keyin muallif tugrisidagi va asar tarkibi, mazmuni bayon etilib, tavsif oxirida asar tarixnavisligi ya'ni urganilishi tugrisidagi ma'lumotlar berilgan. D.YU.YUsupova va R.P.Jalilovalar tomonidan tartib berilgan «Tarix» katalogida manbaning quyidagicha tavsifi berilgan: Sarlavha sifatida asar nomi asl nusxada va uning tarjimasi, qo'lyozmaning xazinadagi tartib raqami va ushbu katalogdagi raqami keltirilgan. So'ngra asar muallifi nomi bilan asosiy tavsif boshlanadi. Undan keyin muallif to'g'risida (imkon darajasida to'liq), asar mazmunining tarkibi va qisqacha bayoni (annotatsiyasi) keltiriladi. Tavsif ixcham kodikologik ma'lumotlar-xati,

qog'oz, ziynati, xattot nomi, qo'lyozmaning kitobat tarixi, nuqsoni, varaqlar soni, o'lchami va adabiyotlar (bibliografiya) nomlarini keltirish bilan tugallanadi. Bulardan tashqari yozma manbalarni tavsiflashning qomusiy yoki ensiklopedik prinsipi ham mavjud. Biz uning namunasini «O'zbekiston ensiklopediyasi» va «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» sahifalarida ko'rishimiz mumkin.

YOzma manbalar to'g'risidagi ma'lumotlarni quyidagi tartibda tushuntirishni eng ma'qul va samarali ilmiy metodologik uslub deb hisoblayman.

2. Kodikologik ma'lumot

Kodikologik ma'lumot yoki tahlil deganda yozma manba, uning muallifining nomlari va noyob qo'lyozmalar to'g'risidagi ma'lumotlarni bayon etish tushuniladi. Bunday ma'lumotlar 5 dan 9 gacha bo'lishi mumkin. (Bundan ortiqcha ma'lumot talabani e'tiborini susaytirishi mumkin). Bular kodikologik yoki qo'lyozma to'g'risidagi ma'lumotlar hisoblanadi. Kodikologiya so'zi lotincha *ñodex-kodeks*dan olinga bo'lib qo'lyozma kitobning o'ziga xos xususiyatlarini anglatadi.

Kodikologik ma'lumotlar asar nomidan tashqari yana quyidagilardan iboratdir:

1. Muallifning nomi (hayot yillari);
2. Asarning yaratilgan vaqti;
3. qo'lyozmaning tartib raqami va saqlanayotgan joyi;
4. Eng qadimgi qo'lyozmaning yaratilgan vaqti va joyi;
5. qo'lyozmaning varaqlar soni va o'lchami.

Ularning ayrimlarini B.A.Ahmedov manbaning tashqi belgilari-qo'lyozma muqovasi, qog'oz va xatidan tashqari asarning yozilgan vaqti, joyi, muallifi, yozilish sabablari, asar yozilgan vaqtdagi ijtimoiy-siyosiy muhit, deb tushuntiradi¹.

Bular qo'lyozma asar to'g'risidagi eng ixcham kodikologik ma'lumot hisoblanadi.

Pedagog o'rganilayotgan manbaning ilmiy ahamiyatidan kelib chiqib, yana quyidagi qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirish mumkin va ularni qo'lyozma asar to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar deb atashimiz mumkin. Ular quyidagilardir:

1. Hattotning nomi va xat turi;
2. qo'lyozmaning ko'chirilgan joyi;
3. Paleografik xususiyatlari (siyohi, qog'oz va qo'lyozmaning o'ziga xos xususiyatlari);
4. qo'lyozma xotimasi-kalofon.

Pedagog-mutaxassis o'z bilim saviyasiga ko'ra va ixtiyori bilan bu ma'lumotlarning barchasini yoki ulardan ayrimlarini tanlab talabalarga tushuntirishi mumkin. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bir manba, qo'lyozma kitob, bitik to'g'risida 60 dan ziyod texnik, kodikologik ma'lumot mavjud. Albatta bularning aksariyati faqat sof ilmiy akademik tadqiqotlarda istifoda etiladi.

Oliy ta'lim tizimining birinchi bosqichi uchun asar to'g'risidagi 9 ta eslatilgan kodikologik ma'lumotlarni kifoya deb o'ylaymiz.

Asar muallifi va uning yashagan davri.

Qulyozmadagi asar muallifi va uning yashagan davri tug'risida ixcham ma'lumot keltirilishi zarur. Odatda sharq tarixchilari nomlari ixcham tarzda va tula keltirilishi, imkon darajasida nomlar originalda ya'ni arab alifbosida berilishi kerak. Muallifning tug'ilgan yili va vafoti, yaratgan asosiy asarlari, ularning qisqacha mazmuni keltirilishi maqsadga muvofiqdir. SHuningdek, muallif yashagan davr, jamiyat t'og'risida ham talabalarga tushuncha berish zarur.

Asarning tarkibi va mazmuni tahlili

Ukuvchilarga manbaning kodikologik xusiyatlaridan tashqari yozma manbalardagi asarning tarkibi va umumiy mazmunini ham tushuntirish lozim. Bularni B.A.Ahmedov manbaning ichki belgilari deb atagan². Asar mazmuni va uning tarkibini tushuntirishda pedagoglar ukuvchilarga quyidagi ilmiy ma'lumotlarni berishi zarur deb hisoblayman.

1. Asarning umumiy xarakteri;
2. Asarning tarkibini tahlili;
3. Asarning mazmunini tahlil qilish, g'oyaviy-siyosiy saviyasi va ilmiy qiymatini aniqlash masalalari nazarda tutadi;
4. Asarning o'ziga xos xususiyatlari;

¹ B.A.Aшмедов «Ўзбекистон тарихи манбалари».-Т.: ЁИ=итувчи, 2001. 17-бет.

² Ёша жойда.

5. Asarning o'z sohasiga qo'shgan yangiligi va uning ilmiy ahamiyatini aniqlash.

Manbadagi asarning umumiy xarakteri.

Manbadagi asarning umumiy xarakteri deganda, asar mazmunining umumiy tarixga, masalan, «Tarixi Tabariy», «Ravzat us-safo», «Jomi ut-tavorix» kabi asarlarga xos xususiyatlarini aniqlash nazarda tutiladi. YOki sulolalar tarixi-«Tarixi Bayhaqiy», «Tarixi salotini mang'itiya» kabi asarlarga xos xususiyatlarni aniqlash tushuniladi.

Bulardan tashqari yana xotira xarakterdagi manbalar-«Temur tuzuklari», «Boburnoma», «Tarixi Rashidiy» kabi asarlar xususiyatlari ham mavjud.

Sof tarixiy asarlardan tashqari manba sifatida yana tazkiralalar-shoirilar, adiblar va tasavuf namoyondalari to'g'risidagi majmualar ham katta ilmiy tarixiy ahamiyatga ega.

Din namoyondalar to'g'risida agiografik xarakterdagi asarlar ham muhim tarixiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bulardan tashqari yozma yodgorliklardan, ayniqsa, maktublar va hujjatlar namunalaridan manbashunoslik darslarida va shu sohaga oid maxsus tadqiqotlarda foydalanish mumkin³.

Bu erda keltirilgan asar xarakteri to'g'risidagi ma'lumotlar bakalavrlar uchun kifoya deb hisoblayman. YOzma manba va undagi asar to'g'risidagi boshqa tafsilotlar maxsus ilmiy tadqiqotlarda istifoda etiladi.

Asar tarkibining tahlili.

An'anaga ko'ra, tarixiy asarlar «Bismillohi Rahmonu Rahim» so'zidan keyin hamd, tahmid – Allohga hamdu sano bilan boshlanadi. So'ngra na't - Muhammad Payg'ambarning ta'rifi, maqtovi bitiladi. YAna to'rt sahobalar – Xalifai Roshidin ya'ni to'g'ri yo'ldan yurgan xalifalar - Abubakr Siddiq, Umar, Usmon va Alilarning madhi o'rin oladi. SHundan keyin tarixchi o'z asariga homiylik qilgan shaxsni ulug'laydi. Alohida ibora «Ammo ba'd» so'zidan so'ng muallif o'zi va yozmoqchi bo'lgan asari to'g'risida ixcham ma'lumot yoki shu xususida ayrim tafsilotlarni zikr etadi. Buni mualliflar muqaddima yoki debocha deb ataydilar. Mana shundan so'ng asarning asosiy mazmuni bayon etiladi. Tarixiy asarlarda asosan ikki uslubda voqealar bayon etiladi.

a) Xronologik tartibda ya'ni yilma-yil. Bu tartibda «Tarixi Tabariy», «Mujmali Fasixiy», «Matla' as-sa'dayn» va «Boburnoma» kabi asarlar yaratilgan.

b) Tarixiy asarlarda eng muhim voqealar alohida sarlavha ostida bayon etiladi.

Bundan tashqari turli hududlarda yuz bergan voqealar alohida bayon etilishi mumkin. YAna ayrim tarixiy asarlarda yuqoridagi usullar aralash holda ham kelishi mumkin.

Manbaning mazmuniga qarab tahlil etish.

Har bir asarning mazmuni muallifning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalaridan kelib chiqib yoritilgan bo'ladi. Manbadagi asarning mazmunini yoritish juda muhim va ma'suliyatli ish bo'lib, kitob bilan to'la tanishib chiqishni taqazo etadi. Pedagog-mutaxassis yozma manbalardagi asarning boy mazmunini talabalarga ixcham va lo'nda tarzda bayon etishi zarur. Bunda yozma manbalar to'g'risidagi mavjud tavsif-kataloglar hamda ensiklopedik ma'lumotlardan foydalanishi mumkin. Umumiy tarixga oid asarlarning aksariyatida voqealar bayoni o'z xususiyatiga ko'ra ikki xil bo'lishi mumkin:

a) Boshqa tarixchilar tomonidan bayon etilgan voqealar zikrini muallif ixcham holda yoki aynan keltiriladi. Asarning bu qismini kompilyasiya ya'ni o'zlashtirma deb ataladi. Kompilyasiya so'zi inglizcha *ñompile-tuzmoq* ma'nosini anglatadi.

b) Muallifning shaxsan o'zi ma'lumot yig'ib voqealarni bayon etgan qismi original, yangi qismi deb ataladi

Manbaning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish.

YOzma manbalar to'g'risida talabalarga ma'lumot berishda ularning har birining o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish juda muhimdir. CHunki har bir manba, asar albatta boshqalardan qator xususiyatlari bilan, qaysi voqealarni bayoni mavjudligi bilan, qay tarzda bayon etilishi bilan, qanday manfaatlarni ifoda etgani bilan o'zaro farqlanib turadi. Asarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda uning qanday tarixiy asarlarga o'xshashligi, ulardan farqi, hamda qanday manbalardan foydalanib yaratilganligiga alohida e'tibor berish zarur.

Asarning o'z sohasiga qo'shgan yangiligi va uning ilmiy ahamiyatini aniqlash.

YOzma manbadagi asar mazmunining tahlili, uning tarix fani taraqqiyotiga qo'shgan yangiligi, hissasi bilan belgilash bilan yakunlanadi. YA'ni qaysi voqealar birinchi bor yoritilgan. Avvalgi yoritilgan voqealar bayoni qay tarzda talqin etilgan. Asarda bayon etilgan voqealar yurtimiz

³ Ёша асар. 68, 263 ва бош=а бетлар.

taraqqiyotiga qay tarzda ta'sir etgan. Aynan shu masalalar asarning yurtimiz tarixini o'rganishdagi ilmiy ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Manbaning o'rganilishi, uning tarixnavisligi

Manbaning o'rganilishi, uning tarixnavisligi maxsus qo'shimcha tarixnavislik fanida qay darajada yoritilganligini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Chunki bo'lg'usi pedagoglar ushbu manbalar ustida mustaqil tadqiqot olib borishlari uchun ilmiy asos yaratiladi. Manbaning o'rganilish tarixi maxsus tarixnavislik yordamchi fanida tadqiq etilsa-da, manbashunoslikda ham uning to'g'risida ixcham ma'lumot berish zarur deb o'ylayman.

Bunda asosan manbaning qo'lyozmalari qay darajada o'rganilgani, asarning asl matni, zamonaviy matbaa usulida-faksimile, litografik va terma tarzda chop etilganmi, noshir ya'ni nashrga tayyorlovchi nomi, nashrga yozilgan suz boshi, ilova qilingan izohlar va ko'rsatkichlar mavjudligini qayd etish maqsadga muvofiqdir.

Manbaning o'rganilishi, tarixnavisligi oxirida asardagi ma'lumotlar qanday maxsus tadqiqotlarda, darslik va qo'llanmalarda yoritilganligi bayon etiladi.

Bir akademik soat davomida ukuvchilarga yozma manbalar to'g'risidagi yuqoridagi ma'lumotlarni berish kifoya, deb uylayman. Chunki, bu ma'lumotlarga qo'shimcha tarzda dars rejasi, kamida 10 ta, asosiy tushunchalar, eng ko'pi bilan 15 ta atamalar, manba bo'yicha foydalanilgan asosiy (5ta) va qo'shimcha (10tagacha) maxsus adabiyotlar ro'yxati talabalarga tavsiya etiladi. Yana dars jarayonida ko'rgazmali qurol sifatida asar qo'lyozmasi, nashrlari va boshqa materiallardan, zamonaviy texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Dars oxirida o'tilgan darsni mustahkamlash uchun savollar tavsiya etilishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Tarixiy manbalar turlarini ayting ?
2. Tarix darslarida badiiy adabiyotdan foydalanishda qanday didaktik maqsad ko'zlanadi?
3. Badiiy adabiyotlar klassifitsiyasini keltiring.
4. Badiiy adabiyotning yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashdagi ahamiyatini misollar bilan ko'rsating.

6-mavzu: Dunyo dinlari tarixini o‘qitishning xuquqiy-me’yoriy va uslubiy yo‘llari. (2soat ma’ruza)

1. «Dunyo dinlari tarixi» fanini o‘qitishning dolzarbligi
2. «Dunyo dinlari tarixi» fanini o‘qitishning xuquqiy asoslari.
3. O‘zbekiston islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri sifatida.

Tayanch tushunchalar: Din, e’tiqod, tolerantlik, vijdon erkainligi.

1. “Dunyo dinlari tarixi” fanini o‘qitishning dolzarbligi

Ma’lumki, bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millat-lararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O‘zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o‘zining to‘liq ifodasini topdi.

YUrtimizda hukm surayotgan do‘stlik va birdamlik muhiti — tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir. Biz barchamiz mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘anievich Karimovning ana shu tom ma’nodagi bebaho boyligimizni asrab-avaylash va mustahkamlash borasidagi xizmatlarini yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz.

Bugun mamlakatimizda 130 dan rtiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Ular umumiy uyimiz-O‘zbekistonimiz ravnaqi yo‘lida birlashib, barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilmoqda, rivojlangan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishga munosib hissa qo‘shmoqda. Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millati, tili va dinidan qat’i nazar, teng huquq va erkinliklarga ega ekani mustahkamlab qo‘yilgan. Ularga o‘z milliy madaniyati, an’ana va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Mamlakatimizda etnik o‘ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg‘unlashtirishda 137 ta milliy madaniy markaz etakchi rol o‘ynamoqda. Ular o‘zlarining o‘ziga xos madaniyati, tili, xalq hunarmandligini rivojlantirib, turli madaniyatlarning bir-birini o‘zaro boyitishiga, har birimizda ko‘p -millatli yagona oila tuyg‘usini mustahkamlashga salmoqli hissa qo‘shmoqda. Respublika baynalmilal madaniyat markazi ularning faoliyatini muvofiqlashtirib, amaliy va uslubiy yordam berayotgani alohida diqqatga sazovordir. Markaz mamlakatimizning barcha hududlarida o‘tkazilayotgan yorqin tadbirlari asosida madaniy va ijtimoiy hayotimizni yanada teran ma’no-mazmun bilan boyitmoqda, O‘zbekistonda yashayotgan turli millat va elat vakillari o‘rtasida do‘stlik va bag‘rikenglik munosabatlarini mustahkamlamoqda.

Prezidentimiz SHavkat Mirziyoevning «hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida millatlararo va dinlararo keskinlik kuchayib bormoqda, millatchilik, diniy murosasizlik bosh ko‘tarmoqda. Bu illatlar davlatni emirib, jamiyatni parchalab, radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda. Ana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dinga mansub insonlar o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash biz uchun borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hech shubhasiz, bu bizning zaminimizda tinchlik va osoyishtalikning mustahkam kafolati, xalqimiz bunyodkorlik salohiyatini, uning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini oshirishning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. SHu munosabat bilan Madaniyat va sport ishlari vazirligi,

Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, «Tasviriy oyina» ijodiy uyushmasi, Xotin-qizlar qo'mitasi, «Mahalla», «Nuroni» jamg'armalari, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati va boshqa ko'plab tashkilotlar, o'ylaymanki, madaniyat va ma'rifat, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash sohasidagi ishlarni yanada kuchaytirishi zarur. Bu bugun bizning barchamiz uchun hayotiy muhim vazifa ekanligi ta'kidlab o'tilgan edi.

2. “Dunyo dinlari tarixi” fanini o'qitishning xuquqiy asoslari.

Din azaldan inson va jamiyat hayotining ma'naviy asosi, poydevori bo'lib kelgan. Din vositasida insonning biologik tabiati, hayvonot olami bilan umumiy jihatga ega bo'lgan fiziologik mayllari, ehtiyoj va instinktlari jilovlandi, ularga insoniy qiyofa berildi. Diniy ongning ibtidosida «yaxshilik va yomonlik», «ezgulik va yovuzlik», «adolat va adolatsizlik» kabi axloqiy kategoriyalarning dastlabki elementlari shakllangani, din kishilik jamoasini mazkur kategoriyalar atrofida jipslashtira olgani bois, unda dunyoqarash, integrativ, regulativ, kompensatorlik va boshqa funksiyalar mustahkamlandi. Hozirgi kunga kelib, din ijtimoiy hayotning muhim omiliga aylandi, u ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rnini saqlab qoldi. Lekin uning ahamiyati turli ijtimoiy-siyosiy tuzumlarda turlichadir. Din etakchi mafkura hisoblangan davlatlar ham talaygina. Dunyoning qator davlatlarida din o'zining siyosiy mavqeini mustahkamlash uchun harakat qilmoqda. Mustaqillikdan keyin dinning ijtimoiy-siyosiy salmog'i o'zgargan bo'lsa-da, u bilan bog'liq muayyan muammolar kelib chiqmoqda. SHu bois O'zbekiston Konstitutsiyasida dinning mamlakatimizdagi ijtimoiy o'rni aniq belgilab qo'yilgan. Xususan, uning 31-moddasida: «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi», – deb ta'kidlanadi. Istiqloq arafasida, Markaziy Osiyoda diniy omil mavqeining ortib borishini hisobga olib, 1991 yil 14 iyunda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Bu qonun jamiyatni demokratlashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, tobora kuchayib borayotgan mustaqillik uchun g'oyaviy kurash ta'sirida sobiq O'zbekiston sho'ro hukumati tomonidan qabul qilingan edi. Bunday ziddiyatli davrda din rivojida ko'plab ijobiy natijalarga ham erishildi. Islom diniga beqiyos hissa qo'shgan buyuk allomalar, din peshvolarining nomlari qayta tiklandi, islom dinining taraqqiyotiga doir qator tadbirlar, ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazildi. Bunday tadbirlar O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan boshqa diniy konfessiyalarda ham amalga oshirildi. Bu tadbirlarning ayrimlarini sanab o'tish kifoya. Masalan, 1991 yil 11 aprelda «Ro'za hayiti» va «Hurbon bayrami»ni milliy bayram deb e'lon qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilindi.

1992 yil 7 martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishla-ri bo'yicha qo'mita tashkil qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 1992 yil 1 aprelda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Ta'kidlash joizki, 1993 yil 16 sentyabrda islom dinida naqshbandiya tariqatiga asos solgan Xoja Bahovuddin Naqshband tavalludining 675 yilligi Buxoro shahrida keng nishonlandi. 1993 yil 23–24 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarori bilan va Buyuk Britaniyaning Oksford universiteti ishtirokida Samarqand shahrida «Imom Buxoriy: hayoti va davri» mavzuida xalqaro anjuman o'tkazildi. 1994 yil 18 oktyabrda yana Samarqand shahrida islom ilmiga katta hissa qo'shgan alloma Xo'ja Ahror Valiy tavalludining 590 yilligi keng nishonlandi. 1995 yilning noyabrda Mahmud az-Zamaxshariyning 920 yilligi va Najmiddin Kubro tavalludining 850 yilligi Xorazmning Urganch shahrida nishonlandi. 1998 yil 23 sentyabrda muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon tavalludining 90 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman Toshkentshahrida o'tkazildi.

1998 yil 23 oktyabrda esa Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi Samarqand shahrida nishonlandi va Imom al-Buxoriy majmuasi ochildi. Bu tadbirlar bevosita O'zbekiston Respublikasi hukumatining tashabbusi va qo'llab-quvvatlashi natijasida amalga oshirildi. 1998 yilga kelib mamlakatda din va diniy faoliyat shu qadar keng quloq yozgan ediki, ezgu ishlar bilan bir qatorda, yovuz, qora niyatlarni amalga oshirish, mamlakat hayotini diniy o'zanga burib yuborish uchun sharoit

yaratishga urinishlar ham ko'zga tashlanib qoldi. Bu holat mantiqan va tarixan 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunning hayotdan orqada qolganligini ko'rsata boshladi. SHu bois 1998 yil 1 mayda ushbu qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi hayot taqozosi bo'ldi. Bu qonun eskisidan farq qilib, dindor shaxs va diniy tashkilot faoliyatining amaldagi Konstitutsiyasi va qonunlar asosida tartibga solinishini, fuqarolar konstitutsiyaviy huquqlarining poymol etilishiga barham berilishini, O'zbekiston tanlagan taraqqiyot yo'lining saqlab qolinishini, mamlakatda demokratiya prinsiplarining himoya qilinishini ta'minlashi lozim edi.

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunning hayotga joriy qilinishi dinga va diniy tashkilotlarga g'araz maqsadlar bilan kirib olgan, mamlakat hayotini diniy o'zanga burib yuborishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan turli unsurlarni bezovta qila boshladi. Bunday qora niyatli unsurlar endi to'g'ridan-to'g'ri zo'ravonlik, kuch ishlatish yo'li bilan o'z manfur va jirkanch maqsadlariga erishmoqchi bo'ldilar. Mash'um 1999 yil 16 fevral, 2004 yil 29, 30 mart – 1 aprel, 2005 yil 12–13 may voqealari bu jarayonlarning asl mohiyatini ko'rsatdi. Buning oqibatida ko'plab begunoh odamlar hayotdan ko'z yumdilar. Ushbu voqealar dinning jiddiy mafkuraviy omilga aylanib borayotganligini, ko'p millatli davlat sharoitida u diniy nizolar chiqishi uchun ayrim siyosiy kuchlarga qo'l kelishi mumkinligini ko'rsatdi. Natijada dinni, uning tarkibi va jamiyat hayotidagi o'rnini ilmiy o'rganish ehtiyoji tug'ildi. O'zbekiston, milliy tarkibiga ko'ra, ko'p millatli davlat hisoblanadi. Hozir respublikamizda 130 dan ortiq millat va elatlarning vakillari istiqomat qilmoqda, 20 ga yaqin diniy konfessiya (lotincha *confessionalis* so'zi e'tiqodga oid, cherkovga tegishli degan ma'nolarni anglatadi) faoliyat ko'rsatmoqda, 80 dan ziyod milliy markazlar ishlab turibdi. Tabiiyki, millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash demokratik davlat sharoitida nafaqat davlat siyosatining izchil va kuchli bo'lishini, balki, avvalo, diniy konfessiyalar o'rtasida o'zaro hurmat va do'stona munosabatlar qaror topishini, eng asosiysi, har bir fuqaroning din, diniy mazhablar, dinning tarixi va hozirgi hayotda tutgan o'rnini haqida ilmiy tasavvur va tushunchalarga ega bo'lishini talab qiladi.

3. O'zbekiston islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri sifatida.

Bu zaminda tabiiy va aniq fanlar bilan bir qatorda, ilohiy ta'limotni ham olamga yoygan etuk allomalar yashab o'tgan. Diyorimizda islom ta'limoti va amaliyotini rivojlantirish bo'yicha 3000 dan ortiq ilmi-ulamolar faoliyat ko'rsatganligi buning yaqqol dalilidir. SHulardan 1000ga yaqini Samarqandda, 600 tadan ko'prog'i Buxoroda, 300tasi Nasafda va qolganlari boshqa shaharlarda bo'lgan. Al-Buxoriy, Axmad YAssaviy, at-Termiziy, az-Zamahshariy, Motrudiy, Marg'inoniy, Bahouddin Naqshband kabi o'nlab allomalar islomiy-diniy ilmlar peshvolari sanaladi. Ular tafsir, hadis, fiqh, kalom kabi islomiy ilmlarning rivojiga asos solgan bo'lib, yurtimiz dovrug'ini Mashriq dunyosi bo'ylab taratganlar. Ular diniy ilmlarga, ma'rifatga o'zining butun hayotini bag'ishlaganla. Markaziy Osiyolik ilm ahllari Imom al-Buxoriy «Al-Jome' as-sahih» («Ishonchli to'plam»), «Al-Adab al mufrad» («Adab durdonalari»); Abu Mansur al-Motrudiy «Kitob at-tavhid» («Yakkaxudolik haqidagi kitob»), «Ta'vilot ahli as-sunna» («Sunnilylik an'analari sharhi»); Zamahshariy «Kashshof» («Qur'on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so'zlar ko'zlarini ochish»); Abu Iso Termiziy «Sunani Termiziy»; Marg'inoniy «Hidoya» asarlari bilan Islomning rivojlanishiga, musulmon e'tiqodini xalq dunyoqarashi bilan uyg'unlashtirishga katta hissa qo'shdilar.

Xalqimizning ana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, eng muhimi, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoevning tashabbusi bilan Toshkent shahrida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini barpo etishga qaror qilindi. Bu «Jaholatga qarshi – ma'rifat» shiorining amaliy hayotda namoyon bo'lishining o'ziga xos isbotidir. Xalqaro maydonda sodir bo'layotgan voqealar rivoji milliy-ma'naviy havfsizlik borasida amalga oshirayotgan ishlarimizni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishimizni, davlatimiz va jamiyatimizning barcha kuch va imkoniyatlarini safarbar etishimizni taqozo qilmoqda. Masalaning bu

jihati e'tibor qaratar ekan SH.M.Mirziyoev shunday ta'kidlagan edi: «CHunki hozirgi vaqtda dunyo miqyosida hukm surayotgan tahlikali vaziyat, siyosiy va iqtisodiy inqirozlardan tashvishga tushmayotgan birorta davlat yoki jamiyat yo'q, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mintaqalarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni qattiq xavotirga solmoqda». YAqin va uzoq horijda mana shunday o'ta murakkab va qaltis sharoit ro'y berayotgan ekan, bunday sharoitdabiz qanday yo'l tutishimiz, qanday qilib tinchlik va osoyishtalikni saqlashimiz, barqaror rivojlanishni nimalar hisobiga ta'minlashimiz mumkin, degan savollarga jiddiy bosh qotirishimiz talab etiladi.

Keyingi paytlarda YAqin SHarq, SHimoliy Afrika mamlakatlarida sodir etilayotgan terrorchilik harakatlaridan ko'zlanayotgan maqsadlarning insoniylikka zidligi, reallikdan butunlay xoliligi, asl maqadning sirligi, ayniqsa bunday ijrochilari qatorida O'zbekiston fuqarolarining ham borligi xalqimizda afsus va nadomat uyg'otmoqda. Tinchlikni, osoyishtalikni, insoniylikni, yaratuvchanlikni, sabrlilikni hamma narsadan ustun qo'yadigan xalqimiz bunday shaxslarning qilmishlarini keskin qoralaydi. Xavotirli tomoni bunday razil kuchlar o'z saflarini to'ldirishda davom etishmoqda. SHunday ekan hozirgi vaqtda yoshlarimizni, chet elda ishlab, halol mehnat bilan daromad topaman, deb yurgan fuqarolarimizni bunday tUSDagi turli-tuman terroristik kuchlar changaliga tushib qolmasligi uchun biz ta'lim-tarbiyada, targ'ibot ishlarida qanday choralarni amalga oshirishimiz talab etilmoqda.

Birinchidan, O'zbekiston hukumati qo'shni davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat bermoqda. Bizning maqsadimiz ular bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish, turli mazmundagi muammolarni birgalikda echishdan iborat. Qisqa muddatda O'zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoev Turkmaniston va Qozog'iston Respublikasiga ikki marta tashrif bilan bordi. Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iziston, Xitoy Xalq Respublikasi, Saudiya Arabistoniga samarali tashriflar amalga oshirildi. Bunday tashriflarda asosiy masalalar sifatida o'zaro hamkorlikni, savdo-sotiqni yanada kuchaytirish, ichki imkoniyatlardan unumli foydalanish, mintaqadagi barqarorlikni ta'minlash, turli tahdidlarga birgalikda kurashish keng muhokama etildi. Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida o'tkazilgan O'zbekiston ishlab chiqarilgan mahsulotlar yarmarkasi ikkala mamlakat o'rtasida hamkorlikning yangi davrini boshlab berdi. Rossiya Federatsiyasiga davlat tashrifi chog'ida mehnat migratsiyasi bo'yicha muhim kelishuvga erishildi. Fuqarolarimizning bu mamlakatda halol mehnat qilishi, qonuniy yo'l bilan daromad topishi uchun davlatimiz barcha sharoitlarni yaratib bermoqda.

YOshlarimizni yaratilgan imkoniyatlardan to'g'ri, oqilona foydalanishlarini ta'minlash uchun ta'lim-tarbiya tizimida, targ'ibot tizimida tegishli vazifalarni belgilab olishimiz talab etiladi.

Ikkinchidan, bugungi kunda jamiyatimizda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, yoshlarda ogohlik va g'oyaviy salohiyatni yanada yuksaltirish, aholi turmush sharoiti va bandligini yaxshilash, ularni turli diniy ekstremistik uyushmalar changalidan ta'lim-tarbiya tizimi, ma'naviy-ma'rifiy uyushmalar faoliyati oldidagi ustuvor vazifalar sirasiga kiradi.

Anjumanda prezidentimiz SH.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek «Bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy masala bo'lib turibdi».

Uchinchidan, jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy sohalarida yuz berayotgan turli mazmundagi ekstremistik kayfiyatdagi kuchlarga nisbatan «jaholatga qarshi ma'rifat» tamoyili asosida kurashishni amaliyotda keng qo'llash, uning ijrosini ta'minlash borasidagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni zamon talab qilmoqda. Bu borada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlarga to'htalar ekan Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev shunday ta'kidlaydi: «Biz ko'p joylarda jaholatga qarshi ma'rifat tashabbusi bilan chiqyapmiz. Muqaddas islom dinini niqob qilib boshqa ko'chalarga kirib ketayogan johil kimsalar bir narsani tushunmaydi yoki tushunishni istamaydi. YA'ni, islom faqat nurli hayotga, ilm-ma'rifatga, yaxshilikka undaydi. Hech qachon xunrezlik,

qotillik, zo‘ravonlikka chaqirmaydi. Ana shu haqiqatni tan olmasdan, soxta g‘oyalarga aldanib, zararli oqimlarga kirish, terrorchi bo‘lish – bu O‘zbekiston xalqiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi». YOshlarni bunday tushdagi turli mafkuraviy kuchlar ta‘siridan himoyalashning turli xil usul va vositalari keng tahlil etildi. Lekin erishilayotgan samarani ko‘ngildagidek deb bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev mazkur anjumandagi nutqidagi bu tizimni yanada takomillashtirishning yangicha yo‘l-yo‘riqlarini ilgari surdi. Avvalo bu tizimning institutsional qurilmasi faoliyatini takomillashtirishga, yoshlar tarbiyasida oila, mahalla, maktab, diniy idoralar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratib o‘tdi. Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni turli mafkuraviy tahdidlardan asrashda har bir institutning imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, undan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

To‘rtinchidan, jamiyatdagi ma‘naviy muhitni izdan chiqarishga qaratilgan turli mazmundagi ta‘sirlarga qarshi aksiltarg‘ibot tadbirlarini olib borishning yangicha, ta‘sirchan uslublari ustida ishlash talab etilmoqda. Avvalo jamiyat ma‘naviy hayotining har qanday jabhasida bo‘ladigan sodir bo‘ladigan noxush hodisaga nisbatan umumjamiyat miqyosidagi salbiy kemptik sifatida qarash talab etiladi. Unga qarshi kurashni umumniki sifatida baholash zarur. Bunday hodisa jamiyatda olib borilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni sifat jihatidan takomillashtirishni talab etadi. Binobarin «Bir bolaning yo‘ldan adashishi – bu nafaqat bir oila, balki butun jamiyat boshiga tushgan kulfat. Bundan avvalo shu bolaning ota-onasi, aka-ukalari, yaqinlarijabr ko‘radi. Bunday paytda ularga yordam berish kerak. Biz esa, afsuski, ulardan o‘zimizni olib qochamiz. To‘yga chaqirmaymiz, marosimga chaqirmaymiz, u falonchining akasi yoki o‘g‘li, deb ularning nafratini battar avj oldiramiz, aybsiz odamlarni ashaddiy dushman qilamiz». Muammoga bunday yangicha usulda yondashuvning sababi nimada? Agar biz jamiyatda o‘ziga sherik, safdosh izlayotgan qator diniy-ekstremistik ruhdagi tajovuzkor guruhlar targ‘ibot usullariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak ular asosan moddiy jihatdan qiynalgan aholi qatlamlariga, ishsiz yurgan yoshlarga, turli jinoyatlari uchun qamalgalarning oila a‘zolariga keng e‘tibor qaratishadi. SHunday ekan bunday harakatlarni amalga oshirgan, turli sabablar bilan noto‘g‘ri yo‘lga kirib adashganlarga, nafaqat ularga balki ularning yaqin oila a‘zolariga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirish lozim. Anjumandagi nutqida Prezidentimiz bu masalani ko‘ndalang qo‘yadigan vaqt kelganiga e‘tibor qaratib ma‘rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning «Olijanob kishilar uzrni qabul qilur», degan fikrlarini keltirib o‘tgan. «Adashgan yoshlarni tarbiyalashimiz, kerak bo‘lsa, jazoni o‘tash joylariga ham borib, ular bilan gaplashishimiz lozim. CHin dildan tavba qilib, ota-onasi, oilasi bag‘riga, to‘g‘ri yo‘lga qaytishni niyat qilgan odamlarga amaliy yordam berishga men davlat rahbari sifatida doimo tayyorman». Uning amaliy natijasi sifatida hozirgi kunda qancha adashganlarning gunohi kechirilib, to‘g‘ri yo‘lga solindi. Ularning bir qismi o‘qishga, bir qismi ishga joylashtirildi.

DINNING JAMIYATDAGI IJTIMOIIY, MA‘NAVIY VA MA‘RIFIY VAZIFALARI

DIN

Dinning mohiyati turlicha izohlansa–da, uning asosida ishonch, e‘tiqod tuyg‘usi yotadi. Darhaqiqat, din ishonmoq tuyg‘usidir. Ishonmoq tuyg‘usi insoniyatning eng teran va ruhiy–ma‘naviy ehtiyojlaridandir.

Din arabcha so‘z ekani barchaga ma‘lum. Lekin, din tushunchasini to‘liq anglab olish uchun, uning ham lug‘aviy, ham istilohiy ma‘nolarini alohida–alohida olib tanishib, tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Arab tilidagi manbalarda qayd etilishicha, din so‘zi “دان”(“dâna”) fe‘lidan yasalgan bo‘lib, “kingadir bo‘ysunmoq, bo‘yin egmoq, itoat etmoq, kimdandir qarzdor bo‘lmoq, e‘tiqod qilmoq, qilgan ishiga yarasha mukofotlamoq”; “diynun” so‘zi esa, “din, imon, ajr–mukofot, qilingan ishga yarasha berilgan haq” kabi ma‘nolarni bildiradi.

O‘zbek tili lug‘at adabiyotlarida “din” – ishonch, ishonmoq, e‘tiqod, mulk, hukm, hisob, jazo, tadbir, bo‘ysunish, itoat qilish, ibodat, parhez, yo‘l tutish, odat qilish, e‘tiqod qilish ma‘nolarini bildirishi keltirib o‘tiladi.

Islomdan avval turkiy xalqlarning din tushunchasini ifodalash uchun turli davrlarda “drm”, “darm”, “nom” va “den” kabi so‘zlarni ishlatganlari ma‘lum. Ulardan “drm”, “darm” din, aqida ma‘nosida sanskritcha (qadim hind tili) “dharma”dan (Pali tilida dhamma); “nom” din ishonch, qonun ma‘nosida sug‘d tilidan kirib kelganligi aytiladi.

O‘zbek tilidagi “din” ma’nosini beruvchi atamalar barcha tillarda mavjud. Jumladan, zardushtiylarning manbasi “Avesto”da “din” sifatida “daena”, qadimgi fors pahlaviy tilida “den”, “din”, “dena”, “daena” so‘zi ishlatilib, «yo‘l», «mazhab», «marosim», «uslub», «tarz» kabi ma’nolarni bildirgan. Ibroniylar tilida istifoda qilinadigan «dath» so‘zi «din» tushunchasini ifodalash uchun umumiy termin bo‘lib, «hukm», «amr» va «qonun» ma’nolarini anglatgan.

Rus tilida din ma’nosini anglatadigan «religiya» so‘zining kelib chiqishi borasida lug‘atlarda bir qancha yondashuvlar keltirib o‘tilgan. Ulardan ba’zilariga ko‘ra mazkur atama lotincha «religio» so‘zidan kelib chiqib, «diyonat, dindorlik, taqvodorlik, xudojo‘ylik, mo‘minlik, taqvo, muqaddas narsa yoki joy, qadamjo, ziyoratgoh, ibodat–topinish–sig‘inish va u bilan bog‘liq diniy marosimlar» degan ma’nolarni anglatadi.

Ikkinchi guruh tilshunoslar «religio» so‘zi semantik, ma’no va morfologik jihatdan «relegere» so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, «yangidan to‘plamoq, yangidan tanlashga kirishmoq, qayta ishlab chiqish uchun oldingi sintezga qaytish» kabi ma’nolarni anglatadi, deb ta’kidlaydilar.

Olimlar muayyan e’tiqod din deb atalishi uchun **uch** asosiy xususiyatga ega bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydilar. Bulardan *birinchisi*, g‘ayritabiiy iloh (yoki ilohlar) haqidagi tasavvurning mavjudligi. Har bir dinda topinish ob’ekti – Xudo bo‘lishi shart hisoblanadi.

Mavjud dinlardagi Xudo haqidagi tasavvurlarni shartli ravishda ikkiga – *transsendent* va *immanent* ilohlarga bo‘lish mumkin. Transsendent ilohlarga insonlar olamidan tashqarida, insonlarga hech qanday aloqasi bo‘lmagan, qusur va nuqsonlardan xoli Xudolar kiradi. Bunga misol sifatida tom ma’noda islom dinidagi Alloh taolo va qisman xristianlikdagi Ota Xudo, yahudiylikdagi YAxvelarni keltirish mumkin.

Immanent ilohlar deganda esa tabiatning bir bo‘lagi sifatida tasavvur qilingan, insonlarga o‘xshab ketadigan, biroq g‘ayrioddiy yaratuvchilik, buzg‘unchilik, rizqlantiruvchilik kabi kuchlarga ega bo‘lgan Xudolar kiradi. Bunday turdagi ilohlar ko‘pincha yo antropomorf (inson qiyofasida) yo zooantropomorf (yarim odam yarim hayvon) yoki zoomorf (hayvon) shaklda tasavvur qilinadi. Bunga misol sifatida Qadimgi Misr, YUnon, Rim sivilizatsiyalari, zamonaviy Hindiston, Xitoy, YAponiya dinlarini sanash mumkin.

Ikkinchisi, Xudo bilan insonlarni bog‘lab turuvchi kult yoki kultlar majmuasi. YUqorida aytilganidek har bir dinda topinish ob’ekti – Xudo bo‘lishi lozim. Yaratuvchi bilan insonni bog‘lab turadigan ibodat va marosimlar majmui (qurbonlik, ro‘za, bayramlar) kult deb ataladi. Kultlar kundalik yoki mavsumiy, yakka tartibdagi yoki jamoaviy kabi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Jumladan, islom dinida “Namoz mo‘minning me’roji” (ya’ni Alloh taoloning xuzuriga ko‘tarilishi) hisoblansa xristianlikdagi “sirli marosimlar”da Muqaddas Ruhning o‘zi ishtirok etadi deb hisoblanadi. SHu tariqa, mavjud barcha dinlarda kultlar vositasida e’tiqodchilar o‘z ilohlari bilan bog‘lanadilar.

Uchinchisi esa e’tiqodchilarni o‘zida jamlaydigan diniy tashkilotlarning mavjudligi. Diniy tashkilot, bu bir din izdoshlarining jamoaviy ravishda o‘z diniy rasm–rusum, ibodat marosimlarini o‘tkazadigan, diniy ta’lim oladigan muassasalaridir. Bu, islomda – masjid, madrasa, xristianlikda – cherkov, seminariya, yahudiylikda – sinagoga va hokazo.

DINSHUNOSLIK FANINING YUZAGA KELISHI

Dinlar tarixi, ular bilan bog‘liq jarayonlar, dinning inson hayotining turli jabhalari bilan o‘zaro ta’sirlashuvini o‘rganuvchi fan “Dinshunoslik” deb ataladi.

Dinshunoslik barcha ijtimoiy fanlar qatori ham o‘zining o‘rganish ob’ektiga ega. U dinning paydo bo‘lishi, ijtimoiy mohiyati va jamiyatdagi rolini tadqiq qilish bilan birga diniy e’tiqodlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi evolyusiyasini ilmiy jihatdan o‘rganadi.

Dinlarni o‘rganish uzoq tarixga ega. Har bir inson yon–atrofidagilarning e’tiqodi, qaysi dinga mansubligagi qiziqadi, ular haqida bilishni istaydi. Bu boradagi ilk ma’lumotlarni Qadimgi Gretsiya va Rim yozuvchilari asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Ulardan eng mashhuri “tarix otasi” nomini olgan

Gerodot (mil. avv. V asr) o'zi tadqiq qilgan xalqlarning dinlari haqida ma'lumotlar keltirgan. Bu qiziqish O'rta asr Evropasida ham mavjud bo'lgan. Lekin boshqa dinlar haqida fikr bildiruvchilar, xristianlarning e'tiborini jalb qilmaslik va ularni o'sha dinlarga kirib ketmasliklari ta'minlash maqsadida, u dinlarga nisbatan salbiy fikr bildirish, ularni yomonlash orqali ularga yondashishni ma'qul deb topganlar.

Islom olamida ham dinlarni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar uzoq tarixga borib taqaladi. Milodiy VII–VIII asrlardayoq diniy tortishuv (munozara)larni o'z ichiga olgan “maqola”lar (keyinchalik “maqolot”), VIII –IX asrlardan e'tiboran esa boshqa dinlarga “raddiya”lar yozila boshlangan. Keyingi asrlardan esa “al–Firaq” (Firqalar), “ar–Radd” (Raddiya), “ad–Diyonot” (Dinlar) va “al–Milal” (Xalqlar) yo'nalishidagi adabiyotlar vujudga kelgan.

“Ad–Diyonot” (Dinlar) yo'nalishida yozilgan ilk asar Hasan ibn Muso an–Navbaxtiyning (vaf. 910) “al–Aro' vad–diyonot” (E'tiqodlar va dinlar) kitobi hisoblanadi. Keyinchalik Mas'udiy (957) o'zining “ad–Diyonot” (Dinlar), Masbihiy (1029) “Darkul bug'yati fiy vasfid diyonoti val ibodoti” (Dinlar va e'tiqodlar vasfida maqsad me'yori) kitoblarini yozganlar. SHuningdek Beruniyning (973–1048) “Tahqiqun ma lilhind min maqulatin, maqbulatin fil–aqli av marzulatin” (Aqlga maqbul yoki noma'qul bo'lgan Hindistonga oid izlanishlardan) nomli kitobi ham shular sirasiga kiradi.

“Al–Firaq” (Firqalar) yo'nalishida yozilgan kitoblarga Abu Mansur Abdulqodir al–Bag'dodiyning (vaf. 1038) “al–Farq baynal–firaq” (Firqalar orasidagi farq) asari hamda Abul–Maoliy Muhammad ibn Ubaydullohning (vaf. 1092) “Baynal–adyon” (Dinlar orasida) asarlarini kiritish mumkin.

“Al–Milal” yo'nalishida Qozi Abu Bakr Baqilloniyning (vaf. 1012) “al–Milal van–nihal” (Dinlar va xalqlar), Abu Muhammad Ali Ibn Hazmning (vaf. 1064) “Kitobul–fasl fil–milal val–ahvoi van–nihal” (Dinlar, havo va xalqlar haqida ajraluvchi kitob), Abul–Fath Muhammad ibn Abdulkarim ash–SHahristoniyning (vaf. 1183) “al–Milal van–nihal” asarlarini sanash mumkin.

“Ar–Radd” (Raddiya) yo'nalishida ham ko'plab asarlar dunyo yuzini ko'rgan. Ularga Imom G'azzoliyning (vaf. 1111) “ar–Raddul jamil” (Go'zal raddiya), Ibn Kalbiyning (vaf. 819–821) “Kitobul–asnam” (Butlar kitobi) nomli asarlarini alohida qayd etish lozim.

Islom olamida qiyosiy dinshunoslik sohasida ham salmoqli ishlar qilingan. Ulardan Abu Rayhon Beruniyning “al–Osorul boqiya” (Boqiy asarlar), Ibn Nadimning (vaf. 990) “al–Fihrist” (Mundarija), Muhammad ibn al–Huzaylning (vaf. 840) “Kitobul–Majus va kitobus–sanaviya” (Majusiylik va ko'pxudolilik kitobi), Abul–Abbos Ahmad ibn Muhammad as–Saraxsiyning (vaf. 899) “Risola fi vasfi mazohibis–sobiiyn” (Sobiiylarning mazhablari vasfi haqida risola), Abu Zayd al–Balxiyning (vaf. 941) “Kitobu sharo'iil adyon” (Dinlar shariatlari kitobi) asrlarini sanab o'tish mumkin.

Zamonaviy Dinshunoslik esa bir yarim asrga yaqin davrga borib taqaladi. G'arbda, zamonaviy ma'nodagi dinlar tadqiqotlari Maks Myuller (1823–1900) tomonidan boshlab berilgan. Olim 1856 yilda “Qiyosiy mifologiya” va 1870 yilda nashrdan chiqqan “Dinlarning asosi va shakllanishiga oid dars baholari” nomli asarlari bilan boshqa dinlarni tadqiq qilishga yo'l ochgan va kattagina e'tibor qozongan. U Angliyadagi mashhur Oksford universitetida dinlar tarixidan ma'ruzalar o'qigan. O'zining “SHarqning muqaddas kitoblari tarjima silsilasi” asarida u ilk bora “religious studies” (dinshunoslik) so'zini qo'llagan. Myuller va uning zamondoshlari dinlarni ilmiy tadqiq qilishda filologiyani muhim deb bilishgan va dinning asl mohiyatiga faqatgina til orqali qilingan izlanishlar bilangina etishish mumkin, degan fikrni olg'a surgan.

Biroz keyingi davrlarda Gollandiyada S.R.Tile va SHantepi de la Sosse bu borada izchil faoliyat olib borganlar. SHunday qilib davrlar o'tishi bilan Parij, Bryussel va Rim kabi markazlarda dinshunoslik universitetlar ta'lim dasturlaridan joy olgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab dinshunoslik sohasida olib borilgan izlanishlar shakllangan. Bu davrda turli mintaqalarda zikr qilingan soxada bir qancha mutaxassislar etishib chiqqan. Ulardan R.Pettazoni, M.Eliade, Van der Lyu, R.Otto, G.Menshing, J.Vax, F.Xeiler,

G.Dumezil, E.G.Parrinder, S.G.F.Brandon, Erik F.SHarp, Ninian Smart, M.Kitagava, R.S.Zeyxner, Ugo Bianchi, V.Kantvell Smit, Ake V.Strom, Xans J.SHoyps va Mixael Paylar nomini zikr qilishimiz mumkin.

DINSHUNOSLIK FANI SOHALARI

Dinshunoslik tarix, falsafa, psixologiya, sotsiologiya, arxeologiya va boshqa ijtimoiy fanlar bilan mustahkam bog'liqligi dinshunoslik nazariyasini boyitishga xizmat qiladi. SHundan kelib chiqqan holda, dinshunoslik fanining Dinshunoslik fanining yuzaga kelishi kabi sohalari mavjud.

Din fenomenologiyasi. Fenomen, namoyon bo'luvchi, ko'zga ko'rinuvchi narsa bo'lib, fenomenologiya ko'zga ko'rinuvchi narsaning sistematik shaklda tadqiq qilinishidir. Dinning ko'zga ko'rinuvchi, tashqarida aks etuvchi jihatlarini o'rganuvchi ilm sohasiga "Din fenomenologiyasi" deyiladi. Din fenomenologiyasi, tarixiy shakllanishlarni e'tiborga olmagan holda diniy fakt va voqelikning bizga namoyon bo'lgan jihatlarini asosiy o'ringa ko'taradi. Turli dinlarning ibodat va marosimlarini, muqaddas joy, zamon, narsa va shaxsiyatlarini tadqiq qilib, mushtarak jihatlarini topishga harakat qiladi.

Din fenomenologiyasidiniy tuyg'u va bu tuyg'uning ko'rinishlari deyarli butun dunyoda bir-biriga o'xshashiga ishora qiladi; barcha dinlarning asli va g'oyasining bir ekanligini isbotlashga harakat qiladi. SHuning bilan birga diniy ramz (belgi) larda yashirgan ma'nolarni ochish va majoziy so'zlarning muqaddas mazmunini yoritish kabi ishlar ham uning vazifalariga kiradi.

Din fenomenologiyasi, materiallarini dinlar tarixidan oladi. Lekin u bu materiallarga tarixiylikdan ham ko'ra ko'proq sistematik jihatdan yondashadi. SHunday qilib diniy asoslar, diniy fenomen va shakllanishlarni muqoyasa qiladi. Din fenomenologiyasi boshqa din ilmlarini bilan ba'zi nuqtalarda birlashishiga qaramasdan, mustaqil bir ilm sohasi sifatida, ba'zan farqlangan jihatlarini ham bo'lib turadi.

Din sotsiologiyasi. Din – jamiyat munosabatlarini, bu munosabatlar ortidan kelib chiquvchi voqea–hodisalarni o'rganadi. SHu tufayli bu ilm sohasi ijtimoiy diniy muassasalarni, dinning davlat, xalq, oilaga nisbatan munosabatini, din sohasida yuzaga keluvchi ijtimoiy voqea–hodisalarni, turli din jamoalarining jamiyat bilan bo'lgan munosabatlarini asosiy mavzu sifatida tadqiq qiladi. Demak, din sotsiologiyasining mavzusi, jamiyatning asos shakllari va dinning tashqi ko'rinishlari bilan ijtimoiy jarayonlar, ularning tuzilish va qonunlaridan iborat ekan. Boshqacha qilib aytganda bu ilm sohasi, tarix bo'yicha xususiy va mushohadaga suyanuvchi din va jamiyat tadqiqotlarini; dinning ijtimoiy hayotdagi ko'rinishlarini o'rganadi.

Din sotsiologiyasi, bir tomondan jamiyat, bir tomondan diniy ilmlarga tayanadi; bu ikki asos ustida yakdillikni keltirib chiqarishga harakat qiladi.

Din psixologiyasi. Bu ilm sohasi, zamonaviy psixologiya bilan birgalikda shakllangan va uning bir tarmog'i holiga aylangan. Din psixologiyasi, avvalo insonga oid bo'lgan diniy hayotning turli jihatlarini psixologik jihatdan o'rganadi. YA'ni din psixologiyasi dinning psixologik jihatini, shaxsning diniy tajribasini va bu tajribaning turli ko'rinishlarini bayon qilishga harakat qiladi. Natijada udinning inson ruhidagi asosiy xususiyatlari xatti–harakatlarga bo'lgan ta'siri to'g'risida atroflicha to'xtaladi. Ruh–jasad aloqasi bilan atrof–madaniyat ta'sirlarining barchasini ichida o'rganuvchi diniy e'tiqod, shaxslarning ichki olamidagi turli rivojlanishlarni ko'rsatib beradi. SHu sababli Din psixologiyasi diniy tajribadan boshlagan holda inson turlarini atroflicha o'rganib, xos tipologiyalarni kashf qiladi; buyuk diniy shaxsiyatlarining ichki hayotlari bilan qiziqqan holda ularning ruhiy holatlari bilan shug'ullanadi. Kishining diniy his, tushuncha va yashash tarzi din psixologiyasining asosiy mavzusidir. U shaxsda din tuyg'usi va hissining qanday qilib kelib chiqqanligi va shakllanishini, ihtido (hidoyat topish) yoki inkor hodisalarini, dindan kelib chiqqan ruhiy keskinlik va shubhalarni tadqiq qiladi.

Din psixologiyasi umumiy psixologiyaning barcha metodlaridan foydalangan holda o'ziga taalluqli bo'lgan mavzularni muhokama qiladi. Bu ilm turi, dindorlikning shaxs ruhiyatidagi siljish va ta'sir jarayonining tadqiq qilinishida umumpsixologiyadagi tamal asoslar, berilgan ma'lumotlarga (raqamlar)ga qarab anketalar, testlar va kuzatuvlardan foydalanadi.

Din falsafasi. Din sotsiologiyasi, Din psixologiyasi kabi asosiy mavzusi "din" bo'lgan Din falsafasi, "din"ni falsafadan kelib chiqib tadqiq qiladi. Bu tadqiqot asnosida aqliy va betaraf yo'l tutadi. Bu ilm turi, qandaydir bir YAratuvchi kuch e'tiqodiga falsafiy bir asos topishga harakat qiladi. SHu tufayli ham Din falsafasi sohasida faoliyat ko'rsatuvchilarning maqsadi dinning haq yoki botil ekanligi masalasi bilan mashg'ul bo'lish emas, diniy hukmlarning mantig'i va mohiyatini ochib berishdir. Bu maqsad bilan ular, eng avvalo Xudoning mavjudligi bilan bog'liq dalillarning tanqid yoki tahlilini qiladi, bu dalillarning qanchalik asosli yoki asossiz ekanligi masalasini ko'rib chiqadi.

Din falsafasini boshqa din ilmlaridan ajratib turuvchi jihat bu, undagi hukm berish, xulosa yasash xususiyatidir. Boshqa din ilmlari, baho berish, munosabat bildirish metodiga suyangan holda diniy masalalarni hal qilishsa; Din falsafasi, ular yasagan xulosa va erishgan natijalardan keng miqyosda foydalanadi va bu natijalar sababli bir qancha hukmlarni chiqaradi. Hatto Din falsafasi, dinni maqsad qilib olgan ilm turlari qo'lga kiritgan natijalar va bu natijalarga erishish uchun ular qo'llagan metodlar haqida ham hukm chiqarishi mumkin.

Din falsafasi, dinning mohiyati, insonning diniy haqiqatlar bilan bo'lgan bog'liqligini o'rganadi. Bu ilm turining e'tiborida bo'lgan mavzularning boshida Xudoning borligi, sifatleri, yaratuvchi–koinot munosabati, yaratish, olamning yaratilishidagi maqsad, qayta tirilish, payg'ambarlik va vahiy kabi keng miqyosda metafizik bir xarakterga ega masalalar asosiy o'rinni egallaydi. Bundan tashqari ilm–imon, ilm–din, din–madaniyat (din–san'at, din–til–adabiyot) diniy tajriba, diniy his kabi asoslar ham bu ilm turining sarhadlariga kiradi.

Din tarixining yuqorida ma'lum qilinganlar bilan yaqindan aloqasidan tashqari, u suyanuvchi bir qancha ilm turlari ham mavjud. Ularning ichida birinchilardan bo'lib tarix o'rin oladi. Tarix, makon va zamon ta'yin qilgan holda o'tmishdagi voqea–hodisalarni o'rganuvchi bir ilm turi bo'lishi bilan birga moziy va hozirdagi dinlarning tarixiy shakllanishi jihatidan Dinlari tarixiga yaqindan ko'makchi bo'ladi.

Diniy matnlarning o'rganilishi, tabiiy ravishda, tilga bog'liqdir. Demak, bir tomondan Dinlar tarixi suyanadigan ilm turi esa bu Filologiyadir. Bundan tashqari Mifologiya (Rivoyat va afsonalar), Etnologiya, Arxeologiya, San'at tarixi, Folklor va shunga o'xshash bir qancha ilm turlari borki, ulardan ham Dinlar tarixi izlanishlarida bevosita foydalaniladi.

DINNING JAMIYATDAGI FUNKSIYALARI

Dinning "funksiya" va "rol" tushunchasini farqlash lozim, ular bir biri bilan bog'liq, lekin o'xshash emas. Funksiya – bu dinning jamiyatdagi harakat usuli bo'lsa, rol – bu funksiyani bajarish natijalarining jami yig'indisidir. Dinning bir nechta funksiyalari mavjud: dunyoqarashni shakllantirish, kompensator, kommunikativ, regulyativ, integrallash–dezintegrallash, madaniyatni targ'ib qilish (kulturotransliruyumaya), legitimirallashtirish–legitimiralni olib tashlash.

Dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi dinda inson, jamiyat, tabiatga nisbatan aniq bir qarashlarning turlari mavjudligi tufayli amalga oshiriladi. Din hayotni (mavjudotni) ma'lum nuqtai nazardan tushunish (dunyoni to'la va undagi ayrim hodisa va jarayonlarni alohida tushuntirish), dunyoni kuzatish (his qilish va idrok etish orqali dunyoni aks ettirish), dunyoni his qilish (hissiy qabul qilish yoki rad etish), dunyoviy munosabat (baho berish) va hokazolarni o'z ichiga oladi. Diniy dunyoqarash YAratganga nisbatan eng oliy tuyg'u va mezonlarni belgilaydi. Bunda mavjud borliqqa tushuncha berish dinga ishonganlar uchun turli cheklashlar doirasidan chiqish imkonini beradi, yorqin kelajak, huzur–halovatga erishish uchun umid, azob–uqubat, baxtsizlik, yolg'izlik, tushkunlikdan ozod bo'lishni qo'llab–quvvatlaydi.

Kompensator funksiya ham odamlarning ongini qayta shakllanishini, ham turmushning ob'ektiv shart-sharoitlarini o'zgartirishdagi cheklanish, qaram bo'lish va ojizlikni to'ldiradi. Ruhiy erkinlik orqali real jabr-zulm bartaraf etiladi; ijtimoiy guruhlar gunohga botish va azob chekish borasida teng huquqlik bo'ladi; diniy tashkilotlar tomonidan beriladigan xayr-ehsonlar, mehr-shafqat, tarbiya, daromadlarni qayta taqsimlash mazlumlarning musibatini engillashtiradi va h.z. Umuman olganda, ruhiy zarbalarni bartaraf etish, tasalli berish, katarsis va ma'naviy ozuqa olish kabi kompensatsiyaning psixologik aspektlari muhim ahamiyatga egadir.

Kommunikativ funksiya muloqotni ta'minlaydi. U ham diniy, ham diniy bo'lmagan faoliyat va munosabatlarda vujudga keladi, axborot almashish, o'zaro ta'sir ko'rsatish, insonni inson tomonidan idrok etish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Diniy ong ikki xil muloqotni belgilaydi: dindorlarning o'zaro bir-birlari bilan muloqoti va dindorlarning ibodat, namoz, meditatsiya, maxfiy qarashlar paytidagi mediator va vositachilari tomonidan gipostazir jonzotlar (xudo, farishta, o'lganlarning ruhi, avliyolar va b.) bilan muloqoti.

Regulyativ funksiya ma'lum bir g'oyalar, qadriyatlar, yo'l-yo'riqlar, stereotip qoliplar, fikrlar, an'analar, rusumlar, institutlar orqali individ, guruh va jamoalarning faoliyati, munosabatlari, ongi va axloqini boshqarishdan iborat. Ayniqsa, me'yorlar tizimi (diniy huquq, axloq va h.z.), namunalar (taqlid uchun ko'psonli misollar), nazorat (qoidalar bajarilishini kuzatish), rag'batlantirish va jazo berish (haqiqiy va o'limdan keyin taqdirlanishiga va'da berish) muhim ahamiyatga ega.

Integratsion-dezintegratsion funksiyasi individ, guruh va institutlarni bir tomondan birlashtiradi, boshqa tomondan ularni ajratadi. Integratsiya shaxslar, ayrim ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, bir butun jamiyatdagi barqarorlik va chidamlilikni saqlasa, dezintegratsiya uni zaiflashishiga olib keladi. Integratsion funksiya ma'lum bir ma'noda yagona diniy e'tiqod mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. Agar shaxslarning diniy ongi va xulq-atvorida bir-biriga muvofiq bo'lmagan g'oyalar, ijtimoiy guruh va jamiyatda bir-biriga qarama-qarshi konfessiyalar paydo bo'lsa, dinning funksiyasi dezintegratsion bo'ladi.

Madaniyatni targ'ib qilish funksiyasi oldin madaniyatning ma'lum bir qatlamlari – yozuv, kitob bosish, san'atning umuman rivojlanishiga yordam bergan bo'lsa, hozirda ba'zi madaniy fenomenlarni rag'batlantirib, ba'zilarini inkor etgan holda diniy madaniy qadriyatlarni saqlash va ko'paytirish, ilmiy-ma'naviy merosni nasldan naslga qoldirish vazifalarini bajaradi.

Legitimallashtirish-legitimiralni olib tashlash funksiyasi ba'zi jamoat tartiblari, institutlar, munosabatlar, me'yorlar, namunalarni majburiyat sifatida qonuniy qilish yoki ularning ba'zilarini qonundan chiqarish vazifalarini amalga oshiradi. Din ma'lum huquqiy talab va majburiyatlarni ilgari suradi va uning asosida ba'zi ko'rinishlarga, ularga ma'lum munosabatni shakllantirgan holda baho beradi. Bunda majburiy va e'tiroz qilib bo'lmaydigan xarakter muhim ahamiyat kasb etadi.

YUqoridagilardan qisqa xulosa qilib aytganda, din insoniyat tarixida, *birinchidan*, umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olib, ularni hamma uchun majburiy hulq-atvor qoidalariga aylantirgan; *ikkinchidan*, odamlarning bahamjihat yashashiga ko'malashgan; *uchinchidan*, odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan hamda hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni engib o'tishlarida kuch bag'ishlagan; *to'rtinchidan*, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan-avlodga etkazishga yordam bergan va shu yo'l bilan madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Dinlar unga e'tiqod qiluvchilarning soni, miqyosi, o'zining ma'lum millat yoki xalqqa xosligi yoxud millat tanlamasligiga ko'ra turli guruhlariga bo'linadi. Bu guruhlar son jihatdan qancha bo'lishidan yoki nazariy jihatdan qanchalik etuk bo'lishidan qat'i nazar, ularni mutlaqlashtirib bo'lmaydi. Chunki har qanday tasnif ma'lum bir jihatga e'tibor berib, boshqa qirralarni qamrab ololmaydi. Hozirgikunda din tipologiyasidainlarningquyidagitasniflarimavjud:

- tarixiy-geografikjihatgako'ra;
- etnikjihatgako'ra;

- e'tiqod qiluvchilarining soniga ko'ra;
- hozirgi davrdamavjudligi jihatidan (tirik va o'lik diniy tizimlar) va h.k.

Bugungi kunda, dinshunoslikka bag'ishlangan adabiyotlarda asosan quyidagi tasnif keltiriladi:

1) primitiv diniy tasavvurlar (urug'–qabila dinlari) – totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o'z urug'idan chiqqan sehrgar, shaman yoki qabila boshliqlariga sig'inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jahon dinlari ichiga singib ketgan bo'lib, hozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba'zi qabilalarda saqlanib qolgan;

2) millat dinlari – ma'lum millatga xos bo'lib, boshqa millat vakillari o'ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yahudiylik (yahudiy millatiga xos), hinduizm (hindlarga xos), konfutsiychilik (xitoy millatiga xos), sintoizm (yaponlarga xos) kiradi;

3) jahon dinlari – dunyoda eng ko'p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qat'i nazar unga e'tiqod qilishlari mumkin bo'lgan dinlar. Ular safigaodatda buddizm, xristianlik va islom dinlarini kiritadilar.

Bundan tashqari dinlar ta'limotiga ko'ra monoteistik – yakkaxudolik (yahudiylik, islom) va politeistik – ko'pxudolik (hinduizm, konfutsiychilik) dinlari va h.k.ga bo'linadi.

Nazorat savollari:

1. «Dunyo dinlari tarixi» fanini o'qitishning dolzar masala ekanligini ochib bering?
2. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qanday huquqiy-me'yoriy hujjatlarni qabul qilanni bilasiz?
3. O'zbekistondagi milliy madaniy markazlar va diniy konfessiyalar to'g'risida ma'lumot bering?
4. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonun mazmun-mohiyati.
5. «Dunyo dinlari tarixi» fanini umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish masalasi.
6. O'zbekiston Prezidenti SH.Mirziyoevning vijdon erkinligi va diniy bag'rikenglikka oid konseptual qarashlari.

7-mavzu: Tarix ta'limida pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish (2-soat ma'ruza)

Reja:

1. Pedagogik texnologiya va uning ilmiy aspektlari.
2. Guruhlarda hamkorlikda o'qitish faoliyatini tashkil etish texnologiyasining mazmun mohiyati.
3. Keys texnologiyasining mazmun mohiyati.
4. Loyiha texnologiyasi .

***Tayanch iboralar:** an'anaviy ta'lim, pedagogik texnologiya, keys-stadi, loyiha texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi*

1. Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning aspektlari

Buyuk faylasuf Konfutsiyning: «Men eshitaman va unutam, men ko'raman va eslab qolaman, men bajaraman va tushunaman», - degan fikri ta'limda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Quyida keltirilgan o'zlashtirish foizlariga e'tibor qaratilsa, o'quv topshiriqlarining naqadar bilimni o'zlashtirish jarayonida ahamiyati katta ekanligini bilamiz:

□ 5%, -og'zaki ravishda materiallarni o'zlashtirish ko'rsatkichi bo'lgan sharoitda dars o'tish samarasiz bo'ladi;

- 10 % -mashg'ulotlarda o'quv materialni ko'rgazmali shaklda taqdim etish lozim. Agar ko'rsatmali materiallardan foydalanilsa va qo'shimcha material o'qituvchi tomonidan o'qib berilsa, dars yanada tushunarli bo'ladi;
- 20 % -ham ko'rib, ham eshitilsa, texnik vositalardan foydalanilsa, darsning samaradorligi yanada oshadi;
- 50 % -babs munozaraga kirishilsa, anglash jarayoni boshlanadi;
- 75 % -mavzu bo'yicha amaliy topshiriqlar bajarilsa;
- 90 % -muhokama qilib bir-biriga o'rgatishsa, o'zlatirish foizlari o'sadi.

«Texnologiya» so'zi fanga 1872 yilda kirib kelgan va yunoncha «*techne*» so'zidan olingan bo'lib, *mahorat, san'at, malaka, »logos»esa - so'z, ta'limot* ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab bera olmaydi, texnologik jarayon deyilganda-mehnat qurollari bilan mehnat vositalariga ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish bo'yicha qilingan mehnat va jarayonlar tushuniladi. Demak, bu ta'rifni turlicha sharhlash mumkin, bunda: pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyatmahsuli sifatida ularda muayyan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni, deb ta'riflasak ham xato bo'lmaydi. Rivojlanayotgan xorijiy davlatlarda, birinchi navbatda, pedagogik texnologiyaga ta'lim sohasidagi siyosatning bosh vazifasi sifatida qarab kelingan. Bunday yondashish YUNESKO tomonidan ham ma'qullandi va 1972 yilda «Ta'limni rivojlantirish masalalari» bo'yicha Xalqaro Komissiya tashkil topdi. Bu komissiya zamonaviy texnologiya-ta'limni modernizatsiyalashda harakatlantiruvchi kuch,- deb baholadi.

XX asr 30-yillarning o'rtalarida AQSHning Indiana universitetida talabalarga eshitish va ko'rish (audiovizual) ta'limi bo'yicha ma'ruzalar o'qilgan, 1946 yil shu erning o'zida eshitish va ko'rish ta'limi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash kursi: ishlab chiqarishni rejalashtirish, eshitish va ko'rish vositalarini ishlatish va ular sifatini baholash, shu vositalarni qo'llab o'quv jarayonini boshqarish dasturlari kiritildi. Bu jarayon "*ta'limda texnologiyalar*" deb nomlandi. Keyinchalik «ta'lim texnologiyasi» o'rniga «dasturlashtirilgan ta'lim» atamasidan foydalanish keng yoyildi.

Ta'lim texnologiyasi (ingl. «an educational technology») – ta'lim (o'qitish) jarayonining yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi

Ta'lim texnologiyasi – ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarishdir

So'ngra pedagogik texnologiya - loyihalashtirilgan ta'lim va aniq maqsadga qaratilgan o'quv jarayonini ifoda eta boshladi. Faqat 1970-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushuncha yangicha talqin etila boshlanib, ta'lim texnologiyasining ilmiy asosini informatika, telekommunikatsiya nazariyasi, pedagogik kvalimetriya, tizimli tahlil, bilish faoliyatini boshqarish nazariyasi, o'quv jarayonini qulaylashtirish, pedagogik mehnatni ilmiy tashkillashtirish kabilar tashkil qildi. Ko'rish va eshitish vositalarining yangi turlari: videomagnitofon, aylanmali kadroproektor, elektron va bloknotli yozuv taxtasi va boshqalardan foydalanish ko'zda tutildi.

1980-yillarda pedagogik texnologiya kompyuterli va axborot texnologiyalari bilan sinonim tarzda ishlatila boshladi. Ko'rinib turibdiki, qator yillar davomida pedagogik texnologiyaga o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb qarab kelindi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Ushbutushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy

sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa, deb ta'riflash mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy hoidisani pedagogik texnologiya, desa bo'ladi.

Pedagogik texnologiya – ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va boshqalarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiiq etish va aniqlashning izchil metodi (YUNESKO).

XXI asrning boshlarida bu ta'rif yana o'zgarib, pedagogik texnologiyani - berilgan yoki mavjud sharoitda pedagogik vazifalarga maqbul erishish yo'llarini ongli loyihalash, deb qayd etilmoqda. Demak, texnologiya sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan aniq maqsadli amallarni muayyan ketma - ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ta'lim jarayoniga quyidagi talablar qo'yilmoqda:

sifat, ya'ni aniq, ma'lum ta'lim darajasini olish;

ommaviy, ya'ni, talab etilayotgan ta'lim darajasiga bir vaqtning o'zida ko'p sonli talabalar erishishlari lozim;

samaradorlik, ya'ni, ta'limga sarflanayotgan harajatlar eng ko'p samara berishi zarur.

Pedagogik texnologiya umumiy didaktik tamoyillarga ega bo'lishi bilan birga, quyidagi aynan o'zigagina xos bo'lgan tamoyillarga ham ega:

1. Bir butunlik, yaxlitlik tamoyili ikki jihatni o'zida aks ettiradi: 1) ta'lim, tarbiya hamda shaxs kamoloti (taraqqiyoti) birligi; 2) pedagogik texnologiyani muayyan, qat'iy tizimga egaligi, «tizimlilik» tushunchasi bu o'rinda ham ma'lum o'quv fanini o'qitish jarayoniga, ham umumiy ta'lim jarayoniga xoslikni anglatadi.

2. Asoslilik (fundamentlik) tamoyili fanlarning o'rganish ob'ekti, ichki mohiyati va xususiyatlariga ko'ra turli yo'nalish (blok)larga bo'lib o'rganish afzalliklarini ifoda etadi. O'quv fanlari tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar tarzida turkumlashtirilgan. Har bir o'quv fani uning uchun «yadro», «o'zak» sanaluvchi axborotlarga ega bo'lib, ushbu axborotlar shaxs tomonidan fanlar asoslarining o'rganilishi, aniq mutaxassislik bo'yicha mustaqil bilim olish, o'zlashtirilgan bilimlarni kengaytirib borish yo'lida tayanch tushunchalar bo'lib xizmat qiladi.

Bunday yondashuv ma'lum yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonida fanlararo aloqadorlik xususiyatidan foydalanish imkonini ham beradi. O'quv fanlarining muayyan yo'nalishlar tarzida birlashtirilishi shaxs xotirasiga nisbatan zo'riqlashni kamaytiradi, shuningdek, fikrlash quvvatini oshiradi, tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

XX asrning 80-yillarida ta'lim jarayonini tashkil etish ta'lim oluvchilarga mavjud fanlar sohalari bo'yicha oz-ozdan ma'lumot (bilim) berishdan iborat deb talqin etilgan bo'lsa, 90-yillarda ushbu jarayonning tashkil etilishi o'zlashtirilgan bilimlar negizida muayyan, aniq fan bo'yicha yangi ma'lumot (bilim)larga ega bo'lish uchun qulay sharoitni yaratish jarayoni sifatida e'tirof etildi.

3. Madaniyatni anglash (madaniy hayotning rivojlanishiga muvofiqlik) tamoyili nemis pedagogi A.Disterveg tomonidan XIX asrda iste'molga kiritilgan bo'lib, bugungi kunga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Madaniyatni anglash tamoyili talabalarga ijtimoiy jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib ta'lim berilishini nazarda tutadi. O'tgan asrda ta'lim samaradorligini ta'minlovchi etakchi omil sifatida pedagogning bilim darajasi va mahorati e'tirof etilgan bo'lsa, bugungi kunda o'qituvchining bilimi, salohiyati hamda mahoratining yuqori darajada bo'lishi bilangina muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib bo'lmasligi barchaga ayon. Mazkur o'rinda zamonaviy fan va texnika imkoniyatlari, xususan, kompyuter, multimediyaviy vositalari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining e'tiborga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Endilikda mutaxassislar «soha (yoki yo'nalish)larning o'ziga xos jihatlari, bu boradagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqur bilishlari, muayyan faoliyatlarni bajara olishlari, belgilangan muddatda aniq

vazifalarni hal etishga ulgurishlari hamda ma'lum yutuqlarga erisha olishlari» g'oyasi etakchi o'rin tutuvchi bozor munosabatlari sharoitiga puxta tayyorlanishi lozim.

4. Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish va insoniylashtirish tamoyili. Tilga olingan har ikki tushuncha ham lug'aviy jihatdan (yunon. «humanus» – insoniylik, «humanitas» – insoniyat), bir o'zakka ega bo'lsa-da, ularning har biri o'ziga xos ma'nolarni ifodalaydi.

Insonparvarlashtirish ta'lim muassasalarida o'rganiladigan fanlar sirasiga ijtimoiy fanlar (tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, filologiya va boshqalar)ning kiritilishini, **insoniylashtirish** tushunchasi esa shaxs va uning faoliyatiga nisbatan ijobiy yondashuvni anglatadi. Boshqacha aytganda, **insonparvarlashtirish** – inson va jamiyat o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar jarayonida inson omili, uning qadr-qimmati, sha'ni, or-nomusi, huquq va burchlarini hurmatlashga asoslanuvchi faoliyatni tashkil etish jarayoni bo'lsa, **insoniylashtirish** «barcha sharoitlar inson va uning kamoloti (taraqqiyoti) uchun» degan g'oya asosida tashkil etiluvchi faoliyat jarayoni sanaladi.

Ta'lim jarayonini loyihalashtirishda har bir o'qituvchi ushbu tamoyilga qat'iy amal qilishi lozim yoki o'z mutaxassisligiga oid muammolarni hal etishda uni jamiyat manfaatlari bilan uyg'un bo'lishiga e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir. Endilikda pedagog talabalar faoliyatini avtoritar (yakka hokimlik) tarzida boshqarmay, balki ta'limiy hamkorlik g'oyalariga sodiqlik asosida ta'lim jarayonini insoniylashtiradi yoki boshqacha aytsak, ta'limni insoniylashtirish tamoyiliga amal qilinishini ta'minlaydi. Ushbu holat o'z navbatida yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

5. O'qitib tadqiq etish, tadqiq etib o'qitish tamoyili. Ushbu tamoyil quyidagi ikki jihatni yoritishga xizmat qiladi: 1) ta'lim muassasalarining har bir o'qituvchisi o'z fani sohasiga talabalarni jalb qilgan holda tadqiqotlarni olib borishi lozim; 2) o'qituvchi ta'lim texnologiyasini ishlab chiqadi, uni amaliyotda sinab ko'radi, kuzatadi va tuzatishlar kiritadi, ya'ni, u ta'lim jarayonini tadqiq etadi.

O'qitish jarayonining mazkur ikki jihati muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'qituvchining kasbiy hamda pedagogik mahoratini oshirib borishga va talabalarni bo'lajak mutaxassislik faoliyatiga puxta tayyorlash uchun zamin yaratadi.

6. Ta'limning uzluksizligi tamoyili ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatlarga ega bo'lishlari, mavjud sifatlarning hayotiy faoliyat davomida takomillashib borishini nazarda tutadi. SHaxsga uning butun umri uchun asqotishi mumkin bo'lgan bilimlarni berish mumkin emas, zero, mavjud bilimlar har besh-o'n yil mobaynida o'zgarib, mazmunan boyib boradi. Demak, mazkur tamoyil o'qituvchining o'z faoliyatida mustaqil ta'limni tashkil etishga e'tibor berishi, pedagog etakchiligini ta'minlagan ta'limdan talabalarning mustaqil bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishni ifodalaydi.

7. Faoliyatli yondashuv tamoyili nazariya va amaliyotning didaktik bog'liqligiga asoslanadi. Didaktika nazariyasida bilim tushunchasi quyidagi ikki xil ma'noda izohlanadi: a) ta'lim oluvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar; b) ular tomonidan o'zlashtirilib, amaliy faoliyat jarayonida qo'llaniladigan, shaxsiy tajribaga aylangan bilimlar.

Bilimlar faoliyat jarayonida mustahkamlanadi, shu sababli talabalarda nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish iqtidorini tarbiyalash lozim. Amaliyotdagi tadbqiqiga ega bo'lmagan bilimlar tez orada unutilib yuboriladi.

2. Guruhlarda hamkorlikda o'qitish faoliyatini tashkil etish texnologiyasining mazmun mohiyati

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi turli mamlakatlardagi jumladan Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori R.Slavin (1990), Minnesot universiteti professorlari R.Jonson, D.Jonson (1987), Kaliforniya universiteti professori J.Aronson (1978), Izroildagi Tel -Aviv universiteti professori SH.SHaran (1988) tomonidan ishlab chiqilgan.

Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikda o'qitish asosan talabalarda DTS va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, Izroil va Evropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o'qitish yuqorida qayd etilganlar bilan bir qatorda, ko'proq

talabalar tomonidan o'quv materialini qayta ishlash, loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o'quv bahsi va munozaralar o'tkazishni nazarda tutadi. Mazkur g'oyalar bir-birini to'ldiradi, didaktik jihatdan boyitadi va bir-birini taqozo etadi.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi didaktikada 1970 yillarda paydo bo'lgan. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Kanada, G'arbiy Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Izroil mamlakatlari ta'lim muassasalarida keng qo'llanila boshlagan.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarni nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qishni o'rganishdir.

Hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda ma'suliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishiga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirilishiga zamin tayyorlaydi.

Hamkorlikda o'qitish metodlari. O'qituvchi ta'lim jarayonida hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanish maqsadida quyidagilarni:

qaysi mavzularni hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanib o'rganish mumkinligini aniqlashi va mazkur darslarni taqvim-rejada belgilashi;

ushbu mavzu bo'yicha o'quvchilarga tavsiya etiladigan o'quv topshiriqlari va ularni bajarish yuzasidan ko'rsatmalarni tayyorlashi;

hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanib o'tiladigan dars turi, dars strukturasi va borishini loyihalashi;

o'tgan va yangi mavzular yuzasidan o'quvchilar bilimni nazorat qilish uchun test topshiriqlarini tuzishi kerak.

Mazkur metodlardan foydalanganda shuni nazarda tutish kerakki, o'quvchilar o'z sheriklari bilan hamkorlikda o'quv topshiriqlarni to'g'ri bajarishlari barobarida guruh a'zolarining faolligi, hamkorlikning vujudga kelishi, ular o'rtasidagi muloqotda muloqot madaniyati tamoyillariga amal qilinishi ham hisobga olinadi.

SHunday qilib, guruh a'zolari bir vaqtning o'zida ikkita topshiriqni bajaradi:

1. Akademik topshiriq - bilish va ijodiy izlanish orqali o'quvtopshiriqlaridan ko'zlangan maqsadga erishish;

2. Ijtimoiy-psixologik topshiriq - dars davomida yuksak muloqot madaniyatiga ega bo'lish, odob osoyishtaligini saqlash;

O'qituvchi har ikkala topshiriqning yuqori saviyada bajarilishini nazorat qiladi.

O'qituvchi tarix ta'lim jarayonida hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanishi uchun ushbu texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni, o'quvchilarning mustaqil ishlari, o'quv bahsi va munozaralarni samarali tashkil etish yo'llarini egallagan, o'quvchilarda esa darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlar ustida mustaqil va ijodiy ishlash, o'z fikrini qisqa va aniq bayon etish, fikrlarni asoslash va dalillash, mantiqiy fikr yuritish, o'quv bahsi va munozaralarda faol qatnashish ko'nikmalari shakllangan va ongli intizom vujudga kelgan bo'lishi lozim.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining bir nechta metodlari mavjud:

Komandada o'qitish (R.Slavin)da o'quvchilar teng sonli ikkita komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishiga e'tiborni qaratadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo'lgan R.Slavinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish bo'yicha ko'rsatma berilishi etarli emas. O'quvchilar o'rtasida tom ma'nodagi hamkorlik, har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. SHundagina o'quvchilar o'zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda ma'suliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirishga intiladi.

Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish (R.Slavin 1986). Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o'quvchidan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va testtopshiriqlari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda xam tashkil etilishi mumkin.

O'quvchilar bilimlarni puxta egallashning yagona yo'li o'z hamkorining axborotini diqqat bilan tinglash ekanligini anglagan holda, mushohada yuritishga, kerakli ma'lumotlarni daftarga yozishga harakat qiladi. Bu erda o'qituvchi faqat o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etadigan tashkilotchi vazifasini bajaradi. Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarning bilim darajasini test topshiriqlari yordamida aniqlaydi. Har bir o'quvchining bilimi sifatidagi o'sish hisobga olinadi.

O'quvchilar bilimi test savollari yordamida individual tarzda o'tkazilib nazorat qilinadi va baholanadi. Guruh a'zolarining ballari jamlanadi, eng yuqori ball to'plagan guruh g'olib sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, o'qitish jarayonining samaradorligi o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning bilish faoliyatini o'qitish vazifalari va maqsadlariga muvofiq tashkil eta olish ko'nikmalarini egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

3.Keys texnologiyasining mazmun mohiyati.

«Case» so'zi, lotincha «casus»- «voqea, hodisa» so'zidan kelib chiqqan va keyinroq inglizcha «case» - to'plam, aniq vaziyat, stadi – ta'lim ta'lim co'zlarining birikuvidan hosil qilingan bo'lib, aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lim texnologiyasidir. Bunda muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Boshqacha aytganda, bu tushuncha hayotda yuz beradigan qandaydir voqea yoki hodisani, aniq bir vaziyatning tafsilotini anglatadi.

Keys – stadi (aniq bir holat yoki vaziyat), muayyan jarayonida sodir bo'ladigan haqiqiy voqelikni so'zlar, raqamlar, obrazlarda ifoda etishda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, bu ifoda ta'lim sohasida, hodisa yoki vaziyatni tadqiq etish uchun ishlatiladigan axborot, stenografiya sifatida qo'llaniladi. Keys-stadi hodisa yoki vaziyatni oddiy tafsilotidan farqli o'laroq, u o'quv materialini o'zlashtirish uchun ko'maklashuvchi axborotni o'z ichiga oladi, bunga duch kelgan muammoni aniqlash va uning echim yo'llarini izlash orqali erishiladi. Keys-stadi, muayyan o'quv maqsadli bilim olish vositasi sifatida ishlab chiqilishi zarur. Ushbu maqsadlar keng ko'lamli bo'lib, axborotlar, ma'lumotlar yoki tafsilotlar bilan ta'minlanishini nazarda tutadi, ular muayyan qarashlar yoki usullarni namoyish etishda qo'llanilishi mumkin.

Keys ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870 yilda qo'llanilgan edi. 1920 yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o'qituvchilari yuristlarning o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi.

Keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzidagi echimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim uslubidir.

Keys-stadi - ta'lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli etishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan ta'lim texnologiyasidir. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi.

Keys-stadi metodining asosiy kategoriyasi bu «tahlil (analiz)»dir. Tahlil etish kategoriyasi ob'ektni xayolan bo'laklarga bo'lish yoki ilmiy tadqiq etish sifatida tushunilishi mumkin.

Analizning turli tasniflari mavjud bo'lib ommaviy analiz tasnifini quyidagicha belgilash mumkin: tizimli analiz, korrelyasion analiz, faktorli analiz, statistik analiz va boshqalar.

Analizning ushbu barcha turlari keys-stadi metodi doirasida qo'llanilishi mumkin bo'lib, mazkur holat metodning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

O'quvchilar tomonidan keysni echish texnologiyasi:

Birinchi bosqich –keysni hal etish bo'yicha individual (auditoriyadan tashqari) ish.

Ikkinchi bosqich – keys bilan birgalikda jamoa bo'lib (auditoriyada) ishlash.

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo'yicha individual ish

O'quvchi mustaqil ravishda:

- keys materiallari bilan tanishadi;
- taqdim etilgan vaziyatni o'rganadi, izohlaydi va asoslaydi;
- muammo va muammo osti muammolarni ajratadi,
- vaziyatni tadqiq va tahlil qilish usullarini tanlaydi;
- berilgan amaliy vaziyatni tahlil qiladi;
- ajratilgan muammoni hal etish usullari va vositalarini belgilaydi va asoslaydi;
- taklif etiladigan qarorni amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi.

Ikkinchi bosqich – keys bilan birgalikda jamoa bo'lib ishlash

O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, keys bilan birgalikda ishlashadi;

guruh a'zolarining vaziyat, asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari haqidagi turli tasavvurlarini muvofiqlashtirishadi;

echimning taklif etilgan variantlarini muhokama qiladilar va baholaydilar, qo'yilgan muammo nuqtai nazaridan ushbu vaziyat uchun eng maqbul variantni tanlashadi;

muammoli vaziyat echimiga olib keladigan tanlangan harakatlar yo'lini amalga oshirishning aniq qadamba-qadam dasturini batafsil ishlab chiqadilar;

taqdimotga tayyorlanadi va namoyish etiladigan materialni rasmiylashtirishadi.

Keysni echish natijalarini kichik guruhlar tomonidan taqdimotini o'tkazish:

- muammoli vaziyat echimining o'z variantini taqdim etadi;
- tanlangan harakatlar yo'lini izohlaydi va uning oqilonaligini asoslaydi;
- boshqa guruhlar qatnashchilari savollariga javob beradi va o'z takliflarini aniqlashtiradi.

Jamoa bo'lib keys ustida ishlash:

- guruhlar taklif etgan echimlar variantlarini muhokamasi;
- taklif etgan echimlarning o'zaro baholanishi;

Taklif etilgan echimlarning xayotiyiligi va amalga oshirilishi mumkinligiga birgalikda (o'quvchilar va o'qituvchi) baho berilishi ham mumkin.

O'qituvchining harakatlarini izchilligi:

- o'qituvchi mashg'ulot mavzusi va maqsadini ma'lum qiladi;

- o'quvchilarning prognoz qilinadigan ta'limdagi yutuqlari ro'yxatini e'lon qiladi;
- o'quv mashg'ulotining tartibi va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi
- o'quv natijalarini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari e'lon qiladi;
- o'quvchilarda bo'lg'usi o'quv faoliyatiga qiziqishni shakllantirish maqsadida keysning vazifasini va uning professional bilimlar va malakalarni rivojlantirishga ta'sirini tushuntirib beradi.
- o'quvchilarning o'quv mavzusi kursi bo'yicha bilimlarini dolzarblashtirish ishidan boshlanadi va bu ish blits-so'rovnoma yoki savol-javob shaklida o'tkaziladi.

Keys bilan shundan keyingi ish quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- ish o'quv rejasiga ko'ra ajratilgan vaqtga,
- keys o'lchami va uning maqsadlari,
- tanlangan ta'lim modeliga,
- o'quv mashg'ulotining loyihalashtirilgan texnologik chizmasiga,
- rejalashtirilgan ta'lim texnologiyasi bilan belgilanadi.

Keys bilan yakka tartibda ishlashni tashkil qiladi.

Keys bilan jamoa bo'lib ishlashni tashkil qiladi: o'quvchilarga aqliy hujum o'tkazishni taklif qiladi – keysda taqdim etilgan muammoli vaziyatni hal etish g'oyalari generatsiyasi

O'quv mashg'ulotining yakunlovchi-baholovchi bosqichi

O'qituvchining harakatlarini izchilligi:

- mavzu bo'yicha xulosa chiqaradi, o'quvchilar e'tiborini asosiy jihatga qaratadi;
- bajarilgan ishning kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun ahamiyati haqida so'zlaydi;
- guruhlar, ayrim o'quvchilar faoliyatini baholaydi o'zaro baholashlarga yakun yasaydi;
- o'quv mashg'uloti maqsadiga erishganlik darajasini tahlil qiladi va baholaydi.

SHuningdek, keys-stadi metodi o'zida quyidagi afzalliklarni va boshqa o'qitish metodlaridan ajralib turuvchi jihatlariga ega:

- 1) u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy tizim modelining mavjudligi hamda ushbu model holatining muayyan vaqt birligi ichida tahlil etilishi;
- 2) muammo echimini aniqlashga jamoaviy tarzda erishish. Muammoning echimida turli muqobil javoblarning mavjudligi. YAgona echimning mantiqan mavjud emasligi;
- 3) muammo echimini izlashda yagona maqsadning qo'yilishi;
- 4) faoliyatni baholashning guruhliy tizimining mavjudligi.

Keys – bu yaxlit axborotlar majmui. Qoidaga ko'ra, keys uch qismdan iborat bo'ladi:

- 1) keysni tahlil etish uchun zarur yordamchi axborotlar;
- 2) aniq vaziyat bayoni;
- 3) keys topshirig'i.

Keysning hujjatlashtirish haqida ma'lumot

Keysda bayon qilingan vaziyat institutsional tizimda (shu o'rinda va keyinchalik - korxonada) diskret (ayni shu) vaqtda tashkiliy hayotdagi tipik muammolarni qayta yaratadigan real yoki sun'iy qurilgan hodisalarning ideal tarzidagi in'ikosidan iboratdir. Muammoli vaziyat. Mazkur holda vaziyat sub'ektining hozirgi vaqtda yoki kelgusidagi maqsadlarga erishishiga xavf soladigan vaziyat tushuniladi.

Keysning ilmiy pasporti tayyorlanadi va unda albatta ilmiy pasport tayyorlaniladi. Maqsadning qo'yilishi.

- Keysning o'quv kursi tuzilmasidagi o'rnini belgilash.
- Uning ta'lim maqsadini to'liq ifoda etish.

Keysning talabalarining ta'limdagi yutuqlari natijalari uchun «mas'uliyat zonasi»ni aniqlash: o'zlashtirilishi kengaytirilishi rivojlantirilishi lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar ro'yxati.

Muammo qandaydir harakatlar qilish uchun etilgan zarurat bilan uni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar etishmasligi o'rtasidagi ziddiyatning amal qilishi va ifodalanishi shaklidan iboratligi sababli muammoning ifodalanishi ana shu ziddiyatni belgilanadi.

«Keys-stadi» texnologiyasidan ta'lim natijalarini nazorat qilish va tekshirishda ham foydalanish mumkin. Har bir o'quvchiga imtixonidan oldin individual keys beriladi. O'quvchilar keysdagi topshiriqlarni bajarib, hisobot shaklida o'qituvchiga topshiradilar.


Darsga tayyorlanish jarayonida o'qituvchi o'quv maqsadlarini hisobga olgan holda har xil turdagi keyslarni ishlab chiqishi lozim.

Keys asosidagi o'quv mashg'ulotlarida o'quvchilar faoliyatini turli shakllarda tashkil qilish imkoniyati mavjud. Masalan, taklif etilayotgan vaziyat sahnalashtirilishi hamda "Aqliy hujum", bahs-munozara, ilmiy bahslashuv metodlari orqali muhokama qilinishi mumkin.

Ochiq muloqotda asosiy omillar o'quvchilarning ko'nikma va malakalari, o'qituvchining muloqotni tashkil eta olish qobiliyati sanaladi. Savollarni berish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini keys matnidagi aniq axborotga qaratadi, to'g'ri javob berishga undaydi. Keys matndagi muammoni ajratib olish, vaziyatni baholash, hodisa va jarayonni tahlil qilish o'quvchilarning kommunikatsion ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

- Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari- ma'lum bir vaktida, o'quvchining ta'limiy, tarbiyaviy, ma'naviy, ruhiy va jismoniy rivojlantirish hamda uni tez o'zgaruvchan dunyoda jamiyatga, hayotga moslashuvini ta'minlovchi ta'lim nazariyasidir.
- Rivojlantiruvchi ta'limning maqsadi- O'quvchilarda mantiqiy, tanqidiy, tahliliy, ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali barkamol shaxsni shakllantirish.
- Vazifasi:
- SHaxsning individual kamol topishi uchun zarur bo'ladigan hayotiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.
- Rivojlantiruvchi ta'limning o'ziga xos xususiyatlari: O'quvchilarda topshiriqlarni echishga oid nazariy tushuncha va amaliy ko'nikma, malakalarni shakllantiradi;
- O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi;

Rivojlantiruvchi ta'limning asosiy yo'nalishlari:



- SHundan kelib chiqib, biz "Muammoli ta'lim texnologiyalari" haqida fikr yuritamiz
- Muammoli o'qitishni chuqur o'rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo'lib, uning asosida "Tafakkur- muammoli vaziyatdan boshlanadi"-degan g'oya yotadi.
- Muammoli o'qitish g'oyasi va tamoyillari S.L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.YA.Lerner tomonidan ishlab chiqilgan.
Muammoli ta'lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 xil ko'rinishga ega.
- 1.Muammoli vaziyatni vujudga keltirish.
- 2.Muammoning qo'yilishi.
- 3.Muammoning echimini topish.

- Muammoli vaziyatni o'quv mashg'ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko'p shakllantirish o'qituvchiga bog'liq. Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki, u o'quvchilar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va o'quvchilarning izlanishiga, fikrlashga o'rgatadi.
- Muammoli ta'lim o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyatni vujudga keltirib, mazkur muammo o'quvchilarning faol, mustaqil faoliyati natijasida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatini rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi.



Муаммоли таълимнинг асосий омиллари



Муаммоли таълимнинг асосий омиллари



Муаммоли та'лим jarayonida qo'llaniladigan metod va texnologiya elementlari

- "Aqliy hujum" metodi

- “Muammoli vaziyat” metodi
- “Muammo” metodi
- “Juftlikda ishlash”
- “Kichik guruhda ishlash”
- “Ishbilarmonlik o‘yin” metodi
- “Bahs munozara”
- «SWOT –universal tahlil» metodi
- “Keys-stadi»
- «Xulosalash» (Rezyume)
- «Loyihalash»
- “Tushunchalar tahlili” metodi
- “Olmos” metodi
- “Olti shlyapa” metodi (Edvard de Bone)
- “Zigzag” metodi
- Grafik organayzerlar (“T-sxema”, “Baliq skeleti”, “Qanday?”, “Muammolar daraxti”, “Echimlar daraxti”, “Nega?”, “To‘g‘ri-noto‘g‘ri”, “Insert”, “Ikki qismli kundalik”, “Venn diagrammasi”)

“MUAMMOLI VAZIYAT” METODI

“Muammoli vaziyat” metodi ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sababini va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimlarini topish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan metod.

- “Muammoli vaziyat” metodining tarkibiy tuzilishi quyidagicha:
- Muammoli vaziyat tavsifini keltirish
- O‘quvchilarni guruhlariga bo‘lish
- Guruhlar muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablarini aniqlashi
- Guruhlarning muammoli vaziyatni oqibatlari to‘g‘risidagi fikrlarini jamlanish bosqichi
- Guruhlarni muammoli vaziyatni echimini ishlab chiqish bosqichi
- To‘g‘ri echimlarni tanlash bosqichi

Nazorat savollari:

1. Pedagogik texnologiya va uning ilmiy aspektlarini ayting.
2. Pedagogik texnologiyaning tarixiy bosqich va ularning mazmunini izohlang.
3. Metodika va pedagogik texnologiyaning farqini misollar bilan tushuntiring.
4. Hamkorlikda o‘qitishning afzalliklari va o‘ziga xosliklarini qiyoslang.
5. Kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish tamoyillarini ayting.
6. Hamkorlikda o‘qitishga misollar keltiring.
7. Keys-stadi (Case-stadi) texnologiyalariga tarixdan misollar ishlab chiqing.
8. Loyihaviy ta’limdan foydalanishning ijtimoiy-pedagogik shartlarini ko‘rsating.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MATERIALLARI



1. Tarix o‘qitish metodikasining predmeti va uning vazifalari.
2. Tarix o‘qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o‘rtasidagi aloqalar.
3. Tarix o‘qitish metodikasining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi.

Ishning maqsadi: Tinglovchilarga tarix o‘qitish metodikasining maqsad va vazifalarini tushuntirish.

Amaliy mashg'ulot topshiriqlari

1-topshiriq. Metodika, pedagogika, pedagogik texnologiya tushunchalariga aniqlik kiritish. Quyidagi M.V.Korotkova, M.T. Studenikinining "Metodika obucheniya istorii v sxemax tablitsax opisaniyax" nomli o'quv qo'llanmasidagi jadvalning mazmunini izohlang.



2-topshiriq. Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari (maqsvadi, mazmuni, o'qitishning metod va usullari, natijalari) o'rtasidagi qonuniyatli aloqalarning qanday namoyon bo'lishiga ma'lumot bering.

Quyidagi fikrni davom ettiring.

- Tarix o'qitish deganda ...
- Tarix kursining mazmuni deganda
- Tarix o'qitishni tashkil qilish deganda....
- O'qitishning natijalari deganda...

3 - topshiriq. Tarix o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan bog'liqligini misollar bilan tushuntiring.

AQLIY HUYUM.



“Aqliy hujum” metodining mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni echish jarayonlarini vaqt bo‘yicha bir qancha bosqichlarga (g‘oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqish) ajratishdan iborat.

Dars jarayonida aqliy hujumdan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandart tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi. “Aqliy hujum”ni uyushtirish bir muncha sodda bo‘lib, undan ta‘lim mazmunini o‘zgartirish jarayonida foydalanish bilan birgalikda ishlab chiqarish muammolarining echimini topishda ham juda qo‘l keladi. Dastlab guruh yig‘iladi va ular oldiga muammo qo‘yiladi. Bu muammo echimi to‘g‘risida barcha ishtirokchilar o‘z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimning o‘zga kishi g‘oyalari hujum” qilishi yoki baholashiga haqqi yo‘q. Demak, “aqliy hujum” yo‘li bilan qisqa minutlarda o‘nlab g‘oyalarni yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud bo‘ladi. Aslini olganda g‘oyalar sonini qo‘lga kiritish asosiy maqsad emas, ular muammo echimini oqilona ishlab chiqish uchungina asos bo‘ladilar. Bu metod shartlaridan biri hech qanday tashqi ta‘sirsiz qatnashuvchilarning har biri faol ishtirokchi bo‘lishi kerak. Bildirilgan g‘oyalarning besh yoki oltitasigina asosiy hisoblanib muammo echimini topishga salohiyatli imkoniyatlar yaratadi.

SHunday qilib, “aqliy hujum” qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- olg‘a surilgan g‘oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g‘oyalar qancha ko‘p bo‘lsa shuncha yaxshi;
- istalgan g‘oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;
- muammo echimidan uzoq g‘oyalar ham qo‘llab-quvvatlanadi;
- barcha g‘oyalar yoki ularning asosiy mag‘zi (farazlari) qayd etish yo‘li bilan yozib olinadi;
- “hujum”ni o‘tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko‘zda tutilishi kerak.

VAZIFASI. “Aqliy hujum” qiyin vaziyatlardan qutulish choralarini topishga, muammoni ko‘rish chegarasini kengaytirishga, fikrlash bir xilliligini yo‘qotishga va keng doirada tafakkurlashga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni echish jarayonida kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o‘tiladi va guruh (sinf) yanada jipslashadi.

OB‘EKTI. qo‘llanish maqsadiga ko‘ra bu metod universal hisoblanib tadqiqotchilikda (yangi muammoni echishga imkon yaratadi), o‘qitish jarayonida (o‘quv materiallarini tezkor o‘zlashtirishga qaratiladi), rivojlantirishda (o‘z-o‘zini bir muncha samarali boshqarish asosida faol fikrlashni shakllantiradi) asqotadi.

QO‘LLANISH USULI. “Aqliy hujum” ishtirokchilari oldiga qo‘yilgan muammo bo‘yicha har qanday mulohaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib borildi va ularning mualliflari o‘z fikrlarini qaytadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflandi va hujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy hujum tugagach, muhimlik jihatiga ko‘ra eng yaxshi takliflar generatsiyalanadi va muammoni echish uchun zarurlari tanlanadi.

Izoh: Hurmatli kitobxon, mana, amerikacha “aqliy hujum” metodi bilan qisman tanishdingiz (siz, ehtimol, oldindan tanishdirdingiz). Aytmoqchi bo‘lgan fikrimiz inkor va ta‘kid xususida: **bu metod mualliflari bizning ajdodlarimizdir.** Hali Amerika kashf etilmagan bir davrda o‘z aql mash‘alasi bilan dunyoni yoritgan qomusiy olimlarimizni (Ahmad al Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqa) olasizmi, yoki etti iqlimni zabt etgan shohu-sultonlarimizni olasizmi, ular o‘z muammolarini echishda ana shu metoddan keng foydalanishgan. Bobokalonlarimiz bu metodni boshqacha nomlashgan, ya‘ni: “**kengash**”, “**mashvarat**”, “**maslahat**” deb atashgan. Misol uchun

,Sohibqiron Amir Temur saltanat oldida turgan muammolarni echishda mashvarat chaqirib barcha saroy ahlining, vaziru-ulamolarning, farzandlarining fikrlarini diqqat bilan eshitgan va ular asosida yagona hukm chiqargan. Bu holatlar ko'proq harbiy yurish oldidan chaqirilgan mashvaratlarda namoyon bo'ladi. "Agar (g'anim ustiga) lashkar tortmoqchi bo'lsam, urush-yarashdan o'rta so'z tashlab, amirlarimning bu ikkovidan qay biriga moyilligini bilishga intilardim. Agar yarashdan so'z ochsalar, buning foydasini urush ziyoniga solishtirib ko'rardim, agar urushga moyil bo'lsalar, uning naf va foydasini yarash ziyoniga taqqoslab ko'rardim, qaysi biri foydaliroq bo'lsa, shuni ixtiyor qilardim" (28). Bugun ana shular haqida o'ylashga to'liq, "g'arb sharqdan o'rgangan"ligiga yuz foiz ishonch hosil qilamiz va yana bir karra yaratganga iymon keltiramiz.

MUNOZARA.



Bu metod yordamida o'quvchilarga muayyan muammo bo'yicha to'liq axborotlar etkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni o'quvchilar ayovsiz "shturm" qiladilar va pirovard natijada muammoga tegishli ma'lumotlarni atroflicha o'rganadilar

Munozarani o'tkazish metodikasi.

1. Munozara olib boruvchi - boshlovchi (o'qituvchi, jurnalist, boshliq va hokazo) mavzuni oldindan tanlaydi va ishtirokchilarni taklif etadi.

2. Boshlovchi ishtirokchilarga "aqliy hujum" topshirig'ini beradi va uning qoidalarini tushuntiradi:

- "hujum"dan maqsad - muammo echimiga oid variantlarni mumkin qadar ko'proq taklif etish;
- o'z aql-idrokingizni markazlashtirishga harakat qiling va diqqatni muammo echimiga qaratgan holda fikrlar bildiring. Bildirilgan g'oyalar umumiy fikrga zid bo'lsada, hech biri rad etilmaydi;
- boshqa ishtirokchilar g'oyalarini ham rivojlantiring;
- taklif etilganlarni baholashga urinmang, bu ish bilan siz keyinroq shug'ullanasiz.

3. Boshlovchi kotibini tayinlaydi va u yuzaga kelgan barcha g'oyalarni yozib boradi. Muhokama vaqtida so'zga chiquvchilar tartibi o'rnatiladi, munozaraga barcha ishtirokchilar jalb etiladi va ularga o'z fikrlarini ifodalash uchun imkoniyatlar berildi. Agar biror bir kishi tomonidan "aqliy hujum"ni o'tkazish qoidalari buzilsa, boshlovchi zudlik bilan muhokamaga aralashadi. Birinchi bosqich yangi g'oyalar paydo bo'lguncha davom etaveradi.

4. Boshlovchi ishtirokchilarning tanqidiy tafakkuri "charxlanishi" uchun qisqacha tanaffus e'lon qiladi. Keyin ikkinchi bosqich boshlanadi. "Aqliy hujum" ishtirokchilari guruhlanadi va birinchi bosqichda bildirgan g'oyalarini mustahkamlaydilar. g'oyalar guruh bo'yicha birlashtirilib, mualliflar ularni tahlil qilishga kirishdilar va natijada o'rta qo'yilgan muammoning echimiga tegishli bo'lgan fikrlargina ajratib olinadi.

Boshlovchi munozaraga yakun yasaydi.

IZOH: Amerikacha munozara metodi turli shakllarda tashkil etilishi e'tirof etilgan. Bizning amaliyotda eng ko'p tarqalgan turi - bu "telemunozara" hisoblanadi yoki aniqroq aytadigan bo'lsak, jurnalist quddus A'zamning o'quvchilar bilan telemuloqoti ana shu metodning o'zginasidir.

Teleshou usulidagi munozara afzalliklari xususida ikki og'iz: bu shaklda tashkil etish bir vaqtning o'zida guruhda ma'ruza va munozara metodlarini qo'llash imkoniyatini beradi. 3-5 kishi bo'lgan guruh oldindan tanlangan mavzu bo'yicha boshqa qatnashchi (tomoshabin)lar ishtirokida munozara o'tkazadilar. Tomoshabinlar muhokamaga keyinroq qo'shib o'z fikrlarini aytishadi yoki savol beradilar.

Teleshou shaklida tashkil etilgan munozarada berilgan mavzu bo'yicha turli fikrlarni birmuncha aniq ifodalashga imkoniyat tug'ildi. Albatta, bu erda muhokamaga jalb etilganlar suhbatga puxta tayyorgarlik ko'rishlari yoki shu soha bilimdonlari bo'lishlari bilan birgalikda asosiy mavzudan chetga chiqib ketmasliklari kerak.

Teleshouda har bir ishtirokchiga o'z fikrini to'liq bayon qilishlari uchun keng imkoniyatlar berishi lozim (3-5 min). Boshlovchi munozara borishini kuzatib boradi, agar belgilangan mavzudan chetga chiqish hollari ro'y bersa, darhol munozaraga aralashish shart.

2-AMALIY MASHG'ULOT: Tarix o'qitishning tashkiliy shakllari. Dars, uning turlari va tuzilishi

1. Dars - o'quv va tarbiyaviy ishning asosiy tashkiliy shakli
2. Dars turlari va tuzilishi (strukturasi)
3. Tarix darsi, unga qo'yiladigan talablar

Ishning maqsadi: Tarix o'qitishning tashkiliy shakllarini bilish, darsning turlari va tuzilishini bilish, dars mavzusiga qarab dars turlarini tanlash

Nazorat savollari:

1. Dars turlari va tuzilishi (strukturasi)ni ayting?
2. Tarix darsi, unga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
3. Tarix fanining ta'lim-tarbiya vazifalarini aniqlash omillari.

Amaliy mashg'ulot topshiriqlari

1-topshiriq. "Dars muqaddas" bo'yicha dars ishlanma strukturasi ishlab chiqish va guruhlarga muhokamasini yuzaga keltirish.

2-topshiriq. Tarix o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari (maqsadi, mazmuni, o'qitishning metod va usullari, natijalari) o'rtasidagi qonuniyatli aloqalarning qanday namoyon bo'lishiga ma'lumot bering.

3 - topshiriq. Tarix darslarida ta'lim-tarbiya masalalarida mutafakkirlarimiz merosidan foydalanish bo'yicha guruh ishini tashkil etish va baholab borish.

"KICHIK GURUHLARDA ISHLASH"

metodini guruhlarda o'rganish va tarix darslariga moslashtirish



Kichik guruhlarda ishlash o'quvchilarning darsda faolligini ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan sinfda o'rganishga imkoni tug'ildi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi.

Qo'llash algartmi

1. FAOLIYATNI TANLASH. Mavzuga oid muammo shunday tanlanadiki, natijada o'quvchilar uni o'rganish (bajarish) uchun ijodiy faoliyat ko'rsatishlari zarur bo'ladi va vazifalar belgilab olinadi.

2.ZARURIY ASOS YARATISH. O'quvchilar kichik guruh ishida qatnashishlari uchun tanlangan faoliyat bo'yicha ba'zi bilim, ko'nikma va malakalarni oldindan egallagan bo'lishlari kerak.

3.GURUHNI SHAKLLANTIRISH. Odatda har bir guruhda 3-5 o'quvchi bo'ladi, (ehtimol, kam yoki ko'p bo'lishi mumkin). Agar guruhda ishlash u yoki bu yozma hujjat tayyorlashni talab etsa, yaxshisi 2-3 kishili guruh tuzilgani ma'qul. Guruh o'lchovi masalaning muhimligi, sinfdagi o'quvchilar soni, o'quvchilarning bir-biri bilan konstruktiv holatda o'zaro harakatiga bog'liq holda o'zgaradi. Eng yaxshisi, "getrogen" guruh tashkil etishidir. (jinsi, o'zlashtirish darajasi va boshqa belgilar asosida). Guruhda ishlash o'quvchilar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlashga tayanadi. (Misol uchun, bir o'quvchi munozarani boshqaradi, ikkinchisi yozib boradi, uchinchisi spiker (sardor) rolini o'taydi va hokazo). Sinfni guruhlarga ajratish, hohish bo'yicha yoki hisob bo'yicha amalga oshiriladi.

4.ANIQ YO'L-YO'RIQLAR KO'RSATISH. O'quvchilarga faoliyatni bajarish bo'yicha aniq va xajm jihatdan ko'p bo'lmagan tushuntirish beriladi. O'qituvchi guruhlarning ishlash tezligi turlicha bo'lishini inobatga olgan holda vaqt chegarasini aytadi. Guruhlar kerakli materiallar va axborotlar bilan ta'minlanadi. O'quvchilar guruhda ishni boshlashlari uchun vazifalarini aniq tushunib etganligi tekshirib ko'riladi.



5.QO'LLAB QUVVATLASH VA YO'NALTIRISH. O'qituvchi zarurat tug'lsa guruhlar yoniga navbatma-navbat kelib to'g'ri yo'nalishda ishlayotganligini qayd etadi yoki ularga yordam beradi, guruhlarga ta'ziy qo'tkazilmaydi.

6.MUHOKAMA QILISH VA BAHOLASH. Guruhlarda ish yakunlangach, ular natijalari bo'yicha axborot beradilar. Buning uchun har bir guruh o'z sardorini belgilaydi. Zarurat tug'lsa, faoliyat natijalari bo'yicha bildirilgan fikrlar o'qituvchi tomonidan yozilib borildi. Muhimi, guruhning echimining asoslanishini aniqlashtirib olishdi. Agar vaqt etarlicha bo'lsa, u yoki bu fikrni argumentlashda guruhlar bir-biriga savol ham berishlari mumkin. Kichik guruhlarda ishlash natijalari o'qituvchi tomonidan baholanadi. Bunda faoliyatni to'g'ri va aniq bajarish, vaqt sarfi asosiy mezon hisoblanadi.

“O'Z O'RNINGNI TOP”

Agar sinfda u yoki bu mavzu bo'yicha tortishuvlar vujudga kelsa bu metod yordamida muammoning echimini topish mumkin. Undan ko'pincha darsning kirish qismida foydalanishadi va o'tilayotgan mavzuni o'rganishga turli xil yondashuvlar mavjudligi namoyish etiladi. Bu bir tomondan. Ikkinchidan, o'quvchilarga o'z fikrini bayon qilishga, muloqot ko'nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Uchinchidan, dars so'ngida o'qituvchi tomonidan mavzuni o'zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi.

1.Sinfning qarama-qarshi burchaklariga ikkita plakat osildi. Ularning biriga "roziman", boshqasiga "rozi emasman" degan so'zlar yozilishi kerak. Plakatlarda ba'zi bir mavzuga oid savollar bo'yicha bildirilgan qarama-qarshi fikrlar ham yozilish mumkin. Masalan: "anjir gullaydi va meva tugadi", yoki "anjir gullamasdan meva tugadi".



2. Darsni tashkil etish qoidalari muhokama qilinadi.
3. qaralayotgan muammo yuzasidan o'z fikrlariga mos keladigan plakat yoniga borish zarurligi o'quvchilarga taklif etildi.
4. Bo'lingan o'quvchilardan o'z qarshilarini asoslash so'raladi. Bu paytda bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tish ruxsat etiladi va shu tariqa sinf o'quvchilarining hammasi jalb etildi.
5. Muammo bo'yicha fikrlar bildirilgach, o'quvchilar ichida munozara davomida o'z nuqtai nazarini o'zgartirganlar va boshqa guruhga o'tuvchilar bo'lishi mumkin. Bunday hollarda ular o'z o'rnini o'zgartirish sabablarini asoslashi kerak bo'ladi.
6. Ishtirokchilardan opponentlari ichida muammo yuzasidan eng ishonchli fikr aytgan o'quvchilarni aniqlash so'raladi.


3-AMALIY MASHG'ULOT: Tarix darsliklari va ularga qo'yiladigan talablar. 4-soat

1. Tarix darsligi bilim manbai va ta'lim vositasi sifatida.
2. Tarix darsligining asosiy tarkibiy qismlari.
3. O'quvchilarning darslik matni va illyustratsiyalar bilan ishlash usullari.

Ishning maqsadi: tarix darsliklarining tuzilishi, ularning metodik tahlilini amalga oshira olish, taklif va tavsiyalarni berish, darslikning metodik jihatlarini rivojlantira olish

□□Quyidagi sxema asosida tinglovchilar kichik guruhlarga bo'linib, tarix darsligining asosiy tarkibiy qismlari bo'yicha, barcha darsliklarining uslubiy tahlilini amalga oshiring, metodik tavsiyalarni bering.

3.2.Тарих дарслигининг асосий таркибий қисмлари



Nazorat savollari:

1. Tarix darsligining bilim manbai sifatidagi o‘rnini ko‘rsating.
2. Tarix darsligining asosiy komponentlarini izohlang.
3. Matn va matndan tashqari komponentlarni aniqlang.
4. Darslikning asosiy matniga qaysi komponentlar kiradi?
5. Darslikdagi metodik komponentlarni aniqlang.
6. O‘quvchilarning darslik matni bilan ishlash usullariga misollar

Amaliy mashg‘ulot topshiriqlari

- 1-topshiriq.** Tarix darsliklarining yaratilishi bo‘yicha tushunchalaringiz.
- 2-topshiriq.** Tarix darsliklari tarkibiy qismlarini izohlang va takliflaringiz?
- 3 - topshiriq.** Kelgusida sizning fikringizcha tarix darsliklari qay ko‘rinishda va darajada bo‘lishi kerak. Takliflarni yozma taqdimoti.

“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH”

Metodi orqali tinglovchilar guruhlariga bo‘linishib yuqorida berilga topshiriqlarni muhokasini yuzaga keltirishadi.



Kichik guruhlarda ishlash o'quvchilarning darsda faolligini ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan sinfda o'rganishga imkoni tug'ildi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi.

Qo'llash algartmi

1. FAOLIYATNI TANLASH. Mavzuga oid muammo shunday tanlanadiki, natijada o'quvchilar uni o'rganish (bajarish) uchun ijodiy faoliyat ko'rsatishlari zarur bo'ladi va vazifalar belgilab olinadi.

2.ZARURIY ASOS YARATISH. O'quvchilar kichik guruh ishida qatnashishlari uchun tanlangan faoliyat bo'yicha ba'zi bilim, ko'nikma va malakalarni oldindan egallagan bo'lishlari kerak.

3.GURUHNI SHAKLLANTIRISH. Odatda har bir guruhda 3-5 o'quvchi bo'ladi, (ehtimol, kam yoki ko'p bo'lishi mumkin). Agar guruhda ishlash u yoki bu yozma hujjat tayyorlashni talab etsa, yaxshisi 2-3 kishili guruh tuzilgani ma'qul. Guruh o'lchovi masalaning muhimligi, sinfdagi o'quvchilar soni, o'quvchilarning bir-biri bilan konstruktiv holatda o'zaro harakatiga bog'liq holda o'zgaradi. Eng yaxshisi, "getrogen" guruh tashkil etishidir. (jinsi, o'zlashtirish darajasi va boshqa belgilar asosida). Guruhda ishlash o'quvchilar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlashga tayanadi. (Misol uchun, bir o'quvchi munozarani boshqaradi, ikkinchisi yozib boradi, uchinchisi spiker (sardor) rolini o'taydi va hokazo). Sinfni guruhlarga ajratish, hohish bo'yicha yoki hisob bo'yicha amalga oshiriladi.

4.ANIQ YO'L-YO'RIQLAR KO'RSATISH. O'quvchilarga faoliyatni bajarish bo'yicha aniq va xajm jihatdan ko'p bo'lmagan tushuntirish beriladi. O'qituvchi guruhlarning ishlash tezligi turlicha bo'lishini inobatga olgan holda vaqt chegarasini aytadi. Guruhlar kerakli materiallar va axborotlar bilan ta'minlanadi. O'quvchilar guruhda ishni boshlashlari uchun vazifalarini aniq tushunib etganligi tekshirib ko'riladi.

5.QO'LLAB QUVVATLASH VA YO'NALTIRISH. O'qituvchi zarurat tug'ilsa guruhlar yoniga navbatma-navbat kelib to'g'ri yo'nalishda ishlayotganligini qayd etadi yoki ularga yordam beradi, guruhlarga ta'ziyq o'tkazilmaydi.

6.MUHOKAMA QILISH VA BAHOLASH. Guruhlarda ish yakunlangach, ular natijalari bo'yicha axborot beradilar. Buning uchun har bir guruh o'z sardorini belgilaydi. Zarurat tug'ilsa, faoliyat natijalari bo'yicha bildirilgan fikrlar o'qituvchi tomonidan yozilib borildi. Muhimi, guruhning echimining asoslanishini aniqlashtirib olishdi. Agar vaqt etarlicha bo'lsa, u yoki bu fikrni argumentlashda guruhlar bir-biriga savol ham berishlari mumkin. Kichik guruhlarda ishlash natijalari o'qituvchi tomonidan baholanadi. Bunda faoliyatni to'g'ri va aniq bajarish, vaqt sarfi asosiy mezon hisoblanadi.

4-AMALIY MASHG'ULOT: Tarix o'qitishning metodlari va ularning klassifikatsiyasi. 4-soat


1. Tarix o'qitish metodlari va usullari.
2. Tarix o'qitish metodlari klassifikatsiyasi.

Ishning maqsadi: Tarix o'qitish metodlari va usullarini bilish, mahorat bilan qo'llay olish, tarix o'qitish metodlari klassifikatsiyasini bilish, metodlarni uyg'unlikda foydalana olish.

Kichik guruhlarda ishlash metodiga ko'ra, guruhlarga o'quv topshiriqlar beriladi.

1- topshiriq. Qanday interfaol usullar va ularning qaysi shaklda, qanday ta'lim vositalaridan foydalanilsa optimal natijaga olib keladi? Jadvalni to'ldiring. Ro'yxatni muhokama qiling va noto'g'ri deb topilganlarni ro'yxatdan o'chiring.

Metod	Usullar	Vositalar



Sxemani izohlang.

Nazorat savollari:

1. Ta'lim metodlari va usullarini ayting. Ularning bir-biridan farqi qanday ?
2. Ta'lim metodlarini tanlash nimaga bog'liq ?
3. Tarix o'qitish metodlar klassifikatsiyasini ayting.
4. Ta'lim metodlarining bir-biriga bog'liqligini izohlang.

Quyida berilgan interfaol metod va usullarni tinglovchilar juftliklarga bo'lingan holda mustaqil o'rganishib, ularni tarix darslariga moslashtirib taqdimotlarini tashkil etishadi.

INSERT

Bu usulning mazmuni shundan iboratki, tinglovchilar o'qish jarayonida ma'lumotni tushunishlarini kuzatishlari uchun mo'ljallangan, bunda satrda belgilash interaktiv tizimidan foydalaniladi. Bu quyidagilarni rivojlantiradi: matn bilan samarali ishlash malakalari, faol, fikrlab o'qish, yangi materialni avvalgi material bilan o'zaro bog'lash qobiliyatini, mavzularni keyingi o'rganilishiga qiziqish uyg'otadi. Belgi ko'rinishlari quyidagilar: "V" – o'qiyotganingiz sizning bilganingizga mos tushsa qo'yiladi. "-" (minus) – bu belgi o'qiyotganingiz sizning bilimlaringizga qarama-qarshi chiqqanda qo'yiladi. "+" (plyus) -o'qiyotganingiz siz uchun yangilik bo'lganda qo'yiladi. "?" (so'roq) - o'qiyotganingiz tushunarli bo'lmasa bu belgi qo'yiladi, ya'ni qo'shimcha ma'lumot talab qilinadi.

V	–	+	?
1.	1.	1.	1.
2.	2.	2.	2.
3.	3.	3.	3.

INDIVIDUAL TA'LIM OLISHNI GURUHLI QO'LLAB-QUVVATLASH TEXNIKASI

Ushbu texnikaning mohiyati - kichik guruhlariga o'quv dasturi bo'yicha individual tempda harakatlanish imkonini berishdan iborat. Ta'lim oluvchilar, kichik guruhlarda individual vazifalarni bajaradilar. Ish jarayonida, ular bir-birlariga yordam va maslahat so'rab murojat qilishlari mumkin. SHu bilan birga, bir-birlarini ishlarini tekshirishlari ham mumkin.

Ta'lim beruvchi, o'z navbatida, guruhlar ishini kuzatib boradi, hamda navbat bilan ularga yangi o'quv materialini tushuntiradi, zaruratiga qarab yordam beradi.

Guruhlardagi individual vazifalarni, ta'lim beruvchi tomonidan maxsus belgilangan maslahatchilar tekshiradilar. Xaftaning oxirida yakun yasaladi: har bir guruh nechta mavzu o'rgandi va individual vazifa bo'yicha guruhning umumiy o'quv yutuqlari qanaqa.

KONSEPTUAL JADVAL

Bu bir qancha faraz, qonun yoki hodisa, dalillar va boshqalarni solishtirish kerak bo'lganda qo'llanadigan grafik tashkilotchidir. Konseptual jadvalda tahliliy axborotning katta hajmi ixcham joylashtirilgan. Bunday jadval mashg'ulotning metodik ta'minotiga (slyayd, o'quv plakati va h.k.) qo'l keladi. Muayyan muammo bo'yicha konseptual jadvallarni tuzishga topshiriqni kichik guruhlarda aqliy hujumdan foydalanib tuzish va uni butun guruh bo'yicha muhokama qilib, eng maqbul variantni ishlab chiqish – amaliy mashg'ulotlarning “anglash” va “fikrlash” fazasida aniq bir mavzu bo'yicha mashg'ulot mazmuni bo'lib xizmat qilishi mumkin. ish quyidagicha bajariladi: 1) YAngi axborot bilan ishlash (tanishish). 2) Jadval tuzish. Konseptual jadvalda vertikal bo'yicha solishtiriladigan, gorizontol bo'yicha esa – solishtirish amalga oshiriladigan turli tavsiflar joylashtiriladi. 3) Jadvalni to'ldirish. Ta'lim oluvchilar solishtirish mezonlarini ifoda etadilar va axborotni mos kelgan mezonlar bo'yicha taqsimlaydilar.

CHARXPALAK

Ushbu texnologiya o'quvchi, talabalarni o'tilgan barcha mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida barcha o'quvchi, talabalarni baholay olishga qaratilgan.

Maqsadi. Ushbu mashg'ulotda o'quv, talabalarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin holda bayon eta olish, o'zlarini baholash hamda yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko'p fikrlardan kerakligini tanlab olishga o'rgatish

O'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida, yoki o'quv predmetining biror-bir bo'limi tugallanganda o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash, yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun mo'ljallangan. Ushbu texnologiyani butun bir mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotnig bir qismi sifatida yakka, kichik guruh, jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

O'tkazish texnologiyasi

1. Ishtirokchilarni kichik guruhlariga bo'lib olinadi (sharoitga qarab)
2. Mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talablar, qoidalar bilan tanishtirish.
3. Guruh ishtirokchilari mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifani bajaradilar.

4. Har bir guruh ishtirokchisi o'zi ishlab chiqqan tarqatma materialning o'ng burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga esa o'zining biror-bir belgisini chizib qo'yishi kerak.

5. Vazifa bajarilgan tarqatma materiallarni boshqa guruhlariga tarqatiladi.

6. YAngi guruh a'zolari berilgan materiallarni o'rganib, unga o'z o'zgartirishlarini kiritadilar.

7. Tuzatish, o'zgartirish kiritilgan materiallarni yana bir marta boshqa guruhlariga uzatiladi (guruhlar soniga qarab)

8. Guruhlarning materiallarni bir-birlari bilan oxirgi almashganlaridan so'ng har bir guruh ishtirokchisi o'zining birinchi to'ldirgan materiallarini (guruh raqami va o'zi qo'ygan belgisi asosida) tanlab oladilar.

9. Har bir guruh ishtirokchisi tarqatma materialdagi o'zi belgilagan javoblarini boshqa guruh ishtirokchilari kiritgan tuzatishlari bilan taqqoslaydilar va tahlil qiladilar.

10. O'qituvchi tarqatma materialda berilgan vazifani o'qib, guruhlar bilan birgalikda to'g'ri javobni belgilaydilar.

11. Har bir ishtirokchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar o'rtasidagi farqni aniqlab, shunga mos ballni to'playdi va o'z-o'zini baholaydi.

Izoh: tarqatma materialda ishtirokchilar belgilagan to'g'ri javoblar bilan o'qituvchi hamkrigida aniqlangan to'g'ri javoblarning farqi 0,55 foizdan yuqori bo'lsa, ishtirokchi ushbu o'quv materialini o'zlashtira olgan, undan kam bo'lsa, o'zlashtira olmaganini bildiradi, masalan, vazifalar soni 30 ta bo'lsa. U holda belgilangan javobning 17-20 tasi to'g'ri javob bilan to'g'ri kelgan bo'lsa, demak, talaba ushbu vazifani bajargan va o'quv materialini o'zlashtira olgan, agar undan kam bo'lsa, o'zlashtira olmagan hisoblanadi, shuningdek, 21-24 tasi to'g'ri bo'lsa yaxshi, 25-30 tasi to'g'ri bo'lsa a'lo o'zlashtirgan hisoblanadi.

12. Ishtirokchilar o'z baholari yoki ballarini belgilab olganlaridan so'ng, o'qituvchi vazifa bajarilgan qog'ozlarni yig'ib oladi va ball (baholar)ni sinf jurnaliga ko'chirib qo'yadi.

YOZMA BAHSLAR

Talabalarga guruhdoshlari bilan birgalikda shu oila jamoatchilik fikrini to'qlinlantirayotgan mavzularda dialoglar rejalashtirish imkonini berish kerak. YOzma bahslar metodikasi yozma shakldagi bunday dialoglarni guruhdagi barcha talabalar ishtirokida o'tkazish imkonini beradi. Metod talabalarining berilgan mavzu sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish sharoitini yaratadi, munozara madaniyatini o'rgatadi asoslash qobiliyatini rivojlantiradi. Bunda o'qituvchi baholash uchun asos xizmatini o'tovchi ajoyib materialga ega bo'ladi.

Bu metod ayniqsa munozarali va **nurma'noli** mavzular, masalan. AQSHdagi quldorlik, majburiy harbiy xizmat, Polshada 1981 yil dekabrda harbiy holatning joriy qilinishi, Varshava qo'zg'olonini boshlash to'g'risidagi qaror kabi mavzular munosabatida juda o'rinli holda samaralidir.

Bahslarni o'tkazish usuli.

1. Talabalar bahs mavzusi bo'lishi kerak bo'lgan mavzu bilan uyda (yoki oldin o'tkazilgan mashg'ulotlarda) tanishadilar. Bahs arafasida o'qituvchi bo'lajak mavzu to'g'risida talabalarga axborot berar ekan, bahslar qay yo'sinda o'tishini qisqacha tushuntiradi (bu albatta, bahslar birinchi marta o'tkazilayotgan bo'lsa, juda muhimdir).

2. Rahbar guruhni ikkiga ajratadi va guruhning ikki tomoniga qator qo'yilgan stollar yoniga o'tkazadi va har bir guruh qatnashchilari qaysi nuqtai nazarni himoya qilishlarini belgilaydi (masalan, 1-guruh harbiy holat joriy qilinishini tarafdorlari, 2-guruh bunga qarshilardir).

3. SHundan so'ng rahbar talabalarni juftliklarga bo'lib, har bir juftlikda qarama-qarshi qarashlar tarafdorlari bo'lishi kerak. Juftliklarni tartib raqami yoki alifbo harflari bilan belgilaymiz. Agar guruhda talabalar soni toq bo'lsa, o'qituvchi munozaraga etishmagan sherik huquqida kirishi lozim. O'qituvchi 1-guruh talabalariga (bizning misolimizda – harbiy holatni joriy qilish tarafdorlari) har biri juft raqami bilan belgilangan katak qog'oz varaqlarini tarqatadi.

4. Talabalar guruhning ikki tomonida o'tirib, juftma – juft yozma dialogni boshlaydilar 1-guruh talabalariga o'zlari ma'qullayotgan nuqtai nazar foydasiga bitta ochiq dalilni shakllantirish uchun 5 minut vaqt beriladi. Ular bu dalilni qog'oz varag'iga puxta tahrir qilishgan paragraf shaklida

yozadilar. Bu vaqtda ikkinchi guruh talabalari o'zlari bahslar jarayonida bayon etishlari mumkin bo'lgan o'z nuqtai nazarlariga dalil keltirishlari mumkin.

5. YOzilgan varaqlar qarshi tomondagi sheriklarga (harbiy holatning joriy qilinishiga qarshi chiquvchilarga) beriladi. Ularga juftlik bo'yicha sheriklarining dalillariga qarshi javob topish va yozish uchun hamda o'z qarshi dalillarini bayon qilishlari uchun 8 minut vaqt ajratiladi.

6. Dalillar almashishning bunday tartibi 2-3 marta takrorlanadi, bunda har bir talaba sherigining dalil-isbotiga javob qaytarishi va o'zining qarama-qarshi dalilini keltirishi kerak. Talabalar bilimlarini aniqlash uchun 3-4 bosqich etarlidir. Oxirgi bosqichda talabalarga yakuniy paragrafni yozish imkoni beriladi. SHundan so'ng ish yig'ib olinadi.

7. Bahslarda xulosa chiqarishning yaxshi shakli ikkala tomonga qaratilgan savoldir: «Qarshi tomonning eng yaxshi dalil-isbotlari qaysilar bo'ldi?»

8. Ishni o'qituvchi yakka tartibda yoki juftlik bo'yicha baholashi mumkin. Agar o'qituvchi ishni baholashni rejalashtirgan bo'lsa, u haqda talabalarni darsning boshidayoq ogohlantirishi kerak.

DAVRA SUHBATI


Aniq ish tajribani o'rganish, axborot almashish kabi faoliyatlarni o'tkazishda ko'maklashadi. Davra suhbatlarini ikki xil shaklda o'tkazish mumkin:

1) YOzma davra suhbati - o'zaro hamkorlikda muammo yoki g'oya-fikrlarni samarali echimini topishning usuli. Azolar ko'rilayotgan u yoki bu masala yuzasidan o'z g'oyasi yoki taklifini yozadi, so'ng yozilgan qog'ozni yonidagi azoga uzatadi, Navbatdagi azo berilgan g'oya yoki taklif yuzasidan o'z mustaqil bilimi va qarashlariga asoslangan holda tushuncha va izohlarini qo'shimcha qiladi va navbatdagi azoga uzatadi. Har bir ishtirokchi o'z fikrlarini o'zi tanlagan rangli qalam bilan yozadi. Bu har bir ishtirokchining suhbatda qatnashganlik darajasini yaqqol ko'rsatadi. Jarayon to, barcha azolar o'rganilayotgan masala yuzasidan o'z bilimi va munosabatlari asosida mustaqil fikr yoki savollari bilan ishtirok etib bo'lishlariga qadar davom ettiriladi.

2) Og'zaki davra suhbati - bu yuqorida ko'rsatilgan usulga o'xshash bo'lib, faqatgina og'zaki shaklda o'tkaziladi. Xar bir ishtirokchi navbat bilan, undan oldin taklif etilgan fikrlarni qabul qilib olib, uni rivojlantiradi.

YOZMA «DAVRA SUHBATI»

(Har bir ishtirokchi o'z fikrini yozib, chap tarafdagi sherigiga uzatadi)



Maqsad:

- bilimlarni chuqurlashtirish;
- turli vaziyatlarda oldingi bilimlarni qo'llashni shakllantirish;
- kichik guruhlarda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Natija:

- ishtirokchilar jamoasi maslahatlar oladilar;
- o'rganilayotgan masala yuzasidan o'z bilimlarini qisqa va lo'nda ifodalashlari imkoni yaratiladi;
- jamoaga moslashish ko'nikmalarini egallaydi.

TAQDIMOT

Taqdimotni muvaffaqiyatli amalga oshirishda etibor qaratiladigan jihatlar:

1. Qaysi masala yuzasidan fikr yuritmoqchi bo'lsangiz, uni har jihatdan mukammal o'rganing.
2. Masala yuzasidan yoritadigan materiallarni tizimlashtiring.
3. Tajribadan o'tkazish asosida puxta tayyorgarlik ko'ring.
4. Taqdimotni o'tkazing.

Qaysi masala yuzasidan fikr yuritmoqchi bo'lsangiz, uni har jihatdan mukammal o'rganish:

Uch aniq vazifani amalga oshirish asosida masala har jihatdan samarali yoritilashiga erishilishi mumkin.

a) Yoritib beriladigan masalaning asosiy mazmun-mohiyati nimada? degan savolga to'la javob topish.

b) Yoritib beriladigan masala yuzasidan shaxsiy nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda kalit so'zlari, tezislari, asos-dalillarni ketma-ketlik tartibida belgilash. Zaruriy statistik malumotlar, boy tariximiz to'g'risidagi tegishli ish materiallarini izlash va to'plash. SHaxsiy nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda ochqich so'zlar, tezislari, dalillarni asoslab bera olish.

c) Taqdimot o'tkazilgandan so'ng, Sizga nisbatan auditoriyaning munosabati qanday bo'lishi to'g'risida o'ziga hayolan savol bilan murojaat etish. Kimlar bilan va nima maqsadlarda munozara uyushtirish to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish. O'zingiz uchun rejalashtirib oling: 1) Siz tomoningizdan yoritib berilgan malumotlarni, ishtirokchilar qayerda qo'llashlari mumkin?, 2) Taqdimot o'tkazishda qay darajada muvaffaqiyatga erishilganligi yoki erishilmaganligini qanday qilib aniqlash mumkin?, 3) Masalani yoritib berishda, ishtirokchilarning muximligi jixatidan qiziqтира olishi, ishtiyoqni uyg'otishi uchun qo'proq qaysi malumotlarni har-tomonlama kengroq ochib berishilishi zarurligi to'g'risida o'ylash?, 4) Taqdimot o'tkazish jarayonida mavzuga tegishli bo'lgan epigraflarni izlab topi shva qo'llash mumkinligi to'g'risida puxta o'ylash?.

Masala yuzasidan yoritadigan materiallarni tizimlashtirish:

Kalit so'zlar, tezislari, dalillar uchun qisqa, aniq va lo'nda jummlalar tuzish. Har - bir jumlaning qo'llab quvvatlovchi uchta asosni tanlab, belgilab oling.

- Masalani har tomonlama yoritib berishga qalban ishonch uyg'otish.
- Nutq so'zini judayam manodor epigraf bilan boshlash.
- Masalani mazmun-mohiyatini ochib beruvchi, asoslangan ochqich so'zlarga ega bo'lish.
- Ko'rilayotgan masalani boy tarixiy manbalarga asoslangan xolda bog'lab ketish, bir butun xoliga keltirish.

Tajribadan o'tkazish asosida puxta tayyorgarlik ko'rish.

Taqdimot materiallarini tizimlashtirib bo'lgandan so'ng, quyidagi jadvalni tayyorarlik ko'rish uchun ishlatish:

- ✓ Masala nomi.
- ✓ Ustivor tamoyillar
- ✓ Nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda kalit so'zlar, tezislari
- ✓ Qo'llab-quvvatlovchi asoslar.
- ✓ Tarixiy manbalar.

Tarixiy manbaalarga asoslanib ish yuritishda ikki qoidaga amal qilish kerak:

- ✓ Auditoriya uchun moyil, mos bo'lgan tarixiy manbaalardan foydalanish.
- ✓ O'zingizda ishtiyoq uyg'otadigan tarixiy manbaalardan foydalanish.

SHundan so'ng barcha yozuvlarni tayyorlash, magnitafonni yoqish, vaqtni belgilash va taqdimot so'zlarini ifolali yoritishni boshlash kerak. YAna bir bora tayyorgarlikni tekshirib ko'rish kerak. Bu safar hayolan auditoriya oldida turgandek tasavvur etib, ehtiros bilan so'zlash kerak. Bunda, auditoriya Sizni to'g'ri tushuna olishini hayolon judayam hohlash zarur.

YAna bir necha bor oyna ro'parasida mashq qilish shart. Hayolan buni, haqiqiy nutq so'zlash deb qabul qilish darkor. Turli salbiy odatlarni uloqtirib yuborish, misol uchun: burunni qichimaslik,

sochni silayvermaslik, ochkini yoki galstukni qayta-qayta to'g'rilayvermaslik va x.k. Agarda tayyorgarlikni sust darajada ko'rsangiz auditoriya oldida muvaffaqiyatli taqdimotni uyushtira olmaysiz!

Taqdimot ish materiallarini to'liq yod olish zarur.

Taqdimotni o'tkazish:

Mana taqdimot vaqti ham etib keldi. O'zingizni bo'sh qo'ying. Taqdimot jarayonida Siz qanchalik ko'p so'zlasangiz, shunchalik o'zingizga nisbatan ishonch uyg'onadi. Auditoriyaning Sizga nisbatan qiziqishi qanchalik ortib borsa, shunchalik uingizni erkin tutasiz. Nutq so'zlashdan oldingi jayajon bu tabiiy bo'lib, u sog'lom va bebahodir. Hayajon-bu, Sizning hamkoringiz, usiz haqiqiy, yorqin nutq chiqmasligi mumkin.

Natijali nutq so'zlari Sizdan ko'p harakat qilishni talab etadi. CHuqur nafas oling. O'zingizni bo'sh qo'yib, xudi tayyorgarlik jarayonida o'zingizni tutgandek his eting.

«SWOT –универсал таҳлил» методи учун мавзу

“XVI-XVII асрда Бухоро хонлигининг ижтимоий- иқтисодий тараққиёти”

(8-синф «Ўзбекистон тарихи»)



Гуруҳлар учун топшириқ:

1-гуруҳ:

XVI-XVII асрда Бухоро хонлигининг ижтимоий-иқтисодий тараққиётидаги ички кучли томонларни (ички кучларини) аниқланг.

2-гуруҳ:

XVI-XVII асрда Бухоро хонлигининг ижтимоий-иқтисодий тараққиётидаги ички заиф томонларни (ички заифликни) аниқланг.

3-гуруҳ:

XVI-XVII асрда Бухоро хонлигининг ижтимоий-иқтисодий тараққиётидаги ташқи имкониятларни аниқланг.

4-гуруҳ:

XVI-XVII асрда Бухоро хонлигининг ижтимоий-иқтисодий тараққиётидаги ташқи хавф-хатарларни аниқланг.

Ишлаш учун вақт 20 минут.

“Хулосалаш” (Резюме) МЕТОДИ

XVI-XVII асрда Бухоро хонлигида

ички ижобий омиллар	ички салбий омиллар	ташқи ижобий омиллар	ташқи салбий омиллар
XVI-XVII асрда Бухоро хонлигидаги ижтимоий-иқтисодий тараққиёт ҳақида менинг хулосаларим:			

«КЕЙС - СТАДИ» МЕТОДИ

«Кейс-стади» инглизча сўз - (case – конкрет вазият, ходиса, stadi - ўқитиш). Бу метод конкрет вазият, ходисага асосланган ўқитиш методи ҳисобланади.

«Кейс - стади» методи бўйича ишлаш:

1. Якка тартибда ишлаш (умумий вақтнинг 30% си):
 - Вазият билан танишиш (матн бўйича ёки сўзлаб бериш орқали).
 - Муаммоларни аниқлаш.
 - Ахборотни умумлаштириш.
 - Ахборот тахлили.
2. Гуруҳда ишлаш (умумий вақтнинг 50% си):
 - Муаммоларни ҳамда уларнинг долзарблиги бўйича кетма-кетлигини (иерархиясини) аниқлаш.
 - Муқобил ечим йўлларини ишлаб чиқиш.
 - Ҳар бир ечимнинг афзал ва заиф жихатларини белгилаш.
 - Муқобил ечимларни баҳолаш.
3. Якка тартибда ва гуруҳда ишлаш (умумий вақтнинг 20% си):
 - Муқобил вариантларни қўллаш имкониятларини асослаш.
 - Ҳисобот ҳамда натижалар тақдимотини тайёрлаш.

26

5-AMALIY MASHG‘ULOT: Tarix darslarida tarixiy manbalardan, badiiy va boshqa adabiyotlardan foydalanish. 4-soat

1. Tarixiy manbalar va ulardan dars jarayonida foydalanish
2. Tarix darslarida badiiy adabiyotlardan foydalanish

Ishning maqsadi: adabiyotlar tasnifini bilish, manbalarning darajalarini bilish, tarixiy manbalar turlarini bilish, tarixiy manbalar va ulardan dars jarayonida foydalanishni bilish, tarix darslarida badiiy adabiyotlardan foydalanish metodlari va tamoyillarini bilish.

1-topshiriq.

Tarixiy manbalarni, ularning umumiy xarakteri, o‘tmishni o‘zida aks ettirishiga qarab guruhlarga bo‘ling. Ularning har biriga misol keltiring. mumkin:

- Moddiy (ashyoviy) manbalar
- Etnografik manbalar
- Lingvistik manbalar
- Xalq og‘zaki ijodi
- YOzma manbalar
- Mo‘‘jaz rasm-miniaturalar

2-topshiriq.

Kichik guruhlarda mavzuga tegishli badiiy adabiyotlardan lavhalarni darslikda, mavzuning mazmuniga moslang.

Nazorat savollari:

1. Qanday tarixiy manba turlarini bilasiz ?
2. Tarix darslarida badiiy adabiyotdan qanday didaktik maqsadda foydalaniladi?
3. Badiiy adabiyotlar klassifikatsiyasini keltiring.
4. Badiiy adabiyotning yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashdagi ahamiyatiga misollar keltiring
5. Badiiy adabiyotning qimmatini nima bilan belgilanadi?

Amaliy mashg'ulot topshiriqlari

1-topshiriq. O'zbek davlatchiligiga oida tarixiy manbalar klassifikatsiyasini tuzib chiqing va guruhlarda muhokama qiling.

2-topshiriq. Tarixiy badiiy adabiyotlar klassifikatsiyasini tuzing va ulardan tarix darslarida foydalanish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqing.

3 - topshiriq. Tarixiy manba va adabiyotlarni bosma va elektron holatda jamlash va ulardan tarix darslarida foydalanish.

“Hamkorlikda o'qitish” texnologiyasi yordamida - Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi” asaridan Temurbekning shakli shamoyili, xulq-atvori, xislatlari haqidagi ma'lumotni o'rganish

I guruh:

Amir Temurning hayot paytida chizdirgan maxsus surati yo'q. Lekin zamondoshi Ibn Arabshohning so'z bilan ifodalagan surati bor. U Temurning shakli shamoyilini bunday tasvirlaydi: “Temur qaddi-qomati kelishgan, baland bo'yli, tik qomatli, keng peshonali, kallasini katta, bag'oyat kuchli, salobatli, yuzi oq-qizildan kelgan, lekin bironta dog'i yo'q, bug'doy rang emas, qo'l-oyoqlari baquvvat, elkalari keng, barmoqlari yo'g'on, boldir va poychalari semiz, qaddu qomati kamoliga etgan, sersoqol, ikki ko'zi bamisoli sham bo'lsada, shodligi bilinmas, yo'g'on ovozi edi.

U o'limdan qo'rqmas, qartayib qolgan bo'lsa-da iztirobsiz, vazmin, badani to'la va pishiq, xuddi tosh misoli qattiq edi. U hazil-mazax va yolg'onni yoqtirmas, o'yin-kulgiyu, ko'ngilxushlikka maylsiz, garchi (so'zda) o'ziga ozor etadigan biron narsa bo'lsa hamki, sadoqat unga yoqar, ma'qulroq edi. U bo'lib o'tgan ishga aziyat chekmas va o'ziga hosil bo'ladigan yutuqdan shodlanmas edi”.

Amir Temur o'tkir fikrlovchi, farosatli, ziyrak, do'st-dushmanni bir qarashda ajrata biladigan, mard va haqgo'y kishilarni yoqtiruvchi, dono va katta hayot tajribasiga ega bo'lgan kishilarni do'st tutar, xoinlikni va xoinlarni yomon ko'rardi.

“U sinchkov, har bir ishoratdan ogoh kishi bo'lib, yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalarni ko'rib-bilib turar edi. Uning nazaridan aldovchining aldovi yashirinib qolmas va firibgarning firibi o'tmas, o'z farosati bilan haqgo'y va yolg'onchini ajratar edi. Ziyrakligi bilan haq nasihatgo'ydan soxta nasihatgo'yni ajrata olar, o'z fikri va idroki bilan sal bo'lmasa “uchar yulduz”ni to'g'ri yo'lga solib yuborar, o'z farosati va mulohazalari bilan bexato aylanib turgan sayyora o'qini o'z orqasidan ergashtira olar edi”.

Hazrat Sohibqiron mard kishi edi: “Temur qo'rqmas, shijoatli, botir kishilarni o'z orqasidan ergashtiruvchan bo'lib, jasoratli, dovyurak va mard kishilarni yoqtirar edi”.

II guruh:

“Temur tengi yo'q fe'l-atvorli, chuqur mulohazali kishi bo'lib, tafakkur dengizining qa'ri yo'q, tadbiri tog'iga na tekislig-u, na o'ydim-chuqur orqali yo'l topilar edi, ilm ahliga mehribon edi”.

“Temur olimlarga mehribon bo'lib, sayyid shariflarni o'ziga yaqin tutardi. Ulamo va fozillarga to'la izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan tamom muqaddam ko'rar edi. Ularning har birining o'z martabasiga qo'yib, izzat-ikromi va hurmatini unga ochiq izhor qilardi. Ularga nisbatan o'z muruvvati bisotini yozar ediki, bu muruvvati uning haybati bilan aralash edi. Ular bilan mazmunli bahs ham yuritar ediki, bahsida insof-u himmat bo'lar edi. Uning lutfi qahri ichiga qorilgan bo'lib, qo'rsiligi ezguligi orasiga qo'shilgan edi.

Temur ahlu hunarni ham do'st tutardi. "Temur har qanday hunar va kasb bo'lmasin, agar unda biron fazilat va sharofat bo'lsa, kasb egalariga g'oyatda mehr qo'yar edi".

"U masxarabozlarni yoqtirmas edi. U tabiatan masxaraboz va shoirlarni yoqtirmas, munajjim, tabiblarni o'ziga yaqin tutib, ularning gaplariga e'tibor qilar va so'zlarini tinglar edi".

CHIQUISH XARITASI

CHIQUISH xaritasi – bu grafik tashkilotchi bo'lib, unda talabalar mavzuning yakunida kartochkada uchta bandlar bo'yicha o'z fikrlarini yozadilar: 1. Mashg'ulotning asosiy qismi; 2. Mashg'ulotning mavzusi bo'yicha bir savol; 3. Mashg'ulot materiali bo'yicha umumiy tafsilot.

CHIQUISH kartasining boshqa shaklini qo'llash mumkin:

Mashg'ulotda nimani eslab qoldim	Nimani tushundim, o'rganib oldim	Menga yoqqan va qiziqish uyg'otgan narsa hamda nima menga yoqmadi
(passiv operativ xotirada qolgan ma'lumot)	(fikrlashga undagan ma'lumotlar)	(shaxsning emotsional-anglash sohasidagi olgan ma'lumotlari)
.....

SAVOLLAR

Albatta, savollarni har kuni barcha o'qituvchilar beradilar, ammo bu savollar qaysi turdagi savollar bo'ladi? Bu ko'pincha sinfda nazoratni qo'lga olish maqsadida yoki hattoki o'quvchilarni kamsitish uchun qo'llanadigan savollar bo'lishi mumkin. Boshqa ko'pincha qo'llanadigan savollar – bu "yopiq" deb ataluvchi savollardir. Ularga faqat bir to'g'ri javob bo'ladi va ular bilimni tekshirish uchun qo'llanadi. Mazkur uslubiy tavsiyanoma guruhdagi ko'pgina mashg'ulotlarni umumiy munozara o'tkazish yo'li bilan tashkil qilishni tavsiya etadi. Mazkur munozaralar vaqtida siz beradigan ochiq savollar guruhning faolligini rag'batlantirish va ko'rib chiqilayotgan muammolarni tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi.

Bu erda yodda saqlash kerak bo'lgan eng asosiysi, bu "Men bu munozaradan nima kutayapman – "Ha" va "Yo'q" javoblarinimi yoki erkin qiziqarli muhokamanimi?". Quyida siz qo'llashingiz mumkin bo'lgan "ochiq" savollarga bir necha misollar keltiriladi.

- Faraziy savollar: "Agar ... bo'lsa, siz nima qilardingiz/o'ylardingiz". Ular ta'lim oluvchilarga u yoki bu vaziyatlarni tasavvur qilishlariga yordam beradi, fikrlash jarayonini kuchaytiradi.

- Fikrlashga undaydigan savollar: "Bu muammoni echishda biz qanday yordam berishimiz mumkin?"

- Rag'batlantiruvchi/ qo'llab-quvvatlovchi savollar: "Bu juda qiziq, keyin nima bo'ldi?". Ular ta'lim oluvchilarga shaxsiy tajribalari va qarashlari bilan o'rtoqlashlariga imkon beradi.

- Fikr bildirish savollari: "Siz to'g'risida nima deb o'ylaysiz?". Bunday savollar ta'lim oluvchilarga ularning fikrlari muhim va qiziqarli ekanligini bildirishda qo'llanadi.

- Surishtiruvchi savollar: "Nima uchun bunday deb o'ylaysiz?". Xotirjamlik bilan berilgan bu savol ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini chuqurroq o'ylab ko'rishlari va tushuntirishlari/tahlil qilishlariga yordam beradi.

- Tushuntiruvchi/umumlashtiruvchi savollar: "Siz deb o'ylayapsiz desam, men haq bo'lamanmi?". Ta'lim oluvchi aytganlarini umumlashtirish va siz uni to'g'ri tushunganligingizni tekshirish, boshqa ta'lim oluvchilarni ular shu fikrga qanday munosabatda bo'lishlarini o'ylab ko'rishga undaydi.

- Rozilikni bildiruvchi savollar: "Ko'pchilik ekanligiga rozimilarmi?". Bunday savollar munozaraga undash uchun berilishi mumkin. YOKi munozara yakunida "Biz bu qismni tugatdikmi?" kabi savollar – keyingi mavzuga o'tishga ruxsat olish uchun beriladi.

Nihoyat, ikkilantiruvchi savollardan foydalanmaslikni esda tutishga harakat qiling, masalan “X - haq, shundaymi?”. Bunday savollar ta’lim oluvchilarning faolligini sustlashtiradi. Bir zumda juda ko‘p savol bermang va ikki ma’noni anglatuvchi savollarni qo‘llamang.

Iltimos, boshni silkib ma’qullash, jilmayish yoki hatto siz ta’lim oluvchilar bilan bir darajada o‘tirganligingiz ularning faolliklarini oshirishini esdan chiqarmang.

6-AMALIY MASHG‘ULOT: Dunyo dinlari tarixini o‘qitishning xuquqiy-me’yoriy va uslubiy yo‘llari. 4-soat.

Maqsad: tinglovchilar dunyo dinlari tarixini o‘qitishning xuquqiy-me’yoriy va uslubiy asoslariga oid bilimlarini amaliy mashg‘ulotda oshiradilar va zarur ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Mashg‘ulotda “Baxs munozara” metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Tinglovchilarga baxs-munozarani yuzasiga keltirish uchun quyidagi savollar beriladi:

1. Din tarixini o‘quvchilarga o‘rgatishning amaliy ahamiyati nimalarda deb o‘ylaysiz?
 2. Milliy qonunchiligimizda diniy munosabatlar va vijdon erkinligi masalalarining ta’minlanishi.
 3. Umumta’lim maktablarida “Dunyo dinlari tarixi” fanining qaysi mavzularini o‘tish siz uchun qiyinchilik tug‘dirmoqda.
 4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoev tomonidan davlatimizda diniy bag‘rikenglilik va Islom dini ilmini rivojlantirish bo‘yicha qanday ishlar qilinmoqda.
- Baxs munozara yakunida o‘qituvchi bildirilgan fikrlarni umumlashtiradi va zarur tavsiyalarni beradi.

“INSERT” usuli yordamida “Dunyo dinlari tarixi” darsliklari bilan ishlash bo‘yicha ko‘nikmalarni hosil qiling.

Bu usulning mazmuni shundan iboratki, tinglovchilar o‘qish jarayonida ma’lumotni tushunishlarini kuzatishlari uchun mo‘ljallangan, bunda satrda belgilash interaktiv tizimidan foydalaniladi. Bu quyidagilarni rivojlantiradi: matn bilan samarali ishlash malakalari, faol, fikrlab o‘qish, yangi materialni avvalgi material bilan o‘zaro bog‘lash qobiliyatini, mavzularni keyingi o‘rganilishiga qiziqish uyg‘otadi. Belgi ko‘rinishlari quyidagilar: “V” – o‘qiyotganingiz sizning bilganingizga mos tushsa qo‘yiladi. “-” (minus) – bu belgi o‘qiyotganingiz sizning bilimlaringizga qarama-qarshi chiqqanda qo‘yiladi. “+” (plyus) -o‘qiyotganingiz siz uchun yangilik bo‘lganda qo‘yiladi. “?” (so‘roq) - o‘qiyotganingiz tushunarli bo‘lmasa bu belgi qo‘yiladi, ya’ni qo‘shimcha ma’lumot talab qilinadi.

V	-	+	?
1.	1.	1.	1.
2.	2.	2.	2.
3.	3.	3.	3.

KONSEPTUAL JADVAL

Bu bir qancha faraz, qonun yoki hodisa, dalillar va boshqalarni solishtirish kerak bo‘lganda qo‘llanadigan grafik tashkilotchidir. Konseptual jadvalda tahliliy axborotning katta hajmi ixcham joylashtirilgan. Bunday jadval mashg‘ulotning metodik ta’minotiga (slyd, o‘quv plakati va h.k.) qo‘l keladi. Muayyan muammo bo‘yicha konseptual jadvallarni tuzishga topshiriqni kichik guruhlarda aqliy hujumdan foydalanib tuzish va uni butun guruh bo‘yicha muhokama qilib, eng maqbul variantni ishlab chiqish – amaliy mashg‘ulotlarning “anglash” va “fikrlash” fazasida aniq bir mavzu bo‘yicha mashg‘ulot mazmuni bo‘lib xizmat qilishi mumkin. ish quyidagicha bajariladi: 1) YAngi axborot bilan

ishlash (tanishish). 2) Jadval tuzish. Konseptual jadvalda vertikal bo'yicha solishtiriladigan, gorizontaal bo'yicha esa – solishtirish amalga oshiriladigan turli tavsiflar joylashtiriladi. 3) Jadvalni to'ldirish. Ta'lim oluvchilar solishtirish mezonlarini ifoda etadilar va axborotni mos kelgan mezonlar bo'yicha taqsimlaydilar.

7-AMALIY MASHG'ULOT: Tarix ta'limida pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish. 4-soat

1. Pedagogik texnologiya va uning ilmiy aspektlari
2. Keys-stadi, hamkorlikda o'qish, loyiha texnologiyalari

Ishning maqsadi: Pedagogik texnologiya va uning ilmiy aspektlarini tushunish, Keys-stadi, hamkorlikda o'qish, loyiha texnologiyalarining mazmun va mohiyatini bilish, mavzular bo'yicha ijodiy ishlanmalar tayyorlashni bilish.

Quyidagi toifali jadvalni to'ldiring

“Ta'lim texnologiyasi” nazariyasining shakllanish bosqichlari

№	Bosqichlar	Yillar	Ta'lim texnologiyasi
1	I- bosqich		
2	II- bosqich		
3	III- bosqich		
4	IV-bosqich		

T-sxemasi yordamida An'anaviy ta'limni tahlil qiling

afzalliklari:	kamchiliklari:
Xulosa	

T-sxemasi yordamida Zamonaviy (noa'anaviy) ta'limni tahlil qiling

afzalliklari:	kamchiliklari:
Xulosa	

Franklar imperiyasidagi ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy jihatlarni tahlil qiling.

S	Kuchli tomoni	
W	Ojiz tomoni	

O	Imkoniyatlari	
T	Xavflar	

Loyiha texnologiyasi

“Jadidlar harakati va uning Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi ahamiyati”

I. Loyiha topshirig‘i

Kirish. Vatanimiz tarixida mustaqillik uchun siyosiy, ongli harakatning yangi turi, bilimli bo‘lish, mustamlakachilikdan mustaqillikka erishish va xatto taraqqiyotga erishish maqsadidagi eng muhim voqealarni o‘rganish bugungi kunda mustaqilligimizni yanada mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir. Jadidchilik namoyondalari ma’rifatparvar kishilar edilar. Bu haqda barcha o‘quvchilar etarlicha ma’lumotga ega emaslar. Ayniqsa, bu mavzuni o‘tishda fanlararo aloqa, ayniqsa adabiyot fanidan olgan bilimlari bilan mustahkamlanilsa jadidlarning g‘oyalari yanada oydinlashadi.

Loyiha doirasida o‘z echimini topuvchi, muammo: o‘quvchilarni jadidlar to‘g‘risidagi qisqa ma’lumotlar bilan ta’minlash.

O‘quv loyiha mavzulari:

1. Jadidchilik harakatning vujudga kelishi
2. Jadidlarning dasturiy maqsad va vazifalari, asosiy g‘oyalari
3. Jadidchilik harakati namoyondalari va ularning faoliyati. Harakatning milliy xususiyati
4. Fayzulla Xo‘jaevning faoliyati
5. Maxmudxo‘ja Bexbudiy hayoti va faoliyati
6. Munavvarqorining ilmiy faoliyati
7. Abdurauf Fitratning taraqqiyparvarlik faoliyati

8. Jadidchilik harakatining Turkiston ijtimoiy – siyosiy va madaniy hayotiga ta’siri

Loyiha maqsadi (u nima uchun yaratiladi): Jadidlar to‘g‘risida ma’lumotni ishlab chiqish.

YAkuniy natija: Jadidlar va ularning harakati to‘g‘risida qisqa va tuzilmaviy axborotni o‘z ichiga oluvchi, ma’lumotnoma.

Foydalanuvchilar: O‘quvchilar va tariximizga qiziquvchilar

Loyiha doirasi:

bajarish muddati: 5 kun

ishtirokchilar soni: beshtagacha

Loyiha tuzilishi va mazmuni

- Kirish – ma’lumotli axborotning mohiyati va vazifasi ochib beriladi.
- Loyiha mavzusini yoritib beruvchi, axborot.
- Foydalanilgan manbalar ro‘yxati.

Loyiha guruhi ishtirokchilarining vazifalari

1. Axborot manbalarini aniqlash, uni yig‘ish.
2. Axborotni tanlash va tuzilmaga keltirish.
3. Ma’lumotnomani rasmiylashtirish.
4. Loyiha faoliyati natijalari to‘g‘risida og‘zaki axborot tayyorlash.
5. Hisobot tayyorlash.

II. Loyiha topshirig‘ini bajarish bo‘yicha o‘quvchilarga uslubiy ko‘rsatmalar

1. Loyiha faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish uchun yo‘riqnoma

1 bosqich. Tayyorgarlik

- 1.1. Loyiha faoliyati jarayonida echimini topish talab etiladigan, muammo, maqsad va loyiha natijalari, vazifalar hamda ishtirokchilarning loyiha faoliyati turlarini aniqlang.
- 1.2. Loyiha faoliyati jarayonida echimini topish talab etiladigan, muammoni, loyiha maqsadi va natijalarini, loyiha faoliyati ishtirokchilarining vazifalarini aniqlang.
- 1.3. Axborot manbalarini aniqlang.

2 bosqich. Loyiha faoliyatini rejalashtirish

- 2.1. Maqsadga erishish yo'lini ishlab chiqing.
- 2.2. Ish rejasini tuzing:
 - ishtirokchilar o'rtasida loyihani ishlab chiqish bo'yicha hamda uni rasmiylashtirish, taqdimotga va hisobotga tayyorlash bo'yicha vazifalarni taqsmilang.
 - bajarish vaqti va tayyor natija turini aniqlang.

Loyihani bajarish bo'yicha ish rejasi (Lavha)

Ishtirokchilar F.I.SH.	Vazifa	Ish mazmuni	Tayyor mahsul turi	Bajarish muddati

3 bosqich. Amalga oshirish

- 3.1. Olingan axborotni yig'ing va uni matn, jadval, chizma hamda sharhlash ko'rinishida rasmiylashtiring.
- 3.2. Natijalarni ma'lumotli materiallar ko'rinishida rasmiylashtiring (oxirgi mahsul).
- 3.3. *Hisobotni tayyorlash yo'riqnomasi bo'yicha*, hisobotni tayyorlang.
- 3.4. Loyihani Microsoft Power Point bo'yicha *taqdimotga tayyorlang*.
- 3.5. Loyiha taqdimotida guruh a'zolari o'rtasidagi vazifalarni aniqlang. Og'zaki taqdimotga tayyorgarlik vaqtida uning *qoidalariga rioya qiling, og'zaki taqdimot sirlarini esdan chiqarmang*.

2. Loyiha ishi to'g'risida hisobotga tayyorgarlik bo'yicha yo'riqnomasi

1. Siz taklif, va tavsiya etayotgan loyihani tatbiq etishni isbotlovchi, xulosalarni (1 betdan ko'p bo'lmagan matn) asosida ifodalang.
2. Siz hal etmoqchi bo'lgan muammoni, (5-6 so'z) bilan asoslang.
3. Loyiha maqsadingizni: uni nima uchun yaratilishi, oxirgi mahsulni qanday bo'lishi va u kimga qaratilganligini (1-3 taklif) orqali ko'rsating.
4. Loyiha vazifalarini (qisqa va bir ma'noli) ifodalang.
5. Loyihaning ish rejasini (jadval) bayon eting.
6. Vazifani echimi natijalarini va loyihada bajarilgan ishlarni ko'rsating.
7. Siz taklif etgan loyiha mahsulini tatbiq etish imkonini tasdiqlovchi, xulosalarni shakllantiring.
8. Bajarilgan ish bo'yicha foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtiring.
9. Baholang: - loyiha sifatini,
- loyiha ustida ishlash jarayoni: ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni engib o'tish yo'llari.
10. Ilovalarni tarkiblashtiring: loyiha ishtirokchilar anketalari va loyihaning ish materiallarini kiriting (hohishingizga ko'ra).

3. Loyihani MS PowerPointda taqdimotga tayyorlash bo'yicha yo'riqnomasi

1. MS PowerPointda taqdimotga *tayyorlash jarayoni* quyidagilardan iborat:
 - taqdimot turini tanlash;
 - taqdimotni umumiy rasmiylashtirishni tanlash;
 - slaydlarni mazmunli tomonlarini tanlash;
 - yangi slaydlarni qo'shish;
 - slaydlarning belgilashni tanlash;

- zarur bo'lganda slaydlarni rasmiylashtirishni o'zgartirish;
 - slaydlarni namoyish etish vaqtida turli ovozli animatsiyalarni yaratish.
2. Slaydlarni **texnik namoyish etish** quyidagi tavsiflarga javob berishi kerak:

- Slaydlar *miqdori* (8-12).
- Slaydlarni mazmunli ko'rsatkichlari*:
 - birinchi slayd: loyiha nomi, muallif familiyasi, № o'quv guruhi, yaratilgan kundan iborat;
 - oxirgi slayd axborot manbasiga bag'ishlangan;
 - boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.
- Slaydlar o'z-o'zidan ishlash tartibida namoyish ettiriladi.

3. **Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasi**

- Agarda, matn og'zaki bo'lsa, quydagicha bo'lishi zarur:
 - yuqori axborotli;
 - bog'lovchili;
 - aniq va qisqa;
 - oddiy sintaktikli (...quyidagilarga e'tibor bering, quyida taqdim etilayotgan... ro'yxatlar kabi aylantiruvchi kirish so'zlari kamroq bo'lishi)- bularni barchasini ma'ruzachini o'zi gapirishi mumkin. Oddiy tuzilgan gaplar o'rni bilan tanishtiradi va yozuvni kattaroq qilishga imkon beradi;
 - (asosan termin va ta'riflarda), tushunarli, mantiqiy, aniq bo'lishi zarur. Ommaga taqdim etish oldin matnni tekshirishga erinmang.
- Ovoz tiniq bo'lishi kerak. taqdimotni ovozli qilish kerak emas, bunda sharhlovchini ovozini eshitib bo'lmaydi- eng yaxshisi ma'ruzachini jonli ovozi hisoblanadi.
- Rasmlar* aniq va etarlicha kattaroq bo'lishi zarur. Rasmlarni o'lchamini katta qilishga urinmang – faqatgina Siz sifatni yo'qotasiz.
- Video- tasmalar* taqdimot oynasini uch qismini egallashi zarur. Rasmlar namoyishli bo'lishi kerak. Bezaklar chalg'itishi mumkin.
- Jadvallar* ajratuvchi ma'lumotlarni, xuddi shunday aniq, ularning tagiga yirik yozuvlardan, jadvallar nomlanishi zarur.

Jadvallarni haddan ziyod ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak emas!

Jadvalga qancha ko'p ma'lumotlar kiritilsa, ularni ekrandan qabul qilish qiyin bo'ladi.

Taqdimot boshlashdan avval auditoriyada o'tirganlarga jadval va rasm nusxalaridan tarqatish zarur.

- CHizmalar* bir bo'limdan boshqa bo'limga aniq va mantiqiy ravishda o'tishga moslashtirilishi kerak. O'tish chiziqlari ekranda yaxshi ko'rinishini tekshiring.

4. **Og'zaki taqdimotga tayyorlanishda rioya etiladigan, qoida**

Taqdimotda nima bo'lishi zarur?

- Muammoni, loyiha maqsadi va vazifalarini tushunishni ko'rsatish; ishni rejalashtirish va amalga oshirishni uddalashi;
 - echimini topish jarayonining tahlili;
 - topilgan echim;
 - muvaffaqiyatning o'zi tahlil qilishining natijalari va muammoni echish natijaviyligi;
- SHuningdek: reglamenga rioya qilish: guruhning umumiy taqdimoti – 7-10 daqiqadan kam bo'lmasligi va 15 daqiqadan ko'p bo'lmasligi. Guruh a'zolarining tartibli chiqishi va ular harakatida kelishuvchilik

Barcha chizmalarga sharh berish

Taqdimotda nima bo'lmasligi kerak?

Loyiha ishini batafsil yozilishi va loyiha mahsuli mazmunini qayta gaprib berishi.

Ishtirokchilar chiqishlarida qarshiliklar.

Tushunarsiz, noaniq fikrlar.

Muvaffaqiyatli taqdimotning sirlari

- gapirayotganingizda doimo ishonchli bo'ling;

- tugallangan jumla bilan hamda muhim joylariga urg‘u berib, ajratgan holda ifoda eting;
- bir maromda va sekin gapirmang, baland ovozda ham gapirmang;
- hushmuomala va ziyrak bo‘ling, jahldor bo‘lmang;
- doimo kulib turgan holda boshlang va shunday tugating;
- “mumkin bo‘lsa”, —Uni kim biladil va shu kabi jumalarni qo‘llamang;
- tinglovchilarga qarashga harakat qiling (har bir qatnashchiga 3 sekunddan);
- oyoqni chalishtirmang, qo‘lni orqada ushlamang, minbarga suyanmang, kuchli imo-ishora qilmang, ruchka, markerni o‘ynatmang, elpig‘ich, qog‘oz bilan elpimang;
- har bir javobga minnatdorchilik bildiring!

5. Baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

Guruhli loyihada quyidagilar baholanadi:

- Loyiha mahsuli- ma‘lumotnoma (eng yuqori 10 ball);
- hisobot(eng yuqori 8 ball);
- loyiha taqdimoti (eng yuqori 5 ball);
- og‘zaki taqdimot (eng yuqori 2 ball).

Nazorat savollari:

1. Pedagogik texnologiya va uning ilmiy aspektlarini ayting.
2. Pedagogik texnologiyaning tarixiy bosqich va ulardagi mazmunini izohlang.
3. Metodika va pedagogik texnologiyaning farqini misollar bilan tushuntiring.
4. Keys-stadi, hamkorlikda o‘qish, loyiha texnologiyalariga tarixdan misollar ishlab chiqing.

8-amaliy mashg‘ulot: Sinf va maktabdan tashqari ishlar, ularning turlari (4 soat)

Mashg‘ulotning asosiy maqsadi: Sinf dan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlarning ahamiyatini tushunish, sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarning mazmuni, ko‘rinishi va o‘tkazish metodlarini bilishi, tarix to‘garaklari, konferensiyalar, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni amalga oshirishda ijodiy ishlanmalar tayyorlashni bilish.

Topshiriqlar:

- Tarix to‘garagining ish rejasini tuzing.
- Tanlangan mavzuda o‘tkaziladigan konferensiyaning loyihasi, uning sho‘balari mavzularini ishlab chiqing. (O‘quvchilarga beriladigan topshiriqni ham qamrab olsin)
- Ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar, tarixiy kechalarning ssenariylarini tuzing.

Amaliy mashg‘ulot uchun nazariy ma‘lumot

Reja:

1. Sinf dan tashqari olib boriladigan ishlarning ahamiyati
2. Sinf dan tashqari olib boriladigan ishlarning mazmuni, ko‘rinishi va o‘tkazish metodlari
3. Tarix to‘garaklari, konferensiyalar
4. Sinf dan tashqari ishlarda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarning o‘rni
- 5 Madaniy merosimiz vorislarini tarbiyalashda muzey pedagogikasining o‘rni

1. Sinf dan tashqari olib boriladigan ishlarning ahamiyati

Vatanga fidoyi farzandlarni tarbiyalashda tarix fanining ahamiyati katta. Zero, shu fan orqali bola qalbiga Vatan tuyg‘usi, mardlik, jasorat, qahramonlar ibrati va oliyjanoblik fazilatlarini kirib boradi. O‘quvchilar o‘quv materialining asosiy mazmunini sinfdan dars davomida o‘zlashtirib oladilar, albatta. Biroq, o‘quvchilarning Davlat ta‘lim standarti, fan dasturi yuzasidan o‘rganishi zarur bo‘lgan bilim va malakalarning hammasini ham sinf-dars mashg‘ulotlari doirasiga sig‘dirib bo‘lmaydi. Buning ustiga

tarixiy, ilmiy va siyosiy ma'lumotlar hajmi tez kengayib, muttasil oshib borayotgan sharoitda o'quvchilar o'z bilimlarini tinmay to'ldirib borishlari uchun sinfdan tashqari ishlarni yaxshi yo'lga qo'yish g'oyat zarurdir.

SHuningdek, o'quvchilarning intellektual qobiliyatini o'stirishda, ularning chuqur bilim olishini ta'minlashda, tarixiy tafakkuri va ongini yuksaltirishda sinfdan tashqari ishlarning o'zni muhim hisoblanadi, bu xususda maxsus Konsepsiyada talablar qo'yilgan²⁰.

Kitob mutolaasi tafakkurni boyitadi, ma'naviyatni yuksaltiradi. Qalbni Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, odamlarga mehr-oqibat tuyg'ularini kamol toptirishning eng yaxshi vositasi kitobdir. Bugun kitobxonlik, mutolaa madaniyati davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2017 yil 12 yanvardagi «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobmutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida»gi farmoyishi ayni muddao bo'ldi.

Tarixni o'rganishda turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va tarixiy kechalarning roli kattadir. Buyuk tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati orqali o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhimdir. Vatanimiz ozodligi uchun kurashgan vatandoshlarimiz, buyuk davlat arboblari, allomalar haqida hikoya va sahna asarlaridan lavhalar namoyish etish orqali chuqur bilim berish bilan birga yoshlarni hozirgi kunda dolzarb bo'lgan milliy g'oya va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Bunda o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, tarixiy-badiiy asarlar asosida tayyorlangan sahna ko'rinishlarining namoyish etilishi o'quvchi-yoshlarda tarix faniga qiziqishini ta'minlab qolmay, ular orqali Vatanni sevish, o'zaro do'stona munosabat, dadillik, dovyuraklik, o'z kuchiga ishonish kabi insoniy fazilatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

2. Sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarning mazmuni, ko'rinishi va o'tkazish metodlari

Tarix fanini chuqur o'zlashtirish borasida sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati kattadir. Tarix fani yuzasidan sinfdan tashqari ishlarning mazmuni, shakllari va metodlari A.Sa'dievning «O'zbekiston xalqlar tarixini o'qitish» nomli o'quv qo'llanmasida (T.,1993) turkumlangan va bu turkumni bugungi kun talablaridan kelib chiqib yanada takomillashtirish mumkin:

1. Qo'shimcha kitob o'qish. Tarixda o'qiladigan kitoblarni uch guruhga ajratish mumkin:

a) tarixiy manbalar,

b) tadqiqotlar asosida tayyorlangan kitoblar,

v) tarixiy davrga oid badiiy adabiyotlar.

2. Qo'shimcha suratlar, taqdimotlar ko'rish.Suhbatlar olib borish.

3. Mavzuga oid teatr va kinofilmlar tomosha qilish va ularni birgalikda muhokama qilish.

4. Tarixiy ma'naviy-ma'rifiy kechalar tashkil etish.

5. Tarixiy inssenirovka yoki pesalar qo'yish.

6. Maktab tarixiy ko'rgazmalarini tashkil etish.

7. Muqaddas qadamjolarga ekskursiyalar uyushtirish.

8. Tarix bo'yichato'garaklar tashkil etish.

9. Tarix fani bo'yicha konferensiyalar tashkil etish, ularga temurshunos olimlarning qiziqarli ma'ruzalarini kiritish

o'quvchilarning ham ma'ruzalar bilan ishtirokini ta'minlash.

10. Muzeylarga tashrif buyurish.

Tarix fani yuzasidan sinfdan tashqari ishlarning mazmuni, shakllari turlicha bo'lsada, ular bir maqsadga ya'ni ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Qo'shimcha kitob o'qish sinfdan tashqari ishlarning muhim shaklidir. Bunda o'quvchilarga kitob o'qishni targ'ib va tashviq qilish, uning ahamiyatini tushuntirish, kitobga qiziqtirishdan boshlanadi. Sinfdan tashqari o'qishni tashkil etishda o'quvchilarning yoshi, bilimi hamda malakalari e'tiborga olinishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarni, avvalo darslikda ko'rsatilgan badiiy va ilmiy-

ommabop asarlar bilan tanishtiradi va ulardan foydalanish yo'llarini gapirib beradi, yangi chiqqan kitoblar haqida ularni xabardor qilib boradi, kitobxonlik kechalarini tashkil etadi.

Maktabda 5 – sinfdan boshlab tarix fanini hikoya tarzida o'qitish boshlanadi. 5-6-sinf o'quvchilarini kitob o'qishga qiziqtirish maqsadida ilg'or o'qituvchilar quyidagi usuldan foydalanib kelmoqdalar: o'qituvchi o'quvchilarga o'qish kerak bo'lgan kitoblarni darsda foydalanishi bilan birga, fakultativ darslarda, to'garaklarda shu kitoblardan reja asosida tanishtirib boradi, Biroq, o'qishni cho'zib yuborish yaramaydi, 15—20 minutdan oshirib yubormaslik kerak.

Qo'shimcha o'qishni tashkil etishda o'quvchilarni kitobga qiziqtirish bilan birga, mustaqil o'qishni tashkil qila bilish ham zarur. O'quvchilarning qo'shimcha o'qishi zarur bo'lgan kitoblar o'z vaqtida tavsiya etiladi. Ba'zi metodik asarlarda ko'rsatilganidek, hamma sinflardagi o'quvchilarning chorak ichida yoki o'quv yilining yarmida o'qishi uchun kitoblarning katta ro'yxatini birdaniga tavsiya qilish to'g'ri bo'lmaydi, tajriba ham rad qildi. Bu masalada ham har bir sinf bolalarining yoshi, bilim darajasi va malakalarini nazarga olib ish ko'rish lozim bo'ladi. Masalan, 5-6-sinflarda o'quvchilar mustaqil o'qishlari lozim bo'lgan kitobga doir mavzu darsda o'rganib bo'lingandan keyin qanday kitobni o'qish kerakligi tavsiya qilinadi; 7-8-9-10-11 sinflarda kitoblar mustaqil o'qish uchun tavsiya qilinadi. O'qilgan kitoblarni muhokama qilish kabi tadbirlar ham muhim o'rin tutadi.

O'quvchilarning yozuvchilar bilan uchrashuvlari ularning kitob o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarning tavsiya qilingan kitoblardan qanday foydalanganliklarini o'qituvchi doim nazorat qilib turadi.

Bu bilan o'qituvchi o'quvchilarda qo'shimcha adabiyot o'qishga rag'batnikuchaytiradi, kitoblarni tushunib o'qishga o'rgatadi, qo'shimcha kitoblar o'qib olgan bilimlarini darsda, tarix to'garagida va ekskursiyalarda olgan bilimlari bilan bog'lay bilishga va ulardan foydalana bilishga o'rgatadi. O'quvchilarda mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan kitoblarga ongli va to'g'ri munosabatni tarbiyalash uchun ularni o'qigan kitoblarni maxsus daftarga qayd qilib va har bir kitobga o'zlarining qisqacha taqrizlarini yozib borishga o'rgatish kerak.

Tabiiy, 5-6-sinflardagi o'quvchilarning o'qigan kitoblariga bergan baholari yuzaki bo'lsa-da, keyinchalik aytaylik, 7-8-sinf o'quvchilarning bahosi mazmunan boyib boradi. 9-10-11-sinfda esa, berilgan baholar mazmuni yanada chuqurlashadi.

Sinfdan tashqari ishlarda kitobxonlik kechalarini o'tkazish orqali o'quvchi yoshlarni kitobga mehr qo'yishga, ma'lumotlarni izlay olish, ularni tahlil va tadqiq etishga o'rgatadi.

Kitobxonlik kechalarida adabiyotlarni o'rganishda quyidagi tamoyillarga e'tibor berilishi talab etiladi:

- **yo'naltiruvchilik** – o'quvchilarni olingan bilimlarni asosiy holatlariga, uni kelgusi ish faoliyatidagi o'rni va ahamiyatiga diqqat qilishlariga imkon yaratish;
- **axborotlilik** – o'qituvchi berayotgan bilimni ilmiy dalillar va xulosalar orqali mavzuning mohiyatini ochib berish;
- **metodologik yondashuv** – oxirgi yillarda olib borilgan tadqiqotlarni bilish, ilmiy izlanishasosida olingan bilimlarni namoyon etish;
- **tarbiyalovchilik** – mavzuga hissiy-baholash asosida munosabatda bo'lishni uyg'otish;
- **rivojlantiruvchilik** – bilim olish qiziqishlarini, ya'ni mantiqiy fikrlash va isbotlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berish.

Kitob o'qishni targ'ib va tashviq etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, xususan interfaol usullar, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bugungi kunning dolarb vazifalaridandir.

Jumladan, «hamkorlikda o'qish», «loyiha» texnologiyalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda tarixiy manbalardan ma'lumotlarni, tadqiqotlardagi ilmiy yutuqlarni mustaqil o'qishga joriy etish mumkin. Bunda jalb qilingan ma'lumotlar darsning didaktik talablariga javob berishi va darsda olingan bilimlarini rivojlantirib yanada boyitishini ta'minlashi kerak.

Jajji kitobxonlar, to‘garak a‘zolari o‘ziga xos murakkab usuldayozilgan tarixiy manbalarning bayoni, ularning mazmuni, ma‘naviy-ma‘rifiy jihatlarini mustaqil o‘qib, anglab ololmaydilar. SHuning uchun o‘quvchi-yoshlarga tarixiy manbalarning tahlili natijasida olingan ibratli lavhalarni sinfdan tashqari ishlarning turli shakllarida etkazib berilishi maqsadga muvofiqdir.

3. Tarix to‘garaklari, konferensiyalar

Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shaklida tarix to‘garagining o‘rni kattadir. Aynan tarix bo‘yicha to‘garaklarda o‘quvchilar reja asosida bilimlarini tarixiy manbalar, ilmiy va ilmiy ommabop materiallar, badiiy adabiyotlar yordamida o‘zlarining tarix bo‘yicha bilimlarini oshirib boradilar.

Tarix to‘garagi (yoki tarixchilar jamiyati) sinfdan tashqari qilinadigan barcha ommaviy ishlarni uyushtirish markazi va uning eng ixcham ko‘rinishidir.

Tarix to‘garagida o‘quvchilarning qiziqishlariga qarab mavzular – Amir Temur shaxsi va faoliyati, Vatanimiz tarixidagi jarayonlar, o‘sha davrning buyuk shaxslari, allomalar, madaniyat va san‘at arboblari haqida, o‘sha davr madaniyati va san‘at tarixi va boshqalar rejalashtiriladi.

Maktab tajribasida to‘garak ishining mazmuni a‘zolarining yoshiga, bilim saviyalari va malakalariga qarab turlicha bo‘ladi. 5-6-sinf o‘quvchilari uchun tashkil etilgan tarix to‘garagining asosiy vazifasi o‘quvchilarda tarixni o‘rganishga paydo bo‘la boshlagan qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa, 7-8-sinflarda ularni tarixiy materiallar ustida mustaqil va ijodiy ishlay boshlashga o‘rgatishdan iborat bo‘ladi. Agar 5-9-sinf o‘quvchilarga hikoyaviy ma‘lumotlar qiziqarli va tushunarli bo‘lsa, 10-11-sinf o‘quvchilarini esa mavzuni o‘rgangan olimlar, tadqiqotchilar asarlari qiziqtiradi.

Tashkil etilgan to‘garak mavzulari va mazmuni o‘quvchilarning o‘sib borayotgan talablariga to‘la javob beradigan bo‘lishi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan birga o‘quvchilarning ishtirokini ham ta‘minlanishiga e‘tibor qaratilishi kerak bo‘ladi. Bunda o‘quvchilarni tarixiy tadqiqotning ba‘zi tomonlari bilan ham ma‘lum darajada tanishtiriladi. Masalan, tarix fanining maxsus sohalaridan bo‘lgan xronologiya, arxeologiya, numizmatika, etnografiya, sfragistika, geraldika, paleografiya, metrologiya, tarixiy geografiyaga oid bo‘lgan ma‘lumotlardan o‘quvchilarning intellektual bilimlarini kengaytirish maqsadida foydalanishni ko‘zda tutadi.

Tarix to‘garagi o‘quvchilarning tarixni o‘rganishga qiziqishini oshirishiga, darsda olgan bilimlarini yanada boyitishga, xususan axborotlarni izlash, ularni tahlil qilish, ma‘ruza bilan ishtirok etish, ta‘limning texnika vositalari bilan ishlashga o‘rganadilar, xullas mustaqil ijodiy ishlay bilish sohasida ham malakalarini hosil qilishiga yordam beradi.

Tarixni o‘rganishda konferensiyalar alohida o‘rin tutadi. Maqsadli ravishda o‘tkaziladigan konferensiyalar tarixni chuqur o‘rganishga, unda o‘quvchilarni faol ishtirokini ta‘minlashga xizmat qiladi. Konferensiyalar sinfdan tashqari o‘quv ishlarining muhim shakli bo‘lib, o‘quvchilarning darsda olgan bilimlarini to‘ldirish, ularning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini o‘stirish, ijtimoiy faoliyatga tayyorlashning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Eng keng foydalaniladigan muhim turlaridan biri kitobxonlar konferensiyasidir. Konferensiyada o‘qituvchi rahbarligida o‘qilgan kitoblar muhokama qilinadi. Imkoniyat bo‘lganda muhokamaga qo‘yilgan kitobning muallifi ishtirok qilsa yana yaxshi bo‘ladi. Tarix fani o‘qituvchisi tomonidan tuzilgan rejada ma‘ruza o‘qish, o‘quv konferensiyalarini o‘tkazish, ushbu konferensiyalarda mavzuning turli soha ijodkorlari bilan uchrashuvlar o‘tkazish, so‘ngra mavzuga oid kinofilm, pesalar ko‘rish, turli tanlovlar tashkil qilish, mavzuga doir san‘at ko‘rgazmalarini tashkil etish va boshqalarni kiritish mumkin.

Konferensiyalarda iqtidorli o‘quvchilarning ishtirokini ta‘minlash, ishtirokchilarni viktorina savollariga jalb etish kabi interfaol usullardan foydalanish ham yaxshi natijalarni beradi.

4. Sinfdan tashqari ishlarda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarning o‘rni

Ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni o‘tkazish – sinfdan tashqari ishlarning muhim tashkiliy shakli bo‘lib, ularning asosiy vazifasida ilmiy ma‘lumot berishdan tashqari harxil san‘at vositalari (badiiy

o'qish, musiqa, ashula, inssenirovkalar) yordamida o'quvchilarga *ibratli tarixiy voqealarning mazmuni, mohiyati va ahamiyati tushuntirish va ulardan ibrat olishni uqtirishdan iborat.*

Maktab ta'lim tizimi tajribasida tashkilotchi o'qituvchining ijodkorligi turli mavzulardagi tarixiy kechaning saviyasini ko'rsatadi. Tarixiy mavzulardagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va tarixiy kechalar oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, tarixiy kechalarda o'quvchilarni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga yordam berishi lozim.
- o'tkaziladigan har bir kecha o'quvchilarning ommaviy bayramiga aylansin, unda ishtirok etgan har bir o'quvchi o'zining qobiliyat va talantini namoyish qilsin.
- bu tadbirlarning maroqli o'tishi uchun mavzuga mos ma'ruzalar tinglash, she'rxonlik qilish, tarixiy voqealarning qatnashuvchilari bilan uchrashuvlar tashkil qilish mumkin. Har bir kecha albatta badiiy qism (qo'shiq, kuy, muzika, inssenirovka, viktorina o'yinlar yoki turli zakovat musobaqalari, konkurslar va shu kabilar) bilan to'ldirilishi maqsadga muvofiqdir.

Bunday ma'naviy – ma'rifiy tadbirlar o'quvchilar faolligini oshiradi, ularni tashkiliy ishlaridagi ishtiroki ijtimoiy foydali mehnatga o'rgatadi, jamoa oldidagi javobgarlik hissini oshiradi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, tarixiy kechalar mavzu jihatidan o'quv dasturining mazmuni bilan zamonamizning dolzarb masalalari, buyuk shaxslar, davlat arboblari va allomalarning tavallud sanalari bilan bog'liq xolda reja asosida o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

Tarixiy kechalar davrimizning dolzarb hisoblangan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotiga doir mavzularga ham bag'ishlanadi. Bu ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, tarixiy kecha va konferensiyalar sinfdan tashqari o'quv ishlarining muhim shakli bo'lib, o'quvchilarning darsda olgan bilimlarini to'ldirish, ularning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatini o'stirish, ijtimoiy faoliyatga tayyorlashning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

5. Madaniy merosimiz vorislarini tarbiyalashda muzey pedagogikasining o'rni

YUrtimizda barcha jabhalarda bo'lgan o'zgarishlar kabi muzeylarning faoliyatida ham yangi davrni boshladi. O'zbekiston Respublikasining Muzeylarni rivojlantirishga oid qator Farmon va qarorlari²², ayniqsa 2014 yil 11 iyuldagi «Davlat muzeylarining bolalar va ularning ota-onalariga ochiqligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarori²³ aynan muzey pedagogikasini, xususan muzeylarda bolalar bilan ishlash olib borishni yo'lga qo'yish bo'yicha chora-tadbirlar, dasturlashtirish ta'minotini ishlab chiqish kabi dolzarb vazifalarni qo'ydi.

Bolalar – madaniy merosimiz vorislari sifatida muzeyning doimiy ishtirokchilari hisoblanadilar. Muzey – nafaqat ma'naviy-ma'rifiy maskan, balki ko'rgazmali ashyolari bilan bilimi beruvchi katta quvvatga ega bo'lgan, tarbiya o'chog'i hamdir. SHu bois, ta'lim tizimida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligini ta'minlashda maktab jamoasi uchun sinfdan tashqari ishlarda muzeylarning ahamiyati kattadir. Buning uchun fanlarni oldindan muvofiqlashtirib rejaga kiritilgan amaliy mashg'ulotlar, ekspeditsiya – sayohatlar bilan mujassamlashtirgan holda o'tilishi mavzuni chuqur o'zlashtirilishi effektini orttiradi.

O'quvchi-yoshlar muzeylarning doimiy ishtirokchilari bo'lgani uchun ular bilan ishlash muzeysunoslikning doimiy muhim masalalaridan hisoblanib, buning uchun zamon talabiga mos turli tadbirlarni ham ishlab chiqish kerak bo'ladi. Bu borada J. Ismoilovanning «Muzey pedagogikasi: tajriba va izlanishlar»²⁴ nomli maqolasida quyidagi fikrlar bizga muzey pedagogikasini rivojlantirishga yordam beradi: XXI asr boshlariga kelib zamonaviy muzeylarda o'quvchi va o'quvchilar bilan ishlash jarayonlarining yangi yo'nalishlari rivojlana boshladi. Xatto maktabgacha tarbiya muassasalari bilan ham muloqot bo'yicha alohida tayyorgarlik kerak bo'ladi. Natijada tajribalar negizida pedagogika faninig yangi yo'nalishi - muzey pedagogikasi shakllandi. Muzey pedagogikasi o'zining turli xil usullari bilan turli yoshdagi insonlar qalbiga yo'l topishga katta yordam beradi. Muzey eksponatlarini namoyish qilishga qo'yilgan osori-atiqalar bolalar va turli yoshdagi o'quvchilar uchun juda sirli va

qiziqarlidir. Madaniy tarbiya beruvchi pedagog shu sehrli dunyoga olib kiruvchi yo'lboshchi vazifasini bajaradi.

Muzey pedagogikasi kichik yoshdagi tashrifchilar bilan ishlashning turli shakllarini: viktorina, konkurslar, rolli o'yinlar orqali olib borishni tavsiya qiladi. Bolalar uchun vazifa sifatida topshiriqlarni beradi:

1. Mening shajaram
2. Mening uyimdagi yodgorliklar
3. YUrtim bo'ylab sayohat
4. Mening qishlog'im v.x.z.

Muzey pedagogikasida ya'ni jaji tashrifchilar bilan ishlashda quyidagilarga amal qilish kerak:

1. YOdgorliklar bilan muloqot qilish ko'nikmalari va talablarini shakllantirish;
2. Estetik qoniqish va hayajonlanish hissini, qobiliyatini rivojlantirish;
3. YOshlarda tarixiy xotirani shakllantirish;
4. Boshqa madaniyatga nisbatan hurmat, tushunish hissini shakllantirish
5. Muzey ekspozitsiyasini o'ziga xos tilini o'zlashtira olish
6. Madaniy meros bilan aloqa qilish ko'nikmalar, muzeyda o'zini tutish, o'rganish, predmetlarni ko'rish ko'nikmasini hosil qilish.

Bugungi kunda muzeylar asosan yoshlarning qiziqishi va talabini qondiruvchi, tarix bilan yuzma-yuz turib erkin muloqotga kirishishga imkon beruvchi mo'jizaviy ma'rifiy maskanga aylanib bormoqda.

Muzeylar moddiy va ma'naviy yodgorliklar orqali ilmiy, tarixiy, madaniy qadriyatlarni yosh avlodga etkazuvchi markaz hisoblanadi. SHunday ekan, muzey pedagogikasida ekspozitlar, ko'rgazmalar ta'lim-tarbiyaviy quvvatga ega bo'lgan darsxona ekanligi jihatidan, o'sib kelayotgan turli yoshdagi tashrif buyuruvchilar uchun *dasturlashtirilgan holda yondashishni talab etadi*. YA'ni jaji tashrifchilar bilan tarixchilar, tadqiqotchilarga taqdim etilayotgan ma'lumotlar ularning yosh - psixologik jihatlariga to'la javob berishi maqsadga muvofiqdir.

XXI asr boshlariga kelib zamonaviy muzeylarda o'quvchi yoshlar bilan ish olib borish jarayonlarining yangi yo'nalishlari rivojlana boshladi. Xatto maktabgacha tarbiya muassasalari bilan ham muloqot bo'yicha alohidatayyorgarlik kerak bo'ladi. Natijada tajribalar negizida pedagogika fanining yangi yo'nalishi – muzey pedagogikasi shakllandi. Muzey pedagogikasi o'zining turli xil usullari bilan turli yoshdagi insonlar qalbiga yo'l topishga katta yordamberadi. Muzey ekspozitlarini namoyish qilishga qo'yilgan osori-atiqalar bolalar va turli yoshdagi o'quvchilar uchun juda sirli va qiziqarlidir. Madaniy tarbiya beruvchi pedagog shu sehrli dunyoga olib kiruvchi yo'lboshchi vazifasini bajaradi²⁵.

Muzey pedagogikasi haqida J.Ismoilovning «Muzey va jamiyat» nomli qo'llanmasida batafsil ma'lumot berilgan.

QUYIDAGI USULLAR YORDAMIDA O'QUVCHILARNING SINFDAN TASHQARI ISHLARINI TASHKIL ETIB BORING VA ULARNI GURUHLARDA MUHOKAMASINI YUZAGA KELITIRING

REFERAT YOZISHDA TAHLILY YONDOSHUV

Hozirgi vaqtda o'quvchilar referat yozishda asosan zaruriy betlar miqdorini manbalardan ko'chirib yozadilar yoki Internetdan oladilar. Intellektual passivlik va mexanitsizm ma'lumotni sezilmas darajada o'rganishga olib keladi.

Bunda axborotlar, ma'lumotlar bilan ishlash malakalari: uni sharhlash, yoritish (interpretatsiya), shaxsiy tajribalari asosida baholash va boshqalar umuman qo'llanilmaydi.

Tavsiya etiladigan yondoshuv

1. Ko‘rib chiqish uchun mavzu yoki muammo taklif etiladi
2. Zaruriy adabiyotlarni tanlash (tavsiyalar): kitoblar, jurnallar, Internetdagi saytlar va boshqalar.
3. Birinchi qoralama variantini tuzish:
 - Muallifning maqoladagi asosiy mazmuni yorituvchi 3-5 g‘oyalarini ajratish;
 - Har bir ajratilgan g‘oya asosida ikki qismli kundalik tuzish.

Муаллифнинг ғояси

Muallif g‘oyasini tasdiqlovchi 2-3 sitatalar

SHaxsiy sharhlovlar

(tahlil, interpretatsiya, fikrni ma’qullash yoki rad etish, ya’ni ma’lumotga shaxsiy munosabat va baho).

- Muallifning barcha g‘oyalarini yuqorida ko‘rsatilgandek ko‘rinishda ishlab chiqish.

4. Ikkinchi qoralama variantni tuzish.

5. Muallif g‘oyalaridan foydalanib, dalil(izoh)lar, nima uchun muallif bunday deb hisoblashi va shaxsiy sharhlaridan foydalanib tugallangan asl nusxani tuzish.

Ikki qismli kundalikning tarkibiy qismlari mantiqiy ko‘prik yordamida bog‘lanadi Mantiqiy ko‘priklar

MUALLIF QANDAY DEB HISOBLAYDI	O‘QUVCHINING SHARHLARI
Muallifning fikrichani aytib o‘tmoqchiman
Muallif qanday ta’kidlaydi.....	Mening nazarimda.....
Muallif deb ta’kidlaydi	Men bilan roziman
	Mening fikrimcha

Mazkur yondoshuvning afzalliklari quyidagilar bilan belgilanadi:

1. O‘quvchi barcha uchta ishni topshiradi, bu fikrlash faoliyati “laboratoriyasini”, uning rivojlanishini ko‘rishga imkon beradi.
2. Ko‘r-ko‘rona ko‘chirib olish imkoniyati bo‘lmaydi.
3. Axborot bilan tahliliy ishlashning malakalari shakllanadi.
4. O‘quvchilarning emotsional berilib ishlashi asosidagi faollik, maqsadga intilish yuqoriligi.

“AGAR MEN ...” ROLLI – ISHCHAN O‘YIN

Mazkur metod tarbiyaviy jarayondagi biror-bir muammoli vaziyatni har tomonlama, aniq tahlil etish va mazkur muammoni echimiga olib keluvchi turli omillarni taqqoslash imkonini beradi.

O‘quvchilarni mustaqil-ijodiy fikrlashga, faollikka undaydi, ma’lum muammoli vaziyatda to‘g‘ri harakat qilish hamda echimini topish ko‘nikmasini shakllantiradi.

O‘tkazish tartibi:

✓ o‘quvchilar kartochkalardan tanlab oladilar va qaysi harf qaysi harf yozilganiga qarab davraga – o‘z joylariga o‘tiradilar (misol uchun «O‘» harfini olganlar alohida joyga va h.k.).

✓ o‘quvchilar davrada (stollarsiz) o‘tiradilar va ularga aynan tarbiyaviy jarayonga tegishli bo‘lgan biror muammoli vaziyat og‘zaki, syujetli yoki film shaklida ko‘rsatiladi;

Mammoli vaziyat:

Abduvohid maktabdagi sinfdosh do‘sti Zafarning chiroyli ruchkasi borligini ko‘rdi va unga juda havasi keldi. O‘zicha: «qani endi menda ham shunday ruchka bo‘lsa edi...» deb o‘yladi. Darslar tugab hamma uyga ketar chog‘ida Zafar ruchkasini kimdir olganini aytdi, bolalar ichida Abduvohid yo‘q edi. Kunlar o‘tib sinfdagi o‘quvchilarning buyumlari tez-tez yo‘qola boshladi. O‘qituvchi bu ishlarning sababchisi kimligini bildi va bundan hamma xabar topdi. Bunday vaziyatda ...

SHunday so'ng o'quvchilarga tanlagan harflari asosida rollar taqsimlanadi. («O» harfdagilar - ota-ona, «S» - sinf rahbari, «M» - ma'naviy ishlar bo'yicha direktor muovini, «P» - psixolog) va har bir guruhga o'z rolidan kelib chiqib mazkur vaziyatda qanday chora-tadbirlar ko'rishlarini yozib chiqish topshiriladi.

- ✓ Guruhlar «Agar men...» deya o'z fikr-mulohazalarini bayon etadilar va navbati bilan yozgan munosabatlarini o'qib eshittiradilar.
- ✓ Barcha guruhlar fikri eshutilgach, o'zaro savol-javob boshlanadi, ya'ni shu rol egasi sifatida qaysidir rol ijrochisiga (masalan, ota-ona sinf rahbariga, psixolog ota-onaga) savol beradi. Savollarga javob berishda har kim o'z rolidan kelib chiqib javob beradi.
- ✓ Savol-javoblarga ajratilgan vaqt (10-12 minut) yakunlangach, o'qituvchi boshqaruvida guruh tomonidan umumiy xulosa va yaxlit echimga kelinadi.

O'qituvchiga maslahatlar:

- o'quvchilarni qay darajada o'z roliga kirishib ketishini nazorat qilish;
- bildirilayotgan fikr, savol-javoblarni muammo doirasidan chiqib ketmasligini kuzatish;
- o'zaro hurmatni tarbiyalash.

Mazkur metod biron o'quv muammosini echish uchun ham qo'llanilishi mumkin. Muammoli vaziyatning qo'yilishiga qarab rollar ham o'zgaradi.

«T» - CHIZMA

«T» – **chizma** – ma'lum bir masalani ikki tomonlama taqqoslash asosida tahlil qilish uslubidir. Juft (ijobiy / salbiy; ha / yo'q; rozi / qarshi kabi) javob yoki taqqoslashlarni qayd etuvchi serqirra yozma ishni tashkil etishda, ko'maklashuvchi usuldir. Misol uchun:

Taklif etilayotgan yangi model

Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari

Muammoli vazifalar usuli

O'quvchilarga muammoli vaziyatlarni va ularning faol bilish faoliyatini tashkil etishga asoslangan usuldir. U aniq vaziyatlarni tahlil qilish, baholash va keyinchalik qaror qabul qilishdan iborat. Bu usulning etakchi funksiyalari: a) o'rgatuvchi: bilimlarni dolzarblashtirishga asoslangan; b) rivojlantiruvchi: tahliliy tafakkurni, alohida dalillar orqasidagi hodisa va qonuniylikni ko'ra bilishni shakllantirish; v) tarbiyalovchi: kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish.

Muammoli vazifalardan foydalanish usuli bizga, materialni o'quvchilar uchun dolzarbroq qilish, nazariyani amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi. Muammoli vazifalar usuli o'quvchilarning mustaqil ishlarini murakkablashtirishga asoslangan: ilmiy tushunchalarni, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosida yotgan u yoki bu materialni chuqur mantiqiy tahlil qilishga asoslangan.

Muammoli vazifa hayotdan olingan faktlarni, ma'ruza va vaziyatni o'rganishdan, alohida insonlar yoki tashkilotlarning manfaatlarini ko'zlashdan iborat bo'lishi mumkin. Lekin, nima bo'lsa ham, vazifa biz o'quvchilarga taklif etgan muammo ko'rinishida bo'lishi lozim.

Munozarali hamkorlikdagi izlanish

Munozara turi. Muhokama qilinadigan mavzu oldindan o'qituvchi tomonidan tayyorlanib boriladi, maqsad o'rta tashlanayotgan mavzuni chuqur tahlil qilish va o'rganish. Alohida bir mavzu yoki mantdagi muammolar asosida yoki badiiy va shunga o'xshash matn turlarida o'tkaziladi.

1. Matndagi tasvirlangan voqealar zanjiri asosini tashkil qiluvchi savollar.
2. Matnning mazmuni va tasviriy tizimi asosidagi savollar.
3. Tarkibiy qismdagi keskin farqlari asosidagi savollar.
4. Savolar-takliflar (qarama-qarshi tomonini o'qish).
5. Ma'lum muammoga turli xil yondashuvdagi ikki matni birgalikda birlashtirishga undaydigan savollar.
6. Etika bo'yicha savollar.
7. Metafizik savollar.
8. Mustaqil bo'lmagan o'quvchilarni muallif tomonidan beriladigan baho va xulosa asosidagi savollar orqali oshkor qilish.

IV

KO'CHMA MASHG'ULOTLAR MAZMUNI



darslarni kuzatish va tahlil qilish, ilg'or pedagogik tajribalarga ega o'qituvchilar bilan hamkorlik ishlash maqsadida o'tkaziladi. Bu jarayonga umumiy o'rta ta'lim muassasasida ilg'or pedagogik tajribasiga ega tarix fan o'qituvchisi yoki tuman tarix fanni metodist o'qituvchisi jalb etiladi. Unda o'tkazilgan darsni tegishli mezonlar asosida tahlil qilish orqali o'qituvchilarning ilg'or pedagogik tajribalarini o'rganishadi va ko'nikmalar shakllanadi. Tinglovchilar darsni tahlildan so'ng ilg'or pedagogik tajribalar namunalari va amaliy metodik yordam ko'rsatish ham ko'zda tutiladi. Ko'chma mashg'ulotning ikkinchi qismda tarix fanidan ilg'or pedagogik tajribasini o'rganish va targ'ib qilish maqsadida seminar-trening tashkil etiladi.

Izoh: Tahlildan so'ng —Darsni tahlil qilish va sifatini baholash varaqasi ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlanishi ta'minlanadi.

DARSNI TAHLIL QILISH VA SIFATINI BAHOLASH VARAQASI

Kun: _____ **Sinf** _____ **O'qituvchi F.I.O:** _____

Fan: _____

Mavzu: _____

Darsda qatnashayotgan o'quvchilar soni: _____ **Mavzuga ajratilgan soat:** _____

Darsni baholash mezonlari

Tanlagan bahongizni dumaloqcha bilan belgilang

Baholash me'zonlari	"1" eng past baho, "5" eng yuqori baho				
	"1"	"2"	"3"	"4"	"5"
I. O'qituvchining darsga tayyorgarligi					

1	Dars rejasi, dars taqdimoti, dars ishlanmasi, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar va h.k.larni oldindan hozirlab qo'yilganligi					
2	Darsga oid ko'rgazmali qurollar, jihozlar va asboblardan o'rnida foydalanganligi					
II. Dars mazmuni						
3	Dars maqsadining to'g'ri belgilanganligi					
4	Mavzuning boshqa fanlar bilan bog'langanligi					
5	Dars mavzusini mustahkamlash uchun berilgan topshiriqlarning to'g'ri tanlanganligi					
6	O'qituvchining o'z fanini qanchalik mukammal bilishi					
III. Darsning uslubiy jihatlari						
7	O'qitishning turli usullaridan to'g'ri va o'rnida foydalanganligi					
	Darsning interfaollik darajasi (o'quvchilarni faollashtiradigan guruhlarda yoki mustaqil ishlashiga sharoitning qanchalik yaratilganligi)					
8	Dars vaqtining to'g'ri taqsimlanganligi					
9	O'quvchilarning darsdagi guruh yoki mustaqil ishining to'g'ri tashkil qilinganligi					
10	O'quv materiallarining tabaqalashtirilganlik darajasi (yaxshi va qiyin o'zlashtiradigan o'quvchilarga munosabat)					
IV. O'qituvchining pedagogik mahorati						
11	O'qituvchining dars mavzusini ravon tilda tushuntira olishi					
12	O'qituvchining darsda o'zini dadil tuta olishi					
13	Motivatsiya (o'quvchilarni ta'lim olishga undash) va uni rag'batlantirib borishi					
14	Dars davomida ijodiy, ta'limiy muhitni yarata olganligi					
15	O'quvchilarning faolligi					
V. Darsda darslik va boshqa qo'shimcha o'quv materiallaridan foydalanish						
16	Darsda darslikdan samarali foydalanish darajasi					
17	Qo'shimcha o'quv materiallaridan foydalanish darajasi					
VI. Darsda AKT va ta'limning boshqa vositalaridan foydalanish						
18	O'qituvchining proektor, mulg'timediya va boshqa texnik vositalardan foydalana olish darajasi					
19	O'qituvchining tayyorlagan taqdimot sifati yoki o'quv doskasidan samarali foydalana olishi	1	2	3	4	5
20	Taqdimot sifati yoki mavzu asosiy momentlarining doskaga yozib borilishi					
VII. Darsxonada yaratilgan ta'limiy muhit va munosabatlar						
21	O'qituvchining o'quvchilarga nisbatan munosabati: xushmuamalligi, til topa olishi					
22	O'quvchilarning bir-birlariga nisbatan munosabati: o'zaro yordam, hurmat, hamjihatlik					
23	O'quvchilarning o'qituvchiga nisbatan munosabati: hurmat, intizom, eshitish					
VIII. Baholash va darsga yakun yasash						
24	O'quvchilarning dars davomida bilim va ko'nikmalarining baholab borilishi					
25	Baholash topshiriqlarining dars maqsadidan kelib-chiqib					

	tuzilganligi					
26	Dars oxirida darsga yakun qilinishi					

Dars haqida maxsus fikrlar: _____

BAHOLOVCHI: Imzo _____ **F.I.SH** _____

Sana:

Eslatma: Darsga berilgan baho qo'yilgan baholarning o'rtachasidan iborat bo'ladi. Uni hisoblash uchun har bir bandlar bo'yicha qo'yilgan ballarning hammasi qo'shib, bandlar soni (27) ga bo'linadi:

O'rtacha baho = **Barcha bandlar bo'yicha qo'yilgan ballar yig'indisi**

Baholash diapazonlari: **Barcha bandlar soni (27)**
2,5 gacha - —qoniqarsiz

2,5 dan 3 gacha - —qoniqarli

3 dan 4 gacha - —yaxshi

4 dan 5 gacha - —a'lo

2-Ko'chma mashg'ulot: Tarix fanini o'rganilishida innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili va ahamiyati (4 soat ko'chma mashg'ulot).

Mashg'ulot maqsadi: tinglovchilarga tarix fanini o'qitishda bugungi kundagi tarix fani sohasidagi ilmiy yangiliklar, tendensiyalarni o'zgarishi va ilmiy-tadqiqot ishlari haqida nazariy va metodik ma'lumotni berish ko'zda tutiladi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: ko'chma mashg'ulot Toshkent shahridagi tarixiy muzey, tarixiy obida yoki arxiv materiallari saqlanilayotgan tashkilot (ilmiy-tekshirish instituti)da dars mashg'uloti o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonga ilmiy salohiyatli mutaxassis yoki ilmiy-tekshirish instituti katta ilmiy xodimlarni jalb etish, ularning ma'ruzalarini tinglash, o'zaro davra suhbatlarni tashkil etish orqali ularning qiziqtirgan mavzulari bo'yicha nazariy va metodik bilimlarni berish ham ko'zda tutiladi.

Mashg'ulot mazmuni:

Reja

1. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili
2. O'zbekiston tarixi fanidagi innovatsiyalarni joriy etilishning ahamiyati

Tayanch iboralar: tarix, innovatsiya, madaniyat, sivilizatsiya, islohot, davlatchilik, etnogenez, talim, fan, taraqqiyot, mustaqillik, tuzum.

1. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili

Mustaqillik yillarida tarixchi olimlar tomonidan katta ahamiyatga molik ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi, dolzarb mavzularni o'z ichiga olgan ko'plab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi, qator ilmiy adabiyot, monografiyalar nashr yuzini ko'rdi, fan yuzasidan tegishli muammolarni qamrab olgan, respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy anjumanlar tashkil qilindi, dunyoning nufuzli va etakchi ilmiy markazlari bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi, zamonaviy talablarga asoslangan qator yangi avlod o'quv adabiyotlari chop etildi.

Mazkur o'zgarish va yangiliklarni quyida olingan aniq dalil va mulohazalar bayoni orqali tahlil etish maqsadga muvofiq bo'lur edi. Arxeolog va antropolog olimlar tomonidan ibtidoiy jamoa tuzumi davri yuzasidan qator izlanishlar amalga oshirildi.

Farg'ona vodiysidagi qadimiylik darajasi 1 mln. yil bo'lmish Seleng'ur ibn Sino, Beruniy, Zamaxshariy va boshqa buyuk alloma, qomusiy olimlarning ilmiy merosi haqli ravishda umumbashariy mulkka aylangan. Sobiq sovet davrida ushbu olimlarning ilmiy merosiga bir tomonlama munosabat shakllangan bo'lsa, mustaqillik yillariga kelib ushbu buyuk zotlar faoliyati va ilmiy merosi har tomonlama chuqur o'rganilishi boshlandi. O'lkamiz shuningdek, islom dini taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan muhaddis, dinshunos olimlar, tasavvuf ilmi namoyondalari yurti ham hisoblanadi. Sovet mustabid davrida nomi unut darajasiga kelib qolgan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Hakim at-Termiziy, Imom al-Moturudiy, Abdulholiq G'ijduvoniy, Burhoniddin Marg'inoniy, Bahovuddin Naqshband, Qaffol SHoshiy, Xoja Axror va boshqa diniy arboblarning

tabarruk nomlarini tiklash, ularning asarlarini keng jamoatchilikka, xalqimizga tanishtirishda aynan sharqshunos-tarixchi olimlarning hissasi katta bo'ldi.

Zero ajdodlarimiz muqaddas dini bo'lmish islomning tom ma'nodagi ezgulik hamda kamolotga erishish yo'lidagi buyuk ma'naviy qudratini namoyon etishda yuqorida nomi zikr etilgan olimlar kata jonbozlik ko'rsatishdi. Alohida olingan davlat arboblari va sarkardalar faoliyati haqida so'z ketgandi Jaloliddin Manguberдини alohida ta'kidlash lozim. Aynan mustaqillik yillarida nomi tarix zarvaraqalariga qaytarilgan ushbu buyuk sarkardaning faoliyati to'g'risida qator adabiyotlar nashr etildi.

Uning 800 yillik tavallud yoshiga bag'ishlangan 1998 yilgi xalqaro anjumanida qayd etilganidek, Jaloliddin Manguberдинing faoliyati, Vatan ozodligi yo'lidagi mashaqqatli harakatlari qator SHarq mamlakatlari tarixshunosligida ham o'z o'rnini topgan. Mazkur davrga oid muhim tarixiy manba bo'lmish tarixchi an-Nasaviyning "Jaloliddin Manguberдинing hayot faoliyati" asarini hamda mashhur sharqshunos olim Z.Bunyodovning mavzuga oid kitobini o'zbek tiliga tarjima qilinishi tadqiqotchilar uchun kata izlanishlar imkoniyatini yaratdi.

Mustaqillik yillarida o'zbek tarixshunosligida ro'y bergan eng muhim o'zgarish, ya'ni tarixiy adolatni qaror topishi – bu buyuk Sohibqiron Amir Temur pok nomini tiklanishi bo'ldi. YUrtboshimiz ta'rifi bilan aytganda "... tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo" nomi butun jahonga ma'lum va mashhur bo'lgan buyuk shaxslar qatoridan joy olgan. XX asr 90-yillari o'zbek tarixshunosligida Amir Temur davri tarixi, davlat boshqaruvi xususida ko'plab ahamiyatga molik tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Ilk bora "Temur tuzuklari" kitobi o'zbek va boshqa tillarga o'girildi, shu davrga oid qator tarixiy manbalar, jumladan Nizomiddin SHomiy, SHarafuddin Ali YAzdiy, ibn Arabshoh, Rui Gonsales de Klavixo va boshqalarning asarlari tarjima qilindi, Amir Temurning O'rta Osiyo va jahon tarixida tutgan ulkan roli va xizmati ochib berildi, Amir Temurning millatimiz faxri va kahramonligi obrazi darsliklardan joy oldi, Amir Temur davlati ichki va tashqi siyosati xususida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi va hakozi.

1996 yil "Amir Temur yili"da Parijda va Toshkentda o'tkazilgan xalqaro ilmiy anjumandarda bashariyat tarixida buyuk Sohibqiron tutgan o'rni mavzusi qator taniqli o'zbek va jahon olimlarining chiqishlarida o'z aksini topdi. Amir Temur shaxsi, faoliyati, u barpo etgan davlat tarixi XXI asrda nafaqat SHarq, balki G'arb dunyosi, ilmiy jamoatchiligida ham ulkan qiziqishga sabab bo'lmoqda.

Istiqlol yillarida Amir Temurning o'g'li, deyarli qirq yil Temuriylar saltanatida zukkolik va oqillik bilan hukm surgan SHohruh Mirzoning faoliyati ilk bora ilmiy jihatdan o'rganildi. SHohruh Mirzoning Temuriylar saltanati birligini saqlab qolishdagi o'rni va roli ochib berildi. G'iyosiddin Naqqosh, Abdurazzoq Samarqandiy singari diplomat va sayohatchilarning asarlari tarjima qilindi. Holbuki SHohruh Mirzoning faoliyati xususida mustaqillik davriga qadar alohida olingan tadqiqot ishi amalga oshirilmagan edi.

"...Tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo'lida ulkan shijoat va matonat ko'rsatgan buyuk olim va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek (Muhammad Tarag'ay)ning faoliyati xususida vaqtida ko'plab kitoblar yozilgan edi. Lekin, faqat istiqlol sharofati ila Mirzo Ulug'bekning faoliyati va ilmiy merosi chuqur va har tomonlama o'rganilishi boshlandi. 1994 yil "Mirzo Ulug'bek" yili da YUNESKO tashabbusi bilan Parijda va Toshkentda o'rkazilgan ilmiy anjumanlarda Mirzo Ulug'bek davri tarixi yuzasidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirila boshlanganligi ayon bo'ldi. Ularda Mirzo Ulug'bekning davlat arbobi va madaniyat homiysi sifatidagi tarixdagi o'rni va roli ochib berildi. Ham shohlik ham olimlikni o'zida yuksak salohiyat ila mujassam qila olgan ulug' zot faoliyati xususida nafaqat tarixchi olimlar, balki tabiiy fan vakillari ham qator tadqiqotlarni amalga oshirdilar. Mazkur holat 2009 yil Samarqandda o'tkazilgan xalqaro ilmiy anjumanda ham to'liq o'z aksini topdi.

XVI- XIX asrlar I – yarmi o'zbek xonliklari hukmronligi davri ko'p jihatdan jahon sivilizatsiyasidan uzoqlashish, ilm-fan, texnika yutuqlaridan bebahra qolish, hududning ko'p holda o'zaro nizo va urushlar domiga tortilishi o'lkada qoloqlik, xurofat, parokandalikning kuchayishiga olib keldi. Bu davr yuqoridagi holatlar bilan xarakterlangan bo'lib, uch asrlik davrning ko'pgina qismlari e'tibor va tahlildan chetdan qoldi, ko'pgina masalalar o'rganilmadi, qoloqlik sabablari tahlil etilmadi va hokazo. Mustaqillik davriga kelib masalaning muammoviy jihatlarini echish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ushbu davr yuzasidan ham tegishli tadqiqot ishlari amalga oshirila boshlandi.

Xususan ilk bora davlat boshqaruvi xonliklarning Evropa va SHarq mamlakatlari bilan munosabatlari, shaharlar taraqqiyoti, savdo munosabatlari, harbiy ish va harbiy san'at tarixi va boshqa

ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot tarixiga oid masalalar yuzasidan tadqiqot ishlari amalga oshirildi, ko‘plab tarixiy adabiyotlar chop etildi, tarixiy manbalar tarjima qilindi.

XIX asr II- yarmi – XX asr boshlari podsho Rossiyasi imperiyasi mustamlakasi bo‘lmish – Turkiston o‘lkasi tarixida ham ma‘lum bo‘shliq, soxtalashtirilgan sahifalar mavjud bo‘lgan. Mustaqillik yillarida quyidagi masalalar ilk bora o‘rganilib, keng ilmiy jamoatchilik hukmiga havola etildi: o‘lkada ro‘y bergan milliy-ozodlik harakatlari va ularning yo‘lboshchilari faoliyati, jadidchilik harakati, jadid ma‘rifatparvarlarining ziyo tarqatish yo‘lidagi jonbozligi, sa‘y-harakatlari, agrar sohada paxta yakkahokimligining joriy etilishi, mustamlaka ma‘muriyatining harbiy-zo‘ravonlik boshqaruvi va uning oqibatlari, ta‘lim tizimi, XIX-asr oxirlari XX-asr boshlaridagi Buxoro amirligi va Xiva xonligi tarixi, ichki siyosat va Rossiya imperiyasi bilan munosabatlar, mustamlaka ma‘muriyatning ko‘chirish siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayot bobidagi boshqa turli masalalar. YUqorida qayd qilingan masalalar ko‘plab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalariga tadqiqot ob‘ekti sifatida tanlab olinib, fanda o‘z echimini topgan mavzular sirasiga kirgan. SHuningdek, ko‘plab anjuman, chiqishlarda, chop etilgan monografiya, o‘quv adabiyotlarida ham ushbu masala yoritib berilgan.

Insoniyat tarixida ziddiyatli va murakkab jarayonlar, tarixiy voqeliklarga boy bo‘lmish XX asr tarixi mustabid sovet davrida o‘ta siyosiyashtirib, tegishli mafkura qobig‘iga o‘ralgan, tuzum ma‘naviy quroliga aylantirilgan edi. Tabiiyki, 70 yildan ziyodroq hukm surgan mustabid sovet davri tarixi, ilmiy adabiyotlarida mazkur holat o‘z aksini topgan edi.

O‘zbekistonning sovet mustabid hukmronligi davri tarixini mustaqillik yillarida zamonaviy nazariy-konseptual, metodik yondashuvlar asosida qayta ilmiy va xolisona ravishda yoritilish jarayoni yo‘lga qo‘yildi.

Jumladan, ilk bora vatan tarixshunosligida sovet mustabid tuzumiga qarshi qurolli harakat masalasi tadqiq etildi, sovet davlatining O‘zbekistonda yuritgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy – ma‘rifiy siyosatining bir tomonlama salbiy xarakteri ochib berildi, o‘lkamizda amalga oshirilgan “madaniy inqilob”, “Hujum” harakatiga yangicha baho berildi, O‘zbekistonni paxta xom-ashyo bazasiga aylanishi, uning asoratli oqibatlari, sovet davrida tarixiy-demografik holat, inqiroziy vaziyat, ekologik fojea, ijtimoiy hayotdagi muammolar va boshqalar ochib berildi.

Mamlakatimiz tarixining ochilmagan sahifalarini o‘rganishda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning 1999 yil 12 maydagi mustabid tuzum davrida Vatan ozodligi va mustaqilligi yo‘lida qatag‘onga uchrab halok bo‘lgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risidagi qarori katta rol o‘ynadi. Ushbu qaror o‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etib, o‘tmishda ozodlik va erk uchun kurashganlarning og‘ir qisimatlarini bayon etishni kun tartibiga qo‘ygan edi. Sovet qatag‘onlik siyosati, O‘zbekistonda uning o‘zgacha, yanada chuqur va shavqatsiz uslubi, taniqli davlat arboblari, fan, adabiyot, madaniyat vakillarining xalq erki, Vatan ravnaqi yo‘lidagi og‘ir taqdir yo‘llari tarixchi olimlarni yangi izlanish va tadqiqotlarga safarbar bo‘lishga turtki bo‘ldi. YUqori fuqarolik pozitsiyasi va vatanparvarlik tuyg‘usi bilan hamda tegishli ilmiy salohiyatni uyg‘unlashtira olgan tarixchilar bu borada salmoqli ishlarni amalga oshirdilar. Sovetlarning nafaqat qatag‘onlik siyosati, balki butun sovet davrida kechgan quloqlashtirish, kollektivlashtirish va o‘zbek qishlog‘i fojeasi, zo‘ravonlik bilan olib borilgan ko‘chirish siyosati, XX asr 80-yillaridagi markazning “o‘zbek ishi”, “paxta ishi” deb nomlangan soxta mash‘um jarayonlari ham tadqiqot ob‘ektlari safidan joy oldi. Qayd qilingan masalalar yuzasidan ko‘plab dissertatsiya himoyalari amalga oshirildi, ilmiy anjumanlarda ma‘ruzalar qilindi, ilmiy risola, adabiyot, monografiyalar nashr etildi.

Natijada ko‘plab voqelik va jarayonlarga zamonaviy tarzda ilmiy va xolis baho berildi.

Ma‘naviyatning o‘zagi bo‘lmish xalq xotirasi, o‘tmish voqeligini anglashga bo‘lgan extiyoy yildan-yilga oshib bormoqda. Zero, XXI-informatsion texnologiyalar asri davrida innovatsion g‘oya va yondashuvlar tarix faniga bo‘lgan munosabatni yanada yuqori darajaga ko‘tarmoqda.

2. O‘zbekiston tarixi fanidagi innovatsiyalarni joriy etilishining ahamiyati

Tarix fani ijtimoiy taraqqiyot va o‘tmishga oid har xil voqea-hodisalarning izchil rivojlanishi, ularning qachon, qaerda, qanday holatda yuz berganligi, insoniyatning paydo bo‘lishi va uning tadrijiy-evolyusion rivojlanish jarayoni va boshqalarni o‘rganadi. SHuningdek, O‘zbekiston tarixi umumjahon-insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanib, u olamshumul voqeliklarga juda boy. O‘zbekiston tarixi fani mana shu voqeliklarni boshidan kechirgan qadim va yaqin ajdodlarimizning hayoti qanday bo‘lganligini, jahon tarixi taraqqiyotiga qo‘shgan hissalarini xolisona va haqqoniy o‘rganadi.

Ta'kidlash lozimki, tarixiy, milliy-madaniy, axloqiy va diniy qadriyatlarni o'rganish, tiklash va yangi asoslarda rivojlantirish – yoshlar, ta'lim va tarbiya tizimidagi talabalarning dunyoqarashida milliy g'urur hamda o'zlikni anglash, ular ongida vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini yanada mustahkamlash bugungi davr talabidir. Aynan shuning uchun ham ta'lim tizimida «O'zbekiston tarixi» fanini har tomonlama hamda chuqur o'qitish maqsadida yangi avlod o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalar va darsliklar yaratilib, bu boradagi ilmiy tadqiqotlar natijalari o'quv jarayoniga joriy etilmoqda.

Tarixiy haqiqat to'la ro'yobga chiqishi, haqqoniy tarix yozilishida tarix fanining predmeti va ob'ektini to'g'ri belgilanishi o'ta muhim ahamiyatga ega.

CHunki, O'zbekiston tarixi fani uchun ham boshqa barcha fanlar qatori predmet va ob'ekt masalasi asosiy masala bo'lib hisoblanadi. Zero, fan uning o'rganish predmeti va ob'ekti aniq bo'lmasa, uning oldidagi vazifa noaniq bo'lib, maqsadga erishish mushkul bo'ladi. Bunday holat o'quv jarayoni samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston tarixi fani boshqa ijtimoiyot va tabiat fanlaridan farqli o'laroq mustaqil fan. SHuningdek, u barcha fanlar orasida alohida o'z o'rni va mavqega ega. U barcha fanlar tarixini ham o'z ichiga olgan holda ularning rivojiga katta ta'sir etadi. Bu uning o'rganish predmeti va ob'ekti hamda vazifasida to'la namoyon bo'lmog'i kerak. Tarix fani o'z xususiyatiga ko'ra, **birinchidan**, o'zining butun diqqat e'tiborini faqat o'tmishga qaratadi, undan saboq beradi, xulosa chiqaradi, ajdodlarimizning moziyda qolgan hayot tarzini, ular yaratgan moddiy-madaniy, ma'naviy-mafkuraviy qadriyatlarni o'rganadi.

Ikkinchidan, O'zbekiston tarixi fani boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan ancha aniq fandir. U matematika usulidan keng foydalanadi. Tarixiy voqea va hodisalar qat'iy aniqlikda, davriy ketma-ketlik xronologik asosda o'rganiladi. SHuningdek, tarixiy voqea va hodisalar, hujjat va dalillarning haqiqiy va haqiqiy emasligi, ular qachon, qaerda, qanday tarixiy muhit va sharoitlarda tarixan voqe' bo'lganligi aniqlanadi.

Va nihoyat, bo'lib o'tgan voqeliklarning aniq sabab va oqibatlarini, shu bilan birga, ularning aniq shakl-shamoyillari va holati aniqlanadi.

Uchinchidan, O'zbekiston tarixi fani mamlakatimiz o'tmishidagi iqtisodiy-ijtimoiy hayotning ahvoli, rivojlanishi va tanazzulining sabab hamda oqibatlarini o'rganadi, ulardan kelajak uchun saboq va xulosa chiqaradi. Bu esa kelajak avlodlar uchun dasturilamal bo'ladi.

To'rtinchidan, O'zbekiston tarixi fani ko'p qirralik va xilma-xillik xususiyatiga ega. U jamiyat taraqqiyoti va inqirozlarining faqat bir tomoninigina emas, balki jamiyatning hamma tomonlarini uzviy o'zaro bog'liqlikda, bir butunlikda o'rganadi. O'zbekiston tarixi fani, O'zbekistonning o'tmishidagi va hozirgi hududida eng qadimgi davrlardan to hozirgacha kechgan voqeliklar, insoniyat hayoti, tabiat va jamiyat taraqqiyoti hamda tanazzulini tahlil qiladi. Uning o'rganish predmetiga esa, mana shu makondagi jamiki xilma-xil voqea va hodisalar, ulardagi umumiy aloqadorlik va yaxlit birlik hamda qonuniyatlar hodisasi va jarayonlar, umuman, xalq va insonning yaratuvchanlik faoliyati kiradi. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, butun bir xalqlar, elatlar, millatlar va davlatlarga taaluqli bo'lgan murakkab ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixda o'z aksini topadi. Tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, inson har qanday tarixning predmeti hisoblanadi. Har bir voqea, hodisa inson (yoki uning bir guruhi-xalq) hatti-harakati, uning ko'zlagan ma'lum maqsadga intilishi jarayonida sodir bo'ladi. O'zbekiston tarixi fanining o'rganish makoni-ob'ekti O'zbekistonning tarixidir.

Tarixiy ob'ekt (makon)ga nisbatan O'zbekiston tarixi fanining maqsadi, vazifasi, yo'nalishi va harakat (faoliyat) doirasi yoki chegarasi belgilanadi. Ma'lum bir ma'noda ob'ekt bilan predmet bir-biriga juda yaqin tushuncha bo'lsa-da, ular tarix fanida tutgan o'rni va vazifasi bilan farqlanadi.

Ob'ekt aniq tarixiy davr, makon, zamon va geografik mintaqaviy chegaralar, ma'lum bir xalq, millat, mamlakat tarixi bilan bog'liq bo'lib, ma'lum hudud doirasidagi voqea va hodisalarning bir butun va yaxlitlikda o'z ichiga oladi. Predmet esa mana shu bir butun ob'ekt ichidagi aniq siyosiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan iborat bo'ladi.

O'zbekiston tarixi fani fan sifatida ijtimoiy-siyosiy, umuminsoniy fan bo'lib, inson va millat o'z o'tmishini bilishi, o'zligini anglashi hamda kelajagini belgilashida asosiy dasturilamal hisoblanadi. SHu bilan birga, u ijtimoiy-siyosiy hayot sohasidagi yagona fan ham emas.

Jamiyat, insoniyat va tabiatning o'tmishini o'rganuvchi boshqa soha fanlari ham bor. Masalan, arxeologiya, etnologiya, geologiya, antropologiya, demografiya, madaniyat, iqtisodiyot va boshqa fanlar shular jumlasidandir. Ammo boshqa fanlarning hammasi ham, tabiat, jamiyat ham avvalo, katta tarixda aks etadi. Soha tarixi fanlari ham tarix fanining o'rganish ob'ekti va predmeti hisoblanadi.

Tarix fani boshqa, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlari bilan mustahkam va uzviy aloqa birligida rivojlanadi. SHuning uchun ham, tarixchilar falsafani, adabiyot va tilni, dinshunoslikni va boshqa fanlarni bilmay turib, haqqoniy tarixni to'la yoritib berolmaydilar.

SHuni ham aytish lozimki, tarix bilan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rganish ob'ekti bitta ya'ni jamiyatdir. Predmeti esa inson va tabiatdir. SHuning uchun ham boshqa fanlar tarix fani taraqqiyotiga, tarixiy haqiqatlarning ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. SHuningdek, tarix fani ham boshqa soha fanlari

rivojiga katta ta'sir etadi. Ammo, shuni ham ta'kidlash joizki, tarix boshqa fanlarni, shuningdek ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham tarixidir. CHunki boshqa fanlarning hammasi ham, tarix mahsulidir.

Qisqa qilib aytganda, tarix fani ya'ni, Vatan tarixi-millat va Vatan kelajagining ravnaq topishida muhim ahamiyatga ega. Masalaning mohiyati shundaki, **birinchidan**, ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishi har jihatdan tarix fanining naqadar haqqoniy bo'lishiga bog'liqdir. CHunki ular tarix bilan bevosita bog'liq. **Ikkinchidan**, Tarix falsafasi qanchalik to'la va ravon yuzaga chiqsa, boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning mazmun va mohiyati hamda ta'sirchanligi ham shuncha yuksak darajada bo'ladi.

Tarix falsafasi deganda, tarix ya'ni o'tmish tajribasi va sabog'idan to'g'ri xulosa chiqara olish tushuniladi. Boshqacha aytganda, o'tmish-tarixga qarab, kelajakni his etish, ko'ra bilish va to'g'ri belgilay olish ham tarix falsafasini anglashni bildiradi.

Tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, insonning shaxsiy manfaat va ehtiyojlari, qolaversa, uning qobiliyati, iste'dodi, voqealarni teran idrok etishi tarix falsafasini anglab etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu nuqtai nazardan olib qaraganda, inson aql-idroki, uning tafakkur darajasi, hayotiy falsafasi, jamiyat taraqqiyoti yo'lidagi barcha say'i-harakatlari va intilishlari ma'lum millat va jamiyat mentalitetini belgilab beradi. Mana shu mentalitet millat yoki halqning umummadaniy-ma'naviy darajasi, aql-idroki va tafakkur maydonining salohiyatiga qarab o'ziga xos mazmun-mohiyat kasb etadi. Tarix esa, ana shu o'ta murakkab, o'ta ziddiyatli, shu bilan birga nihoyatda qudratli ruhiyat orqali, faoliyat orqali xotiraga aylanadi.

Nazorat savollar:

1. Tarix fanida amalga oshirilgan qanday muhim innovatsiyalardan habardorsiz?
2. Tarixda fan va talim uyg'unligi nimalarda aks etishi kerak?
3. Mamlakatimizda innovatsion loyiha va g'oyalarni amalga oshirish borasida qabul qilingan qaysi

VI

KEYSLAR TO'PLAMI



1. Keys. Dars uning turlari va tuzilishi masalalariga tushirialar

Дарсни ташкил этувчи унсурлар

✓ Ташкилий қисм,
такрорлаш –

Давомат, талабалар диққатини дарсга қаратиш, ўтилган материал бўйича индивидуал ва фронтал сўров

✓ Янги мавзуни
тушунтириш –

Янги материални тушунтириш ва ўзлаштиришга қаратилган методик амаллар

✓ Мавзуни мустаҳкамлаш-

Янги материални мустаҳкамлашга қаратилган методик амаллар

✓ Хулоса. Талабалар
билимини баҳолаш -

Хулосалаш ва талабалар билимини назорат қилиш

Дарсни ташкил этувчи унсурларнинг вақт тақсимотини кўрсатадилар. Масалан:

- Ташкилий қисм ва такрорлаш – **10%**
- Янги мавзуни тушунтириш – **50%**
- Мавзуни мустаҳкамлаш – **30%**
- Хулоса. Талабалар билимини баҳолаш – **10%**



1-guruh: Yangi bilimlar berish darsi bo'yicha quyidagi jadvalni to'ldirish. (Aniq misollar keltiring).

2-guruh: O'tilgan mavzuni nazorat qilib baholash darsi bo'yicha jadvalni to'ldirish. (Aniq misollar keltiring).

3-guruh: Takrorlash darslarini tashkil etish bo'yicha jadvalni to'ldirish. (Aniq misollar keltiring).

4-guruh: Aralash (kombinatsion) darslar bo'yicha jadvalni to'ldirish. (Aniq misollar keltiring).

2-Keys. Ekspert qog'ozlari – topshiriqlar.

Tarix darsliklari va ularga qo'yiladigan talablar. Tarix darsliklaridagi muammolar ko'rsatib bering? Darslikni metodik jihatdan qanday to'ldirish, boyitish mumkin?

1-guruh: 6-sinf tarix darsligining matn va matndan tashqari tarkibidagi komponentlarini rivojlantirish bo'yicha qanday uslubiy tavsiyalarni bera olasiz? (Aniq misollar keltiring).

2-guruh: 7-sinf tarix darsligining matn va matndan tashqari tarkibidagi komponentlarini rivojlantirish bo'yicha qanday uslubiy tavsiyalarni bera olasiz? (Aniq misollar keltiring).

3-guruh: 8-sinf tarix darsligining matn va matndan tashqari tarkibidagi komponentlarini rivojlantirish bo'yicha qanday uslubiy tavsiyalarni bera olasiz? (Aniq misollar keltiring).

4-guruh: 9-sinf tarix darsligining matn va matndan tashqari tarkibidagi komponentlarini rivojlantirish bo'yicha qanday uslubiy tavsiyalarni bera olasiz? (Aniq misollar keltiring).

5-guruh: 10-sinf tarix darsligining matn va matndan tashqari tarkibidagi komponentlarini rivojlantirish bo'yicha qanday uslubiy tavsiyalarni bera olasiz? (Aniq misollar keltiring).

3-Keys. Tarix o'qitishning metodlari va ularning klassifikatsiyasi
Mavzu bo'yicha o'quv topshiriqlar:

I-guruh: Savol: Og'zaki bayon metodi mazmunini ayting

- 1) Og'zaki bayon metodi va uning usullarini yoritib bering;
- 2) Og'zaki bayon metodi vositalarini ko'rsatib bering.

II-guruh: Savol: Ko'rsatmali metod mazmunini ayting


- 1) Ko'rsatmali metod va uning usullarini yoritib bering;
- 2) Ko'rsatmali metod vositalarini ko'rsatib bering.

III-guruh: Savol: Amaliy metod mazmunini ayting

- 1) Amaliy metod va uning usullarini yoritib bering;
- 2) Amaliy metod vositalarini ko'rsatib bering.



**MUSTAQIL TA'LIM
MAVZULARI**

- 
3. Tarix bo'yicha sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar (ssenariy tuzish, to'garak rejasini tuzish)
 4. Jahon tarixi darsliklarining uslubiy tahlili
 5. O'zbekiston tarixi darsliklarining uslubiy tahlili
 6. Tarix o'qitishning metodlari va ularning klassifikatsiyasi
 7. Tarix darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish
 8. Tarix darslarida keys – stadi texnologiyasidan foydalanish
 9. Tarix darslariga loyiha texnologiyasini joriy etish
 10. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan tarix darslarida foydalanish
 11. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning vujudga kelishi tarixi.
 12. Tarix ta'limida kompetensiyaviy yondashuv va kompetensiya tushunchasi.
 13. Tarix fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartning maqsad va vazifalari, asosiy prinsiplari.
 14. Interfaol metodlar va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish.
 15. Amaliy o'yin va muammoli ta'lim texnologiyalari.
 16. Tarix ta'limida interfaol usullarni qo'llanilishi.
 17. Tarix darslariga zamonaviy ta'lim vositalarini joriy etish.
 18. Tarix darslarida yordamchi vositalar (jadval, chizma, diagramma)ni joriy etish.

19. Tarix darslarida texnik vositalar (flip-chart, kompyuter, elektron doska-Trace Board, U-Board) ni joriy etish.
20. Tarix darslarida o'quv-uslubiy vositalar (darslik, xrestomatiya va boshqa o'quv qo'llanmalar) yordamida interfaol mashg'ulotlarni o'tkazish.
21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlaridagi jamiyat rivoji hamda ta'lim-tarbiya masalalariga oid konseptual g'oyalardan tarix darslarida foydalanish.
22. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshiriladigan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'rifiy, ma'naviy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini tarix darslari tarkibiga singdirish masalalari.
23. Tarix fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va o'qitish metodlari
24. Tarix fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartning maqsad va vazifalari, asosiy prinsiplari, tarkibiy qismlari.
25. Tarixdan DTS talablarini kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish.
26. Tarix darslarida ta'lim-tarbiya jarayonlardagi me'yoriy-huquqiy hujjatlari sifatida qonun hujjatlarini tahlil etish.
27. O'zbekistonning eng yangi tarixi oid yangi bilimlarni o'z darslarida qo'llash metodikasi.
28. Dunyo dinlari tarixi fanini o'qitishdagi xuquqiy-me'yoriy hujjatlar, manba va adabiyotlar.
29. O'zbek xalqining etnik tarixi va etnogenezi masalari.
30. O'zbekiston tarixining fan sifatidagi o'rni, fanni o'qitishning maqsad va vazifalari.
31. O'zbekistonda vijdon erkinligining e'lon qilinishi va diniy bag'rikenglik (tolerantlik).
32. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarining maktablarda tarix fanini o'qitishdagi ahamiyati.
33. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "YUksak ma'naviyat - engilmas kuch" nomli asarida islom dini, tasavvuf va ularning mohiyatini yoritishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.
34. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlari tarix fanlarini o'qitishda va ta'lim – tarbiya samaradorligini oshirishning muhim omili.
35. Mustaqillik davrida O'zbekiston tarixini o'rganishda yangicha yondashuvlar.
36. Markaziy Osiyo allomalarining islom dini rivojiga qo'shgan hissasining yoritilishi va bu fikrlarning maktablarda tarix va "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini o'qitishdagi ahamiyati.
37. Tarix va "Dunyo dinlari tarixi" fanlari buyicha mavjud darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ilmiy adabiyotlar taxlili.
38. "Avesto"-O'rta Osiyo xalqlari qadimgi tarixi haqidagi muhim manba sifatida.
39. O'zbekistonning tarixiy-me'moriy obidalari.
40. Tarix darslarini o'qitishda kitobat, xattotlik, musavvirlik va tasviriy san'atning o'rni.
41. Tarix darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish.
42. O'rta umumiy ta'lim maktablarida O'zbekiston tarixi fanini o'qitilishi va uning ta'lim-tarbiyaviy vazifalari.
43. O'rta umumiy ta'lim maktablarida Jahon tarixi fanini o'qitilishi va uning ta'lim-tarbiyaviy vazifasi.
44. O'zbekistonda davlatning din va diniy tashkilotlar bilan munosabati.
45. Tarix darslarida O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish.
46. O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari.
47. O'quvchilarda bilim, ko'nikma va malaka hamda amaliy faoliyat usullarini shaxsiy tajribaga aylantirish imkoniyatini oshirish masalalari.
48. Tarixiy illyustratsiyalar tuzish.
49. O'quvchilarga davlatlarning tashkil topishi, hududi, aholisi va boshqaruv tartiblarini tushuntirish metodikasi.

50. O‘zbek xalqining madaniyati, ma’naviyati, dunyoviy va diniy qadriyatlarining ravnaq topishi, ularning jahon sivilizatsiyasiga ta’siri.



GLOSSARIY



ANDRAGOGIKA	(grekcha andros - erkak, ago - etaklayman) zamonaviy pedagogika fanining alohida yo'nalishi bo'lib, kattalarni o'qitish va tarbiyalashning nazariy va amaliy muammolarini o'rganadi. "Andragogika" termini ilmga birinchi bor 1833 yilda nemis pedagogikasi tarixchisi A.Kapp tomonidan kiritilgan
ALGORITM	(algorithmi, algorismus – Al-Xorazmiyning lotincha talaffuzdagi ismidan) - hisoblash va boshqa masalalarni echiqda qanday va qaysi ketma-ketlikda natija olinishini aniq belgilovchi qoidalar majmui.
ANALIZ	(grekcha analysis - ajratish, parchalash, bo'lish) - ob'ekt (xodisa, fakt, voqea va h.k.) ni tarkibiy qism (unsur) larga parchalab ko'rish, o'rganish. Analiz butunning unsurlari orasidagi asosiy va ikkinchi darajali bog'lanishlar va vazifalarini aniqlash imkonini beradi.
ASSOTSIATSIYA (TASAVVUR)	(lot. associatio - birlashtirish), ikki yoki undan ko'proq psixik hosilalar (hissiyotlar, tasavvurlar, tuyg'ular va b.) orasidagi ma'lum bir holatlarda vujudga keladigan bog'lanishlar. Assotsiatsiyalar shakllar va paydo bo'lish usullar bo'yicha ajratiladi: makonda yoki zamonda, o'xshashligi yoki farqlanishida va h.k.
BILIM	borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi. Ob'ektiv reallikning inson ongida adekvat aks ettirilishi (tasavvur, tushuncha, mulohaza, nazariyalar). U kundalik, ilmiy, empirik, nazariy bilimlarga ajraladi.
BILISH	ob'ektiv borlikning ongda aks etishining oliy shakli, haqiqiy bilimlar hosil qilish jarayoni. Bilish quyidagi darajalarda bo'ladi: Missiy bilish - sezgilar, idrok, tasavvur orqali. Ratsional bilish-tushunchalar, mulohazalar, aqliy hulosalardan o'tib nazariyalarda o'rin oladi.
VASIYLIK KENGASHLARI	jamoatchilik kengashlari, ta'lim muassasalarini boshqarishda jamoatchilikning faol ishtirokini ta'minlashni ko'zda tutgan holda, ota-onalar, o'qituvchilar, mahalla faollari, homiyilar va boshqa jamoatchilik vakillari tashabbusi bilan ta'lim muassasasida tuziladi.
DARS ISHLANMASI, ISHLANMA	(lot. conspectus - obzor) - qisqa bayon, biror mazmundagi ma'ruzaning bayoni (Katta qomusiy lug'at). Dars ishlanmasi dars rejasi va darsning borishi bo'yicha to'piq bayondan tarkib topadi. Ishlanmada har bir faoliyat, unga ajratilgan vaqt, amalga oshirish metodi ko'rsatiladi. Dars ishlanmalari matn yoki jadval ko'rinishida tayyorlanishi mumkin.
DARSLIK	o'quv fani bo'yicha tizimlashtirilgan to'liq nazariy ma'lumot jamlangan o'quv nashri bo'lib, tushuntirish, illyustratsiyalar, topshiriqlarni qamrab oladi.
DIDAKTIKA	(lot didaktikos - o'rgatuvchi va didasko - o'rganuvchi) - pedagogikaning tarmog'i. Ta'lim-tarbiya nazariyasi ya'ni maqsadlari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Didaktikaning asosiy masalalari - "Nimani o'rgatish kerak?" va "Qanday o'rgatish kerak?" Ta'lim samaradorligini oshirishda o'qitish metodlari muhim rol o'ynaydi. O'qitish metodlari ma'lum o'qitish vositalari (didaktik vositalar) bilan birgalikda qo'llanadi.
DIDAKTIK VOSITALAR (O'QITISH VOSITALARI)	ta'lim jarayonida axborot tashuvchi va pedagog hamda ta'lim oluvchilarning va instrumenti sifatida belgilangan ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarga erishish uchun qo'llanadigan, inson tomonidan yaratilgan ob'ektlar, shuningdek tabiiy predmetlar. O'qitish vositalariga o'quv va ko'rgazmali qo'llanmalar, namoyish jihozlari texnik vositalar, o'qitish metodlari, shakllari, mazmun, o'qitishning maxsus vositalari majmui kiradi
DIFFERENSIATSIYA	(frans. differentiation, lot. differentia - farq, tafovut) -ajralish, qismlarga bo'linish, yaxlitning turli qismlarga qatlamlanishi, shakllar va bosqichlar. Pedagogikada

	differensial o'qitish - o'qitilayotganlarning ishtiyoqlari, manfaatlari va qobiliyatlarini hisobga oluvchi o'qish faoliyatini tashkil qilish shakli.
IJTIMOY EHTIYOJ	O'zini-o'zi jamiyatda, boshqa insonlar bilan aloqada, jamoat birlashmalarga (qiziqishlar, e'tiqod bo'yicha, kasbiy va h.k.) mansubligi orqali namoyon etishga intilishni ifodalovchi shaxsning ichki holatidir. Bu shaxsning jamiyatda faolligining asosiy manbasi. Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish insonning psixologik garmoniyasiga olib keladi.
INTEGRATSIYA	(lot. integratio - tiklash, to'ldirish, qo'shish, integer - butun, yaxlit) - natijasida ayrim ixtisoslashgan unsurlar o'zaro bog'lanishiga asoslangan tizim ichida birlik va yaxlitlikka erishish bo'lgan rivojlanish jarayoni (masalan ilm-fan integratsiyasi, iqtisodiy intefatsiya).
KARTOTEKA	kartochkalarining ma'lum bir miqdordagi yig'indisi - birlashtirilgan, tizimlashtirilgan va ma'lum tartibda, masalan alfavit, mavzu, sana bo'yicha joylashtirilgan ma'lumotlarni olib yuruvchi.
KATEGORIYA	1) kator ob'ektlar, voqeliklar, jismlar va h.k.larning eng umumiy xossalarini ifoda etuvchi tushuncha; 2) ma'lum bir xossalari umumiy bo'lib birlashgan bir toifali jismlar, voqeliklar yoki shaxslar guruhi.
KOMPONENT	(lot. componens - tashkil etuvchi, tarkibiy qism) - bu nimanidir tarkibiy qismi, elementi.
KRITERIYA	(grek, kriterion - mulohaza uchun vosita) - baholash, aniqlash yoki tasniflashni amalga oshirishda asos bo'luvchi alomat; baholash mezoni, o'lchovi.
KO'NIKMA	ongli faoliyat (harakat)ni tez, tejamli, to'g'ri, kam jismoniy va asabiy kuch sarflagan holda bajarish. shaxsning bilimlari asosida tarkib topadi. Dastlabki shakllanish bosqichlarida bunday harakatlar jiddiy diqqat bilan bajariladi, keyingi bosqichlarda diqqat bilan nazorat qilish kamayib boradi va natijada avtomatlashgan harakatga aylanadi. Harakat turlari bo'yicha uch turga: harakat ko'nikmalari, sensor ko'nikmalar, aqliy ko'nikmalarga bo'linadi. Ko'nikmalar muntazam mashq qilish (takrorlash) orqali zarur darajada saqlanadi. Ma'lum vaqt takrorlamaslik ko'nikma darajasining pasayishiga olib keladi. Uni qayta mashqlar bajarish, malaka oshirish orqali tiklanadi.
LIDER	(ingl. leader - etakchi, boshlovchi) - guruh a'zosi, guruhda etakchi va unga ta'sir etuvchi. Lider roli guruh oldiga qo'yilgan masalani echishga qaratilgan harakatlarni qamrab oladi. Boshqaruvning avtoritar usulida lider guruh a'zolari
LOYIXALASHTIRISH	loyihani yaratish jarayoni - taxmin qilinuvchi yoki bo'lishi mumkin ob'ektning, holatning prototipi, timsoli. An'anaviy turlari (arxitektura- qurilish, mashinasozlik, texnologik va boshqalar) bilan birgalikda mustaqil yo'nalishlar vujudga kela boshlari: tashkilotni loyihalashtirish, ekologik, ijtimoiy, injener-psixologik, genetik, ledagogik va boshqa loyihalashtirish turlari.
MALAKA	shaxsning ma'lum kasbga yaroqlilik, tayyorlik darajasi, shu kasbda ishlay olishi umun zarur bilim, ko'nikmalar yig'indisi. Kasbiy axborotning tez ko'payib borayotgani ilgari o'zlashtirilgan malakaning etishmasligini keltirib chiqaradi. Bu etishmaslikni qayta tayyorlash va malaka oshirish orqali to'ldiriladi. Bu jarayon uzluksiz davom etgandagina malaka ortib borishi orqali kasbiy faoliyatni hozirgi talablar darajasida davom ettirish imkoniyati hosil bo'ladi.
MASALA VA MASHQLAR TO'PLAMI	O'quv fani maqsadlariga muvofiq ravishda, bilim berish, nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish uchun ishlab chiqilgan, o'quvchilarga mo'ljallangan, topshiriqlardan tarkib topgan o'quv nashri (javobli yoki javobsiz).
MAHSULDOR FIKRLASH	asosida abstraksiya, umumlashtirish, aniqlashtirish, tizimlashtirish yotgan tahliliy-sintetik faoliyat. Fikrlashning mazkur turi bilimlarni olish, o'zlashtirish va integratlashgan qobiliyat (vakolat) lar guruhiga aylantirish ratsional yo'llarini o'zlashtirishga qaratilgan.

MENTORING	individual tarzda professional yoki shaxsiy rivojlanish yo'li bo'lib, mentor (ustoz) o'z shogirdiga qator savollar beradi, o'z navbatida, shogird bu savollarga javob berish davomida o'z muammolarining echimini topadi.
MISSIYA	Inglizcha mission (lotincha mission) - vazifa, topshirik ma'nosini anglatadi. Bu erda: ta'lim muassasasining asosiy vazifasi.
MUAMMO (PROBLEMA)	(grekcha problema - masala, topshiriq) - keng ma'noda mavjud va bo'lishi kerak bo'lganning o'rtasidagi ziddlik.
MUAMMOLI VAZIYAT	(fekcha- problema - masala, topshiriq va lot. situatio - vaziyat) - tarkibida ziddiyat mavjud va bir ma'noli echimga ega bo'lmagan vaziyat. Faoliyat jarayonida qandaydir ziddiyatni anglash (masalan, oldin o'zlashtirilgan bilimlar yordamida nazariy yoki amaliy topshiriqni bajara olmaslik) ziddiyatni bartaraf etish uchun zarur bilimlarga ehtiyoj paydo bo'lishiga olib keladi. Muammoni anglash va uning echimini izlash o'ziga o'zi masala qo'yishdan boshlanadi.
MUAMMOLI O'QITISH	o'qituvchi muntazam ravishda muammoli vaziyatlarni yaratib, o'quvchilar faoliyatini o'quv muammolarni echishga tashkil etib, mustaqil izlash faoliyatini fanning tayyor hulosalarini o'zlashtirish bilan optimal birligini ta'minlaydi, Muammoli o'qitish o'quvchilarning bilish mustaqilligini shakllantirish, ularning mantiqiy, ratsional, tanqidiy va ijodiy fikrlashi va bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Muammoli o'qitish fikrlash psixologiyasi, ilmiy tadqiqot mantiqiga tayanib, o'quvchining intellekti, uning emotsional doirasi rivojlanishiga va bu asooda dunyoqarashi shakllanishiga ko'maklashadi. Aynan mana shu bilan muamoviy o'qitish an'anaviy tushuntirish-ko'rsatish o'qitishdan farqlanadi. Muammoli o'qitish nafaqat ilmiy bilish natijalarini o'zlashtirishni balki bilish yo'llari o'zini, ijodiy faoliyat yo'llarini o'zlashtirishni nazarda tutadi.
MULOQOT (KOMMUNIKATSIYA)	lotincha "communicatio" so'zidan olingan bo'lib, muloqot, aloqa ma'nosini beradi.
PEDAGOGIKA	(lotincha paidos—bola) - bolalarni o'qitish va tarbiyalash to'g'risidagi fan.
REJA	(lot. planum - tekislik, yassilik) - oldindan tuzilgan ma'lum dasturni amalga oshirish ketma-ketligi, ishning bajarilishi, tadbirni o'tkazish ketma-ketligi (Katta komusiy lug'at).
SINTEZ	(grekcha synthesis - birlik, birikma) - o'rganilayotgan ob'ektning unsurlari, xususiyatlarini yagona yaxlitlikka (tizimga) birlashtirish. Sintez tahlil bilan uzluksiz bog'liq.
STRUKTURA	(lot. structura - tuzilma - joylashish, tartib) - bu ob'ektning butunligini va o'ziga o'zi aynanligini ta'minlovchi barqaror bog'lanishlar yig'indisi, ya'ni turli tashqi va ichki o'zgarishlarda asosiy xususiyatlarini saqlab qolish.
TADQIQOT	yangi bilimlarni keltirib chiqarish maqsadi bo'lgan bilish faoliyatlaridan biri.
«TESKARI YO'NALISHDA ISHLAB CHIQUISH»	(rus tilidagi adabiyotlarda - «proektirovanie sistem») - bu dars (mashg'ulot)ni, mavzuni, kursni va h.k.larni ishlab chiqish bo'yicha pedagogik texnologiyada qo'llaniladigan jarayon. Ishlab chiqish hususiyatlari: 1) kutilayotgan natijalarni ifodalash; 2) kutilayotgan natijalarni o'lchash imkoniyatini beruvchi savollar, mashqlar va topshiriqlarni ishlab chiqish; 3) kutilayotgan natijalarga erishishni ta'minlovchi mazmuni saralash, usul va vositalarni tanlash.
TIZIMLI FIKRLASH	bu o'rganilayotgan yoki kurilayotgan tizim modelini yaratishga qaratilgan fikrlash. Ushbu fikrlash tili tizimli tahlildan foydalanadi.
TIZIMLI TAHLIL	murakkab muammolar (siyosiy, harbiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy va texnik xarakter) bo'yicha qarorlarni tayyorlash va asoslab berishda ishlatiladigan usullar va vositasilar yig'indisi. Tizimli yondashuvga asoslanadi. Asosiy ishi - real xolatlar orasidagi bog'liklikni aks ettiruvchi umumlashtirilgan modelni yaratish. «Tizimli taxlil» tushunchasi ayrim hollarda tizimli yondashuv sinonimi sifatida ishlatiladi

TIZIMLI YONDASHUV	ob'ektlarni tizim sifatida ko'rib chiqish usuli. Ob'ektning butunligini va undagi turli xil botanishlarni ochib beradi. Tizimli yondashuv tizimning ishlash maqsadini va boshqa tizimlar bilan bog'lanishlarini belgilab beradi.
FUNKSIYA	(lot. functio - ijro etish, bajarish) - faoliyat, majburiyat, ish; muayyan munosabatlar tizimda ob'ektning ma'lum bir xususiyatlarining tashqi namoyonligi (masalan, hissiyot organlari funksiyasi, pullar funksiyasi).
EKVIVALENT	(lot. aequivalens - teng qimmatli, teng qiymatli) - bu jism va miqdorlarning boshqa jism va miqdorlarga teng qiymatga yoki teng qimmatga egaligi bo'lib, ularning ifodasi yoki almashtirilishi uchun hizmat qiladi. Masalan, so'm kursining dollarga nisbati.
EKSPERT	(lot. expertus - tajribapi) - echimi ma'lum soha (matematika, filologiya, san'at va b.) bo'yicha maxsus bilimlarni talab etadigan masalalarni tadqiq etuvchi mutaxassis.
ESSE	(frans. essai - tajriba, xomaki, taph) - sistemali, jiddiy ilmiy shaklda bo'lmagan adabiy, fapsafiy, ijtimoiy va boshqa muammolarga bag'ishlangan ocherk. Esse erkin og'zaki bayon etishga mo'ljallangan va muallifning shaxsiy nuqtai nazarini erkin shaklda aks etadi. Janr asoschisi - Mishel Monten.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING ASARLARI

1. Мирзиёев Ш.М. Конституция ва қонун устуворлиги-ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг энг муҳим мезонидир. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 27 йиллигига бағишланган тантанали маросимидаги маърузаси. “Ўзбекистон овози”, 2019 йил, 10 декабрь.

2. Мирзиёев Ш.М. “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимидаги киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг кўшма мажлисидаги нутқи. – Т.: “Ўзбекистон”, 2016. – 56 б.

3. Мирзиёев Ш.М. “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 48 б.

4. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. –Т.: “Ўзбекистон”. – 2017.– 102б.

5. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.

6. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисига Мурожаатномаси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 80 б.

7. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: “Маънавият”, 2008.–176 б.

8. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Т.: “Ўзбекистон”, 2011.–440 б.

9. Каримов И.А. Она юртимиз бахти иқболи ва буюк келажакимиз йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. –Т.: “Ўзбекистон”, 2015. – 302 б.

II. NORMATIV HUQUQIY HUJJATLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сон Фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 сентябрдаги “Халқ таълимини бошқариш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 5538-сон Фармони.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 сентябрдаги “Халқ таълими тизимига бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3931-сон Қарори.

5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 мартдаги “Умумий ўрта таълим тўғрисида низомни тасдиқлаш тўғрисида”ги 140-сон Қарори.

6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 187-сон Қарори.

III. MAXSUS ADABIYOTLAR

1. “Дифференциал психология фанидан маъруза матни” ТДПУ. Т: 2010й

2. “Ўсмир психологияси: юз билмаган жиҳатлар” Ш.Мустафоева. Фарғона нашриёти. Т:2015.

3. Ergashev SH., Xodjaev B., Abdullaev J. Jahon tarixi (1918-1991 yillar). 10-sinf. Darslik – Т.: «TURON-IQBOL», 2017.

4. G'ulomov S.S., Begalov B.A. Informatika va axborot texnologiyalari.– Т.:, Fan, 2010.–686с.

5. Rajabov Q., Zamonov A. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 10-sinf. Darslik – Т.:G.Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.

6. Raximov O.D., Turg'unov O.M., Mustafayev Q.O., Ro'ziyev H.J. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari - Т.: Fan va texnologiya, 2013.

7. Sagdullaev A.S., Kostetskiy V.A. Tarix. Qadimgi dunyo. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 6-sinfi uchun darslik. – Т.: “Yangiyo‘l Poligraf Servis”, 2017.

8. Salimov T.O‘., Sultonov F.E. Jahon tarixi (milodiy V asr oxiridan – XV asr oxirigacha). Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 7-sinflari uchun darslik.–Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2017.

9. Авлиякулов Н.Х., Мусаева Н.Н. Педагогик технологиялар. – Т.: “Fan va texnologiyalar” нашриёти, 2008

10. Ганиева М.А., Файзуллаева Д.М. Ўқитишнинг лойиҳавий технологияси тўплами. Методик қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2013. – 83 б.

11. Ғозиев Э. Онтогенез психологияси Назарий- экспериментал таҳлил Т.: Ношир 2010. – 356 б.

12. Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М., Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш. Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт, 2011. - 206 б.

13. Джалалова Д.Х. Основные тенденции развития современной японской школы. Автореферат дис.к.п.н. 2004

14. Дўстмухамедова Ш.А., Нишонова З.Т. ва бошқалар Ёш даврлари ва педагогик психология Т.: Фан ва технологиялар 2013 – 343 б.

15. Жўраев У. ва бошқалар. Жаҳон тарихи (XVI – XIX асрлар). Умумий ўрта таълим мактаблари 8-синфлари учун дарслик. –Т.: “Чўлпон”, 2014.

16. Жўраев У., Усмонов К., Нуркулов А., Жўраева Г. Тарихдан хикоялар. Умумий ўрта таълим мактаблари 5-синфлари учун дарслик.–Т.: “Чўлпон”, 2015.

17. Зиёмухаммадов Б. Педагогик маҳорат асослари. Т.:ТІВ-КІТОВ, 2009

18. Зиямухамедова С, Зиямухамедов Б. Новая педагогическая технология. - Т.: Абу Али ибн Сино, 2002.

19. Иноятлов У.И., Муслимов Н.А., ва бошқ. Педагогика (нопедгогик олий таълим муассасалари учун). – ТДПУ, 2013.15,25 б.т.
20. Иноятлов У.И., Муслимов Н.А., ва бошқ. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб. - Тошкент, “Илм-Зиё” нашриёти, 2012.12 б.т.
21. Йўлдошев Ж. Таълим янгилиниш йўлида. - Т.: Ўқитувчи, 2000.
22. Йўлдошев Ж., Усмонов С. Педагогик технология асослари. - Т.: Ўқитувчи, 2004.
23. Йўлдошев Ж., Ҳасанов С. Педагогик технологиялар. – Т.: “Молия-иктисод” нашриёти, 2009
24. Ишмухамедов Р. Ўқув жараёнида интерфаол услублар ва педагогик технологияларни қўллаш услубияти. – Т.: РБИММ, 2008. – 68 б.
25. Ишмухамедов Р. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2009.
26. Ишмухамедов Р.Ж, Абдуқодиров А., Пардаев А. Тарбияда инновацион технологиялар (таълим муассасалари ўқитувчилари, тарбиячилари, гуруҳ раҳбарлари учун амалий тавсиялар). – Т.: Истеъдод, 2010.
27. Ишмухамедов Р.Ж., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар.– Т.: “Ниҳол” нашриёти, 2013, 2016.–279б.
28. Лафасов М. ва бошқалар. Жаҳон тарихи (1871 – 1918 йиллар). Умумий ўрта таълим мактаблари 9-синфлари учун дарслик. –Т.: “Чўлпон”, 2014.
29. Муслимов Н., ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. - Тошкент, «Фан ва технологиялар», 2013. 8 б.т.
30. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари – Тошкент, 2015
31. Муталипова М., Имомов М. Таълимда илғор хорижий тажрибалар модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. Т.:ТДПУ, 2017
32. Нишонова З.Т., Алимова Г.К. Болалар психологияси ва психодиагностикаси Т.: ТДПУ 2017 – 264 б.
33. Норенков И.П., Зимин А.М. Информационные технологии в образовании: Учебное пособие – М.: Изд. МГТУ им. Н.Баумана, 2002. - 336с.
34. Педагогика назарияси ва тарихи // М.Х. Тўхтаўжаева таҳрири остида. – Т.: “Молия-иктисод”, 2008. – 208 б.
35. Подласый И. Педагогика. Новый курс: учебник для студ. педаг. вузов. - в 2-х кн. – М.: ВЛАДОС, 1999. – 567 с.
36. Рахматуллаева А.Р., Исматуллаев Ф.О., Бердиев С.Р., Нарзиев Н.Н. Тарих фанини ўқитишда замонавий ёндашувлар ва инновациялар.// Ўқув-услубий мажмуа. – Т., 2017. – 83 б.
37. Рахматуллаева А.Р., Исматуллаев Ф.О., Бердиев С.Р., Нарзиев Н.Н. Тарих фанини ўқитиш методикаси.// Ўқув-услубий мажмуа. – Т., 2017. – 151б.
38. Рўзиева Д., Усмонбоева М., Ҳоликова З. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши / Мет.қўлл. – Т.: Низомий номи ДТПУ, 2013
39. Сағдиев А., Фузайлова Г., Ҳасанова М. Тарих ўқитиш методикаси. - Т.: ТДПУ, 2008.
40. Сайидахмедов Н. Педагогик маҳорат ва педагогик технология. – Т.: ОПИ, 2003
41. Сайидахмедов Н.С. Янги педагогик технологиялар. – Т.: Молия, 2003. – 172 б.
42. Сергеев И.С. Основы педагогической деятельности: Учебное пособие. – СПб.: Питер. Серия “Учебное пособие”, 2004. –316 с.
43. Султонова Г.А. Педагогик маҳорат. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2005
44. Тиллаев С. ва бошқалар Ўзбекистон тарихи. Умумий ўрта таълим мактаблари 9-синфлари учун дарслик. –Т.: “Ўқитувчи”, 2014 й.

45. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари – Т., 2006. – 163 б.
46. Тошпўлатов Т., Гафуров Я. Тарих ўқитиш методикаси. – Т., 2010
47. Уразова М.Б., Эшпўлатов Ш.Н. Бўлажак ўқитувчининг лойиҳалаш фаолияти. // Методик қўлланма. – Т.: ТДПУ Ризографи, 2014. 6,5 б.т.
48. Урастаева Г.Д. Сравнительная педагогика. -Алматы, 2006
49. Усманов А.И. Замонавий ахборот технологиялари.- Т.: Академия, 2007. -154 б.

FOYDALANISH TAVSIYA ETILADIGAN ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI

1. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi portali
2. <http://www.uzedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi veb sayti
3. <http://www.eduportal.uz> - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi axborot ta'lim portali
4. <http://www.multimedia.uz> - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi sayti
5. <http://www.bimm.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazi sayti
6. <http://www.pedagog.uz> - Toshkent davlat pedagogika universiteti veb sayti
7. <http://www.giu.uz> - Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi sayti
8. <http://www.ziyonet.uz>. – axborot ta'lim portali
9. <http://www.natlib.uz> – A.Navoiy nomidagi milliy kutubxona veb sayti.
10. <http://www.istedod.uz> – «Iste'dod» jamg'armasi sayti.
11. <http://www.e-tarix>. – Vatan tarix sayti
12. <http://www.arxiv.uz> – Ijtimoiy fanlarga tegishli sayti
13. <http://www.tarix.uz> – Tarix faniga oid maqolalar, yangiliklar, kitoblar, tarixiy shaxslar to'g'risida sayti

